

R.N.MELIBAEVA, U.A.TASHKENBAEVA, .K.NARMETOVA,

UMUMIY PSIXOLOGIYA



Toshkent - 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI HUZURIDAGI
PEDAGOGIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**R.N.MELIBAEVA, U.A.TASHKENBAEVA,
Y.K.NARMETOVA, E.SH.SUYUNOVA**

UMUMIY PSIXOLOGIYA

**Nopedagogik tibbiy oliy ta‘lim muassasalarini bitirgan
mutaxassislar uchun**

Toshkent 2023

R.N.MELIBAEVA, U.A.TASHKENBAEVA, .K.NARMETOVA,
E.SH.SUYUNOVA// “UMUMIY PSIXOLOGIYA” darslik // «TIBBIYOT
NASHRIYOTI MATBAA UYI» MЧЖ Toshkent – 2023, 380 b.

Taqrizchilar:

K.B.Qodirov – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolatini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institute “Boshqaruv ko‘nikmalari va yetakchilik ma-horatini rivojlantirish” kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori

S.D.Norqulov – Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori

Mazkur darslik Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida tashkil etilgan kurslar uchun Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil “30” iyundagi 13-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida “Umumiy psixologiya” fani bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, psixologiya faniga kirish, tibbiyotda psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati, psixologiyaning zamonaviy tadqiqot metodlari, psixika va ongning shakllanishi, ehtiyoj, motiv, faoliyat, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlari, bilish jarayonlari, muloqot, guruhlar psixologiyasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Ushbu darslikda mavzular mohiyatini ochib berish jarayonida antik dunyoning buyuk allomalari asarlaridagi psixologik g‘oyalaridan, Sharqning buyuk allomalari ta‘limotlaridan, Yevropa Uyg‘onish davridan to ilmiy psixologiya (eksperimental psixologiya) ning vujudga kelguniga qadar bo‘lgan ilmiy maktablardagi psixologik manbaalardan, XIX asming oxiri XX asming boshlarida vujudga kelgan ilmiy-psixologik maktablarda (Rossiya, AQSh, Yevropa mamlakatlari) shakllangan fanga doir ma‘lumotlardan, G‘arb psixologlaridan D. Mayersning “Psixologiya” nomli kitobida berilgan ma‘lumotlardan, hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlaridan samarali foydalanilgan.

Darslik nopedagogik tibbiy oliy ta‘lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-9085-5-0

© R.N.MELIBAEVA, U.A.TASHKENBAEVA, .K.NARMETOVA,
E.SH.SUYUNOVA

© «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MЧЖ. 2023


MUQADDIMA

Jahonda har bir mamlakat ta'lim tizimida zeharli, iqtidorli, qobiliyatli va ijodkor insonlarni o'qitish hamda ularni jamiyat taraqqiyotiga tayyorlash ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyatga ega. YNESKOning ma'lumotlariga ko'ra, "turmush uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi, barqaror rivojlanishga erishish maqsadini ta'minlovchi maskan oliy ta'lim muassasasi bo'lib qolmoqda va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim olishga ehtiyoj bugungi kunda jadal o'sib bormoqda. Bu holat statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanmagan mamlakatlarning 8 % yoshlari universitetlarda tahsil olayotgan bo'lsalar, eng rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 74 %ni tashkil qilayotganligi qayd etilgan"¹. Oliy ma'lumotga ega bo'lish jahon miqyosida muhim ehtiyoj sifatida qaralmoqda, uni qondirishda ta'lim jarayoni mazmunini boyitish, pedagog faoliyatini hamda talabalar aqliy qobiliyati, tafakkurini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham yoshlarni oliy ta'lim olishga tortish masalasiga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, tibbiy ta'lim jarayonida ham bu borada bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-son qarori, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida O'zbekistonda tibbiy ta'lim tizimini samaradorligini oshirish masalasi ko'ndalang qo'yilgan.

Bu borada mamlakatimizda milliy tibbiyot va farmasevtika ta'limini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim olayotgan yoshlarga ma'naviy, ahloqiy

¹ <https://thinktanks.by/publication/2017/04/21/yunesko-kolichestvo-studentov-v-mire-s-2000-po-2014-god-udvoilos.htm>.



tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tibbiy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim, ilm-fan va amaliyotni integratsiya qilishning uzluksizligini ta'minlash asosida samaradorlikni oshirish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish tibbiy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning pedagogik bilim-ko'nikma va mahoratini yanada oshirishni talab etadi. Bundan tashqari bugungi kunda qabul kvotalarini oshirilishi va liberallashtirilishi tufayli talabalar kontingenti keskin kengayib bormoqda. Oliy ta'lim tizimidagi bunday islohatlar sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis-pedagoglarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Demak, tibbiy ta'lim tizimini samaradorligini oshirish pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning pedagogik malakalarini oshirish masalasiga alohida e'tibor qilish lozim.

Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimida pedagogik qayta tayyorlovdan o'tgan professor-o'qituvchilar va tibbiy ta'lim muassasini magistratura bosqichini tugatgan mutaxassislar ilmiy-pedagogik faoliyat yuritmoqdalar. Aytish joizki, magistratura bosqichida mutaxassislar o'quv jarayonida faqat bitta pedagogik fan, u ham bo'lsa "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" kursini o'rganadilar va bu asosida ularga pedagogik faoliyat olib borish huquqi beriladi. Bunday yuzaki pedagogik tayyorgarlik asosidagi pedagogik faoliyatdan yuqori natijani kutish mantiqan noto'g'ri deb hisoblaymiz.

Klinik ordinaturani tugatgan mutaxassislar esa umuman pedagogik faoliyat yuritish huquqiga ega emas, chunki ular pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni egallamaganlar. Tibbiy ta'lim tizimini bugungi kundagi pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojini va ta'lim sifatini oshirishga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda yuqorida qayd etilgan tibbiy xodimlar zahirasiidan unumli foydalanish muammosini hal etish lozim. Ushbu muammoni tibbiy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatga tayyorlovchi maxsus kurslarni tashkil etish asosida hal etish mumkin deb o'ylaymiz. Bunday kurslarni ochilishi ordinaturada tibbiy malakalarini oshirgan yosh mutaxassislardan ham tibbiy ta'lim tizimida samarali foydalanishga, o'quv jarayoniga yosh

mutaxassislarni kirib kelishiga yo‘l ochadi hamda magistraturani tugatib pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarni pedagogik bilimlarini chuqurlashtirishga, ko‘nikma va malakalarini yanada shakllantirishga, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat yuritish imkonini beruvchi bunday tezkor kurslar asosan amaliy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Kurs davomida tinglovchilar o‘z sohasi bo‘yicha egalagan bilimlarni strukturalashtirishni, o‘rganish lozim bo‘lgan axborotni talabalarga yetkazish usullarini, talabalarni mustaqil faoliyatini tashkil etishga oid texnologiyalarni, shaxsga turli yosh davrlarida turlicha munosabatda bo‘lish, ta‘limiy va klinik topshiriqlarni berishda yosh xususiyatlari bilan bog‘liq psixologik qonuniyatlarni inobatga olish ko‘nikmasini egallaydilar, kredit-modul tizimi bo‘yicha pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlanadilar.

Mana shunday tibbiy ta‘limda pedagogik faoliyat yuritish imkonini berish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida tashkil etilgan kurslar uchun Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil “30” iyundagi 13-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida “Umumiy psixologiya” fani bo‘yicha ushbu darslik tayyorlandi. Darslik tuzilishi jihatidan muqaddima, oltita bo‘lim, to‘qqizta bob, har bir bobda mavzu mohiyatidan kelib chiqib, ularni mazmunini ochib berishga qaratilgan bir necha paragraflar, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ushbu darslikda mavzular mohiyatini ochib berish jarayonida antik dunyoning buyuk allomalari asarlaridagi psixologik-pedagogik g‘oyalaridan, Sharqning buyuk allomalari ta‘limotlaridan, Yevropa Uyg‘onish davridan to‘ ilmiy psixologiya (eksperimental psixologiya) ning vujudga kelguniga qadar bo‘lgan ilmiy maktablardagi psixologik manbaalardan, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan ilmiy-psixologik maktablarda (Rossiya, AQSh, Yevropa mamlakatlari) shakllangan fanga doir ma‘lumotlardan, G‘arb psixologlaridan D. Mayersning “Psixologiya” nomli kitobida berilgan ma‘lumotlardan, hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlaridan samarali foydalanilgan.

Bundan tashqari bugungi kunda psixologiya sohasida mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar jarayonida qo‘lga kiritilayotgan eng so‘nggi yangiliklardan, xususan, “Psixologiya faniga kirish. Tibbiyotda psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati”, “Bilish jarayonlari” hamda “Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari” boblaridagi mavzularni ochib berishda R.N.Melibaevaning ilmiy tadqiqotlari natijalaridan, “Shaxsnini hissiy-emotsional holatlari” bobini yoritishda T.R.Bekmirovning ilmiy izlanishlari natijalaridan, hamda ushbu darslikkacha umumiy psixologiya fani bo‘yicha yurtimizda ijod va faoliyat ko‘rsatgan olimlar tomonidan nashr ettirilgan o‘quv adabiyotlardagi ma’lumotlardan keng ko‘lamda foydalanilgan.

BIRINCHI BO'LIM

PSIXILOGIYAGA KIRISH

I BOB. PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH. TIBBIYOTDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

1.1. Psixologiya fanlarining tibbiyotda tutgan o'rni

Inson salomatligining ta'minlashda tibbiyot va psixologiya fanlarini integratsiyasi masalasi ancha keng tus olmoqda. Bugungi kunda tibbiyot sohalari singari psixologiyaning qator sohalari, xususan, tibbiyot psixologiyasi, klinik psixologiya, psixoterapiya, neyropsixologiya bemorlarning tashxislash, davolash va ularning parvarishlashda o'ziga xos o'rin tutmoqda. Ushbu fanlarni o'zlashtirish uchun esa ushbu fanlarning asosi bo'lgan umumiy psixologiya fanini va uning qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirish kerak bo'ladi. Fan taraqqiyotining yangi bosqichlari salomatlikning ta'minlashga xizmat qilishda bemorni tashxislash, kasallik sabalari va ularning oldini olishga xizmat qiluvchi davo-choralarini belgilashda tibbiy psixodiagnostikaning o'rni yuqori ekanligini tajribalarda o'z tasdiqini topmoqda. Shu sababli ham tibbiyot psixodiagnostikaning mazmun va mohiyati haqidagi mulohazalar bunga aniq izoh berish imkonini beradi. Tibbiy psixodiagnostika psixologik diagnostikaning ixtisoslashgan bo'limi bo'lib, psixologiya fani va amaliyotining ajralmas qismidir.

Psixologiya o'zining rivojlanish tarixida qator fanlar bilan uzviy aloqadorlikda kechganligi aniq ilmiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Bu holat psixologiya bilan tibbiyot sohalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chetlab o'tmagan. Jahon psixologiyasining qator vakillari ham psixologiyada yuksak ilmiy g'oyalarni ilgari surishlarida tabiiy va tibbiyot sohalarida izlanishlari bilan inson ruhiyatining o'ziga xos qonuniyatlarini o'zaro singdirishga harakatlari ko'plab kuzatiladi. Jumladan, F.Galton, Z.Freyd, K.G.Yung, A.Adler, K.Xorni, E.Krechmer, R.Assadjoli, R.Mey, V. Frankl va boshqalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin.

Agar jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratilsa, ularda klinik psixologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni faol amalga oshirilayotganligining guvohi bo'lamiz (Moskva

davlat universiteti, Sanktpeterburg davlat universiteti, Janubiy Ural davlat universiteti, Southern Illinois University Edwardsville (AQSh), The University of Western Australia (UWA) (Avstraliya), University of Auckland (Yangi Zelandiya), Manchester Metropolitan University (Buyuk Britaniya) va boshqa). Jahon psixologiyasida inson psixologiyasi bilan organizm o'rtasidagi bog'liqlik kasalliklarni oldini olish va davolashning muhim sharti ekanligi g'oyasiga tayangan holda amalga oshirish masalasi maydonga chiqmoqda. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda psixologiya va tibbiyotning munosabatini psixodiagnostika o'lchashi ishlari bilan bog'lash maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Bu esa fanda tibbiy psixodiagnostika muammolari hisoblanadi.

Psixologiya fanida olib borilgan izlanishlarda psixikani biologik, ijtimoiy va psixologik ko'rinishlari birligida yaxlit o'rganish g'oyalari, xususan, Sankt-Peterburg eksperimental va patologik psixologiya maktabining rivojlanish davrida uzoq vaqtlardan buyon izlanishlar amalga oshirilmoqda (Bekxterev V.M., 1907, 1923; Bemshteyn A.N. 1911; Lazurskiy A.F., 1908, 1923; Frank S.L., 1912; Basov M.Ya., 1920). Mazkur g'oyaning metodologik mohiyatini faqat psixologiyada tizimli yondashuv rivojlanishi bilan to'liq anglash mumkinligi ta'kidlanadi. Shu sababli, hozirgi paytda psixologiya muammolarini tizimli ko'rib chiqishning aniq uslubiy va ilmiy asoslangan metodologiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu umuman psixologiya faniga ham, uning alohida sohalariga ham tegishli. Xususan, tibbiy psixologiyaning tobora murakkablashib borayotgan tabiati bilan bog'liq holda, psixologik diagnostika kabi tibbiy psixologlarning kasbiy faoliyatining bunday sohasini yo'lga qo'yishda fanning ilg'or g'oyalari va usullaridan foydalanish dolzarb bo'lib qoladi.

Yana shunga alohida e'tibor qaratish joizki, bugungi kunda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o'xshash murakkab texnologiyalarni yaratgani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday xolatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o'ta aqlli inson o'zi va o'zi atrofida gilarning ruhiy kechinmalarini to'g'ri baholay olmasligi sababli, o'zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi. XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar

boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish vassivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'zichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o'z davrida «O'z- o'zingni bil!» degan shiorni o'rtacha tashlagan bo'lsa, yangi davr «o'z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An'anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

1.2. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi ko'plab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Fransiyalik olim J. Godfruaning "Chto takoe psixologiya" nomli 2-jildidan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo'lgan ekanligi,

psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning Fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Demak, psixologiya 1879-yilda Leypsig Universitetida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o'tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

Psixologiyaning paydo bo'lishi va Fan sifatida e'tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqqa ko'ra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo'nalishlar va ularning asoschilari bayon etilgan. (Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s. 57-80-b.)

Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat "Psixologiya" kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo'llanilganligini, ong va o'zini kuzatish tufayli inson o'zidagi psixik xolatlarni o'rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o'rganish zarurati etilganligini izohlab bergan. (Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik dlya stud. Vuzov., Kn. 1.: 688 s. 8-12 b.)

O'zbek psixolog olimlari E.G'oziyev, M.Xolmuxamedov, X.Ibrohimovlarning "Psixologiya metodologiyasi" o'quv qo'llanmasida psixologiya fanining falsafa va tabiatshunoslik fanlari negizida paydo bo'lganligi etarlicha dalillar vositasida ko'rsatib berilgan. E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida psixologiya fanining predmeti, bu fanning vujudga kelishi, asosiy sohalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, psixologiyaning metodologiyasi va prinsiplari, faoliyat, uning tuzilishi, shaxs va uning tuzilmasi, shaxs psixikasining namoyon bo'lish shakllari, shaxsning psixologik xususiyatlaridan qobiliyat, temperament, xarakter kabilar keng va batafsil yoritib berilgan. O'zbek psixologiyasida shaxsning rivojlanishida faoliyat, faoliyat tuzilmasi, kasbiy faoliyat xususiyatlari M.G.Davletshin tomonidan o'rganilgan. Shaxsning ijtimoiy ta'sirlar mahsuli ekanligi, shaxs va jamiyat munosabatlarining o'ziga xos tomonlari, jamiyatning bir bo'lagi sifatida oila institutining

psixologiyasi masalalari G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov ishlarida o'rganilgandir. Oila maskanining milliy, xududiy, an'anaviy xususiyatlarini o'zbek, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq, rus oilalari misolida maxsus tadqiq etish, uning motivlari, shaxslararo munosabatlari, nikoh qurish omillari jihatidan o'rganish ishlarini psixologlardan M.Utepbergenov, R.Dushanov, E.Morshinina, Sh.Jo'rayevalarning ilmiy ishlaridan ko'rinadi. Psixologiya fanida tafakkur xususiyatlarini maxsus o'rganish va tadqiq etish ishlari R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova ilmiy ishlarida kuzatiladi. Shu o'quv qo'llanmaning mualliflaridan biri V.M.Karimova o'zining bir qator kitoblarida psixologiyaning ijtimoiy psixologiyaga aloqador muammolarini, chunonchi rahbarlik, liderlik, muloqot, samarali ta'sir mexanizmlari, guruh va shaxs psixologiyasi muammolarini; umumiy psixologiyaga aloqador tafakkur, uni rivojlantirish usullarini, shaxsda mustaqil tafakkurni namoyon bo'lishi va uni samaradorligiga oid masalalarni ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu muallifning ilmiy yo'nalishlari oila, yoshlarning oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari muammolariga qaratilgandir.

«Psixologiya» so'zi ikkita grek so'zlaridan - «*psyche*» - jon, ruh va «*logos*»- ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta'rif berishadi. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma - xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan ob'ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan xolda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha

sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixikaga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yokadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti - harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsakda; unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va holatlarning o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ular boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir - birlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarga bo'ysunadi.

Demak, *psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir*, deb ta'riflash mumkin.

Psixikaning turli shakllarda ko'rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, xususiyatlar mavjud bo'lib, psixik aks ettirish bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya'ni shaxs individualligi orqali namoyon bo'ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrofdagi voqelikni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini beradi.

Psixologiya fanining predmeti masalasida psixika va uning namoyon bo'lish shakllari zamonaviy psixologiyaning umumiy psixologiya sohasiga aloqador bo'lib, ko'plab olimlar o'z ilmiy adabiyotlarida bu jihatni muhim sifatida qaraydilar.

1.3. Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari

Psixologiya fanining rivojlanishi qator bosqichlarni o'z ichiga qamrab olib, bu davrlarda samarali tadqiqot ishlari olib borilgan. Aynan tadqiqot ishlarini samarali bo'lishi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish uchun zarurat sezila boshladi. Bu boradagi ishlar Amerika va boshqa chet el psixologiyasi yo'nalishlari namoyondalari tomonidan ilgari surildi. XX asr boshlarida bixeviorizm, freydizm yo'nalishlari vujudga kelgan edi. Bixeviorizm yo'nalishi hayvonlarda o'tkazilgan kuzatishlar natijasiga asoslangan bo'lib, uning namoyondalari E.Torndayk va Dj.Uotsonlar hisoblanadi. «Bixeviorizm» ingliz tilida "hulq-atvor" degan ma'noni bildiradi. Bu oqim psixika va ongni inkor qilib, hulq bilan tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni, qonuniyatlarni tekshirishni taklif qiladi. Ularning fikricha, psixologiyaning vazifasi stimulg (qo'zg'atuvchi), ya'ni sezgi a'zolariga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchiga o'q otish, unga qanday javob reaksiyasi bo'lishini, yoki bunday reaksiyani qanday stimuly tug'dirishini oldindan aytib bera olishdan iborat. Bixevioristlarning formulasi «S -> R» dir.

Freydizm yo'nalishiga venalik psixiatr Z.Freyd asos solgan. Uning fikricha, odam mohiyatiga ko'ra hayvonga o'xshaydi. Odamning xulq-atvori va xarakatlari ikkita tamoyilga: rohatlanish va reallik tamoyiliga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu oqim ham insonning ongiga ishonmaydi Z. Freyd o'zining psixologik nazariyasini odam haqidagi, jamiyat va madaniyat haqidagi umumiy ta'limotga aylantirib, g'arb mamlakatlarida katta e'tibor qozondi.

1923-yilda psixologlarning birinchi yig'ilishida K.N.Kornilov psixologiyani qayta qurish vazifasini ilgari surdi. Psixologiya fanini rivojlantirishda judayam katta rol o'ynagan psixologlar quyidagilar: B.Ananov, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, LS.Vigotskiy, R.S.Nemov va boshqalar, shuningdek keyinchalik o'zbekistonda ham yirik olimlar etishib chiqdi. Ular jumlasiga M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, M.Vohidov, V.A.Tokareva. R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, G'.B.SHoumarov, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalarni kiritish mumkin. YUqorida nomlari tilga olingan olimlar o'zlarining g'oyalari va milliy mafkuralar bilan yoshlarda tafakkur sifatlaridan «mustaqillik», «tanqidiylik» kabilarni shakllantirishga e'tibor bermoqdalar.

Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab-ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlar ma'naviyatini boyitish uchun ularning dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi, umuman olganda ongini o'stirish zarur. Buning uchun eksperimental ishlarni kuchaytirishi, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida qayta qurishi lozim. Hozirda Respublikamiz universitetlarining psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalari ilmiy fikrlar markaziga aylantirildi.

Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o'tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, fan sohasida tadqiqotlar shu darajada ko'paydiki, ular ma'lum qonun qoidaga tayanishi lozim. Shu bois olib borilayotgan izlanishlarga asos bo'lishi uchun tamoyillar ishlab chiqildi.

Shunga ko'ra psixologiyaning tamoyillari quyidagicha:

1. Determinizm tamoyili;
2. Ong va faoliyat birligi tamoyili;
3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili.

Tamoyil – ma'lum faoliyatni bajarishda tayaniladigan dastlabki qoidalar tizimidir.

- **DETERMINIZM.** Psixika hayot sharoiti bilan bog'liqligini anglatib, tashqi sharoitlar o'zgarishi bilan o'zgaradi.

- **ONG VA FAOLIYAT BIRLIGI.** Ong va faoliyat bir butunlikni tashkil etmaydi. Ong inson faoliyatini ichki rejasini tuzib beradi.

PSIXIKA – ONGNI FAOLIYATDA RIVOJLANISHI.

Psixikani to'g'ri tushunish mumkin bo'lsa psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish, hamda tushuntirib berish mumkin

Determinizm tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va

faoliyatlarini o'rganish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan ong bilan faoliyat birligi prinsipi, birinchidan xulq-atvor, faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishga kafolat beradi, ikkinchidan, harakat, sa'yi-harakatlarda muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizmni aniqlashga imkon beradi. Ularning birligi psixikaning ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga muhim imkoniyat, puxta shart-sharoit yaratadi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlar ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vygotskiy ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini, P.P.Blonskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn «Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi» degan edi.

1.4. Psixologiya fanining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari

Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatlari (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-ko'rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruhni esa uchar mahluq sifatida tasavvur etardilar.

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar «animizm» deb ataladi. Animizm so'zi – anima «jon» degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra

olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi Demokrit tomonidan ta'kidlangan.

Platonning «ideyalar tug'ma bo'ladi» degan g'oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Platon ta'limotiga ko'ra «ideyalar» mohiyati abadiy va o'zgarmas, ularning tabiiy olamdan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi.

Platon psixologiyada «dualizm» oqimining asoschisi hisoblanadi. Dualizm so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. Dualizm ta'limoti mohiyati moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi.

Platonning dualizm shogirdi Arastu (Aristotel eramizdan oldingi IV asr 384-322 yillar) tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Aristotelning «Jon haqida» asari o'sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ana shu tufayli psixologiya jon haqidagi fan sifatida maydonga kelgan va hozirgi kunda psixologiya fani o'z mazmunini batamom o'zgartirgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi. Unga ko'ra, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatimiz davomida oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi qobiliyatlar o'simlik uchun, ikkinchisi va uchinchisi hayvonlarga, to'rtinchisi esa insonlar uchun xosdir. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrok odam ruhi ta'limoti bilan Arastu oliy qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi.

Psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelish bosqichlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

4 bosqich	Psixologiya, psixikaning mexanizmlari, qonuniyatlari va faktlarini o'rganuvchi fan sifatida	Dunyoga materialistik nuqtai-nazardan qarash shakllangan. Rossiya psixologiyasi-ning asosida aks ettirish nazariyasi asosiy qonuniyat sifatida ko'rsatiladi.
3 bosqich	Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan	XIX asrdan boshlanadi. Psixologiyaning vazifasi ko'rgan narsalarni bevosita kuzatish, aniqrog' i inson xulq-atvorini faoliyatini reaksiyasini kuzatish deb hisoblangan. Bunda motuylarning o'rni hisobga olinmagan.
2 bosqich	Psixologiya ong haqidagi fan sifatida	XVII asrda tabiiy fanlar rivojlanishi bilan boshlanadi. Fikrlash, xoxlash, xis qilish, qobiliyatini ong deb atashgan. O'z-o'zini kuzatish asosiy metod hisoblangan
1 bosqich	Psixologiya jon haqidagi fan	Bu yo'nalish psixologiyada bundan 2500 yil oldin paydo bo'lgan. Inson hayotidagi barcha narsalar tushunchalarni, tushunarsiz hodisalarni jon, ruh bilan tushuntirishga harakat qilganlar.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.

Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyot haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biridir.

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko'rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan datajaga nisbatan qo'llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning

natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **refleks** (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini ob'ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidladi. Uning negizida – epifenomalizm (yunoncha eri - o'ta, rhainominon – g'ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayon-larning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya'ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U determinizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya'ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarning ob'ektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716) ning ta'limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta'sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo'ladi. Leybnits tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiyalar diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnits psixologiyaga psixikaning faolligi tabiati va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirdi.

XVII asrda emperizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning «sof» aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta'limotning, ya'ni aqlda hech qanday tug'ma g'oyalar va tamoyillar bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limotning oldingi marraga ko'tarilishiga olib keldi. Bu ta'limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta'limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llari puxta o'rganilishini taqazo etadi. J. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo'lib, biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o'zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi – «toza taxta» bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo'ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. J.Lokkning refleksiya ta'limoti kishi psixologik faktlarni interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta'limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilar edi.


J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to'g'risidagi ta'limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta'limotlarning taraqqiyotiga turtki bo'ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo'lgan fransuz, A.N.Radishchev (1749-1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi CHarlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha

paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1892-1905) reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Xorij psixologlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslangan holda rus psixologlari tomonidan psixologiya fanining rivojlanishi borasida qator ishlar olib borilgan. Jumladan, quyida Rossiyada psixologiya fanini rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar keltirilgan.



Aytish kerakki, psixologiya fani borasidagi tadqiqotlar, kashfiyotlar shu bilan tugab qolmasdan, balki bu boradagi ishlar yanada kuchaytirilib samarali natijalarga erishilmoqda.

1.5. Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari

Ma'lumki, har qanday fan o'z predmetiga ega. Psixologiyaning predmeti psixika bo'lib, u obektiv olamni psixik hodisalar asosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz subekt faoliyatini, hulq-atvorini maqsad sari yo'naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisa qonuniyatlarini bilish uchun malum bir metodlardan foydalanadi. I.P.Pavlov «Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi» degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiy metodologiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng manoda oladigan bo'lsak, u malum tizimga ega bo'lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan metodlardir. Ko'pchilik olimlar bu atamani ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi deb takidlaydilar.

Metodologiya (yunoncha methodes – bilish, tadqiq qilish, izlanish yo'li, logos - tushuncha, talimot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talimotdir. Metodlar – psixologiyani o'rganish usullari va yo'llari yig'indisi, «Metod» bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi. (S.L.Rubinshteyn).

Metodlar tizimi yuqorida takidlanganidek, fanning umumiy metodologiyasi metod va metodikalari orasidagi bog'liqlik sxemasi berilgan.



Shuni alohida takidlash lozimki, psixologik tadqiqotlarning tashkil etilishiga va o'tkazilishiga malum bir talablar qo'yiladi. Ular quyidagilardir:

1. Tadqiqotlarni rejalashtirish. Metod va metodikalarni tanlash va ularni sinab ko'rish.
2. Tadqiqotni o'tkazish joyi.
3. Tadqiqotni texnik jihozlash.
4. Tadqiq qiluvchilarni tanlash.
5. Tadqiqotchi, shubhasiz, tadqiqotning borishiga tasir etadi va tadqiqotni rejalashtirishdan to xulosa va tavsiyalar chiqarishga qadar ma'suliyatni his qiladi va bu muhim ahamiyatga ega.
6. Ko'rsatma – u aniq va qisqa bo'lishi lozim.

7. Tadqiqot qoidasi bayonnoma to'liq va maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak.

8. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash.

Tadqiqot murakkab jarayon bo'lib, uning o'z bosqichlari va pog'onalari mavjud. Shuningdek, ayrim adabiyotlarda psixologik tadqiqot bosqichlari quyidagicha ifodalanadi.

Psixologik tadqiqot bosqichlarini quyidagi sxemada ko'rish mumkin

IV	Natijalarni sharxlash va xulosalarni ifoda etib berish.
III	Tadqiqot natijalari son tahlili. O'rtacha kattalikni, korrelatsiya koeffitsientini aniqlash, ishlab chiqish va boshqalar. Grafiklarni tuzish
II	Xulosalarning to'g'riligini isbotlash. Buning uchun turli metodlardan foydalaniladi.
I	Tayyorlov bosqichi – ilgari surilgan vazifalarni o'rganish, farqlarni aniqlash. Tadqiqot vazifalari va ilmiy farazini belgilash, metodikalarini ishlab chiqish.

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning malum darajada mumkin qadar obektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod – uslubning manosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G.Ananev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qilgan.

B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

A) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

B) emperik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

V) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;

G) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar emperik guruh

metodlari hisoblanadi. SHunday bo'lsada boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, meditsina psixologiyasida – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quvlikligini va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Vygotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananov, D.B.Elkonin, P.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Longityud metodidan nemis psixologi V.SHtern, fransuz psixologi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima- Zuhra yoki aralash jinsli Hasan – Zuhra, Fotima- Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida sub'ektiv omillarning o'ziga xosligini ob'ektiv shart – sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai - nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana

shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi. Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni asosiy va yordamchi metodlarga bo'linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirsa, yordamchi metodlarga suhbat, so'rovnoma, test, sotsiometriya va faoliyat natijalarini tahlil qilish kabi metodlarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi – ikki xil bo'lib, ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan ob'ekt tanlanadi;
- v) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- g) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;

d) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;

e) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;

yo) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni etmaydi.

Masalan, o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o'z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig'ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chehradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashkari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Psixologiyada o'z-o'zini kuzatish, ya'ni interespeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo'lmagan metodi hisoblanadi.

Tajriba yoki eksperiment metodi – o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini 1910 yilda rus psixologi A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammo-larini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi sirdan kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Sirdan kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o'zgartirmaydi. Tabiiy eksprement metodidan foydalanganda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879 yili V.Vunt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat,xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksprementi sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni hohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni hohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtni tejash imkonini bersa, ikkinchidan har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagi ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini uquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblari mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin. Elektron taxistoskop orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, perseptometr orqali idrok qilish xususiyatlarini o'rganish mumkin, audiometr orqali eshitish xususiyatlarini o'rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksprementining imkoniyati ortib bormoqda.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, laboratoriya eksperimenti metodi bilan turli yoshdagi insonlarning psixik jarayonlari o'rganiladigan bo'lsa eksperimentni tayyorlash va o'tkazishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni nerv-fiziologik asoslarini ham laboratoriya eksprementi yordami bilan tekshiriladi. Psixik jarayonlarning nerv fiziologik asoslarini aniqlashda akademik I.P.Pavlovning shartli reflekslar metodi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu metod bolalarning o'sishini tekshirishda hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda.

Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Lekin laborotoriya eksperiment metodining ham ma'lum kamchiligi mavjud. Bu kamchilik shundan iboratki, laboratoriya sharoitida o'tkazilayotgan tekshirish hech vaqt ma'lum sun'iylikdan xoli bo'lmaydi. Tekshirilayotgan odamga hech narsa deyilmasa ham, bari bir laboratoriya sharoitining o'zi tekshirilayotgan odamning tabiiy psixik holatiga ta'sir qiladi. Binobarin, bu narsa o'z navbatida tekshirish natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuni nazarda tutib laboratoriya eksprementi yordami bilan qo'lga kiritilgan natijalarni ba'zan boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko'rish lozim bo'ladi. Laboratoriya eksperimenti metodi maxsus xona va turli asboblardan bog'liq bo'lganligi sababli bu metoddan ayrim sharoitlarda foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. SHuning uchun psixologiya fanida laboratoriya eksprementi bilan bir qatorda tabiiy eksprement metodidan ham keng foydalaniladi.

Yordamchi metodlar

Suhbat metodi bilan inson psixikasini o'rganishda foydalanildi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o'tkazish uchun puxta tayyorlanishga

bog'liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi.

➤ O'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

➤ Suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim.

➤ Suhbat paytida berilgan savollarga «ha», «yo'q» kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak.

➤ Sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so'zlar, «g'aliz» iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. SHuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning etishmasligi, iymanish, uyalish atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod faoliyat psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan ma'lum hukm, xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi etmaydi. SHuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Test metodi – “Test” inglizcha so'z bo'lib sinash tekshirish demakdir. SHaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa

standart masala, topshiriq test deb ataladi. Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatini tajribaning ilmiylik darajasiga tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik materiallarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bog'liqdir.

1905 yildan fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, o'zgaralar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi.

So'rovnomasi metodi - psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. So'rovnomasi odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi. Ularning birinchisi anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga Amerikalik sotsiolog Dj.Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a'zolarining bir-birlari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan malumotlar matritsa, grafik,

sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Shuning uchun hozir Y.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan yangi turlari ishlab chiqarilgan. Bular shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa sotsiometriyaning Y.M.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

1.6. Psixologiya fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

Psixologiya va falsafa

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

Psixologiya va sotsiologiya

Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar. Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demoqratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifani bajarishga qaratilgandir. Respublikamiz miqyosida esa "Ijtimoiy fikr" markazining turli mavzular bo'yicha olib boradigan ijtimoiy so'rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik so'rovlarning oliygohlarda o'tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o'qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o'tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sotsiologik so'rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Psixologiya va pedagogika

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi

bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari etarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan xolda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi. Shaxsga ta'lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan xolda, unga pedagogik ta'sir etish va uni yangi bilimlarga yo'naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar

Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi rolini e'tirof etgan xolda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha

yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan xolda uni boyitadi.

Psixologiya va kibernetika

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniksa, ma'lumotlar asri bo'lgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Psixologiya va texnika fanlari

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari

pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Psixologiya va iqtisodiyot

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Shuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Psixologiyaning tarmoqlari

Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differentsiatsiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassisleri psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortik tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi:

- umumiy psixologiya - psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;
- pedagogik psixologiya - kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

- yosh davr psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning tug‘ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o‘zaro munosabatlari qonuniyatlarini o‘rganadi;

- ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e‘tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o‘rganadi;

- mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadi;

- injenerlik psixologiyasi - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o‘rganadi;

- yuridik psixologiya - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog‘liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi;

- harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi;

- savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko‘radi;

- tibbiyot psixologiyasi - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, pedagogik psixologiya, intellekt psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko‘plab sohalari mavjud.

Nazorat savollari

1. Psixologiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Psixologiya fanining prinsiplari.
3. Psixik xodisalar klassifikasiyasi.
4. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.
5. Psixologiyaning tibbiyotda tutgan o‘rni.

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017 y.
3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent.2008 y.
7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.
9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.
10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y.
11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya", Darslik.Toshkent. 2008 y.
13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.
14. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.

II BOB. ONG VA PSIXIKANING RIVOJLANISHI

2.1. Dunyo olimlari psixika va ong haqida

Organik va anorganik materiya doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Inson psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanish masalasi tadqiqotchilar oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Ilmiy-materialistik ta'limotga ko'ra psixikaning paydo bo'lishi materiyaning uzoq rivojlanishi natijasidir.

K.E.Fabri eng sodda hayvonlar psixikasi taraqqiyotini ikki bosqichga – quyi va yuqori bosqichga bo'ladi. Psixik taraqqiyotning quyi bosqichi asossan bir hujayrali, qisman ko'p hujayrali hayvonlarga xos bo'lib, bu bosqichda psixika primitiv holatda bo'ladi va hayvon tashqi ta'sirlarga seskanuvchanlik bilangina javob beradi.

O'simlik va hayvon shaklidagi barcha tirik organizmlar o'z evolyusiyasining hamma bosqichlarida aks ettirishning biologik shakli ya'ni, seskanuvchanlikka ega bo'ladi. Seskanuvchanlik tirik organizmning biologik ta'sirlarga javob berish qobiliyatidir.


Oddiy seskanuvchanlikni bir xo'jayrali hayvonlarda ham ko'rish mumkin. Ular muhitning ta'siriga harakatlanish bilan javob beradilar. Biologik ta'sirlarga organizmning o'ziga xos harakatlari bilan javob berish usuliga tropizm yoki taksis deyiladi.

Seskanuvchanlik va tropizm

Hamma tirik organizmlar o'simliklardan tortib, hayvonlargacha aks ettirishning biologik shakli seskanuvchanlik xususiyatiga egadir.

Seskanuvchanlik - tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan ta'sirlariga javob qaytarish qobiliyatidir. Biotik, ya'ni biologik ahamiyatga ega bo'lgan omillariga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullariga **tropizm yoki taksislar** deyiladi.

Tropizm turlari quyidagi jadvalda yaol aks ettirilga:



1. **Fototropizm** - bu tirik organizmning yorug'lik ta'sirida harakatga kelishidir. *Masalan*, yoz kuni tungi chiroq yorug'ligiga mayda chivinlarning uchib kelishi.

2. **Termotropizm** - tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, bahor kelishi bilan hashoratlarning jonlanib harakatga kelishi.

3. **Xemotropizm** - tirik organizmning fizik-ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo'lgan moyilligidir. *Masalan*, achigan, qatiq, mevalarga mayda chivinlarning yig'ilishi.

4. **Topotropizm** - tirik organizmlarning mexanik qo'zatuvchilar ta'siri ostida harakat qilishiga moyiligidir. *Masalan*, chirigan olmaga tegilsa, unga yig'ilgan mayda hashoratlarning hammasi uchib ketadi. **Mimoza** o'simligiga tegilsa, u darhol yaprog'ini yopib oladi.

5. **Gemotropizm** - tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, kungaboar o'simligining quyosh nuri tomon harakatlanishi.

6. **Barotropizm** - tirik organizmning havo bosimi ostida ahrakat qilishga moyilligidir. *Masalan*, havo bulut bo'lganida, havoda uchib yurgan hashoratlarga erga pastga qarab uchadilar.

7. **Gidrotropizm** - tirik organizmning namlik suv ta'siri ostida harakat qilishiga moyilligidir.

O'simliklarda aks ettirishning biologik shakli faatgina tropizmlardan iborat bo'lib, bu arakatlar o'simliklarga o'z-o'zini bosharishiga yordam beradi, ya'ni ular o'zlari uchun foydali bo'lgan manbaga arab intiladi yoki o'zini imoya ilishga doir boshacha arakat

iladi. *Masalan*, nomoshomgul kechki payt ochilib, kunduzi yorulikdan yopiladi.

Agar jonli mavjudodlarning xayot kechirish muxiti xamma joyda mutlako bir xil bulganida, extimol, yr yuzi bir xil turdagi xayvonlar bilan tulib ketgan bulardi. Haqiqatda esa muxit iklim jixatidan xam, yashash sharoiti jixatidan ham g'oyat rang-barang bo'lib bu organizmlarning tabakalanishini takazo etadi. Yr yuzida hodisalar juda rang-barang bo'lsa ham, ularning siklili almashinuvi va hakovolar mavjuddir. Barcha jonzot mavjud shart-sharoitlarga moslasha boradi.

Misol uchun, muhitning harorati uzgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaksiyalarning tezligi hami o'zgarib boshlaydi: harorat ko'tarilishi bilan reaksiyalarning tezligi oshadi, pasaygan taqdirda pasayadi, harorat haddan ziyod oshib yoki pasayib ketganda esa bir hujayrali organizm halok bo'ladi. Agar juda past haroratli sharoitga joylashtirilsa, shubhasiz, boshqa bir jonli organizm ham shunday qismatga uchraydi. Lekin mana shunday sharoitlarda yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning hatti-harakatlarida jiddiy tafovut bo'ladi.

Ko'p hujayrali hayvonlarda qo'zg'aluvchanlikning yangi shakli sezuvchanlik mavjuddir. A.A.Leontevning gipotezasiga ko'ra sezuvchanlik genetik jihatdan olganda seskanuvchanlikning o'zidir. U ham muhitning tashqi ta'sirlarga javob berishi asosida vujudga keladi. Faqat sezuvchanlik seskanuvchanlikka nisbatan yuqoriroq bosqichdir.

K.E.Fabri fikricha, psixik taraqqiyotning ikkinchi bosqichi ko'p hujayrali hayvonlarga xosdir. Ko'p hujayrali hayvonlarda aks ettirish bir muncha yuqori bo'ladi. Bunday hayvonlarga kavakichlilar (gidra, meduzani kiritish mumkin. Ular ham bir hujayrali hayvonlar kabi suvda yashaydi. Lekin kavakichlilar o'zining tuzilishi jihatdan bir hujayrali hayvonlardan ancha murakkabdir. Ularning murakkabligi hujayralarining bir-biridan farq qilganligidadir: tanasining tashqi qismidagi xujayralar qoplagich, ichki hxujayralar esa hazm qiluvchi bo'ladi.

Rus fiziolog olimi I.M.Sechenev inson miyasi va organizmining psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi bo'yicha ulkan ishlar olib borgan va psixologiyaga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Keyinchalik uning fikrlarini Pavlov rivojlantirdi va shartli reflekslar hodisasini ochdi. *I.P.Pavlovning* fikrlari va ixtirolari hozirgi kunda yangi nazariyalar yaratishga asos bo'ldi. Bularning ichida

Breynshteyn, Xoll, Anoxin, Sokolovlarning nazariya va konsepsiyalari ajralib turadi. Sechenov fikricha, barcha psixik hodisalar o'zining ortidan murakkab reflekslar va fiziologik hodisalarni namoyon qiladi.

Pavlovning fikricha o'zini tutish murakkab shartli reflekslarning qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Biroq shartli reflekslar bu oddiy bir fiziologik hodisalar ekanligi keyinchalik ma'lum bo'ldi. Shartli-reflekslar haqidagi ilmlarning ochilishiga qaramay, keyinchalik tirik jonzotlarning yangi qobiliyatlarni o'zlashtirishning boshqa usullari ustida ham ishlar olib borildi. Bunda, ayniqsa, Sokolov va Izmaylovlarning xizmatlari katta. Ular tomonidan konseptual reflektor yoyi tushunchasi ilgari surilgan. U uch o'zaro bog'liq lekin nisbatan erkin neyronlar sistemasidan iborat: afferent(sensorli analizator), effektor(bajaruvchi, harakat organlariga javob beruvchi) va modellashtiruvchi (afferentiv va effektor sistemasi ustidan boshqarib turuvchi). Birinchi neyronlar sistemasi ma'lumotlar qabul qilinishi va qayta ishlanishini taminlaydi, ikkinchi sistema buyruqlar ishlab chiqarilishi va ularning bajarilishini taminlaydi, uchinchi va birinchi sistema ustidan ma'lumotlar almashinuvini taminlaydi. Bu nazariya bilan bir qatorda boshqa nazriyalar ham mavjud, bir tomondan psixik jarayonlarning o'zini boshqarishdagi roli, boshqa tomondan o'zini boshqarishda umumiy boshqaruv modellarining tuzilishida fiziologik va psixologik hodisalarning namoyon bo'lishi. Bernshteynning fikricha eng sodda o'zlashtirilgan xatti-harakatning o'zi ham, murakkab harakatlarni inobatga olmagan holda, psixikaning ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Uning ta'kidlashicha, har qanday harakatning paydo bo'lishida psixomotor reaksiya mavjud.

Har qanday harakatning o'zlashtirilishi ongning ta'siri ostida amalga oshiriladi. Ong tushunchasi juda ko'p muammolarga duch keladi. Bularga turli xil yondashuvlar ham mavjud. Ong muammosi psixologiyadagi global va eng murakkab muammolardan biridir. Muammoga asosiy yondashuvlarda "Ong"- dedi V.Vund, - bu o'zimizning har qanday psixologik jarayonlarga duch kelishimizdir. Ong psixologik jihatdan o'zida ichki yorug'likni, yorqin yoki zulmatni, ifodalaydi. Inson o'zini yo'qotgan paytda u go'yoki o'chishi ham mumkin.

K.Djeymsning fikricha ong bu "psixik funksiyalarning xo'jayini". Ong - bu o'zgacha psixik kenglik. Ong psixologiyaning sharti

bo'lishi mumkin, lekin uning predmeti bo'la olmaydi. Uning mavjudligi psixologik fakt bo'lishiga qaramasdan, uni aniqlash mumkin emas va faqatgina o'zidan chiqarilishi mumkin. Ong sifatsizdir chunki uning o'zi sifat- psixik jarayon va hodisalarning sifatidir. Sifatni bo'lib bo'lmaydi, u yoki bor yoki yo'q. Yuqorida keltirilgan qarashlarning umumiy xulosasi – bu psixologik sifatsiz onnga urg'u. Vigotskiyning onnga qarashlari qiziqish uyg'otadi. Uning aytishicha “ong- bu o'ziga o'zi, reallikka refleksiyaadir. “Ong o'zi bilan o'zi aloqadadir”. Ong - bu onmdir, ong faqatgina jamiyat onggi va tili mavjud bo'lgandagina mavjud bo'lishi mumkin. Ong tug'ma bo'lmaydi yoki tabiat tomonidan berilmaydi balki u jamiyatda rivojlanadi. Shuning uchun ong psixologiyani sharti emas balki uning muammosi – ilmiy psixologik izlanishlar predmetidir².

Aytishlaricha, odam miyasida taxminan 14 milliard hujayra mavjud bo'ladi, lekin yangi tug'ilgan bolada ularning ko'pchiligi hali ishga tushmagan bo'ladi.

Yangi tug'ilgan bola va katta yoshdagi kishilarning bosh miya hujayralarini solishtirish shuni ko'rsatdiki, miyaning rivojlanish jarayonida uning hujayralari o'rtasida maxsus o'simta (shoxcha) — ko'prikchalar shakllanib borar ekan. Bosh miya hujayralari sezgi organlari orqali tashqaridan olayotgan ma'lumotlarga javob berar ekan, go'yo bir – birlariga qo'llarini uzatib, bir-birlarini mahkam ushlab oladi. Bu jarayon elektron kompyuterdagi tranzistorlar ishiga o'xshab ketadi. Har bir alohida olingan tranzistor o'zi alohida ishlay olmaydi, faqat ma'lum bir yagona tizim (sistema) ga birlashgandagina ular kompyuter sifatida ishlay olishi mumkin.

Hujayralarning bir-birlariga bog'lanishi shakllanishining eng faol davri — bu bola tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan davrdir. Bu vaqtda taxminan 70-80% shunday birikmalar vujudga keladi va ular qanday rivojlanishiga qarab, miya imkoniyatlari ham ortib boradi. Tug'ilgandan keyingi dastlabki olti oyda miya o'zining voyaga etish imkoniyatining 50 foiziga erishadi, uch yoshga kelib esa bu ko'rsatkich — 80 foizga etadi. Albatta, bu bola miyasi uch yoshdan keyin o'sishdan to'xtaydi, degani emas. Uch yoshga etib, asosan miyaning orqa (ensa) qismi voyaga etadi, to'rt yoshga kirganda esa bu murakkab jarayonga uning "peshona qism" degan qismi ham qo'shiladi.

¹ James W.Kalat, Psychology. USA, 2013

Miyaning muhim (asosiy, fundamental) qobiliyati tashqaridan signal qabul qilish, uning obrazini yaratish va esda olib qolishdir. Bu shunday o'zaki, shunday kompyuterki, bolaning kelajakdagi intellektual rivojlanishi shularga asoslanadi. Tafakkur, ehtiyoj, ijod, hissiyot kabi etuk qobiliyatlar uch yoshdan keyin rivojlanadi, lekin ular shu yoshgacha shakllangan bazadan foydalanadilar.

Shunday qilib, agar dastlabki uch yoshda mustahkam negiz shakllanmagan bo'lsa, undan qanday foydalanishga o'rgatish befoyda. Bu xuddi yomon kompyuterda ishlayotib, yaxshi natijalarga erishishga intilish bilan barobar.

Albatta, yangi tug'ilgan bola mutloq nochordir, biroq aynan shunday bo'lganligi uchun ham uning mavjud (potensial) imkoniyatlari ancha katta bo'ladi. Odam bolasi hayvon bolasiga qaraganda ancha kam rivojlangan bo'lib tug'iladi: u faqat yig'lashni va sut emishni biladi xolos. Hayvon bolasi esa, masalan, itlar, maymunlar yoki otlar emaklashni biladi, tirmashadi yoki hatto birdaniga tik tura olishi va yurib ketishi mumkin. Zoologlarning ta'kidlashicha, yangi tug'ilgan bola, yangi tug'ilgan hayvon bolasidan 10-11 oyga orqada qolgan bo'ladi va buning asosiy sababi — odamning yurishdagi holatidir. Odam tik (vertikal) holatda yurishga o'tishi bilanoq bachadonda bola to'la rivojlanguncha tura olmaydigan bo'lib qolgan, shuning uchun ham bola hali etarlicha rivojlanib ulgurmay butunlay "nochor" bo'lib tug'iladi (dunyoga keladi). Unga tug'ilgandan so'ng o'z tanasidan foydalana olishga o'rganishga to'g'ri keladi. U miyadan foydalanishni ham xuddi shunday o'rganadi. Hind fiziologi *Masaru Ibuka* "Agar har qanday hayvon bolasining miyasi tug'ilish arafasida deyarli shakllanib bo'lgan bo'lsa, yangi tug'ilgan bolaning miyasi — go'yo toza qog'oz varog'i. Bolaning qanchalik iqtidorli bo'lishi shu qog'ozga (varoqqa) nima yozilishiga bog'liq bo'ladi" degan fikrni bildiradi.


2.2. Psixika va ong paydo bo'lishining nerv- fiziologik asoslari

Miya fiziologiyasini tadqiq qilish va bolalar psixologiyasini o'rganish, bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlanti ruvchi kalit, bu uni — o'z hayotining dastlabki uch yilida, ya'ni miya hujayralarining rivojlanish davrida o'zlashtirgan shaxsiy bilish - tajribasi ekanligini ko'rsatadi. Hech bir bola daho bo'lib tug'ilmaydi va hech bir bola ahmoq bo'lib ham tug'ilmaydi. Hammasi bola hayotining hal qiluvchi yillarida bosh

miyaning rivojlanish darajasi va stimulyasiyasiga bog'liq bo'ladi. Bu tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi.

Nerv sistemasining oliy tipi - naychasimon nerv sistemasidir. U naychasimon qilib birlashgan nerv xujayralaridan tashkil topgan bo'ladi. umurtqalilarda evolyusiya jarayonida orqa va bosh miya - markaziy nerv sistemasi paydo bo'ladi va rivojlanadi. Nerv sistemasi va retseptorlarning rivojlanishiga muvofiq ravishda psixik aks ettirish shakllari ham murakkablashadi. Bosh miyada turli xildagi funksiyalarni uz zimmasiga oladigan alohida cheklangan markazlar hosil bo'ladi. Bu markazlar maxsus nerv birikmalari - assotsiativ zonalar orqali uzaro boglanadi.


Asab tizimini ikki asosiy bo'limga bo'lish mumkin: markaziy asab tizimi (MNS) va periferik asab tizimi (PNS), Rasmda ko'rsatilgan. MNS miya va o'murtqa miyadan iborat shnur; PNS markaziy asab tizimini tananing qolgan qismiga bog'laydi. Ushbu bo'limda biz periferik asabga e'tibor qaratamiz tizim; Keyin miya va o'murtqa ko'raylik.³




Rasm. Asab tizimi ikkita asosiy qismga bo'linadi: (a) markaziy asab tizimi va (b) Periferik asab tizimi.

³ Rosie M. Spielman, Psychology 2014 rasm 3.13- 87-bet

Miya millionlab o‘zaro bog‘liq neyronlardan iborat ajablanarli darajada murakkab bir organ. Bu alohida-alohida bo‘linishi mumkin bo‘lgan ikki tomonlama yoki ikki tomonlama tuzilmalardir. Har-bir qismi muayyan turdagi funktsiyalari mavjud, biroq, natijada miyaning barcha sohalari fikrlarimiz va xatti-harakatlarimiz uchun bir-birimiz bilan muloqot qiladilar. Ushbu bo‘limda biz miyaning umumiy organizmini va miyaning turli sohalari bilan bog‘liq funktsiyalarni, miyaning kengayishi, orqa miy o‘murtqa shnorni muhokama qilamiz.



Rasm. Miyaning yuzasi egatcha va burmalar bilan qoplangan. Chuqur egatcha yoriq hosil qiladi, bu yoriq miyani chap va o‘ng yarim sharlarga ajratadigan (Bryus Blaus ishining modifikatsiyasi)



Rasm. Miya uchta asosiy toifaga bo‘linishi mumkin: oldingi, o‘rta va orqa miya

Periferik asab tizimi aksonlar dan iborat bo'lib, nerv deb nomlanadi. markaziy asab tizimi va mushaklar, organlar va tana organlari atrofida oldinga va orqaga (ya'ni, barcha markaziy asab tizimining tashqarisida). PNS ikkita asosiy bo'linishga ega: somatik nerv sistemasi va o'simlik nerv tizimi.


Somatik nerv sistemasi an'anaviy ravishda ongli ravishda hisoblangan faoliyat bilan bog'liq Ixtiyoriy. U markaziy asab tizimida hissiy va vosita ma'lumotlarini uzatish bilan shug'ullanadi; Shunday qilib, u mexanik neyronlardan va sensorli neyronlardan iborat. MNS dan tortib to mushaklar efferent liflerdir (efferent, "uzoqlashish" degan ma'noni anglatadi). Sensorli sensori neyronlar Markaziy asab tizimiga kiruvchi ma'lumotlar afferent tolalardir (afferent "tomonga qarab").

Har bir asab asosan minglab aksonlarni o'z ichiga olgan ikki tomonlama super magistral, ham eferent, ham afferent.⁴

⁵Avtonom nerv sistemasi bizning ichki a'zolarimiz va bezlarni nazorat qiladi va odatda ko'rib chiqiladi ixtiyoriy nazorat ostidadir. U sempatanlarga bo'linishi mumkin parasempatik bo'linishlar (3.14-rasm). Preparatning simpatik nerv tizimi ishtirok etmoqda stress bilan bog'liq faoliyat uchun tanasi; Parasempatik asab tizimi qaytib kelishi bilan bog'liq kundalik operatsiyalarni bajarish. Ikki tizimda ishlaydigan qo'shimcha imkoniyatlar mavjud tananing gomostazasini saqlab qolish uchun tandem. Homeostaz - bu muvozanat holatidir, unda biologik Shartlar (tana harorati kabi) eng maqbul darajada saqlanadi.⁶

⁴ Chapter 1 | Introduction to Psychology, -87-90-92 bet

⁵ Chapter 1 | Introduction to Psychology, -88 bet



Rasm. Avtonom nerv sistemasining simpatik va parasimpatik bo'linmalari turli xil tizimlarga zid ta'sir ko'rsatadi.

Simpatik nerv sistemasi stressli yoki hayajonli vaziyatlarga duch kelganimizda faollashadi. Ushbu tizimning faoliyati ota-bobolarimiz uchun moslashtirilgan bo'lib, ularning yashash imkoniyatlarini oshirdi. Tasavvur qiling Masalan, katta bir ayiqni to'satdan jahlini chiqarganda **simpatik** nerv sistemasi faollashadi . Ushbu nuqtada, uning tanasi bir qator o'zgarishla⁷ni boshdan kechiradi - bu samimiy vazifani bajaradi aktivlashtirish - uni tahdidga tayyorlaydi. Uning o'quvchilari kengayib, yurak urishi va qon bosimi ortishi, uning qovuqlari bo'shshadi, jigari glyukozani chiqaradi va adrenalin qoniga oqadi. Bu shunchaki

Fiziologik o'zgarishlarning majmui tanaga kirishga imkon beradi energiya zaxiralari va ortib boradigan hissiyot qobiliyatini oshirishi mumkin.

⁷ Chapter 1 | Introduction to Psychology, 2014 y.88 bet. rasm 3.14

Bu kabi javoblar, tinchlikda yashagan ajdodlarimiz uchun omon qolish uchun juda muhimdir haqiqiy jismoniy tahdidlarga to'la, qiziqarli vaziyatlarning aksariyati psixologik belgilar. Masalan, kerak bo'lganda o'zingizni qanday his qilish haqida o'ylab ko'ring xonaning old tomonida yoki o'ng tomonida katta sinov oldida taqdimot qilishingizni. Siz ushbu vaziyatlarda haqiqiy jismoniy xavfga ega emassiz, ammo siz kurashda har qanday tahdidga javob berish uchun rivojlana boshladingiz.

Bunday javob zamonaviy dunyoda moslashuvchan emas; Aslida biz azoblanamiz jang qila olmaydigan va qocha-olmaydigan psixologik tahdidlarga duch kelaveramiz.

Oxirgi tadqiqotlar, yurak xastaliklarining sezuvchanligiga (Chandola, Brunner,

Marmot, 2006) va immun tizimining zaiflashuvi (Glaser & Kiecolt-Glaser, 2005) ko'plab salbiy ta'sirlar, doimiy va doimiy tarzda stressli vaziyatlarga duchor bo'lish oqibatida ko'p uchramoqda.

Tahdidni bartaraf etilgach, **parasempatik** asab tizimini faoliyatini boshlaydi va organizmni sokin holatga qaytaradi. Bizning ovchi arterial qon bosimi qisqarishini, qovuqni nazoratga olishni boshlaydi va jigar glikogen shaklida glyukoza to'plashni boshlaydi kelajakda foydalanish uchun tayorlaydi. Bu jarayon **parasempatik** asab tizimining faollashishi bilan bog'liq.

2.3. Psixika va ongning psixologik tavsifi

Inson ongining rivojlanishi

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud. hayvonlar "tili" bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. hayvon o'z to'dasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni chog'dagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqatgina signal berolsa, inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular tili o'rtasidagi farqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga, hayvon esa amaliy tafakkurga ega. Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda

ish ko'rish qobiliyatiga ega. **Qurol yasash va uni asrash** qobiliyatiga egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Aniq vaziyatda qurol o'z rolini o'tab bo'lgach, shu zaotiy oq, hayvon uchun qurollik sifatini yo'qotadi. Odam ilgari dan o'ylab qo'yilgan reja bilan qurol yasaydi, quroldan tegishli masadlarda foydalanadi hamda uni saqlab qo'yadi. Odam nisbatan doimiy buyumlar olamida yashaydi. Odam quroldan foydalanish tajribasini boshqalardan o'rganadi va o'zi bu tajribani boshqalarga o'rgatadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi uchinchi fari shuki, **inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi.**⁸

Odam bilan hayvon o'rtasidagi to'rtinchi g'oyat muhim farq hissiyot o'rtasidagi farqdir. Rivojlanish sharoitlarining turlicha bo'lishi odam psixikasining hayvon psixikasidan ajratuvchi muhim farlardan hisoblanadi. Agar odam insoniyat tajribasini o'zlashtirmas ekan, o'ziga o'xshagan odamlar bilan munosabatga kirishmas ekan, shaxs sifatida tarkib topmaydi. Inson ongining rivojlanishiga asosiy omil menat faoliyati, ya'ni odamlarning birgalikda qurol yasash va undan foydalanish faoliyatlari bo'lgan.

Mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ta'sir qiladi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi mehnatda rivojlanadi. Inson ongi evolyusion taraqqiyot jarayonida aks ettirishning eng yuksak shakli sifatida maydonga kelib, ong tufayli odam moddiy dunyodagi narsalarning ob'ektiv, barqaror xususiyatlarini ajrata oladi va shu asosda tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartira oladi. Demak, inson psixikasining oliy bosqichini ong deb atash mumkin.

Shunday qilib, hayvonlar muhitga bevosita bog'likligidan sekin-asta qutila boradi. Lekin jonli mavjudotlar rivojlanishning har qanday darajasida ham bunday bog'liklikdan hech qachon qutila bo'lmaydi. Muhit - jonli organizmning hayot kechirish shart-sharoiti, jonli mavjudotlar hayot kechirishning bosh omili, boshqacha

⁸ E.G`oziyev umumiy psixologiya 2002 y/38-41 bet

aytganda, jonli organizmlarining hayot kechirishi muhitning shart-sharoitlari bilan aniq belgilab qo'yilgandir.

Aks ettirishning bir-biriga o'xshashligi eng avvalo sezgi a'zolari va nerv sistemasining tuzilishiga bogliqdir. Retseptor muayyan turagi ko'zgatuvchilarga qanchalik nafis javob qilsa, reaksiya ham shunchalik bir-biriga o'xshash bo'ladi. Bunda ma'lum darajada tugridan-tugri boglanish bor. Masalan, ko'rish retseptori quyoshning tarqoq nurini aks ettirishga moslashuv munosabati bilan rivojlanadi.

Retseptorlarning rivojlanishi ma'lum darajada muayyan turdagi nerv sistemasining rivojlanishi bilan birga boradi. Sezgi a'zolari va nerv sistemasining rivojlanish darajasi muqarrar ravishda psixik aks ettirishning darajasi va shaklini belgilab beradi. Nerv hujayralari faqat turlar emas, balki tugunlar (gangliylar) ham hosil qiladi. Tugunli yoki gangliyli nerv sistemasi eng ko'p miqdordagi ko'zgatuvchilarni kabul qilish va qayta ishlash imkonini beradi. Negaki, sezuvchan nerv hujayralari ko'zgatuvchilarga bevosita yaqin joylashgan bo'lada va ko'zgalishini tahlil etish sifatini o'zgartirib yuboradi.

Tananing har bir qismida gangliylar (nerv tugunlari) qo'shib, bir-biri bilan nerv yo'llar orqali bog'langan nerv markazlarini tashkil qiladi. Ayniqsa bosh qismida joylashgan markaz murakkab tuzilgandir.

Shunday qilib, psixikaning evolyusiyasi retseptorlar funksiyalari shakllarining, shuningdek signal faoliyatining murakkablashuvida ifodalanadi.

Shubha yuqki, odam psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvonning psixikasi urtasida juda katta tafovut mavjuddir. Masalan, hayvonlarning tili bilan odamning tilini bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z qabiladoshlariga muayyan, bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqat xabar berishgina mumkin bo'lgan bir paytda kishi til vositasida boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi payt va kelajak haqida axborot berishi, ulara sotsial tajribani etkazishi mumkin.

Odam psixikasi bilan hayvon psixikasining ikkinchi farqi, odam oldindan o'ylagan rejaga binoan qurol yaratadi, uni belgilangan maqsadda foydalanadi va saqlaydi. Inson nisbatan doimiy narsalar olamida yashaydi. Kishi quroldan boshqa odamlar bilan birgalikda foydalanadi, biridan quroldan foydalanish tajribasini o'zlashtirsa, boshqa odamlar bilan uni baham k o'radi.

Inson psixik faoliyatining ajralib turadigan uchunchi belgisi - ijtimoiy tajribaning biridan ikkinchisiga utkazilib turishdir. Kishi psixikasini k o'proq darajada u egallab oladigan ijtimoiy tajribada rivojlantiradi. Kishining psixik funksiyalari alohida sub'ekt tomonidan insoniyatning madaniy rivojlanishida qurollarini egallab olishi tufayli sifat jixatidan o'zgarai. Kishidan oliy, xususan insoniy funksiyalar (ijtimoiy xotira, ixtiyoriy diqqat, abstrakt tafakkur) rivojlana boradi.

Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muxim farki ularning rivojlanish shart-sharoitlaridan k o'rindi. Agar hayvonot dunyosining rivojlanishi davomida psixikaning taraqqiyoti biologik evolyusiya qonunlariga binoan r o'y bergan bo'lsa, xususan inson psixikasining, kishi ongining rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy tarakkiyot konunlariga buysunadi.

To'daning jamiyatga aylanishga ta'sir ko'rsatgan omil - bu mehnat faoliyati, ya'ni qurollarni birgalikda yaratish va qullanish jarayonida odamlar tomonidan amalga oshiriladigan tarzdagi faoliyat bo'ladi.

Rivoj topayotgan mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlarning, jamiyatning rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarning rivoji esa mehnat faolitining takomillashuviga ta'sir kursatdi.

Shunday qilib, mehnatning paydo bo'lishi va kishilik jamiyatining tuzilishi odamning odamsimon ajdodlarining odamga aylanish sababi bo'lib hisoblanadi.

Mehnatda kishining ongi - aks ettirishning evolyusion y o'nalishidagi eng oliy shakli - ashyoviy faoliyatning ob'ektiv barqaror xususiyatlarini ajrata olish va shu asosda atrofdagi reallikni tubdan o'zgartira olish xususiyatiga ega bo'lgan shakli ham rivojlana bordi.

Yuqorida aytibo'tilgandek, hayvonlar tasodifiy narsalar olamida yashaydi, odam esa doimiy narsalar olamini yaratadi. Odamlar yaratgan uzidan oldingi ajdodlar bajargan ish jarayonlari, hatti-harakatlar va faolitning moddiy ifodasi hisoblanadi.

Psixika- Sub'ektning haqiqiy ob'ektiv shakli bo'lib hisoblangan materiyaning yuqori tashkiliy xususiyatidir. Insonning ma'naviy shakllanishi uning qalb xislatlarining boshqarilish majmuidir.

Onglilik:

- A) Borliqning umumiy lashtirilgan va ko'p qirrali
- B) nutqi bilan bog'liq bo'lgan va faqat insonga
- C) tegishli yuqori ko'rinishidir.

B) O'ylash qobiliyati, muhokama qilish asab tizimi bilan bog'liq harakati faoliyatidir.

V) Insonning sog'lom holati, kuchli xotirasi o'z his-tuyg'ulari va ishlarida javobgarligi holati.

Amaliy nuqtai nazardan ong tez o'zgarib turadigan his-tuyg'u va aqlli obrazlar sub'ekti oldida turgan insonning ichki dunyosidir. Biroq, taxmin qilish mumkinki, bunday psixik faoliyat hayvonlarda ham yuqori rivojlangan. Masalan: itlar, otlar, delfinlar, maymunlar va boshqalarda sodir bo'lishi mumkin.

K.Djeymsning ikricha, ong bu "psixik funksiyalarning xo'jayini".

Ong – bu o'zgacha psixik kenglik. Ong psixologiyaning sharti bo'lishi mumkin, lekin uning predmeti bo'la olmaydi. Uning mavjudligi psixologik fakt bo'lishiga qaramasdan, uni aniqlash mumkin emas va faqatgina o'zidan chiqarilishi mumkin. Ong sifatsizdir chunki uning o'zi sifat- psixik jarayon va hodisalarning sifatidir. Sifatni bo'lib bo'lmaydi, u yoki bor yoki yo'q. Yuqorida keltirilgan qarashlarning umumiy qismi – bu psixologik sifatsiz onnga urg'u. Vigotskiyning onnga qarashlari qiziqish uyg'otadi. U aytilishicha "ong- bu o'ziga o'zi, reallikka refleksiya. "Ong o'zi bilan o'zi aloqadadir". Ong - bu onmdir, ong faqatgina jamiyat onggi va tili mavjud bo'lgandagina mavjud bo'lishi mumkin. Ong tug'ma bo'lmaydi yoki tabiat tomonidan berilmaydi balki u jamiyatda rivojlanadi. Shuning uchun ong psixologiyaning sharti emas balki uning muammosi – ilmiy psixologik izlanishlar predmetidir» har qanday tirik organizm uni o'rab turgan muhitga o'zaro munosabati bilan xarakterlanadi. O'zaro munosabatning buzilishi muhit va

insonning eng yuqori

Psixika –bu yuksak darajada rivojlangan, alohida tashkil topgan materiyaning xususiyatidir. Psixika-bu ob'ektiv olam ta'sirlarini sub'ektiv tarzda inson miyasida aks ettirilishi hamdir.

Ong- ob'ektiv haqiqatning eng yuqori psixik namoyondasi, hamda faqat sotsial mavjudotga tegishli bo'lgan o'z- o'zini boshqarishning eng yuqori sathidir.

shaxs o'rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Organizmlar va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat faqat har qanday organizm seskanuvchanlik qobiliyatiga, ya'ni, muhit ta'sirida aktiv holatiga o'tish va modda almashish qobiliyatiga ega bo'lgandagina amalga oshishi mumkin.

Seskanuvchanlik aks ettirishning ancha umumiy, hamma yirik organizmlar uchun xos bo'lgan biologik formasidir. Materialistik yo'nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo'lishini materiyaning uzoq muddat davom etgan taraqqiyoti bilan tushuntiradilar. Olimlar materiyaning tabiatini tekshirib, materiya harakatining turli shakllarini aniqladilar. Harakat esa materiyaning yashash usuli. Uning mohiyatini tashkil qiluvchi ajralmas xususiyatidir.

Jami materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to materiyaning yuksak hamda murakkab formasi-inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyati bo'lmish aks ettirish xususiyatiga, ya'ni ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Aks ettirish formalari materiyaning yashash formalariga bog'liqdir. Aks ettirish materiyaning yashash tarzi va ta'sir xarakteriga muvofiq ravishda tashqi ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatidan namoyon bo'ladi.

Tirik materiyaga o'tishda materiya harakatining yo'nalishlari ham sifat jihatidan o'zgaradi. Tirik materiyaga aks ettirishning biologik ko'rinishi xosdir. Tirik materiya taraqqiyotining ma'lum bosqichida esa aks ettirishning sifat jihatidan yangi ko'rinishi hisoblangan psixika yuzaga keladi.

2.4. Psixika va ongning taraqqiyoti

Psixikaning taraqqiyoti: Psixologiyada psixikaning taraqqiyotini ikki bosqich orqali tushuntiriladi. Birinchi bosqich psixikaning filogenetik taraqqiyot bosqichi bo'lib, unda oddiy organizmdan boshlab murakkab organizmgacha bo'lgan taraqqiyot yo'li bosib o'tiladi. Ikkinchi bosqich psixikaning ontogenetik taraqqiyot bosqichi bo'lib, bunda organizm tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha bo'lgan taraqqiyot yo'li o'rganiladi.

Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari

PSIXIK JARAYONLAR	PSIXOLOGIK HOLATLAR	SHAXSNING XUSUSIYATLARI
<i>BILISH JARAYONI</i>	<i>HISSIY IRODAVIY</i>	<i>INDIVIDUALLIK</i>
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	e'tiqodlilik	Temperament
Diqqat	hayratlanish	xulq motivatsiyasi
Xotira	bardamlik	Xarakter
Hayol	Apatiya	Iqtidor
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Nutq	qiziquvchanlik	aqliy salohiyat
	ishonchlilik	ish uslubi
	Ijodiy ruhlanish	Mas'uliyat

Psixikaning turli shakllarda ko'rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlar mavjud bo'lib, psixik aks ettirish bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya'ni shaxs individualligi orqali namoyon bo'ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrofdagi voqelikni to'g'ri aks ettirish orqali namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanining predmeti masalasida psixika va uning namoyon bo'lish shakllaridan zamonaviy psixologiya umumiy psixologiyaga aloqador soha bo'lib, ko'plab olimlar o'z ilmiy adabiyotlarida bu jihatni muhim deb qaraydilar. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari biz (mualliflar) tomonidan tasnifi 1-rasmda

Ong va uning taraqqiyoti

Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib, u faqat insongagina xosdir. Ong inson psixikasining eng yuksak formasi hamdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan doimiy munosabatda bo'lishi natijasida paydo bo'ladi. Ong ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

Ongning bir qator xarakteristikasi bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Ongning birinchi xarakteristikasi-atrof-muhit voqea hodisalarini anglashdan iborat. Ongning strukturasi insonning bilish jarayonlari kiradi. Inson ana shu bilish jarayonlari yordamida o'z bilimlarini doimo boyitib boradi.

2. Ongning ikkinchi xarakteristikasi- sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi farqlilikni anglash, ya'ni odam "men" degan tushuncha bilan "mendan boshqa" degan tushunchani anglab etishidir.

3. Ongning uchinchi xarakteristikasi- ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'min etiladi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi.


4. Ongning to'rtinchi xarakteristikasi- odamning muayyan munosabatlarini ongning tarkibiy qismiga kirishidir.

Ong jamiyat mahsuli bo'lib, faqat insongagina xosdir. Hayvonlarda ong bo'lmaydi. Psixikaning quyi darajasi ongsizlik holatini tashkil etadi. Ongsizlik ham psixik hodisa bo'lib, voqelikni shunday aks ettirish formasidirki, bunda qilinayotgan ishlarga hisobot berilmaydi, ish harakatlar qaerda va qancha bajarilayotganini anglash xususiyati yo'qoladi, xulq atvorni nutq orqali boshqarish buziladi. Ongsizlik holatiga quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu holatidagi hodisalar, ya'ni tush ko'rish; sezilmaydigan lekin haqiqatdan ham ta'sir qiladigan javob reaksiyalari; kasal odam psixikasida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar va boshqalar.

Insonning hayvondan asosiy farqi, avvalombor psixik obrazlarning jism deb qabul qilinganligida emas, balki maxsus mexanizmlar va ularning asta-sekin bajarilishidadir. Aynan psixik obrazlarning shakllanish mexanizmi va ular tmonidan ychilgan xususiyatlardir. Odamda bunday fenomenlarni yaratish ong hisoblanadi.

Ong boshqa psixik fenomen kabi aniq xususiyatga ega. Ong har doim faol. Ongning faolligi shunda namoyon bo'ladiki, inson ob'ektiv dunyosining psixik ko'rinishi passiv xususiyatga ega emas. Balki psixika orqali namoyon bo'layotgan jismlar bir xil ahamiyatga ega. Balki teskarisi bo'lishi mumkin.

Bu xususiyatlarning borligi insonning o'z-o'zini boshqarishdek eng yuqori xususiyatlarini ko'rib chiqishga ruxsat beruvchi, ongning boshqa bir qator xususiyatlarini shakllantiradi. Ongning shakllanish guruhiga quyidagilarni kiritish



Psixik obrazlar sub'ekti uchun ahamiyatli bo'lgan deferensiya darajasi sodir bo'ladi. Ong-yo'naltiruvchidir. SHunga ko'ra ong faol, u har doim kandaydir ob'ektga, jism yoki obrazga yo'naltiruvchi xususiyatga ega.

mumkin: o‘z-o‘zini kuzatish xususiyatlari (refleksiya) va yana ongning ilhom va qadr xususiyati.

O‘z navbatida ongning quyidagi xususiyatlari mustaqil odam ontogenez jarayonida shakllanishini aniqlab berishga imkon beradi. “Men- konsepsiya”si, inson o‘zi haqida va atrof- muhitning borligi haqida butun sistemaning muntazam yadrosidir. Atrof-olam haqida qilingan butun xabarlarni inson o‘zi haqidagi ong va psixik rivojlanishlar orqali ajratib oladi.

Mukammal va motivatsion qurilmalardan kelib chiqqan holda o‘zini tutishni shakllantiradi. Shuning uchun uning qarashlari tartibi qat’iy individualdir. Odamlar sodir bo‘layotgan voqealarni va o‘zining harakatini, aniq dunyo ob’ektlarini har xil baholaydilar.

Vaholanki, ba’zi odamlarning baholashi aniqdir va borliqqa mos keladi. Boshqalarning baholashi esa teskari- sub’ektivdir. Ongimizning adekvatligi nimaga bog‘liq?

Ong xususiyatlari funksiyaga oid a‘zolar sifatida:

- Tashqi ta’sirga javob berish qobiliyati (reaktivlik)
- Ta’sirchanlik
- Dialogizm
- Polifonilik
- Tashqi ta’sirsiz rivojlanish
- Tashqi ta’sirga nisbatan beixtiyor ko‘rsatadigan reaksiya (reflektivlik)

Ongning vazifalari

Asosiy ong vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Aks qaytarish
- Tug‘ma (ijodiy)
- Boshqarib-baholash
- Refleksivlik
- Ma’naviylik

Ong tuzilishi

L.Feyerbax ongni ong uchun va ong turmush uchun degan fikrni ilgari surgan.

A.N.Leontev ongni uch qismdan iborat ekanligini ajratgan:

- Obrazning seziladigan asosi
- Ma’no
- Mazmuni

Ushbu savolga javob berish uchun inson tomondan qabul qilinayotgan real hayotning obrazini va o‘ziga baho berishini bir-biroviga moslashtiruvchi bir qator faktorlarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Ammo ko‘pchilik holatlarda insonning tashqi muhitni to‘g‘ri qabul qilish darajasi, uning imkoniyat faktorlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, qabul qilish chegarasi bu yaxshi va yomon tushunchalarni anglash xususiyatiga bog‘liq. Aynan shu bo‘lib o‘tayotgan hodisani to‘g‘ri tanqid qilish, qabul qilingan ma’lumotni o‘z qarashlari bilan taqqoslash, taqqoslashdan kelib chiqib o‘zining xulqini tuzish, ya’ni harakat maqsadi va dasturini aniqlash, qo‘yilgan maqsad sari

harakatlanish insonni hayvonlardan farqlantiradi. Shunday qilib, tanqid qilish, o'z xulqini nazorat qilish mexanizmida asosiy o'rin egallaydi.

Ongning xususiyatlari

S.L.Rubinshteyn quyidagi ong xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: munosabat o'rnatish bilish boshdan kechirish(kechinma)Ongning har bir xususiyati kam hollarda yoki faqat bilish, yoki faqat kechinma, yoki faqat munosabat bo'lishi mumkin; ko'pincha shu uch xususiyat birlashgan holda ko'rinadi. Ammo bu uch tarkibiy qismning (komponentlarning) har birini ifodalanish darajasi turlicha. Shuning uchun har bir ong xususiyatini, psixologik tushunchasini koordinata sistemasining uch muhim nuqtasi sifatida ko'rish mumkin. Ong mexanizmini tahlil qilishda aqliy metaforani bartaraf qilish muhimdir. Ong bu faoliyat sistemasi mahsuli va natijasidir, unga nafaqat miya balki shaxs, jamiyat ham kiradi. Bu sistemalarning muhim xususiyatlari unga etishmayotgan funksiyaga oid organlar, o'ziga xos yangidan yuzaga keladi. U asosan dastlabki sistemadan yo'qotib bo'lmaydigan u yoki bu imkoniyatlar hisoblanadi.

Ong va o'z o'zini anglash

O'z- o'zini anglash insonga nafaqat tashqi dunyoni aks ettirishga imkon beradi balki, uni o'zini shu olamda ajratib ya'ni topib, o'zining tushunib etishiga, nazorat qilishiga va ma'lum bir shaklda o'ziga nisbatan munosabatda bo'lishga yordam beradi. O'zini biror bir barqaror ob'ekt sifatida anglash ichki butunlikni talab qiladi, shaxsning doimiylikni, uni o'zgaruvchan vaziyatlarga qaramasdan o'zligicha qola olishini anglatadi. O'zlikni anglash boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir davomida shakllanadi va inson faoliyatining muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan o'z o'zini baholash bilan bog'liqdir. O'zlikni anglashning muhim vazifasi - inson uchun uning harakatlari sababi va natijasini bilishi va o'zini baholashi, aslida qanaqa insonligini tushunishga sharoit yaratishdir. Agar baho qoniqarsiz bo'lsa, inson o'z-o'zini o'stirish (kamolotga etkazish) bilan shug'ullanishi kerak, yoki himoyalovchi mexanizmlar yordamida ongdan bu yomon ma'lumotlarni yo'q qilish mumkin.

Ruhiyat va miya bog'liqligi haqida savollarni ko'rayotganda, psixo- fiziologik muammolarni ko'rib chiqish lozim. Shunday qilib,

har ikki mavjud yondashuvlar psixofiziologik muammoni echa olmaydi. SHuning uchun psixologiyada muammolarni o'rganishda yagona uslubiy yondashuv mavjud emas. Shu bilan birga aqliy va fiziologik jarayonlar o'rtasida yaqin bog'liqlik ham bor deb aytish mumkin. Shu sabab uchun ruhiy holatlarni hisobga olganda, har doim aqliy va fiziologik jarayonlar qattiq bog'liq hodisa va jarayonlar faoliyatini lgaoshiruvchi «substrat»ni aks ettiradi.

2.5. Psixikaning ontogenezda va filogenezda rivojlanishi

Psixikaning ontogenezda rivojlanishi - inson tug'ilgan vaqtidan boshlab voyaga etgunga qadar murakkab psixik rivojlanish yoshidan o'tadi. Agar bolaning tug'ilgan birinchi yilidagi psixikasini 5-6 yildan so'nggi psixika bilan taqqoslasak, uning ma'lumot qabul qilishida nafaqat miqdorda, balki sifatida farq bo'ladi.

Tashqi faoliyatni ichki faoliyatga ta'siri, aks etishi bu tashqi faoliyat oldindan mavjud bo'lgan "rejalashtirilgan ong"ga ko'chib o'tishi degani emas; bu shunaqangi jarayonki unda o'sha ichki plan(sistema) shakllanadi. Ong bu, bevosita sub'ektga ochiladigan olam manzarasidir, unda sub'ektning o'zi ham shuningdek, uning faoliyati va holati ham kiradi deb hisoblaydi Leontev. Dastlab ong faqatgina sub'ektga atrofidagi olamni ochib beradigan psixologik ong va psixik rivojlanish sifatida qaraladi; keyingi bosqichlarda faoliyat ongning predmetiga aylanadi, bu bosqichda boshqa insonlarning harakatlarini, ulardan kelib chiqib esa sub'ekt o'zining shaxsiy harakatlarini anglay boshlaydi. Natijada, aql- idrokimizdagi, "rejalashtirilgan ong"dagi ichki harakatlar vujudga keladi. Ongdagi ko'rinish yoki tasvir haqiqiy ko'rinishga aylanadi, ya'ni xayolan harakat qilish mumkin bo'lgan model (nusxa) ga aylanadi. Bu ishlaydigan sistema insonning sergaklik holati yoki boshqa so'z bilan aytganda, insonning o'ziga hos sergaklik xususiyati bu ongdur".

Ananevning fikricha, ong harakat ta'sirining murakkab qismi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ongning dastlabki xususiyatlari - bu idrok qilish va insonning bolalik vaqtidagi o'zining shaxsiy harakatlari natijasida paydo bo'lgan kechinmalaridir. Asta-sekin nafaqat harakat ta'siri, shuningdek bolaning faoliyat jarayoni ham anglab etiladi. Ongning o'ziga xos rivojlanishida inson alohida harakatlarni bajarishidan, bir maqsadga qaratilgan, rejalashtirilgan faoliyatga

o'tadi. Shu holda, sergaklikning butun holati yaxlit " ong oqimi" ga yuzaga keladi, bu bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatga o'tishni anglatadi. "Ong butun borliqni faol aksi sifatida, insonning amaliy faoliyatini uni o'rab turgan olamga, muhitda tartibga solib turadi".

Psixikaning filogenezda rivojlanishi - kishi psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo'lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib etishga harakat kiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziktirib kelgan.

Metrialistik yunalishidagi olimlar psixikaning paydo bo'lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izoylashadi. Ular materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban uziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli xil shakllarini o'rganadilar. Harakatsiz, hamisha mutlaqo harakatsizlikdagi materiya umuman bo'lmaydi. Olamdagi butun materiya jami noorganik va organik tabiat harakatlanish, o'zgarish varivojlanish holatida bo'ladi.

Jonsiz, noorganik materiyadan tortib to eng oliy va murakkab materiya hisoblanmish kishi miyasiga qadar barcha materiyalar moddiy olamning yalpi xususiyati - *in'ikos* etish xususiyatiga, ya'ni ta'sirotlarga javob kaytarish qobiliyatiga egadir. I'ikos materiyaning mavjud bo'lish tarziga muvofik javob qaytarishga qodirligi bilan namoyon bo'ladi.

B. G. Ananevning fikricha, "ong psixologik faoliyat sifatida his-tuyg'uli va mantiqiy bilimlarni jo'shqin o'zaro bog'lanishi, bir butun bo'lib ishlashini ta'minlaydigan va har birini alohida bilim deb aniqlaydigan sistemadir.

Jonsiz tabiatda harakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy ta'siri tarzida yuz berish mumkin. Jonli materiyaga utishda harakati tarzi ham sifat jixatidan o'zgaradi. Jonli materiyaga in'ikosning biologik shakllari xos bo'lib, jonli materiyaning ma'lum bir bosqich daesa in'ikosning yangi shakli sifatidagi psixika paydo bo'ladi.

Materiya harakatining biolgik shakli - hayot - tabiat rivojlanishining sifat jixatidan yangi bosqichdir. O'lik

materiyaga utishni izohlaydigan qator gipotezalar mavjud. Ulardan biri *A.I. Oparinga* tegishli bo'lib, unga k o'ra organik moddalar atomlar turli shakllarda azotning, kislorodning,

vodorodning, fosfor va oltingugurtning atomlari bilan boglangan modda - uglerod negizida hosil bo'lgan birikimalarning paydo bo'lishi jonli materiya paydo bo'lishining zarur sharti hisoblanadi. Oparning gipotezasiga ko'ra, taxminan ikki milliard yil ilgari atmosferada erkin kislorod ajralib chikib, organik moddalardan tayyorlangan allaqanday «sh o'rva»ga uxshash bo'lgan. Organik birikmalarning rivojlanishi jarayonida uglerodning juda ham murakkab birikmalari - benihoya katta molekulalar paydo bo'ldi.

Oqsilli molekula bilan muhit o'rtasida modda almashinuvi avval boshdanoq faol jarayon edi. Bu beniyoya katta molekulalar kontservatlar degan nom bilan atala boshladi. Kontservat tomchilari ma'lum ma'noda to'yimli moddalar uchun kurashda o'zaro raqobat qilishardi, degan taxminlar ham bor. Bu tomchilarning ancha qulay kimyoviy tarkibiga yoki strukturaga ega bo'lgan ba'zi birlari boshqalariga nisbatan tezroq o'sdi. Ular ertaroq kattalashib, beqaror bo'lib qolishar va ancha mayda zarrachalarga parchalanib ketishardi. So'ngra jarayon yana takrorlanardi: o'sish, parchalanish va hakoza.

In'iksoning o'ziga xos qoldiq shakllari mavjud bo'lgan bunday organik strukturalar bir kancha geologik davomida faoliyat ko'rsatgan holda hozirgi zamon jonli sistemalari ajdodlarining paydo bo'lishiga olib kelganligini faraz qilish uchun asos bo'lgan.

Har qanday jonli organizm barcha tashki kuzatuvchilarga nisbatan tanlangan holda (faol) munosabatda bo'ldai va bu bilan jonli materiyaning sifat jihatidan yangi xususiyatni - o'z-o'zini tartibga solish xususiyatini namoyon qiladi.

Uzoq davr davom etgan evolyusiya natijasida hozirgi organizmlarda in'ikosning kuzgaluvchanligidan tortib to uning ancha yuksak darajasidagi shakllari - psixik hayotning ifodaga kadar turli xildagi shakllarni ko'ramiz.

O'simlik va xayvonlarga mansub shakllar evolyusiyasining barcha boskichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning aloxida, biologik shakli - ta'sirlanuvchanlikka ega bo'ladi. Ta'sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan (biotik) ta'sirotlarning ta'siriga javob berish qobiliyati demakdir.

Shunday qilib, sodda hayvonlarda tashki muhitga yoruglik bilan issqlik ko'shib, muvakkat boglanishlar hosil qilinishiga nisbatan ham faol mo'ljal ola bilish tendensiyasi mavjudligi namoyon bo'ladi.

In'ikos etish darajasi ko'p hujayralilarga o'xshab suvli muhitga hayot kechiradigan kovakchilar eng sodda ko'p hujayralilar jumlasiga kiradi. Lekin bu organizmlarning tuzilishi bir hujayralilarga nisbatan anchagina murakkabdir. Murakkabligi bu hayvonlarning ko'p hujayrali ekanligida emas, balki ulardagi hujayralarning nisbatan bir emasligidadir: masalna, tanasining tashqi qismida sanchiladigan hujayralar joylashgan bo'lsa, ichki qismi esa ovqat hazm qiladigan hujayralar bilan qoplangan bo'ladi. Ko'p hujayrlarning organizmida, shuningdek, organizmning biror-bir qismida ro'y bergan qo'zgalishning o'tkazgichi funksiyasini bajaradigan alohida sezuvchan protoplazmali hujayralar ham bo'ladi. Alohida sezuvchan (nerv) hujayralari o'zaro birikib, hayvonning butun tanasiga yoyilgan nerv shaxobchasini tashkil etadi.

Shunday qilib, ko'p sonli nerv tugunchalarining paydo bo'lishi haliveri yana ham nafisrok aks ettirish va demak tevarak-atrofdagi tashki muxitga moslashish uchun sharoit tugdirishi mumkin bo'lgan usha haqiqiy foyjali murakkabligini ta'min eta olmaydi. Lekin hozirdayoq, ancha murakkab aks ettirish imkoniyatlari paydo bo'la boshladi - ular asosiy gangliyda mujassamlashganlar. Asosiy gangliyning funksiyalari va boglanishlariga ko'ra bir xil bo'lmagan nerv hujayralarining birikuvidan tarkib topadi. U hayvon tanasining istalgan qismida yuz beradigan qo'zgalishlarni jamlaydi, ularni tahlil qiladi, boshqa hujayralarga utkazadi, impulslarni segmentlarning mushak apparatiga yo'naltiriladi. Sudraluvchi va kavlovchi hayvonlar sifatidagi chuvalchanglarda asosiy gangliylr mavjud bo'lganligi tufayli tananing imkonini beradigan tukchalar, m o'ylabchalar, k o'z murtaklari paydo buladi. Gangliy funksiyali nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvolarning aks ettirish imkoniyatlari shartsiz refleklar bilangina cheklanmaydi. Hayot kechirish jarayonida ularda tugma reaksiyalargiga nisbatan yanggi, ancha harakatchan reaksiya shakllari - shartli refleklar paydo bo'ladi.

Shunday qilib gangliy funksiyali nerv sistemasining o'ziyoq, cheklanmagan mikdordagi ta'sirlari javob kilishning ytarli darajada murakkab vositasidan iboratdir. Ytakchi gangliy bilan idora kiluvchi ganglioz nerv sismtemasiga ega bo'lgan hayvonning hatti-harakatlari diffuziyali, turli nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarning hatti-harakatlaridan jiddiy farq qiladi.

Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bogliq bo'ladi. Instiktning amal qilish mexanizmi shundan iboratki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabat bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zgaydi va hakozi. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va bu bilan nasliy yo'l bilan mustahkamlangan programmani amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar uzgarishi bilanoq uzining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. Shunday qilib, hatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Shuni qayd qilish kerakki, ba'zi bir instinktlar mazkur turning barcha shakllariga xos bulsa ham, lekin ularning namoyon bo'lishi afrimlarida biroz boshqacharoq tarzda kechadi.

Instiktning bu tarzda nisbiy har xilligi turli hayot kechirsh sharoitlari keskin o'zgarib takdira ham saklanib qolishini ta'minlaydi. Yosh hayvonlarda instinktiv harakatlarni qo'zatayotib, bu harakterlar yosh hayvonlarda qarilarga nisbatan ancha beso'naqay yuz beradi. Jozotning individual hayot kechirishi jarayonida orttirilgan va tugma hatti-harakat programmasining puxta bajarilishini ta'minlaydigan tajriba instinktlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, instinktiv harakatlar turli xildagi ko'p sonli qo'zgatuvchilarning aks etishini ta'min eta olmaydi va shunga ko'ra umurtqalilarning aks ettirish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Umurtqalilardan naychali nerv sistemasi (orqa va bosh miya bilan qushilib) rivojlangan bo'lib, shu tufayli ularda tashki muhitni asliga ancha o'xshaydigan tarzda aks ettirishning potensial imkoniyatlari oshadi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarga nisbatan umurtqali hayvonlarda retseptorlar yanada takomillashib, tobora ko'proq maxsuslashib boradi. Evolyusiya natijasida erishiladigan ana shu ichki imkoniyatlar atigi birgina instinktiv harakatlarni keltirib chikarish uchun foydalanilmaydi, albatta.

Hayvon evolyusiya taraqqiyotining yuqori bosgichiga ko'tarilgan sari, hosil bo'ladigan shartli boglanishlari ham shuncha murakkabroq va yana ham nafisrok bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, shartli boglanishlar ham holatlar uzgarganda hayvon hatti-harakatning yangi belgilarini mustaqil hosil qilishga asoslangan nafis individual hatti-harakatning yanada murakkabroq shakllarini chiniktirishdir. Nafis individual harakat uchun muhitning

ayrim xususiyatlarigina (harorat, rang, hid) emas, balki butun bir konkret vaziyatlar taxlil va sintez qilishi shart.

Birinchi holatda hatti-harakat instinktiv progammaga asosan bo'lgan bo'lsa, ikkinchi holda hatti-harakat bevosita vaziyatni tahlil qilish natijasida ro'y beradi.

Hatti-harakatning ikkinchi tipi ayniqsa sut emizuvchilarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunday hayvonlar endi butun bir vaziyatlarni idrok etib, tahlil qila boshlaydi, uz hatti-harakatlarini tugrilab, uzgarayotgan shart-sharoitlarga moslasha boshlaydi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda hatti-harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda uzgaruvchan individual shakllari - malakalar va intellektual hatti-harakatlar ham mavjud bo'ladi. Malakalar deganda hayvonlarning shartli boglanishiga asosan bajaradigan va avtomatik tarzda takrorlanadigan hatti-harakat tushuniladi. Malakalar xuddi instinktlarga o'xshab rivojlanishning nisbatan quyi bosqichlarida ham bo'ladi, lekin aniq ifoda etilgan malakalar faqat bosh miya qobigi bo'lgan hayvonlardagina namoyon bo'ladi.

Hayvonlarning malakalari tarkibiga kiradigan harakatlanuvchi elementlar turning o'ziga xos tajribasini takrorlaydigan tugma harakatlardan iborat bo'lishi ham, shuningdek tasodifiy harakat namunalardan iborat bo'lishi ham, shuningdek tasodifiy harakat namunalarining takrorlanishi jarayonida kunikma hosil bo'lgan harakatlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Nazariy savollar.

1. Seskanuvchanlik nima?
2. Tropismni qanday turlarini bilasiz?
3. Psixika bu?
4. Ong daganida nima tushunasiz?
5. Ong xususiyatlari deganida nima tushunasiz?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Shamshetova A., Melibayeva R. va boshqalar. Umumiy psixologiya fanidan UMK., 2016
2. G'oziev. E.G'. Umumiy psixologiyasi. T., ToshDU, 2010.
3. David G. Mayers Psychology, USA, 2010
4. James W. Kalat, Psychology. USA, 2013

5. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya.
T.:TDPU, 2012.-202b

Internet saytlari

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.koob.ru

III BOB. FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TALQINI

3.1. Faoliyat, uning tarkibiy qismlari va turlari

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatni muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning *faolligidir*. Faollik (lotincha "actus" - harakat, "activus" - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotidagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi turkumdir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish davrida amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglash muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashiga aloqador sifatleri orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi mavjud :

A. Tashqi faollik - bu tashqi dunyoda o'z ichki istak-xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixologik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat davomiyligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hissiyotlarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotda kechadigan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini silashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak, xamda uni ifodalagan rasmni

qursak, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala faoliyat turi ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faoliyat turlari aslida ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan kechadigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faoliyati "harakat", "faoliyat", "xulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faoliyatlar jarayonida shakllanadi, xamda o'zligini namoyon qiladi. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni **faoliyat** deb yuritiladi. Ya'ni, **faoliyat** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash holatlardandir. Inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Faoliyatning tarkibi

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatda inson o'z xatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va mag'lubiyatini o'ylaydi.


Faoliyat bir tomondan, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, ikkinchidan, shu faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismni: maqsad–motiv–harakatni ajratish mumkindir.


Maqsad – inson faoliyati so‘nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo‘ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv – kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish–harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi. Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi–ko‘pmi uzoq yoki yaqin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tug‘iladigan qator juz‘iy maqsadlarni izchillik bilan hosil qilishdan iborat bo‘ladi. Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan.



Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlarni ish-harakat (sa‘i-harakat) deb yuritiladi. Narsalar bilan qilinadigan istalgan bir ish makon va zamon bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lum harakatlardan tashkil topadi. Masalan: “A”, “I” harflarni yozishdagi harakatlar, bir-biridan farq qiladi. Odamlarning narsalar bilan qiladigan harakatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu harakatlar tashqi jihatdan juda ko‘p, rang-barangdir. Shunday bo‘lsa ham, odatda ular uchta sodda elementlardan tashkil topgandir; “olmoq”, “joyini o‘zgartirmoq”, “quyib yubormoq” bu harakatlar odamning tanasi, oyoqlari va boshi bilan qilinadigan yordamchi harakatlar bilan amalga oshiriladi. Predmetli harakat tarkibi quyidagicha izohlanadi.



Inson faoliyatiga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilish tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglovchi matn paydo bo'ladi.

Inson faoliyati narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sa'i – harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati, b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish), v) joy almashish (yurish-yugurish), g) aloqa vositalari sa'i–harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari

tarkibiga; a) ifodali sa'i- harakat (imo-ishora, pantomimika), b) ma'noli ishora, v) nutqiy sa'i- harakatlarni kiritadi. Sa'i- harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganidan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'i- harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning amalga oshishi, shart-sharoitlarga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzidagi sa'i-harakatni taqazo etadi, b) avtomobilni haydash velosepedda uchishga qaraganda o'zgacha sa'i-harakat talab qiladi, v) ellik kilogramm shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi, g) kartonga katta shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha ob'ektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Ob'ektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A. Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida isbotlab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i - harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilish mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'i- harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa tamoyiliga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchisi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. **Afferentatsiya** (lotincha afforens keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa axborotlarning tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning

aks holatini namoyon qiladi. Sa'i – harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi.

Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsuloti timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'i-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular "Bo'lg'usi harakat modellari", "sa'i-harakat dasturi", "maqsadning dasturi", "miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari" singari tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari; "Harakat akseptori" va "Ilgarilab aks ettirish" (P.K.Anoxin), "Harakat-lantiruvchi vazifa" va "Bo'lg'usi ehtiyoj andozasi" (N.A.Bernshteyn), "Zaruriy mohiyat" va "Kelajak andozasi" (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvur-larning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi.

Narsalar bilan qilinadigan ish-harakatidan tashqari, odamning faoliyatini badanning ma'lum vaziyatini va qiyofasini saqlab turishni ta'minlaydigan harakatlar, organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga o'rin almashtirishi, kommunikatsiyani ta'minlaydigan harakatlar, ifodali harakatlar va nutq harakatlari mavjud.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum tizimdagi harakatlarni amalga oshirishdan iborat. Harakatlar tizimi va maqsadi bilan, bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoiti bilan bog'liqdir. Masalan, stakan va qalamni olish, piyoda va chang'ida yurish, og'ir va yengil narsani boshqa joyga olib qo'yish, mayda va katta mixni qoqish, gantel va shtangani ko'tarish, harakatlari bir-biridan farq qiladi.

Harakatning boshqarilishi va uning natijalarini erishiladigan pirovard maqsad, taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'ldirib turiladi. Unday nazorat sezgi a'zolari yordami bilan

erishilishi mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi. Demak, maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, tilakdagi kelajak modeli bilan ishning mazkur natijalari taqqoslanadi, xuddi ana shu ishning qay yo'sinda bo'lishi boshqariladi.

Harakatlarning istagan bir tomonlarini ularning motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlari deb atash mumkin. Ishni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga muvofiq, ular ishni ijro qiluvchi, boshqaruvchi deb belgilanishi mumkin. Bu vazifalarning har birini kishi ongli va ongsiz ravishda bajarishi mumkin. Odam talaffuz qilmoqchi bo'lgan gapning grammatik shakli va mazmuni hamisha ong yordamida oldindan payqab olinadi. Odatda, ishdan ko'zlangan maqsad va shuning bilan birga ishning umumiy xarakteri hamma vaqt anglab olinadi. Masalan, velosipedda ketayotgan odam mutlaqo ongsizlik holatida buning uddasidan chiqa olmaydi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi. Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi **malaka** deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.

2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. Masalan, mashinistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovozidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.

3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operatsiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. **Malaka** deb mashq qilish jarayonida ish harakatlari bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga, aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. Malaka quyidagicha hosil qilinadi:

- a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;
- b) harakat namunasini esda olib qolish;
- v) malaka namunalari ko'p marta bajarish, mashq qilish;

Aqliy harakatlarning ko'rinishlari:

- perseptiv - ya'ni bular shunday harakatlarki, ular oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;
- mnemik faoliyat, narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab qolinishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi;
- fikrlash faoliyati - aql, fahm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;
- imativ - ("image" - obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlari tezlashadi, xatolar kamayadi;

d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlari ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlari mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga

kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyatni his qilayotganligidan xabar berib turadi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargni va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishza, ifoda etilishi mumkin:

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat tashqi harakatlar asosida shakllanadi va alohida komponentlardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish kuzatilsa, bunday jarayon psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, qabul qilib alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz. **Ko'nikmalar** - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- oddiy namoyish etish yo'li bilan;
- tushuntirish yo'li bilan;
- ko'rsatish bilan tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

Hayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o'qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishi-shimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik

turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari.

Muloqot - shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab etolmaydi.

O'yin faoliyati faoliyatning oddiy shakllaridan biri hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib sodda harakatlarni keyinchalik syujetli, rolli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof muhitni aks ettirishda ishtirok yeta boshlaydi.

Tajribalardan xulosa qilish mumkinki, 5-6 yoshdagi bolalar uchun eng muhimi u o'ynayotgan rol. Rolni gavdalantirish davomida bolaning faoliyatga bo'lgan munosabati yuzaga chiqadi. Ko'rilgan vaziyatdan shunday gipoteza tug'iladi. Demak, bola o'ziga boshqa odamlarning rolini olayotgan ekan, shu rolga xos, tegishli faoliyat va munosabatlarni aks ettirishi o'yinning birlamchi asosidir⁹. "Bolalar o'yinlarining mohiyati shundan

1933 yilda "o'yin" tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o'ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boytendayk hisoblanadi. O'yinning alomatlari "u yoqqa va bu yoqqa harakat "ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik". Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlashiga harakat qiladi, chunki o'yinning qiymati va ahamiyati ularning o'zlari tomonidan oqilona baholash, deganlari xulosaga keladi.



⁹ Д.Б.Эльконин "Психология игры" М.:1999 5-бет.

iboratki, u o'yinda u yoki bu rolni bajaradilar va eng qiziq jihati, mayda, keraksiz buyumlarni **haqiqiy tirik mavjudotlarga** aylantirishni xohlashlari ham mumkin"¹⁰. V. Vundning mulohazalariga ko'ra, o'yinning manbai huzur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V. Vundt bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo'lib, o'yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Uning fikricha o'yin – bu bolalarning mehnatidir. Har qanday o'yin jiddiy mehnatning u yoki

**"LEARNING IS THE
EYE OF THE MIND"**

**"МИЙЯНИНГ КЎЗИ
ЎРГАНИШДИР"**

**Thomas Drake,
Bibliotheca Scholastica
Instructissima. 1633**

bu shaklining prototipidir. Yashash zaruruyati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o'z kuch-qudratini baholashga o'rganib boradi, mehnatning huzur qilish va rohatlanishning manbai ekanligiga iqror bo'ladi. O'yin mehnatning foydali jihatini ko'rsatib boradi.

A. Arkin esa o'yinlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

1. Ishlab chiqarishga: Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kasb-hunarga oid o'yinlar;
2. Maishiy va ijtimoiy siyosatga: Bog'cha, maktab kundalik turmushga oid o'yinlar;
3. Harbiy: urush o'yinlari;
4. Dramalashtirilgan: Kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar.

D. B. Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra 3 ta guruxga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Maishiy mavzudagi syujetga oid o'yinlar.
2. Syujetiga taaluqli o'yinlar.
3. Ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

D. B. Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmunini o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhga ajratadi:


1. Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-protsessual o'yinlar.
2. Muayyan syujetli dramalashtirilgan o'yinlar.
3. Syujetli o'yinlar.
4. Syujetsiz o'yinlar.

¹⁰ Селли Джемс Очерки по психологии детства /Пер.с англ. М., 1901

5. Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari¹¹.

O'qish faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faoliyatki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

O'rganish faoliyati bu - biron bir organizm xatti- harakatining tajribaga ko'ra o'zgarishidir. O'rganish faoliyatining uch turi bor: ular 1- Classical conditioning (Klassik sharoit) 2-Operant condition (rag'batlantirilish orqali biron bir ish harakatini bajarishga o'rgatish) 3-Observational learning (Kuzatish orqali o'rganish)



200-yil oldin faylasuf Jon Loke va David Hyuman Aristotelning xulosalari asosida shunday degan: Biz assosatsiyalar orqali o'rganamiz. Bizning miyamiz izchil ravishda voqea va hodisalarni

bir-biriga bog'laydi. Faraz qiling: Siz yangi tandirda yopilgan nonni ko'rsangiz uni hidlaysiz, tatib ko'rasiz, shuningdek undan rohatlanasiz. Keyingi safar siz yangi yopilgan nonni ko'rganingizda tajribangizdan siz uni yana tatib ko'rsangiz undan rohatlanishingizni bilasiz (Wells, 1981). Yuqoridagi assosatsiya bizning doimiy xatti-harakatlarimizni tushuntirib beradi (Wood&Neal, 2002). Xatti-harakatlarimizning takrorlanishi natijasida bizda assosatsiya hosil bo'ladi. Xatti-harakatlar vaziyatlar bilan assosatsiyalanadi. Misol uchun



uyqu jarayonini karovat bilan bog'laymiz. Biron bir vaziyat asosidagi tajriba tufayli keyingi safar ushbu harakat avtomatik tarzda bajariladi. Masalan, asabiylashganida sigaret chekib tinchlangan odam keyingi safar bu ishni avtomatik tarzda bajaradi(Siegal 2005).

¹¹ Д.Б.Эльконин "Психология игры"М.: 1999



(a) Response: balancing a ball



(b) Consequence: receiving food



(c) Behavior strengthened

Conditioning (inglizcha shart qo'yish, sharoit muhit deb tarjima qilinadi) - o'rganish assosatsiyasining bir jarayonidir. **Classical conditioningda** biz ikki ta'sir qiluvchi omil va bu omilni bashorat qiluvchi bog'lanishlarni ya'ni assosatsiyalarni o'rganamiz. Biz chaqmoq yorug'ini birinchi ko'ramiz va chaqmoq chaqishini bilamiz va biz momaqaldiroq bo'lganda chaqmoq chaqishini assosatsiya qilamiz. Biz bu jarayonni ushbu rasmda ko'rsak bo'ladi:

Biz birinchi rasmda chaqmoq chaqishini birinchi marta guvohi bo'layotgan kishini ko'rib turibmiz, keyingi rasmda esa bu shaxsning ushbu jarayonni ikkinchi marta guvohi bo'lganini ko'ramiz. Bu shaxs yorug'likni ko'rishi bilanoq momaqaldiroq bo'lishini biladi (o'ylaydi).

Operant conditionda biz biron bir ish-harakatni yaxshi natijaga erishmaguncha takrorlaymiz va yomon natijalarni takrorlamaslikka harakat qilamiz.

Ushbu rasmda morj ko'ptokni boshida ushlab turishni o'rganyapti. Birinchi rasmda u bu harakatni birinchi marta bajardi va buning evaziga baliq bilan rag'batlantirildi va buning natijasida u keyingi safar bu harakatni juda yaxshi bajaradi. Soddalashtiramiz, biz assosatsiyali o'rganishning ikki farqli turini kashf etdik. Ko'pincha ular birgalikda sodir bo'ladi. Yaponiyalik bir chorvador podasidagi mollarga peydjer (signal beruvchi maxsus moslama)lar taqib qo'yadi. Oradan bir hafta o'tgach mollar ikkita narsani assosatsiya qilishni o'rganadi: birinchisi signal chalinishini va so'ng ovqat olib kelinishini biladi-bu **classical conditionning**. Ular emish idishlarini surishni ya'ni kelganlari uchun emish so'rashni o'rganadi- bu esa **operant condition** (rag'batlantirish orqali biron bir ish harakatni bajarishga o'rgatish).

O'rganish jarayoni faqatgina yuqoridagilardan iborat emas. **Observational learning** (kuzatib o'rganish)da biz boshqalarning

xatti-harakatlaridan o'rganamiz. Misol uchun, shimpanzalar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatib o'rganadi. Agar bittasi boshqa birining biror bir harakatni bajarib rag'batlantirilganini ko'rsa, u ham shu zahoti ushbu harakatni takrorlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz harakatlarni sharoitga ko'ra va observatsion (kuzatish) orqali o'rganamiz va sharoitga moslashamiz. Biror bir belgini sezamiz va undan so'ng nima bo'lishini tajribamiz orqali bilamiz va unga tayyorlanamiz bu **classical condition** (Klassik sharoit)

Biz shuningdek biror bir xatti - harakatlarni o'rganib yaxshi natijaga erishmaguncha takrorlayveramiz. Bu esa **Operant condition** (rag'batlantirish orqali biron bir ish harakatni bajarishga o'rgatish) deyiladi. Boshqalarni kuzatib yangi xatti harakatlarni o'rganishimiz **Observational learning** (Kuzatuv orqali o'rganish) deyiladi¹².

Mehnat faoliyati eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shishdan iboratdir.

Z. Freydning ta'kidlashicha, sog'lom turmush tarzi mehnat va sog'lom muhabbat bilan to'ldiriladi. Bizning ko'pchiligimiz uchun mehnat hayotning eng katta va faol mashg'ulotidir. Yashash bu mehnatdir. Mehnat faoliyati Maslou piramidasidagi ehtiyojlarni qondirilishiga yordam beradi. Mehnat faoliyati bizni ta'minlaydi. Mehnat faoliyati orqali biz boshqalar bilan kommunikativ aloqaga kirishamiz. Mehnat faoliyati bizning kim ekanligimizni anglatadi. Birinchi bor kim bilandir ko'rishganimizda qiziqib «Siz kimsiz?», «Qanday faoliyat bilan shug'ullanasiz?», «Nima ish qilasiz?» deb savol beramiz.

Ishimizga bo'lgan e'tibor, munosabatlar yoki tenglikdan qoniqish hosil qilmasak, kim uchun yoki qaerda ishlashimizdan kat'iy nazar ish joyimizni o'zgartirishimiz mumkin. Masalan, Avstraliyaliklarning 16 foizi xuddi shu sabab bilan o'z ishlarini o'zgartirdilar. (Trevin 2001). Yigirma yil oldin siz mehnat faoliyati qanday bo'lishini hozirgiday tasavvur qila olmagan bo'lar edingiz. Siz o'zingiz uchun kollej, litsey yoki universitetlarni tanlashda o'zingizning layoqat, qobiliyatlaringizni anglashingiz va tushunishingiz o'sha ish muhitiga moslasha olishingizga yordam beradi. Emi Vrsesnievskiy va uning

¹² David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 331-333 бетлар

hamkasblari (1997- 2001) insonlarning ishlariga bo'lgan munosabatlarini identifikatsiya yordamida o'rganadilar

Buning natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: ba'zi odamlar o'z ishlarini faoliyat sifatida, bajarish kerak bo'lganligi uchun pul topishning bir yo'li deb bajaradilar. Boshqalar esa o'z ishlarini jamiyatda ijtimoiy mavqeiga ega bo'lishning bir imkoniyati sifatida ya'ni karera uchun bajaradilar. Qolganlari esa o'z ishlarini ijtimoiy foydali mehnat deb biladilar va ishidan mazmun va qoniqish hosil qilib, rohatlanib ishlaydilar¹³.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

3.2. Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari

Olimlar, maslahatchilar va professional boshqaruvchilar, sanoatlashgan ruhiy tashkilotlar ish davomida xilma xil soha yo'nalishlarini topishmoqda. Kasbiy faoliyat chuqur, umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rilgan, ishlash tajribasi natijasida egallangan maxsus bilimlar va



amaliy ko'nikmalar to'plamiga ega insonning faoliyati, mashg'ulot turidir.

Kasbning rivojlanish mantiqi shundaki, u boshlanishida odamlarning ma'lum bir talablaridan paydo bo'ladi. Keyin amaliy tajribani yig'ish va uni chuqur

¹³ David G. Myers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 521 bet

mulohaza qilish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyatning nazariy bazasi shakllantiriladi. Kadrlarni tayyorlash masalasi hal qilinadi. Mutaxassisning amaliy faoliyatiga ilmiy asoslar uchun imkoniyatlar beriladi, bu tashqarida, kasbiy jurnallar, monografiyalar, o'quv-uslubiy adabiyotlarning paydo bo'lishida aks etadi; kasbiy tashkilotlar yaratiladi.

Jumladan, turli shakllar va nomlar bilan ataladigan ijtimoiy xizmatchining kasbi turli tarixiy va turli madaniy-tarixiy davrlardan buyon ma'lum. Ijtimoiy ishning birinchi marta tilga olinishi eramizdan avvalgi 1750 yilga taalluqlidir. Bu vaqtda Bobilda adolat kodlari – fuqarolik aktlari yaratilgan bo'lib, ular odamlarni o'z yaqinini sevishga, kambag'allar to'g'risida qayg'urishga chorlaydi. Qadimgi Gretsiyada ijtimoiy ish “filantropiya” (yunon tilidan tarjima qilinganda “insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash” ma'nosini bildiradi) sifatida ma'lum bo'lgan, Rimda esa– “xalq an'anasi” sifatida qadimgi inklar yordam berish jarayonini “minka” deb, ma'jusiy slavyan qabilalari “slepnya” deb ta'riflaganlar. Rossiyada ijtimoiy ish 1864 yildagi er islohotlarini o'tkazish davrida paydo bo'ldi, lekin u paytda bu nom bilan atalmagan edi. Ijtimoiy xizmatchilarning e'tiborini ko'rlarga, kambag'allarga, qarovsiz bolalarga, zotsiz va boshpanasiz yoshi katta odamlarga qaratish bo'yicha vazifalarni maxsus vakillar bajarganlar. Bu faoliyatning muvaffaqiyati, boshqa istalgan har qanday faoliyatdagi kabi, odamlarning bilimlariga, hayotiy tajribasiga va kasbiy mahoratiga bog'liq edi.

Jahon amaliyotidagi zamonaviy yondashish ijtimoiy ish, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyat shakllaridan biri ekanligi aniq-ravshan . Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ish jamiyatdagi ijtimoiy kataklizmlarni va ziddiyatlarni qat'iy to'xtatib turadigan vosita hisoblanadi va unga jamiyat va davlat qanchalik ko'p mablag' ajratsa, u shunchalik samaraliroq bo'ladi. Demak, jamiyatning katta qismini oldindan tayyorlamasdan va roziligini olmasdan ijtimoiy qayta taqsimlashga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu borada zamonaviy Rossiyaga tatbiq qilinsa, ijtimoiy xizmatlarning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy ishga jamoat birlashmalarini, xayriya jamg'armalarini, ijodiy va kasbiy ittifoqlarni, konfessiyalarning qo'shilishi siyosiy masala va ayni paytda milliy xavfsizlik sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ish amaliyotida, uning paydo bo'lishidan boshlab hozirgi vaqtgacha, ijtimoiy pedagogikaning asosiy, hal qiluvchi rol o'ynashi axamiyatlidir. Bunda "ijtimoiy pedagogika" tushunchasi "maktabdagi ijtimoiy ish" tushunchasiga teng emasligini tushuntirish muhim. Ijtimoiy pedagogika yoki sotsiumdagi pedagogik munosabatlar aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati uchun ilmiy asos sifatida ko'riladi. Bu sotsiumdagi munosabatlarga tashxis qo'yish, ularni aniqlash va pedagogik maqsadga muvofiq ta'sir etish imkonini beradi. Ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogika muammolarining ko'lami katta va o'zida hayotiy vaziyatlarning juda ko'p qirralarini va turli yoshdagi va ijtimoiy holatdagi odamlarning kolliziyalarini mujassamlashtiradi.

Quyidagi uchtagina misol yordamida hozirgi kun ijtimoiy pedagoglari va ijtimoiy xizmatchilari nima ishlar bilan bandligini tasavvur etish mumkin;

1. Ijtimoiy xizmatchi birinchi navbatda qaysi muassasalar bilan aloqa o'rnatishi lozim?

2. Bu oila bilan qanday reja asosida ish olib borish kerak?

Ijtimoiy xizmatchilar inson va jamiyatning quyidagi ijtimoiy muammolarini echish uchun tashkil etilgan:

— ijtimoiy va psixologik ziddiyatlar, inqirozlar, stressli vaziyatlar;

— hissiy va ruhiy muammolar;

— muhtojlik va qashshoqlik;

— ichkilikbozlik va giyohvandlik;

— zo'ravonlik va diskriminatsiya;

— irqiy va milliy muammolar;

— jinoyatchilik va qonunbuzarlik;

— ishsizlik va kasbiy moslashish;

— nogironlik va yolg'iz qarilik;

— uy-joy muammosi;

— vasiylik, farzandlikka olish masalasi;

— ota-ona shafqatsizligi va boshqalar.

Ijtimoiy ish boshiga kulfat tushgan odamlarga yordam berish bilangina chegaralanadi, deb o'ylash noto'g'ri. Shu bilan birga u ijtimoiy nazoratning eng nozik vositalaridan biri hamdir. G'amxo'rlik qilish va nazoratning funksiyalari o'rtasidagi ziddiyat, yordamning har qanday turida nazorat qilish elementlarining muqarrar mavjud bo'lishi

– ijtimoiy xizmatchilar har doim to‘qnash keladigan dilemmalardan biridir. Bu dilemma yana bitta jiddiy muammo bilan, ya’ni: ijtimoiy xizmatchi birinchi navbatda kimning manfaatlarini ifodalaydi – davlatningmi, ish beruvchiningmi, mijozningmi yoki umuman jamiyatning?-degan masala bilan ham bog‘liq. Kasbiy qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan, ijtimoiy xizmatchi eng avvalo mijoz manfaatlarini undan keyin – jamiyat va undan ham keyin esa - o‘zining tashkiloti va davlat manfaatlarini ifodalashi kerak. Ustuvorliklarning bunday tizimini hayotga tadbiiq etish har doim ham yengil ko‘chmaydi. Ko‘pincha ijtimoiy xizmatchiga hamkasblarining qo‘llab-quvvatlashi va umuman kasbiy hamjihatlikka tayangan holda ular uchun kurashishga to‘g‘ri keladi.

Bugun kunda “ijtimoiy ish” kasbiga ko‘plab va turfa mutaxassisliklar ko‘lami mos keladi: ijtimoiy pedagog-psixolog; etnolog; ijtimoiy huquqshunos, ekolog, valeolog, ijtimoiy animator, gerontolog, yanada torroq mutaxassisliklar, ijtimoiy xizmatchilar (qochqinlar, nogironlar, “xatar guruhlari” bilan ish olib boradigan mutaxassislar, tibbiy ijtimoiy xizmatchi va boshqalar) yoki ma’lum muassasalarda (maktabdagi, ishlab chiqarishdagi ijtimoiy xizmatchi), mikromuhitning maxsus sohalaridagi (qabiladagi, qishloqdagi ijtimoiy xizmatchi; harbiy sohadagi ijtimoiy xizmatchi; favqulodda vaziyatlardagi ijtimoiy ishchi va; ijtimoiy ishni tashkil etish).

— **tashxis qo‘yish** – mutaxassis “ijtimoiy tashxis” qo‘yadi, psixologik va yoshga oid xossalarni, insonning qobiliyatlarini o‘rganadi, uning manfaatlari olamiga, muloqot doirasiga, uning hayoti sharoitlariga kirib ketadi, nisbiy va salbiy ta’sirlarni, muammolarni aniqlaydi;

— **tashkiliy** - mutaxassis u yoki bu faoliyatni amalga oshiradi, dam olishning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi, ishga joylashishga, kasbiy yo‘nalishga va moslashishga yordam beradi, o‘smirlar va yoshlar tashkilotlari faoliyatini markazlashtiradi, mijozga tibbiy, ta’limiy, madaniy, sport, huquqiy muassasalar va xayriya tashkilotlari bilan o‘zaro ta’sir kiladi ;

— **prognostik** - mutaxassis mikrorayon va ma’lum bir mikrosotssiumning ijtimoiy rivojlanish jarayonini dasturlashtirish va oldindan aytib berish bo‘yicha ijtimoiy ishda qatnashadigan turli institutlarning faoliyatida ishtirok etadi;

—**ogohlantirish** – profilaktik va ijtimoiy-terapevtik – mutaxassis salbiy ta’sirlar oldini olish va bartaraf etishning ijtimoiy-huquqiy, yuridik va psixologik mexanizmlarini harakatlantiradi va ularda o‘zi ham qatnashadi, muhtojlarga sotsioterapevtik yordamni tashkil etadi, jamiyatda huquqlarning himoyasini ta’minlaydi, o‘smirlarga va yoshlarga ijtimoiy va kasbiy yo‘nalishida o‘zini-o‘zini baxolash davrida yordam ko‘rsatadi;

—**tashkiliy-kommunikativ** – mutaxassis ko‘ngilli yordamchilarning, aholining ijtimoiy ishga, birgalikda mehnat qilish va dam olishga, xizmat bo‘yicha va shaxsiy muloqotlarga kirishishiga ko‘maklashadi, axborot to‘playdi va turli ijtimoiy institutlar o‘rtasida, ularning mijoz bilan ishlashida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

—**qo‘riqlash-himoya qilish** – mutaxassis mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun huquqiy me‘yorlarning barcha majmuini ishga soladi, mijozlar huquqiga nisbatan bevosita yoki bilvosita g‘ayri qonuniy harakatlarga yo‘l qo‘yayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan majburlash va yuridik javobgarlik choralari qo‘llanilishiga yordam ko‘rsatadi.

Ijtimoiy ishni tashkil etish va boshqarish sohasida band bo‘lgan xizmatchi ijtimoiy yordamning turli xil muassasalari bilan ishlashi, turli ko‘rinishdagi ijtimoiy ishlar olib borishiga to‘g‘ri keladi. Turli muassasalarda ijtimoiy yordam tashkilotchilarining ishida o‘ziga xosliklar ham mavjud bo‘lib, ular avvalo ijtimoiy ishning quyidagi yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi: a) oilaga yordam berish; b) ekstremal vaziyatlarda va “xatar guruhleri” bilan ishlash; v) sog‘liqni saqlash tizimida ishlash; g) ta’lim sohasida ishlash; d) bandlik xizmatlarida ishlash. Tegishli xizmatlarning xodimlari sifatida, ijtimoiy xizmatchilar va ijtimoiy pedagoglar o‘zlarini birinchi navbatda aholining ijtimoiy zaif guruhlarining himoyachilari deb his qilishlari kerak. O‘zining vazifasini professional darajada amalga oshirish uchun ular odamlarning qanday rivojlanayotganlari, o‘zaro ta’sir qilayotganlari, o‘zgarishlari, o‘qishlari, qiyinchilik va muammolarga munosabatlari, alohida odamlarga ijtimoiy shart-sharoitning ta’sir o‘tkazishini bilishlari, shuningdek, ishontirish va majburlash usullarini ularning o‘z faolliklarini rag‘batlantirish yo‘lida nozik biriktirishni bilishlari lozim. Ijtimoiy ishdagi muhim jihat - biz ko‘pincha boshqa odamlar uchun nima kerakligini hal qilish huquqiga ega emasligimizni anglash, ularning o‘zlari mavjud variantlardan eng

maqbulini tanlashga izn berishimizga bo'lgan ishonchdir. Odatda, ularning mavjud muqobilliklarni anglab etishida, xulq-atvorning mavjud variantlaridan har birining qiyosiy ustunliklari va kamchiliklarini baholashda, qarorlarni ongli va oqilona qabul qilishida yordam kerak bo'ladi.

Bunday yondashuv davlat vakillari odamlarga o'zini qanday tutishlari lozimligini zo'rlik bilan tushuntirish, ularga yordam ko'rsatish, xarakterini belgilashda o'zlarining tavsiyalarini tiqishtirish an'anasi bilan bog'liq avtoritar yondashuvdan keskin farq qiladi. Mushkul ahvolga tushib qolgan odamlarga o'zlarining his-tuyg'ularini ifodalash, tanglik holatidan chiqish yo'llarini topish, tegishli qaror qabul qilish va uni hayotga tatbiq etishda yordam berish uchun avtoritar ish usullaridan voz kechishdan tashqari har bir odam o'z hayotini o'zi muvaffaqiyatli tarzda tashkil etish huquqiga egaligi va layoqatligiga chindan ishonish ham zarur¹⁴.

3.3. Shaxsni faoliyatda tadqiq qilish va o'rganish borasidagi tajribalar

Bu yerda to'rtta yangi xabarlar bor, ba'zilari tabiiy kuzatuvdan olingan so'rovnomalardan iborat munosabatlar kuzatuvidir. Qay biri ijobiy va qay biri salbiy munosabat ekanligini belgilay olasizmi? (quyidagi jadvaldan javoblaringizni tekshiring)

1. Bolalar qanchalik ko'p televizor ko'rishsa, shunchalik kam miqdorda kitob o'qiydilar.

2. Bolalar qanchalik ko'p behayo dasturlarni tomosha qilsalar, shunchalar jinsiy yaqinlashishga bo'lgan ixtiyorlari oshadi.

3. Qanchalik ko'p bolalar ko'krakdan oziqlanishda davom etsalar, shunchalik buyuk maqsadlarga erishadilar.

4. O'smirlar qanchalik ko'p nonushta tanavuul qilsalar, shunchalik qomat buzilishi kuzatiladi (Timlin, 2008).

Ba'zan ko'zlarimiz payqamay qoladigan narsalarni statistik ma'lumotlar ko'rishga yordam beradi.

¹⁴ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 520-524-бетлар

Munosabat va sabab.

O‘zaro munosabatlar bizga bashorat qilishga yordam beradi. O‘zini o‘zi sust hurmat qilish munosabati bu depressiyadir. O‘z o‘zini

Eslab qolish nuqtasi
Munosabat sabab va natija
munosabatlarini
belgilaydi. Ikki narsaning bir-
biriga bog‘liqligini bilish
bizga xech qanday narsaning
sababini bilishni isbotlay
olmaydi. Shuni eslaganda
olimlar tajribalarini
o‘qigandek bo‘lasiz.

sust hurmat qilish depressiyaga sabab bo‘ladimi? Agar munosabat holatiga asoslansak, siz ha deb o‘ylaysiz. Qanchalik munosabatlar kuchli bo‘lmasin, siz hech narsani isbotlay olmaysiz!

Bu qarash juda muhim – shuning uchun asosiysi bu psixologik jihatdan o‘ylash – bu narsa yana bir misolga ya’ni 12,000 dan ziyod o‘smirlar so‘roviga qarata olinadi. O‘rganib chiqish shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar qanchalik ota

onasini yaxshi ko‘rishsa shunchalik kam yomon va nosog‘lom yo‘llar (barvaqt jinsiy yaqinlik, ichish, alkogol mahsulotlariga mukkasidan ketish va narkotiklar va zo‘ravonlik) dan yurishar ekan (Resnick et al 1997). “O‘smir bolalarga maktab yillarida har bir davrdan ko‘ra ko‘proq ta’sir ko‘rsatishadi”-deb ta’kidlanadi Associated Press (AP) nashriyoti tomonidan.

Mavjud bo‘lmagan munosabatlar. Bular qanday munosabatlar? Aloqadorlik koeffitsenti biz ilg‘amay qolgan munosabatlarni ko‘rsatib berishi mumkin. Biz noodatiy va g‘aroyib narsalarga ko‘ngilchanligimiz sababli, ayniqsa payqash va eslab qolishda sodir bo‘lgan ikki va undan ortiq hodisalarni birma bir eslab qolamiz. Misol uchun, qo‘ng‘iroq ketidan qo‘ng‘iroq. Agar ko‘ngilni g‘ash qiluvchi qo‘ng‘iroq bo‘lmasa, biz ko‘pincha buni payqamaymiz yoki eslab qolmaymiz.

Mana shunday qarashlar ko‘plab insonlarda shakarning bolalarda quvvatni oshirishiga, ivib ketish odamlarning shamollashiga sabab bo‘lishi, ob-havo o‘zgarishi bo‘g‘inlardagi og‘riqqa sabab bo‘lishiga ishonch uyg‘otgan.

Eslab qolish nuqtasi. Biz tasodifiy muvofiqliqni payqasak, ularning tasodifiyligini unutishimiz mumkin. Shuning uchun ularni

yo'qdek qabul qilishimiz oson¹⁵. Faoliyat tushunchasi bilan birga shaxs tushunchasi chambarchas boglanib keladi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Faoliyat haqida tushuncha.
2. Faoliyatning tuzilishi.
3. Faoliyatning o'ziga xosligi.
4. Faoliyatning interorizatsiyasi va ekstrorizatsiyasi.
5. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallash.
6. Faoliyatning asosiy turlari.
7. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishi.
8. Faollik va faoliyat tushunchalarining mazmuni.
9. Inson faoliyati va hayvonlarning xatti-xarakati o'rtasidagi farq.
10. Faoliyatni egallash
11. Ko'nikma va malaka tushunchalarining mazmuni.
12. Odat tushunchasining mazmuni.
13. Faoliyatni o'zlashtirish bosqichlari.

Nazorat savollari

1. Faoliyat tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Faoliyatning tuzilishi xususida nimalarni bilasiz?
3. Faoliyatning interorizatsiyasi va ekstrorizatsiyasi tushunchasining mohiyatini izohlang?
4. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallashni mohiyati nimalar bilan belgilanadi?
5. Faoliyatning asosiy turlarini ko'rsating?
6. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishining mohiyatini izohlang?

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Gamezo M.V, Domashenko I.A Atlas po psixologii M; «Prosveteniye» 1986 g
2. Gippenreyter Yu.B Vvedenie v obshchuyu psixologiyu: Kurs leksiy: Uchebnoe posobie dlya vuzov –M.; CheRo 1997

¹⁵ David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 84-87 betlap

3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002
4. Djems V. Psixologiya.- M., 1991
5. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
6. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost.-2-ye izd-M.: Politizdat, 1977
7. Maklakov A.G Obщaya psixologiya M.; "Piter" 2003
8. Merlin V. S. Ocherki integralnogo issledovaniya individualnosti. — M.: Prosveshchenie, 1989.
9. Nemov R.S Psixologiya 1-kitob M;. 1999 g
10. Obщaya psixologiya: Kurs leksiy/ Sost. Ye.I.Rogov.-M.: Vldos, 1995
11. Psixologiya qisqacha izohli lug'at T-1998y
12. Rubinshteyn S.L. Osnovy obщey psixologii.-SPb.: «Piter» 1999
13. Turg'unov Q Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati T; «O'qituvchi» nashriyoti 1975 y
14. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; «O'qituvchi» 1992y
15. G'oziev E.E Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y

IKKINCHI BO'LIM

IV BOB. PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI. SHAXSNING ICHKI REGULYATSIYASI

4.1. Psixologiyada shaxs muammosi

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.


1. Odam: Sut emizuvchilar sinfiga dahldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala) ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujas-samlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirrali. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta – sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining subyektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim.

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakli shamoyili mehnat quollaridan foydalanish istiqbollarinin mavjud-ligini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta'kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim.



A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida "Individ" tushunchasida kishining nasl nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chaqaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash lozim.

Individ tushunchasi professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma'nolarini anglatib inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. M.G.Davletshin

tahriri ostida chiqqan “Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘atda” individ bo‘linmas, ayrim jins, shaxs ma‘nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Keltirilgan ta‘riflardan shuni xulosa qilish mumkinki **shaxs deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.** Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta‘sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug‘diradi, qo‘llarining shakli shamoyili mehnat quollaridan foydalanish istiqbollarinin mavjudligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligi ta‘kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim. **Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi.** Individuallik kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig‘indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirgan odam yo‘q, inson shaxsi o‘z individualligi jihatidan betakrordir.

4.2. “Endopsixika” va “ekzopsixika” haqida tushuncha

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan ilmiy muammolardan birinchisi bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishiga ega ekanligidir. Ushbu yaqqol psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur masalaning qo‘yilishi dastavval ta‘lim va tarbiya ehtiyojlaridan, tashkilotchilikka

oid faoliyat sohalari va boshqa ehtiyojlar zamiridan kelib chiqadi. Lekin bu masalani ilmiy asosda hal qilish boshqa muammoni, ya'ni shaxsni toifalarga ajratish (tipologiya), uning eng muhim, mukammal tuzilishini aniqlash bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, shaxs tipologiyasi, shaxsni tipologik tahlil qilishning eng nozik, ibratli jihatlarini cheklab o'tish, u haqida yetarli darajada to'la tasavvurga ega bo'lishni xohlasak, uning eng umumiy tasvirini umumlashgan tarzda ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi, binobarin, ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiyasi fanida psixologlar shaxsni psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli mohiyatiga asoslanib turkumlarga ajratishni (klassifikatsiyalashni) tavsiya etmoqdalar.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (sotsial) omil (faktor) ning, voqelikning ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan **“ichki psixik” (“endopsixik” - yunoncha “endo” ichki degan ma’noni bildiradi)** qismlarga ajratiladi, degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu talqinga ko'ra **“endopsixika” shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi.** Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan **“endopsixik”** aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go'yoki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning **“ekzopsixik”** qismi bo'lsa shaxsning tashqi muhitiga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va obyektiv munosabatini belgilaydi. **“Endopsixika” o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarini aks ettiradi. “Ekzopsixika” esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qamrab oladi.** Tabiiy omilga (asosga) ega bo'lgan **“endopsixika”** biologik shart-sharoitlarga bog'liqdir, aksincha, **“ekzopsixika”** ijtimoiy voqeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib

topadi va takomillashib boradi. Ta'kidlab o'tilgan fikrlarni tasdiqlash maqsadida ular o'tkazgan tajribalariga murojaat qilamiz. Qo'sh omillik nazariya tadqiqotchilari tajribalarida 80-130 sm balandlikdagi odamlarning shaxs xislatlarini tarkib toptirish o'rganilgan. Buning natijasida ular shaxsning tuzilishida ko'p xislatlari o'xshashligi topilgan. Bunday odamlarning bo'yi past (pakana) bo'lishlaridan tashqari, ularning tuzilishida hech qanday nuqson va kamchilik yo'q ekanligi aniqlangan. Bunday toifaga kiruvchi kishilarda bolalarga xos kulgini, hech bir tanqidsiz optimizmni, o'ta soddalikni, muayyan darajada hissiy (emotsional) zo'riqishni talab qiladigan vaziyatga nisbatan chidamlilikni, uyat hissining kamroq ekanligini uchratish mumkindir. Shaxsning xislatlariga na "endopsixika", na "ekzopsixika" qismlarini kiritish mumkin emas. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tevarak-atrofdagilarning mitti odamlarga bo'ydor kishilarga qaraganda boshqa munosabati, ularning pisand qilmasligi, kamsitilishi, ular ham barcha kabi narsalarni his qilish, orzu qilish, ajablanish, hayron qolish sababli ularda shaxsning o'ziga xos tuzilishi vujudga keladi. Bunday yaqqol voqelik ularning ruhiy ezilishini, ba'zan boshqalarga, hatto o'zlariga nisbatan tajavuzkorona yo'l tutishlarini niqoblaydi, xolos. Mabodo biz mitti odamlar (liliputlar) o'zlari bilan bab-barovar bo'yli kishilar muhitida yashaydi deb tasavvur qilsak, u holda ularda ham tevarak-atrofdagi boshqa odamlardagi kabi mutlaqo boshqacha shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar, xislatlar, sifatlar mujassamlashishi mumkin bo'lar edi.

Odatda, shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarkib toptirish, kamolotga etkazish mavjud qarama-qarshiliklarni, ziddiyatli vaziyatlarni yengish, irodaviy zo'r berish, zo'riqish, tanglik, jiddiylik holatlarini boshqarish, o'zini qo'lga olish orqali ushbu faoliyatni amalga oshirishning oqilona, omilkor vositalarini (yo'llari, usullari, operatsiyalari, ko'nikmalari, o'quvlari, malakalari, odatlari, harakatlari kabilarni) o'zlashtirish, egallash natijasida vujudga keladi. Bularning barchasi imitatsiya (taqlid), identifikatsiya, refleksiya, stereotipizatsiya, ta'lim, o'qitish, o'qish, o'rganish, o'rgatish, saboq olish, o'zlashtirish, mustaqil bilim olish jarayonida yuzaga keltiriladi. Mazkur holatda aniq faoliyat orqali ehtiyojni qondirish qonuniy ravishda yanada yuksakroq, yuqori bosqichdagi yangi xususiyatga ega bo'lgan ehtiyojni tug'diradi.

4.3. Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi

Psixologlarning fikricha, (G. Asmolov, P. Shixerev, V.A.Yadov, P. Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo'ladigan hamda muloqotda ko'rinadigan sifatlar guruhiga bo'linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perseptiv himoya sifatleri, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatleri ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar (V.A. Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A. Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu. Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo'luvchi sifatleri"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamrok xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gapleri, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi.

Ekstrovert va introvert toifali shaxslar

Bu tiplar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, ekstrovert — o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojidir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o'z fikr-istaklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas,

umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin ("Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?", — deb uylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta kirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga keladi, o'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, "mish-mishlar"ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo'lmaganday apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin.

Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'ylash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustanovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2—3 kishidan ortiq bo'lmagan guruhni afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan-ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham "shaxsiy" mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko'radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o'z "Men"ining boshqalarga o'xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo'lsa ham shug'ullanishga tayyor, umr yo'ldoshiga sodiq, vafodor. Do'stlarga ham xuddi shunday.

Mobil va rigid toifali shaxslar

Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish me'zoniga ko'ra farqlanadi. Masalan, **mobil tip** har qanday ish bilan mashg'ul bo'lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko'chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi. Suhbat mavzusinn ham tez-tez o'zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qatiyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladn. Chunki u o'ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo'lagiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni yaxshi ko'radi, gapini bo'lishlarni sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo'lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko'radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Dominant va tobe toifali shaxslar

Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo'lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning bo'ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o'zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo'yniga olmaydi. Dominant tip — qatiyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo'lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo'lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo'yishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant bo'lishsa, unda ular o'rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallashib qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko'nish, unga o'z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Tobe tipli shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallashadi, lekin yomon ko'rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin o'zining dadilligini ko'rsatishi, ochiq gaplashishi, ba'zan e'tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli

bolalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko'zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo'llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo'lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo'yniga olishni istamaydi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini ko'ramiz. Hayotda ko'pincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni tiplarga bo'lamiz. Bundan tashqari, bir marta ko'rishda odam haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Uni turli sharoitlarda bir necha marta kuzatish lozim.

4.4. Shaxs borasidagi psixologik konsepsiyalar

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar.

Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilash ssikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis "konstitutsion psixologiyasi" (insonning tana tuzilishiga asoslagan nazariya) namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning

jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshqa sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida esa shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi.

Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy Evropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri - bu **rollar nazariyasidir.** Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq) ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o'zgalar bilan munosabat, muloqot o'rnatishida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana bittasi - bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash va bilimlarni o'zlashtirishning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsulidir. (E.Torndayk, B.Skinner va hokazo).

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "**fazoviy zarurat maydoni**" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat) lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy vaziyatlari va obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmaganga o'xshaydi.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali aha-

miyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan "ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'ilsa, u taqdirda voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo'lmish uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, o'z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o'yin yoshi deb atalib, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya'ni guruhliy o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh

davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko‘zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari yetarli darajada bo‘lmaganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o‘zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr. O‘spirinlik - o‘zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o‘smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalamaslik, qat‘iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) ega bo‘lishdir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolni kechiktirish”ning o‘zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi, vaholangki bu kezda o‘spirin rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o‘spirinlarda o‘z-o‘zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (o‘quvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yettinchi davr - yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg‘usi unga uzluksiz ravishda hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg‘unlik tuyg‘usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya‘ni qarilik inson tariqasida o‘z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko‘ngil sovish his-tuyg‘ularini ta‘kidlab o‘tish o‘rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig‘ bo‘lishlik bu yoshdagi odamlar-

ning eng muhim jihati, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi.

4.5. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rifi

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obykti, ham subyektidir.

A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: **shaxs - bu faoliyat subyektidir.**

K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan


S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar - temprament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.



K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra shaxs tuzilishi quyidagicha shaklga ega:

1. Yo'nalganlik osttuzilishi – shaxsning ahloqiy qiyofasi va munosabat-larini birlashtiradi. Unda harakatchanlik, barqarorlik jadallik ko'lami (hajmi) darajalarini farqlash lozim.

2. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi – ta'lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va odatlarni qamrab oladi.

3. Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4. Biologik shartlanganlik osttuzilishi – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalyov talqiniga binoan shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar – faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta'min-lovchi tizim, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

4. Mashqlar to'plami – hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi boshqarishni ta'min-laydi.

4.6. Ijtimoiy normalar va shaxs

Ijtimoiy normalar - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma, va hokazo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbex berishi, juda kam xollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. *Rol* - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va

burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygox ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirishni bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota-ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikki yuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa erda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish kerakligini o'ylab ruhiy azobga tushadi.

4.7. Men obrazi va o'z-o'ziga baho

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqegini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – “Men” - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

“Men” - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini kanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini anglash, o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni inson tabiati shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, no‘maqbul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, guyo oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. **Uning mohiyati** - aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko‘chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o‘z yutuqlaringiz va mashg‘ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo‘lib, uning qaergadir shoshayotganligiga e’tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «maxmadona, laqmaroq» bo‘lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o‘rtog‘ingiz bilan uchrashganda, oldingi hatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun «O‘rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni, suhbatdosh o‘miga turib, o‘zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko‘rinyapman?») - refleksiyadir.

«Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil

bo'lishi mumkin. **O'z-o'ziga nisbatan baho** turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq xolda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maktovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u sub'yektiv xarakterga egadir. O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetrokda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik qayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Individ shaxs, individuallik tushunchalari.
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mazmuni.
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillar.
5. Shaxsning malaka va odatlari.
6. Endopsixika va ekzopsixika haqida tushuncha.

7. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari.
8. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs rivojlanishi nazariyalari.
9. Shaxsning psixologik tuzilishi modellari taxlili.
10. Shaxsda o‘z-o‘zini anglashni tarkib topishi.
11. Ijtimoiy muhit va shaxs shakllanishi.
12. Shaxs shakllanishida irsiyat
13. Shaxs shakllanishi va talim tarbiya.

Nazorat savollari

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang?
2. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarining mazmunini asoslang?
3. Shaxs faolligi tushunchalarining mohiyatiga nimalardan iborat?
4. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillarni aniqlang?
5. Shaxsning malaka va odatlarining mazmuni nima bilan belgilanadi?
6. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini ko‘rsating?

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Gamezo M.V, Domashenko I.A Atlas po psixologii M; «Prosveshchenie» 1986 g
2. Gippenreyter Yu.B Vvedenie v obshchuyu psixologiyu: Kurs leksiy: Uchebnoe posobie dlya vuzov –M.; CheRo 1997
3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002
4. Djems V. Psixologiya.- M., 1991
5. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
6. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost.-2-ye izd-M.: Politizdat, 1977
7. Maklakov A.G Obshchaya psixologiya M.; “Piter” 2003
8. Merlin V. S. Ocherki integralnogo issledovaniya individualnosti. — M.: Prosveshchenie, 1989.
9. Nemov R.S Psixologiya 1-kitob M; 1999 g
10. Общая психология: Курс лекции/ Sost. Ye.I.Rogov.-M.: Vldos, 1995
11. Psixologiya qisqacha izohli lug‘at T-1998y
12. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii.-SPb.: «Piter» 1999

13. Turg'unov Q Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati T; «O'qituvchi» nashriyoti 1975 y
14. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; «O'qituvchi» 1992y
15. G'oziev E.E Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y

UCHINCHI BO‘LIM

V BOB. SHAXSNING EMOTSIONAL-IRODAVIY HOLATLARI

5.1. His-tuyg‘ular, ularning ifodalanishi va uning faoliyatga ta’siri

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilgan ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirgan ekan, bu narsalarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya’ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba’zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg‘otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta’riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o‘quv qo‘llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi.

Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziyev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, **hissiyot** bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z-o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak; jumladan professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi.

Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida

odamning ehtiyojlari o'zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o'ziga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o'zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o'zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o'rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi xursand, ruhi tetik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi, aksincha odamning dili g'am, qandaydir tashvishli yoki g'amgin bo'lganda qo'li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo'lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg'ularga boy, tafakkuri o'tkir, nutqi burro bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi. **Impressiv** so'zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvda hosil qiladigan buziladigan dinamik stereotiplar orqali biror hissiyot va emotsional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli reflekslar, nerv bog'lazishlarining barqaror tizimi

tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik stereotiplarning «o'zgarishi» salbiy emotsional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko'p tana o'zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o'zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning ob'ektiv ko'rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovozning o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emotsional harakatlarning **ekspressiv tomoni** deb ataladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo'lib uchraydi. Masalan, yoqimli-yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g'azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar subyektiv xarakterga ega bo'ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo'ladi. Masalan, hushchaqchaq odam bilan g'amgin odamning yuz ifodasini ko'z oldimizga keltirib ko'rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki taraflamalik deb ataladi. **Ambivalentlik** – lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shib va biri ikkinchisiga o'tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

His-tuyg'ular va faoliyat.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekretiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo'rqish paytida «Yuragi orqaga tortib ketdi», «Sovuq ter bosib ketdi» kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: **«Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak».**

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda

qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

5.2. His-tuyg'ularning asosiy sifatlari. Emotsional holatlar

Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, uchinchidan tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

His-tuyg'ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o'zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so'lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o'zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o'zgarishlari, «ovoz mimikasi» va gaplar tarkibining sintaksis o'zgarishi, «tutilmasdan gapirish», yoki alohida «silliqlik» hamda «ifodalilik»ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o'zining to'la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emotsional kechinmalari vaqtida nutqning tezligi o'zgaradi. Ko'pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o'zgaradi. O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so'zlashgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi.

Hislarni kechirish shakllari

Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyot to'satdan, darhol paydo bo'ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo'lib ketadi, darhol g'azabga keladi, achchiqlanadi va hokozo. Lekin ba'zan shu hissiyotlar o'zi dafa'tan

qo'zg'almaydi, balki asta-sekin tug'ila boshlaydi. Shunday hissiy kechinmalarning qay darajada tez paydo bo'lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo'lmaydi. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirilganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo'zg'alish xususiyatlari paydo bo'lish yo'lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo'lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo'lishi va o'tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo'lishiga ko'ra his-tuyg'ularning quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

Hissiy ton. Hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida hissiy ton sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi. Professor E.G'oziyev tomonidan hissiy ton-u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Q.Turg'unov lug'atida hissiy ton – hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo'yoq yoqimli va yoqimsiz kechinma bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'langan hissiyot. Masalan, og'riq bir qator qo'zg'ovchilar yaqqol ifodalangan yoqimsiz hissiy ton bilan ajralib turadi.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar **stenik** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat

bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yulduzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi. Faollik qilib, tinchimaslik uning sifatiga aylanadi. Q.Turg'unov lug'atida stenik hisga quyidagi ta'riflar uchraydi: stenik hislar – shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat **astenik** (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoйда emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o'zining aniq tashqi ifodasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o'zgarishlar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko'rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g'azablanganligini yoxud biror narsadan qo'rqib ketganini va shu kabi his-tuyg'ularning ko'pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlari ifodali harakatlar deb ataladi.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko'rinishlarda ro'y beradiki, unda asosiy o'rinni ko'rgazmali jihatlar asosiy o'rin egallaydi.

*Birinchi*dan, emotsiyalar nafas olish a'zolarining ishlarida o'zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg'ular ishga tushganda nafas olishning tezligi va ampitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg'ular ustun kelganda kamayadi, qo'zg'algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo'r berish vaqtida-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo'rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Turli emotsional holatlarda nafas olishning o'zgarishi

- a) xursandlikda nafas olish bir minutiga 17 marta;
- b) faol xafalikda 9 marta;
- v) qo'rqishda 64 marta;
- d) jahl chiqqanda 40 marta.

Ikkinchidan, emotsiya imo – ishoralarda, mimikada, ya'ni kishining yuzida bo'ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma'nodor harakatlarida ko'rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya'ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo'ladigan yanada chuqur o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o'zgarishlari, ayrim tashqi sekretsiya bezlarining faoliyati yosh so'lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o'zgarishlar, ya'ni ularning tezligi, kuchi, koordinatsiyasi va hokazolar kiradi.

Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'idir.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. «Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi» - degan edi. Leonardo da-Vinchi.

Rus psixologi P.M.Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko'rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko'z o'zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatga, shuningdek, ko'zning qanchalik chaqnab turishiga bog'liqdir. Ko'zning qanchalik chaqnashi ko'z yoshining miqdori, ko'z shilliq pardasidagi tomirlarning kattalashuvi bilan belgilanadi. Maskaning tagida ko'rinib turgan ko'z o'zining ifodasini yo'qotgan bo'ladi. Ko'z, lab, qovoq, qoshning har xil holati, xatto odam chehrasini ham turli qiyofaga kiritadi.

Odam hissiyotlarini bildirishning eng nozigi va eng kuchlisi san'at, xususan, muzika bilan lirik she'rlardir, ularni tom ma'noda hissiyotning tili deyish mumkin.

Odam o'zini va gavda harakatlarini, shuningdek tovushni ataylab chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi «muayyan hissiyotlarni o'zi kechirmayotgan bo'lsa ham o'sha hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar qila oladi.

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarida badanning xilma-xil ifodali xarakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'amginligi

muhim ahamiyatga ega. Shunchaki bir xo'mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish kabi ifodali harakatlar kishining maqsadini anglatadi.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi. Jumladan K.Turg'unov lug'atida shaxsning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan nisbatan barqaror umumiy emotsional holati, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi, deb ta'kidlanadi. Professor E.G'oziyev fikricha, kayfiyat shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir.

Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmaydi. Odam bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish- yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Qilayotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan yomon baho odamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, birinchi navbatda odamning sihat-salomatligi bilan ham bog'liqdir. Masalan, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat chog' bo'lmaydi.

Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi, ya'ni xushchaqchqlik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchaq, g'amgin, sertashvish deb turli guruhlarga bo'linadilar. Lekin shuni aytish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini buzib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda «sirkasi suv ko'tarmaydigan» yoki «jahli burnini uchida turadigan» odamlar deyishadi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga buzavermaydi.

Inson kayfiyatini paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi quyidagi ikkita omillarni tahlil qilish lozim: Ulardan bittasi obyektiv va subyektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli

bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi); b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchisini bir manba sifatida talqin qilish mumkin, bu-subyektiv, shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi. Ikkinchi subyektiv munosabatlar, iliq psixologik muhit, muloqatmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatiga tegmaslik, teng xuquqlilik, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokozo.

Affekt tushunchasiga berilgan ta'riflarga asosiy e'tiborni qaratadigan bo'lsak bu ham shaxsning kuchli emotsional holatlari bilan bog'liqdir. K.Turg'unovning lug'atida aytilishicha, affekt tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emotsional holatdir. A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida affekt haddan ziyod tez kechishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayonlar ustidan irodaviy nazorat buzilishiga etaklovchi organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga aytiladi. M.Vohidov darsligida affekt to'satdan tez paydo bo'lib, tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.

Affekt lotincha so'z bo'lib, ruhiy hayajon ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shashib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqqanida, to'satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay boradi. Kuchli zo'riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'liq egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloq osti nerv tugunlaridan oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli hohish sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Jumladan: 1) teatr tomoshabinlarida; 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarda; 3) es-xushini yo'qotgan telbasimon odamlarda; 4) ilmiy kashfiyot laxzasida; 5) tasodifiy qizg'in uchrashuvlarda, jo'shqin shodliklarda mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tushunish, o'zini qo'lga olish, uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, o'ylamasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar ma'suliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lgandan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, barcha narsalarga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affektiv qo'zg'alish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o'qtin-o'qtin kuchayishi yoki susayishi sodir bo'lib turishi mumkin.

Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress–ffektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Profssor E.G'oziyevning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yorida oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlar sifatida ko'rsatiladi.

Stress – inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.

Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

1. **Konstruktiv** – biz turidagi (ko'pchilik orasida);
2. **Destruktiv** – men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlari va fiziologik tizimida stress holati bo'lmasligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni

fiziologik va psixologik turlari mavjud. Fiziologik stress – bu o‘ta jismoniy zo‘riqish, biror og‘riq, qo‘rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Fiziologik stress organizm o‘ta zo‘riqishi, temperaturaning baland yoki past bo‘lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ba’zida odam organizmida qattiq og‘riq bo‘lganda, og‘riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib eta olmaslik oqibatida odamda qo‘rquv, xavotirlanish paydo bo‘ladi va stress holatiga olib keladi.

Psixologik stress-odamning ruhiy holatiga voqealarni ta’siri tufayli paydo bo‘ladigan stress .

Psixologik stress informatsion stress va emotsional stress turlariga ajraladi.

Informatsion stress axborotlarni haddan tashqari ko‘p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha echimlar bo‘lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi ikkilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko‘p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo‘riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko‘p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo‘riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatda tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta’simi qabul qila olmay qoladi. Bu ba’zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o‘z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Emotsional stress-ta’qiq qilish, falokat, hayotiy o‘zgarishlar (oilaviy mojarolar, to’satdan ishdan bo’shatish yaqin kishisini yo‘qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdagilar tomonidan noto‘g‘ri munosabat qilinganda va hokazolarda) ko‘rinadi.

Olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, falokat, hayotiy o‘zgarishlar, kundalik tashvishlar ko‘proq stresslar hisoblanadi.

Falokat – bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hammasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Olimlar shuni ta’kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong‘in bo‘lishi kabi falokatlarning

inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Hayotiy o'zgarishlar – bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. Masalan, yaqin kishisining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rnini yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inqirozli vaziyatni boshidan o'tkazsa, qattiq kasallanishi va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.

Kundalik tashvishlar – bu ish joylarida sodir bo'ladigan qiyinchiliklar, o'qish joylaridagi o'quvchilarning o'quvchilarga, o'qituvchilarning o'qituvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo'ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, mayda stresslar to'planib borib inson sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin.


Stress ayrim odamlarda engil kechadi, ayrim odamlarda jiddiyroq, qiyinroq o'tadi. Bunga asosiy sabab quyidagilar deb belgilanadi: uning hosil bo'lishi stressli vaziyatga qay darajada munosabatda bo'lishimizga va bu holatni baholashimizga va u bilan kurashishimizga bog'liqdir. Masalan, optimist odamlar stress holatini taqdirning bir sinovi deb qabul qilsa, pessimist odamlar uning hayotiga xavf-xatar tug'ildi, deb qabul qilar ekanlar. Pessimistlarda xavotirlanish darajasi yuqori bo'ladi va ular vaqtida ovqatlanmasalar ham stress holatiga tushib qolaveradilar. Psixologlar Maykl Shayer va Marlz Karver fikricha, optimist inson eng og'ir, qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi, o'z organizmida stress moslashib olishiga yo'l qo'ymaydi.

Umuman olganda stress atamasi XX-asrning 40-yillariga kelib ommaviylashgan. Bunga sabab stress holatini to'g'ri tushunish va undan himoyalaniшни o'rganish, chunki stress turli salbiy munosabatlar natijasida vujudga kelishi mumkin.


Birinchi bo'lib stress bo'yicha 1932 yili fiziolog Uolter Kennon va 1936 yilda vrach Gans Sele chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. U.Kennonning gomeostaz nazariyasi asosida 1933 yilda «Psixika va tana» asari yaratildi. Bu asarda barcha tashqi sharoit o'zgarishlariga optimal (to'la) moslasha oladigan bir yaxlit organizm

haqida yozilgan. Organizmdagi turli o'zgarishlar, ya'ni ochlik, qo'rquv, jahldorlik holatlarini ko'p yillar kuzatib o'rganish natijasida «gomeostoz» ya'ni organizmni ichki holatini davomiyligi nazariyasi yaratildi. Uning fikricha, gomeostoz va tashqi muhit ta'sirida asosiy o'rinni markaziy va vegetativ nerv tizimi egallaydi. Markaziy nerv tizimi tashqi-muhit, bilan vegetativ nerv tizimi esa gomeostoz holatini saqlab turadi. Bundan organizmni «qochishi va kurashishi» uchun energiya ishlab chiqaruvchi simpatoadrenal tizimi muhim rol o'ynaydi. Quyida Jems Lange va Kennon-Bard nazariyasining mohiyati keltirilgan.

Jems Lange nazariyasi



Kennon-Bard nazariyasi



U. Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmni moslashish tizimi deb ataydi.

Kanadalik olim vrach G.Sele (1936-1976 yillar) o'zini 40 yillik ilmiy izlanishlari bilan U.Kennon nazariyalariga qo'shimchalar kiritib, stress psixologiya va tibbiyotda asosiy tushunchalarda biri ekinligini aytib o'tgan. G.Sele stress har doim ham zararli emas, ba'zan inson organizmiga yordam, ko'mak foyda berishi mumkin. Ayrim hollarda stressga tushib qolganda odam yashash uchun kurashish o'z ehtiyojini qondirish uchun faollashib, o'zi bilmagan zahiradagi energiyasini ishga solishi mumkin degan. U tirik organizmning noqulay tashqi sharoitlariga moslashuvchanlik muammosini o'rganib chiqqan.

G.Seleni fikricha, shu sabablar muhim va nomuhim stressni keltirib chiqaradi. Bu vaziyatlar bir-biriga bog‘liqdir. Bunda 3 bosqich ajratiladi.

- xavotirlik bosqichi;
- moslashish bosqichi;
- o‘ta charchash bosqichi.

Xavotirlik bosqichida taloqning kichrayishi, yog‘ qavatining yo‘qolishi, oshqozonda o‘tkir yallig‘lanishning sodir bo‘lishi, buyrak tepasida likotsidlarning kamayishi kuzatiladi. SHu bilan birga teri jarohatini pasayishi, ko‘z yoshlanishi, so‘lakning ajralishi kuzatiladi. Agarda ta’sir kuchli bo‘lsa, bu bosqichda xavotirlik holati boshlanadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va to‘qimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli ta’sir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar ta’sir kuchli bo‘lsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

O‘ta charchash bosqichi – organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga ko‘ra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

Chet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini ajratadilar. Ularning fikricha, ijtimoiy stress asosida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy yashash sharoiti yotadi. Ijtimoiy ziddiyatlar doimiy o‘ziga ishonmaslik va keskinlikni yuzaga keltiradi.

5.3. Yuksak hislar. His-tuyg‘ular va inson salomatligi

Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo‘lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlash-tirilgan hislar **yuksak hislar** deyiladi. Yuksak hislar o‘z tarkibiga birinchi soddaroq ko‘rinishdagi turli hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik, axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

Praksik hislar. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo‘lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e’tirof etadigan yoki inkor

qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Mehnat inson hayotining asosi bo'lib, insonning mehnatga bo'lgan hissiy munosabati yuksak hislar orasida muhim o'rinni egallaydi,

Mehnat faoliyatida shaxs:

1. Biror maqsadni ang'laydi.
2. Uni e'tirof qiladi yoki inkor etadi.
3. Maksudga erishish yullarini baholaydi.
4. Uni tadbiq etish usullari va qurol vositalarini ma'kullaydi yoki ma'qullamaydi.
5. Ularning tanlanganligiga shubhalanadi.
6. Inson muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradi va hokazo.

Ahloqiy hislar odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum ahloqqa, ya'ni ijtimoiy ahloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

Shaxsning yetakchi ahloqiy hislaridan biri bu burch hissidir. Bu his odam yashab va ishlab turgan tor doiradagi jamoa (oila, maktab, ishlab chiqarish, korxonona) manfaatlari nuqtai nazaridan turib, harakat qilish lozimligini ang'laganda ham kechiriladi. Odam o'zining ijtimoiy burchlari nimalardan iborat ekanligini bilib va tushunibgina qolmay, balki ularni bajarish zarurligini ichdan his qilib qayg'uradi. Kishilar hayoti va faoliyatida o'zaro yordamlashish, hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o'rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi.

O'rtoqlik munosabatlarining yuksak cho'qqisi do'stlik hissida namoyon bo'ladi. Do'stlik hissi o'rtog'iga mehribonlikda uni ko'rish u bilan gaplashish o'z fikr hislari bilan o'rtoqlashishda namoyon bo'ladi. Haqiqiy do'stlik hissi do'stga nisbatan yuksak talabchanlik bilan bog'liqdir. Xato va kamchiliklarni tuzatishga ham yordam berish, do'stlikka yaqin bo'lgan muhim ahloqiy his muhabbat hissidir. Muhabbat jamiyatda nikoh va oilaning ahloqiy psixologik asosi hisoblanadi.

Agar odamning jamiyatdagi xatti-harakatlari ahloq normalariga mutlaqo zid bo'lsa, odam vijdon azobiga uchraydi. Vijdon azobi murakkab hissiy holatdir. Mobodo odam biror ahloqsiz harakat qilib, vijdon azobiga uchrasa, undan qutilishi juda qiyin bo'ladi. Chunki vijdon azobiga uchragan odam jamiyat oldida o'zining nohaqligini biladi va o'zini-o'zi so'roq qila boshlaydi. Shuning uchun odam o'zidan-o'zi qochib qutila olmagandek, vijdon azobidan ham hech qachon qochib keta olmaydi.

Ma'lumki, vijdon azobi kishining qalbida chuqur ichki kurash hissini tug'diradi. O'z xatti-harakatida ahloq tamoyillariga amal qilmagan, uyati ham vijdoni bo'lmagan kishilarni «vijdonsiz» odamlar deyiladi. Kishi yomon bir ish qilib qo'yganligi bu kishining o'ziga munosib emasligini, anglashi bir tomondan vijdonini qiynaydi, vijdon azobiga soladi, ikkinchi tomondan ahloq talablariga xilof ish qilish bilan boshqalardan malomatga qolishni, ularni o'rniga nisbatan salbiy xislat paydo qilishni ham tushunadi. Masalan, mazkur jarayonga quyidagi misolni keltirib o'tish joiz. AQSH prezidenti R. Trumen 1945 yili 6 avgustda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasini tashlashga buyruq bergan edi. Amerikaning birinchi darajali uchuvchisi Mayor Klod Izerli Xirosimaga atom bombasini tashlab 300 000 kishini yostig'ini quritishda ishtirok etdi. Atom bombasi zarbidan o'lgan yosh bolalarni qariyalarni, xotin-qizlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Izerli vataniga qaytganda "Xirosima qahramoni"ni sifatida uni tantana bilan kutib olishadi.

Izerlini vijdon azobi kundan kunga battarroq qiynay boshladi. U vijdonini tinchitmoq uchun nafaqadan, hamma mukofatlardan voz kechdi, o'ziga berilgan ordenlarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Pul to'plab Xirosimaga yordam yubordi. Ammo vijdon azobi hamon uni ezardi, ta'qib qilardi, kechalari uxlolmasdan o'zini o'zi o'ldirishga urinib ko'rardi. Ammo natija chiqmadi, zora qamasalar, deb jinoyat qildi. Nihoyat Klod Izerli aqldan ozibdi, deb uni jinnixonaga yotqizdilar.

Estetik hislar ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. **Estetik his** deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog' manzaralari yaylovlarda qo'y va qo'zichoqlarning o'tlab

yurishlari, baland qorli qoyalarni uzoqlardan mag'zur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug'diradi yoki xuddi dengizdek ko'z ilg'amaydigan ko'm-ko'k paxtazorlar uzoqlarda chiroyli bo'lib ko'rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko'tarinki ruh tug'diradi.

Odamlar hayotning turli faktlariga va ularning san'atini aks ettirishiga qandaydir go'zallik yoki xunuklik fojiali yoki kulguli, oliyjanoblik va razillik, nozik yoki dag'al hodisalar sifatida munosabatda bo'ladilar. Bu hislar tegishli baholarda estetik didlarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish holatida kechiriladi.

Estetik hissiyotlarning manbalari juda ko'p va xilma-xildir. Masalan, tabiat manzaralaridan lazzatlanishdan tashqari tasviriy san'at asarlari, badiiy-adabiy asarlar, muzika va xaykaltaroshlik, arxitektura va me'morchilik ishlari ham odamda estetik hisni tug'diradi. Bundan tashqari odamlarning o'zaro bir-birlari bilan bo'lgan munosabat va muomalalari ham estetik hissiyotlarning manbalari bo'la oladi. Odamning kiyinishi, uyining tutishi, qanday jihozlanish, boshqalar bilan muomalasi ham estetik hislarimizning manbai bo'la oladi. Masalan; dag'al gaplashadigan kishidan odam nafratlanadi, aksincha muomalali, gapni o'rinli va madaniyatli qilib gapiradigan kishidan odam zavqlanadi. Shunday odamlarga taqlid qilgisi keladi. Umuman odamning estetik hissiyotlari ko'p manbalarga ega bo'lgan murakkab hissiyotlardandir.

Intellektual hissiyotlar ham o'z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo'lgan hissiyotlardir. **Intellektual hissiyotlar** odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bo'lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o'zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g'oya hamda e'tiqodlarni hayotga tadbiiq qilish uchun bo'lgan kurashning qiyin daqiqalarida unga madad bo'ladi.

5.4. Iroda haqida tushuncha. Shaxsning irodaviy sifatlari

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi.

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga etishish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni engish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi.


Odam tevarak – atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli

ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida iroda – bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni engib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ta'riflanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni engib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni engish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida iroda-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni engishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Irodaviy xarakatlar bosqichlari



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday

bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakterlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni **irodaviy harakat** deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini engish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv – fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil

qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat".

Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand- nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar hulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir" – degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo'shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta'minlash maqsadida odam vaqti – vaqti bilan dam olib turishi kerak.

Irodaviy akt va uning tuzilishi

Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin.

Maqsad-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin.

Xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha ravshanlikda tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qancha ravshan bo'lsa, unga etishish yo'lidagi intilish ham shuncha muayyan bo'ladi.

Maqsad ko'zlash kishining avvalo shaxsiy (biologik va madaniy ruhiy) ehtiyojlariga bog'liq. Ko'pincha kishining maqsad ko'zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga, yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, kishi qiyin ahvolga tushib qolsa, shu ahvolidan bir amallab qutilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga barham berish, bir nima qilish, bir nima ko'rish va shu kabi maqsadni o'z oldiga qo'ya oladi. Kishi jamoat tartibini birov buzayotganligiga bevosita guvoh bo'lishi va tartib buzuvchilarga qarshi kurash uchun shu onda qandaydir choralar ko'rishni maqsad qilib qo'yishi mumkin.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin. Masalan, kelib chiqadigan ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi-kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi-yu, lekin qanday maqsadga etishilayotganini, binobarin, shu maqsadga erishishga doir yo'l-yo'riqlarni aniq bilmaydi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga allanima kerakligini his qilib turadi-yu, bu narsani nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya'ni uni tasavvur qilolmaydi, fahmiga etmaydi. Bunday odamning o'zi ba'zan "menga bir narsa kerak, bir narsa etishmayapti, ammo bu narsaning nima ekanligini o'zim ham bilmayman" degan gapni ko'ngildan o'tkazadi. Boshqa kishilar to'g'risida ham: "nima istayotganini o'zi bilmaydi" deymiz.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini bu maqsadga erishishning yo‘l-yo‘riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirish ham mumkin emas.

Ehtiyoj ko‘ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar **tilak-havaslar** deb ataladi. Ammo odam o‘z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga etishish yo‘llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin. Bunday to‘la anglanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba‘zan zo‘r xayol surish bilan, ba‘zan esa cheksiz orzu bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba‘zan (xayolparast insonlarda) bunday tilak havaslar ko‘ngildan kechirish orqali orzu (fantaziya) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslari to‘lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo xo‘rsinadilar, armon qiladilar, o‘zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko‘pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko‘rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko‘rsatishmaydi.

Harakat yo‘llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomila anglaniladi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo‘lib qoladi. Bunday intilish holati ba‘zan hoxish deb ataladi. Kishi biror ishni qilmoqchiman, falon ishni bajarmoqchiman, o‘qishga kirmoqchiman va hokazo deb gapirar ekan buning ma‘nosi shuki, mazkur kishi o‘z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga etish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga etish mumkinligini, ma‘lum bir yo‘ldan ish ko‘rishga tayyorligini va qilinadigan harakatlarining oqibatini kam anglaydi.

Shunday kishilar borki, ularda muayyan tilak-havaslar tarzida tamomila anglanilgan intilishlar doimo katta o‘rin tutadi. Bunday kishilar o‘zlariga nimalar kerakligini, nimani hoxlayotganliklarini, nima ish qilmoqchiliklarini va uni qanday bajarish kerakligini hamisha biladilar. Bunday kishilar o‘z oldilariga hamisha aniq maqsad qo‘yadilar va shu maqsadga yarasha ish ko‘radilar. Bunday kishilarni ma‘lum maqsadni ko‘zlaydigan kishilar deyiladi. Ma‘lum maqsadni ko‘zlash kishining ijobiy sifatidir. Bu sifatni taraqqiy ettirish, irodani tarbiyalash va o‘z–o‘zini tarbiyalashning vazifalaridan biridir.

Har bir kishining anglab, bilib, ko‘ngildan kechiradigan ehtiyojlari ko‘p, uning vazifalari va intilishlari ham kam emas. Shuning uchun

kishida xilma-xil maqsadlarda doimo zohir bo'lib turadi va bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish istagi tug'iladi. Har bir kishida amaliy va nazariy vazifalar vujudga kelib turadi va ana shu vazifalarni hal etish kerak bo'ladi. Barovar amalga oshirib bo'lmaydigan bir necha maqsad kelib chiqqanda, qanday bo'lmasin faqat bittasini tanlab olib boshqa maqsadlarni qo'yib turishga to'g'ri keladi. Qaysi maqsadni oldinroq, boshqasini esa keyinroq amalga oshirish masalasini hal qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi maqsadlarni esa qo'yib turishga to'g'ri keladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, kishi oldida bir-biriga zid keladigan bir nechta maqsad ko'ndalang turadi va shu maqsadlardan birini tanlab olish shart bo'ladi. Masalan, yigit yoki qiz maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirib o'qisam, degan masalani hal etayotganda turli maqsadlar va ularga etish yo'llari degan maqsadlar o'rtasida ichki qarama-qarshilik, ichki "kurash" ro'y berishi mumkin.

Maqsad qo'yish bilan bir vaqtda yoki undan keyin shu maqsadga qaysi yo'l, usul va vositalar bilan engish masalasi kelib chiqadi.

Kundalik turmushimizda yoki faoliyatimizda maqsad qo'yish bilan birga uni amalga oshirish usullari darrov anglanadi. Shuning uchun bu erda maqsad qo'yish bilan to'ppa-to'g'ri harakat boshlanib ketishi mumkin. Masalan, kishi qo'lga qalam olishni hoxlasa, uni bemalol olishi mumkin, uxlagisi kelsa yotadi va hokazo. Oddiy ixtiyoriy harakatlar shu bilan ta'riflanadi. Ammo yangi maqsadlarni qo'yishda o'sha maqsad usullarini qidirib topish, tasavvur qilish va o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Bu yerda maqsad bitta bo'lgani holda unga bir necha yo'l va usul bilan yetishish mumkin. Qanday bo'lmasin eng yaxshi yo'l va usulni tanlab olishga to'g'ri keladi. Ayrim ixtiyoriy harakatlarning murakkabligi shular jumlasidan kelib chiqadi.

Bir necha maqsad ko'ngilga kelib, shulardan biriga turli yo'l va usullar bilan erishish mumkin bo'lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun muayyan eng muvofiq yo'lni tanlab olishi kerak. Shunga ko'ra, ijtimoiy mehnat faoliyatda ham, kasb-korda ham, shaxsiy ishlarda ham, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatda ham kishi o'z intilishlarini va ixtiyoriy harakatlarni oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo'lib, aniq, muayyan va ravshan maqsadni belgilash, shuningdek shu maqsadga yetish uchun

eng to'g'ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat. Rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo'lgan hamma harakatlar, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi. Odam asosiy rejaga ega bo'lgan bir qarorga kelishi, maqsadiga yetishishi mumkin.

Harakat motivlari va motivlar kurashi. Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga yetishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (irodadan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir, kishining intilishi va hohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar ixtiyoriy motivlarga kiradi. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda ularning ma'qul yoki noma'qul ekanligi chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. "Motiv – deb yozadi I.P.Ivanov – kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir".

Maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash jarayonida odatda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Tafakkur faoliyati (fikr qilish) bu yerda asosan har bir motivga "qarshi" yoki "tarafdor"likni muhokama qilib asoslashdan iborat

bo'ladi. Kishi motivlarni muhokama qilishda va asoslab berganda odatda ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining xatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir faktlardan tamoyil va qoidalardan foydalanadi. Motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish motivatsiyalash deb ataladi.

Maqsadni va unga erishish yo'lini tanlash jarayonida hissiyot turtki rolini o'ynaydi. Hissiyot ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot kishining intilishlarini faollashtiradi va susaytiradi, hissiyot biron maqsadni, biron harakat yo'lini tanlab olishga turtki beradi.

Maqsadlarga, erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi.

Motivlardan biri ko'proq asosli, ikkinchisi kamroq asosli ekanligi ularning kurash jarayonida oydinlashib qoladi, ba'zi motivlar kuchliroq hissiyot bilan maydonga chiqsa, ba'zi motivlar sust hissiyot bilan maydonga chiqadi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Odam ba'zan "ikkiga bo'linib" qoladi: "Aql uni desa, hissiyot (ko'ngil) buni deydi".

Motivlar kurashi ba'zan har xil hislar o'rtasidagi, masalan, burch hissi bilan unga zid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida boradi.

Bu motivlar ko'pincha bir-biriga qarshi ta'sir ko'rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi.

Ana shunday ichki ziddiyat holati bu ziddiyatdan qutilishga intilishi bilan ko'pincha shu zid holatidan qutilish yo'lini engillashtiruvchi yo'llarni axtarish bilan bog'langan bo'ladi.

Ichki nizo holati g'oyat ko'ngilsiz noxush holat sifatida kechishini har kim o'z tajribasidan biladi. Kishi dunyo va hayotni ravshan tasavvur qilgandagina ish va harakatlariga, ahloq qoidalariga amal qilgandagina uning shaxsiy motivlari jamiyat manfaatlariga qo'shilib ketgandagina ichki nizo holatiga yo'l qo'ymasligi yoki undan qutilishi mumkin.

Qarorga kelish. Maqsadga etishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

Kishi ba'zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi. Buni qat'iyat deb ataymiz. Ba'zi motivlar kurashi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyat sezgirlikdir. Masalan, o'rta maktabni bitirayotgan va bitirgan ba'zi yigit-qizlar qaysi o'quv yurtiga yoki korxonaga kirish masalasini tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib, xayolga tolib yuradilar. Qat'iyat odamda jiddiylik vaziyatining yengillashtirishi mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishilarning nasihat, buyruq, iltimos takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab tarzdagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladiki, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha usullar va vosita talab qiladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas, shuningdek bu qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni aniq belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyon qilish demakdir.

Qaror qabul qilinsa-yu, keyin o'zgartirilsa, yoki boshqa qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qarorni

yuzaki yoki bo'sh qaror deb ataladi. Qat'iyat va mustahkam qarorga kelish-irodaning yuksak sifatidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darjada o'ylamaslikdan, emotsional holatning o'zgarishidan yoki kishi harakat qilayotgan sharoit o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi ko'pincha motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qarorni ijro etish. Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala echish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.


Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi. Ayrim hollarda esa o'z vaqtida ijro etilmay qoladi. Kishining ba'zi bir holatlarida a'zoyi-badani bo'shashib turganda, xafalik chog'ida o'z kuchlari va imkoniyatlaridan hafsalasi pir bo'lib turganda qaror ha deganda bajarilavermaydi. Qarorni bajarishda ro'y beruvchi to'sqinliklar oldindan nazarda tutilmaganda yoki maqsadning o'zi vaziyat o'zgarishi bilan kerak bo'lmay qolganda shunday bo'ladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki odam ko'pgina qaror qabul qiladi, ammo qarorning ijrosi cho'zilib ketadi, paysalga solinadi, boshqa muddatlarga ko'chiriladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar ko'pincha niyatlar deb ataladi. Ancha vaqtdan keyin, lekin muayyan muddat o'tgach ijro etiladigan qarorlar ham niyatlar deb ataladi. Masalan, o'quvchi yoki talaba o'quv yilining boshida barcha imtihonlarni faqat "a'lo" baholar bilan topshirishga qaror qilishi mumkin.

Shaxsning irodaviy sifatlari

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Irodaviy sifatlarning klassifikatsiyasi sxema tarzida quyidagicha ifodalanadi.



Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko'rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak.

Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda kuchi va xarakter qat'iyati. Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi: ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz hoxishlarni farq qilamiz.

Iroda kuchi ravshan va aniq maqsad qo'yishda, shuningdek mazkur maqsadga etishishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda namoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush tajribasiga, bilimiga va umumiy saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real xayollar (fantaziya) ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o'ynaydi.

Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorni mustahkamligida, sabotlilikda ko'rinadi. Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan oqilona qat'iyatlik va sabotlik kuchli iroda belgilaridandir. Qat'iyatsizlik ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarash va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir.

Iroda kuchi jasorat deb ataladigan dadillikda ayniqsa ravshan ko'rinadi. Jasorat kishining shunday holatiki, bunda kishi tez qarorga keladi va uni bajarishga ahd qiladi. Hatto salomatligini va hayotini xavf ostida qoldirishi mumkinligi hayoliga ham kelmaydi. Jasorat kishining boshqa kishilarga emas, balki o'ziga bergan amridir. Kishi ahloqiy burchining talabiga ko'ra, buyuk maqsadga erishish uchun bir zumda hayot bilan o'limdan birini tanlab olsa, bunday jasorat iroda kuchi ekanligini ko'rsatadi.

Jasorat shunday qarorki, u go'yo ish-harakatga aylanadi. Bu ish-harakat esa kuchli zo'r berishni talab qiladi. Xarakter xislati bo'lgan dadillikda odamning qanchalik puxta o'ylab ish ko'rishiga qarab, bu dadillik maxsus tusga kiradi.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda ijobiy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni mulohazakor kishilar deb ataymiz.

Odatda o'zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyatli kishilardir. Bunday kishilar

odatda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va kalta o'ylashi bilan ajralib turadilar.

Kishi uncha ikkilanmasdan o'ylab, e'tibor bilan to'g'ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning ijobiy xislati bo'ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to'g'ri keladigan ish – harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog'langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Qat'iyatsizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatsizlikda kishi sustlik bilan bir qarorga keladi, qabul qilgan qarorini ko'pincha o'z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to'g'riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda ikkilanadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog'langan bo'lsa, shunday ahvolga tushadi. Shu sababli qat'iyatsiz kishilar ko'pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo'lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug'diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog'liq bo'lib, xarakterning ijobiy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo'lgan kishilar qabul qilgan qarorlarini odatda o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo'ymaydilar. Bu kishilar va'dalarining ustidan chiqadilar, aytgan so'zlarini albatta qiladilar, ularning gapi bilan ishi bir bo'ladi. Ularga ishonsa bo'ladigan subutli insonlardir.

Qabul qilingan qarorlarini ko'pincha bekor qiladigan, bergan va'dalarini ustidan chiqmaydigan, aytgan so'zidan tonadigan kishilar subutsiz hisoblanadi.

Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalangan bo'lsa o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xarakteri kuchli deb bo'lmaydi. Balki shu sifatlari bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xarakteri qat'iy deb ataladi. Iroda kuchi va qat'iyati odamning o'zini tuta bilishida, jasurligida, matonatida va chidamliligida namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarish muddatini doimo paysalga solish, galdan-galga qoldiraverish,

boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilmaslik irodaning kuchsizligi alomatidir.

Lekin qabul qilingan qarorni bajarish har qanday qilingan ish-harakatning, irodaning kuchli ekanligidan darak beravermaydi. Iroda kuchi asosan irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilganiga va shu yo'l bilan qanday natijalarga erishilganligiga qarab aniqlanadi. Irodaviy zo'r berish vositasida bartaraf qilinadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kishi katta to'sqinliklarni, qiyinchiliklarni, qarshiliklarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan bartaraf qilib, zo'r muvaffaqiyatlarga erishsa, bu kishi irodasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Kosmonovtlar mislsiz iroda kuchini butun jahonga namoyish qilishadi. Bu qahramonlar kosmik parvozlarga tayyorlanish davrida ham, parvoz paytida ham o'z irodalarining yuksak sifatlarini namoyish etadilar. Bu qahramonlar kuchli iroda va uning xilma-xil ko'rinishlari o'z xarakterining asosiy xislati bo'lgan kishilarning yorqin misolidir.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arziyasiz to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmasligida ko'rinadi. Masalan, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biror zarur ishni boshlashga o'zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi odatda irodasizlik deb ataladi. Qarorni bajarish jarayonidagi ixtiyoriy ish-harakatlardagi iroda kuchi o'zini tuta bilishda, jasurlik, sabot va matonat, chidam va toqatda namoyon bo'ladi.

O'zini tuta bilish nomidan ham bilinib turibdiki, kishining o'zini idora qila bilishi va o'zini qo'lga ola bilishi demakdir. O'zini tuta bilish kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga etishuvida to'sqinlik qiluvchi, irodasini bo'shashtiruvchi ichki holatlarni engishda ko'rinadigan kuchli irodadir. Bunday holatlarga masalan, qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik, zerikish, qayg'urish hissi kiradi. Bunday holatlar kishini faoliyat ko'rsatmaslikka rag'batlantiradi yoki qo'yilgan maqsadlarga qarama-qarshi bo'lgan g'ayri ixtiyoriy harakatlarda o'z ifodasini topadi. Bunday holatlar har kimda bo'ladi. Ammo odamning shaxs sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u o'zidan ana shu salbiy va keraksiz holatlarni iroda kuchi bilan

o'zgartira oldi yoki bartaraf qila oladi. Bu borada K.D.Ushinskiy quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "Qo'rquvni his qilmasdan xavf-xatarga o'zini uradigan kishi mard emas, balki eng kuchli qo'rquvni ham bosa oladigan va qo'rquv ta'siriga berilmagan, xavf-xatarni o'ylamaydigan kishi marddir".

O'zini tuta bilish kishi xarakterining xislati bo'lib, asosan ichki irodaning namoyon bo'lishidan iborat. Bu xislat kishining o'z xulq-atvorini nazorat qila bilishda o'zini, o'z harakatlarini, nutqini qo'lga ola bilishida, shu sharoitda keraksiz yoki zararli deb qaraladigan harakatlardan o'zini tiya bilishida ifodalanadi. Xarakter shu xislatiga ega bo'lgan kishilar o'zlarini qo'lga ola biladilar. Ular o'zlarini tuta biladilar, ular uyushqoq kishilardir.

O'zini tuta bilmaslik irodaning kuchsizligini yaqqol ko'rsatuvchi belgidir. Odam o'zini qo'lga ola bilmaganda o'z mayllarini, ixtiyorsiz harakatlarini nazorat qila olmaganda g'ayri ixtiyoriy faollik ko'rinishlari reflekslar, instinktlar, tasodifan ko'ngildan kechadigan hislar, qo'rquv, hadik-shubha, gumon, g'azab, rashk, ichiqoralik, affektiv holatlar va shu kabilar kishi irodasini bo'g'ib qo'yadi. Bunday hollarda odam o'zini tiya olmay qoladi.

O'zini tiya olmaslikning eng yomon ko'rinishi buzuvchilikdir. Buzuvchilik butunlay instinktlar va salbiy emotsiyalar ta'sirida bo'lish demakdir.

Jasurlik kishining omonligi va hayoti uchun havfli bo'lgan to'sqinliklarni bartaraf qilishda ko'rinadigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal o'zini samolyotdan tashlaganda jasurlik qiladi. Jasurlik o'zini tuta bilishga chambarchas bog'liq. Jasurlik bor joyda o'zini tuta bilishlik mavjud. Kishi o'zini tuta bilsa jasurlik qila oladi. Biron maqsadga yetishish yo'lida mutassil jasurlik ko'rsatish, dovyuraklik jasorat deyiladi.

O'zining hayoti uchun xatarli to'sqinliklarni engishga doimo tayyor turgan va shunday to'sqinliklarni yenga oladigan kishilarni jasur kishilar deb ataymiz. Bular xavf-xatardan cho'chimaydigan, xarakteri kuchli, dovyurak, botir kishilardir.

Jasurlikning yo'qligi irodaning kuchsizligini ko'rsatadi. Buni qo'rquqlik, nomardlik deb ataymiz. Irodasi kuchsiz bo'lgan bunday kishilar odatda qo'rquq, yuraksiz kishilar deb ataladi. Sabot, matonat ma'lum maqsadga yetishda ko'pincha uzoq vaqt davomida irodamizga ta'sir etib turuvchi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga

to'g'ri keladi. Irodaning bunday ko'rinishi shaxsning eng muhim sifati bo'lib, iroda kuchining yaqqolligini ko'rsatadi.

Sabot, matonat – qandaydir bir aniq maqsadni ko'zlab, muntazam ravishda irodaviy zo'r berish demakdir.

Ammo kishilarning hayoti va faoliyatida ba'zan shunday hollar ham bo'ladi, kishi o'z oldiga qo'ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda etib bo'lmaydigan yoki kishiga shunday bo'lib tuyuladigan to'sqinliklarga uchrab qoladi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilgan qarorni o'zgartiradi, bekor qiladi, u qiyinchiliklardan qo'rqishi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan voz kechishi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladi, talaba to'satdan o'qishni tashlaydi. Ilgari tanlagan ehtiyojidan voz kechadi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay, o'lda-jo'lda qoldirib ketadi.

Kishi o'z harakat, maqsadini yaxshi o'ylamaganda maqsadga etishsa, yordam bera oladigan vosita va usullarni puxta o'ylamaganda, o'zining kuch – imkoniyatlarini yetarli yoki to'g'ri hisobga olmaganida odamda belgilangan maqsaddan shu tariqa qaytadi, irodasida chekinadi. Dastlabki muvaffaqiyatsizlikka haddan tashqari katta ahamiyat berilganda, bu muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri, yoki yengil baho berilganda, unga faqat salbiy tomondan qaraganda shunday bo'ladi. Kishi muvaffaqiyatsizlikka uchrash bilan bir vaqtda o'z kuchlariga, o'z imkoniyatlariga, o'z qobiliyatlariga ishonmaganda odam “ruhi tushib”, o'zini passivlikka qo'l qovushtirib o'tirishga mahkum etadi. Albatta umuman irodasi kuchsiz kishilarda shunday bo'ladi. Bunday kishilar irodasining o'smaganligi, yetarlicha tarbiyalanmaganligi bilan farq qiladi.

Ammo irodali mavjudot bo'lgan odam hayot va faoliyatida jamiyat yoki o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan maqsadidan qaytmasligi ham mumkin. U iroda kuchiga zo'r berib, to'sqinliklarga qarshi kurashni kuchaytirishi, qabul qilingan qaroriga yarasha uzoq vaqt ish ko'rishi mumkin. Barcha to'sqinlik va qiyinchiliklarga qaramay u zarur natijani qo'lga kiritmoq uchun damba-dam, orada vaqt o'tkazib zo'r berishi, g'ayratini ko'rsatib ishlashi mumkin.

Kutilgan maqsadga etishda katta qiyinchiliklar va engib bo'lmaydigan to'siqlar bo'lsa, kishi shu maqsadga yetishi uchun zarur yo'l, vosita va usullarni o'zgartirib, yangi usullarni qidirib topishi mumkin. Katta to'sqinliklarni bartaraf qilib, uzoq qunt qilib, maqsadga yetishda ko'rinadigan bunday iroda kuchi sabot-matonat

deb ataladi. Shunday iroda sifatiga ega bo'lgan kishi esa sabot-matonatli, kuchli irodali, qat'iy xarakterli kishi deb ataladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qib, o'rganishning muvaffaqiyati sabot-matonatga bog'liq. Bilimli bo'lmoq uchun sabot-matonat kerak. Har bir sohada-texnika, san'at, muzika, sport va shu kabi sohalarda bilim va malaka ortirmoq uchun sabot-matonat kerak.

Sabot-matonat xarakterning eng qimmatli xislatidir. Bu xislat kishining maqsadga yetish yo'lida qanday qiyinchilik va to'sqinliklar bo'lishidan qat'iy nazar shu maqsadga erishishida o'z ifodasini topadi.

Xarakter xislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan, va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi.

Sabot-matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamisha oxiriga yetkaza biladilar. Ular o'zlariga nisbatan ham boshqa kishilarga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Sabot-matonatli kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ruhini tushirmaydi, balki aksincha, maqsadga erishish uchun ishga yanada qat'iyroq kirishadi, shu maqsadga erishishning yangi yo'l va vositalarini izlab topadi.

Sabot-matonatli kishilar o'ziga va boshqa kishilarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadilar. Ular belgilangan yo'ldan yurishlariga to'sqinlik qila oladigan hamma narsaga qarshi tura oladigan, bu to'sqinliklarni yenga oladigan matonatli kishilardir.

Sabot-matonat irodaning chidam va toqat degan sifati bilan ham chambarchas bog'liq.

Maqsadga yetishda bartaraf qilinadigan to'sqinlik va qiyinchiliklar kishidan kuch va vaqt sarf qilishni talab etibgina qolmay, balki ko'pincha jismoniy va ruhiy azob beradi ham.

Kishining o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilaversa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda chidam va toqat deb ataladi. Odamning organizmidagi yemirilish jarayonlarini yengishda ifodalanadigan ajoyib iroda o'zini tuta bilish va matonatni ko'rsatadigan misollar talaygina bo'lib, u quyidagi misollardan birida keltirib o'tiladi.

Sobiq sovet uchuvchisi Aliyevning bir o'zi havo jangida dushmanning yettita samolyotiga qarshi mardonavor kurashdi va hammasini urib tushirdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu jangda Aliyevning samolyotini dushman o'qlari teshib yuborgan edi. Aliyev o'zi bir necha bor yaralandi. Ammo u o'zini yo'qotib qo'ymay, samolyoti bilan o'z aerodromiga borib qo'ndi. Aerodromiga yetib borguncha dushman egallab olgan yerlardan uchib o'tishi kerak edi. Dushmanning zenit to'plari Aliyevning samolyotini qattiq o'qqa tutdi va samolyotining bir necha joyini snaryad parchalari teshib yubordi. Uchuvchi yana bir necha marta yaralandi. Lekin Aliyev bu safar ham sarosimaga tushmay samolyotini boshqarib boraverdi va uni o'z aerodromiga eson-omon qo'ndirdi. Samolyot kabinasi ochilganda uchuvchi o'lgan edi. U ikki qo'lidan, oyog'idan, kuragidan, yelkasidan, orqasidan, jag'idan va boshidan yaralangan edi. Vrachning aniqlashishicha, og'ir yarador bo'lgan Aliyevning bu holda ucha olishi sira mumkin emas edi. Ammo Aliyev samolyotini boshqarib, aerodromga to'g'ri qo'na olgan. Uchuvchining irodasi va o'zini tuta bilishi tufayli o'qning yemiruvchi kuchlaridan g'olib kelib, umrining so'nggi daqiqalarini cho'zishga erisha oldi.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa mashaqqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar.

Bunday xarakterli kishilarga optimallik kayfiyati, hayotga quvnoqlik bilan qarash, porloq kelajakka doim ishonch bilan boqish, boshqa kishilarga o'z kuchlari va mehnat imkoniyatlariga etishish kabi xislatlar xosdir.

O'zini tuta bilish jasurlik sabot-matonat, chidam va toqatda ko'rinadigan kuchli iroda mardlik deb ataladi. Shu sifatlar bilan farq qiladigan kishilar esa mard kishilar deb ataladi.

Kishilarning hayoti va faoliyatida shunday hollar ko'p bo'ladiki, bunda odam zarur paytida o'zini tuta olmay qoladi, jasurlik, sabot-matonat, intizomlilik ko'rsata olmaydi. Xarakter xislati irodasiz kishilar mavjud, bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki irodasiz kishilar deyiladi. Bunday kishilar irodasi kuchsiz yoki chidamsiz kishilar deyiladi. Bular xatto arzimas qiyinchilik va to'sqinliklarni ham bartaraf qila olmaydigan kishilardir. Bular salgina muvaffaqiyatsizlik

yoki qiyinchilik kelib chiqqanda ham o'z oldiga qo'ygan maqsaddan voz kechib ish harakatini to'xtatadigan, o'z qarorini bekor qiladigan yuraksiz, qo'rqqoq kishilardir. Ular vaziyat talab qilganda zarur jasurlik sabot-matonat, chidam, toqat, qat'iyat ko'rsatmaydilar. Bular cho'chima, yalqov joni paxta kishilardir. Bunday kishilarning xatti-harakatlari odatda ularning o'zidan ko'ra tashqi sharoitga bog'liq bo'ladi.

Bunday xarakter xislatlarga ega bo'lgan kishilar pessimistik kayfiyatda bo'lib, dunyoga va hayotga umidsizlik bilan qaraydilar. Ular doimo barcha kishilarning salbiy, yomon tomonlarini ko'radilar, bu kishilarning fikricha, o'zlarining barcha kamchiliklari va muvaffaqiyatsizliklarining sababchisi boshqa kishilardir. Bu xildagi ba'zi kishilar passiv beparvo kayfiyatda bo'ladilar.

Irodaning mustaqilligi. Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epchillik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi.

Mustaqillik qilinilmagan va qilinilgan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali

narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi.

Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyurilgan ishni qilmasdan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyurilgan ishni teskarisini qiladi.

Intizomlilik – xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi.

Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo'lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga itoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

5.5. Bo'lajak tibbiyot xodimlarida irodaviy sifatlarni tarbiyalash zarurati

Hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning ahloqiyligi deganda odatda kishi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'yilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy xislatlari namoyon bo'lsa, iroda kuchi ijobiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, kishilarning axloqiy hislarlari haqida fikr yuritilganda aytilgan

soʻzlarni emas, balki ularning maʼnaviy qiyofasini koʻrsatadigan irodaviy harakatlarni nazarda tutamiz. Shuning uchun kuchli irodaning mardlik, oʻzini tuta bilish, sabot-matonat, chidam va jasurlik kabi xususiyatlari irodaning axloqiy sifatlari deb hisoblaymiz.

Kishi biror qarorga kelishda oʻz qarori va harakatlari uchun axloqiy masʼuliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi.

Kishining chinakam axloqiyligi maʼnaviy qiyofasi, soʻzida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, yaʼni mehnatga va ishning oʻziga mehr qoʻyishida namoyon boʻladi.

Oʻzining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarida har doim ahloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

Nazariy topshiriqlar

1. Xissiyot va emosiya xaqida tushuncha.
2. Dinamik stereotip, ambivalentlik tushunchalarini izohlang.
3. Emosional xolatlarni izohlang.
4. Iroda xaqida tushuncha
5. Iroda akti.
6. Irodaviy sifatlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Roʻziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. 2017 y.
3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qoʻshimcha adabiyotlar

5. Gʻoziyev E.Gʻ. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent.2008 y.
7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika.

Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.

9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.
10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y.
11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya", Darslik. Toshkent. 2008 y.
13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.
14. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
16. Y.K.Narmetova. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2022 y.
17. Y.K.Narmetova. Psixologiyada shaxs muammosi. Shaxs faoliyati va uning individual-psixologik xususiyatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2022 y.

TO'RTINCHI BO'LIM

VI BOB. SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

6.1. Temperament

Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

Psixologiya fani tarixida temperament haqidagi ta'limotni birinchi bo'lib qadimgi grek olimi Gippokrat (e.a.460-356y) yaratdi. Gippokrat temperamentning mohiyati va temperament tiplarining nomlarini asoslashga harakat qilib, o'tkazgan tadqiqotlari asosida temperamentga xos xususiyatlarni tizimga solib, quyidagi turlarga ajratgan: xolerik, melanxolik, flegmatik, sangvinik. Ularning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida-alohida tavsiflab bergan. Gretsiya faylasuflari to'rt element - havo, suv, olov va tuproq elementlariga muvofiq keladigan sifatlar: issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik sifatlari to'g'risidagi gipotezalarga asoslangan holda, ular inson a'zosida bu elementlarga to'g'ri keladigan to'rtta asosiy suyuqlik bor, deb hisoblaydilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o'rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta'kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- Favqulotda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

- Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) davomida yoki uning muayyan bir bo'lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'iy nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

- Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida **temperament xususiyatlari** deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460 – 356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentning fiziologik asoslari

Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

❖ O‘tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi-tana a‘zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.


❖ Qonning xususiyati-issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.

❖ Qora o‘tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.

❖ Balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta‘limotiga muvofiq har bir insonda shu to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o‘t, sangvinikda qon, flegmatikda balg‘am, melanxolikda qora o‘t ustun bo‘lishi ta‘kidlanadi.

Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya‘ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma‘noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.



Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov (1849-1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta‘limoti bo‘yicha, shartli reflekslar paydo bo‘lishining individual xususiyatlari ro‘yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini xususiyatlari mohiyatidandir. Unga ko‘ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko‘rsatadi:

1) qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;

2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi;

3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat.

1. Kuchli, muvozanatli, epchil;
2. Kuchli, muvozanatsiz, epchil;
3. Kuchli, muvozanatli, sust;
4. Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri B.M. Teplov (1896 - 1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tadbiq etdilar. Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyondalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgan. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishi.

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo'li bilan shartlangan tip—bu genotip demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar, juda ko'p

bo'lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o'rganish natijasida topilgandir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan.

I.P. Pavlov ta'limoti bo'yicha nerv sistemasi tiplarining va Gippokrat ta'limoti bo'yicha temperamentning o'zaro munosabatlari

Temperament tiplari	Nerv sistemasining kuchi	Nerv tizimining muvozanati	Nerv tizimining ildamligi
Xolerik	Kuchli jo'shqin	Muvozanatsiz qizg'in	Serharakat
Sangvinik	Kuchli serharakat	Muvozanatli	Serharakat
Flegmatik	Kuchli vazmin	Muvozanatli	Inert (sust)
Melanxolik	Kuchsiz	Muvozanatsiz tormozli	Serharakat yoki inert

Ularda **temperament tipi** deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) tushuniladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.


Nerv sistemasi va temperamentning bog'liqligi

<i>Nerv tizimining turlari</i>		Kuchli			Kuchsiz
Nerv jarayon-lari xususiyatlari	Kuch Vazminlik Harakatla-nish	Kuchli Harakatla-nish	Jonli Kuchli Harakatla-nish	Inert Kuchli Sust	Kuchsiz Harakatchan yoki sust Melanxolik
Temperament		Xolerik	Sangvinik	Flegmatik	

Temperament va psixik reaksiyaning bog‘liqligi

Temperament	Reaksiya	
	Tezkorlik	Kuch
Sangvinik	Tez	o‘rta
Xolerik	Tez	haddan tashqari
Flegmatik	Sekin	kuchli
Melanxolik	Sekin	kuchsiz

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.



✓ **Senzitivlik** (lotincha Sensus – sezish, his qilish degan ma‘no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo‘lishi uchun kerak qo‘zg‘ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

✓ **Reaktivlik**. Bu to‘g‘rida aynan bir xil kuch bilan ta‘sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro‘yobga chiqishi-emotsionallik, ta‘sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

✓ **Faollik**. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta‘sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob‘ektiv hamda sub‘ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishga qarab fikr yuritiladi.

✓ **Reaktivlik bilan faollikning o‘zaro munosabati**. Odamning faoliyati ko‘p jihatdan nimaga bog‘liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga,

favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.


✓ Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

✓ Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

✓ Ekstravertlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchi favqulotdagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Temperament tiplarining tavsifnomasi

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatleri, holatlari ro'y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.



Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatilylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga etkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qo'zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini

sekinlik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz qat'iy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Faoliyatning individual uslubi va temperament

Faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib toptiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki boshqa sabablarga, shaxsiy tajriba jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarga ham bog'liqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tug'ma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Faoliyatning individual uslubi asosini asab tizimi xususiyatlari yig'indisi tashkil qiladi. Faoliyatning individual uslubiga kiruvchi ikki xil xususiyatlar mavjud.

1. Asab tizimi individual xususiyatlari nuqsonlarining o'rnini to'ldiruvchi tajriba jarayonida shakllangan xususiyatlar.

2. Insonda mavjud layoqat va qobiliyatlardan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar.

Temperamentning xususiyati faollikning samaradorligida emas, balki usullarning o'ziga xosligidadir. Shu ma'noda E.A.Klimov

tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, stanokchi, to'quvchilarning ishini kuzatish natijalari muhim sanalgan. Ma'lum bo'ldiki, bir necha stanokda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishadilar. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Faollikning individual uslubini V.S.Merlin, E.A.Klimovlar o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmasligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalariga erishishiga yordam beradigan o'zining yo'llari va usularini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlari ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shib ketishi aniq bo'ladi. Chunonchi, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmatik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. O'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlanib, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.

6.2. Xarakter

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. "**Xarakter**" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib " tamg'a, belgi " degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining

individual-psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida ifodasini topadi. Shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunonchi aqlning topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi kabi individual psixologik xususiyatlar bunga misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi **xarakter** deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni,

1.Xarakterning ma'naviy hislatlari - mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, mehribonlik, tashabbuskorlik, kamtarlik kabilar.

2.Xarakterning irodaviy hislatlari - maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, jasurlik, o'z-o'zini tuta bilish kabilar.

shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qa'tiyatlilik, tanqidiylik, fahm- farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. Odatda shaxsning munosabatlari xarakter xislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilini aniqlash imkoniyatiga ega:

1. Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarning o'ziga xos xislati uning munosabatlariga bog'liq.

2. Har qanday favquloddagi tipik (muhitdagi) xarakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir.

3. Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga:

- a. diqqatning to'planishiga;
- b. harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga;
- c. irodaviy zo'r berishga;
- d. usullar mahsuldorligiga;
- e. aqlning ishtirokiga bog'liq

Xarakter tug'ma, o'zgarmaydigan xususiyat emas. U inson hayoti davomida tarkib topib, o'zgarib, tarbiyalanib boradi. Psixologiya fani 1000 dan ortiq xarakter xislatlari mavjudligi haqida ta'kidlab, ularni o'ziga hos ijobiy va salbiy xususiyatlarga ajratadi. Har bir yakka shaxs o'z-o'ziga baho berishdan oldin, o'zidagi salbiy va ijobiy xususiyatlarni o'rganishi lozim. Shu orqali shaxs o'ziga yuqori, past va o'rtacha (adekvat) baho beradi. Insonning xarakter xususiyatlarini nemis olimi K. Leongardom xarakter tipologiyasini o'rganib, ularni bir nechta turlarga ajratgan. U inson xarakter xususiyatlari tasnifini atrofdagi odamlar bilan muomalasi, usuli negizida va alohida quyidagi xarakter turlari bo'yicha ta'rif beradi.

Emotiv turi - bu toifadagilar tor doiradagi saralangan odamlar bilan aloqa qilishni afzal ko'radilar. Ular kamhollarda mojarolarga aralashadilar, hafaliklarini ichlarida saqlaydilar. Yaxshi hislatlari samimiylik, rahm-shafqatli, o'zgalarning yutug'idan quvonadigan,

ijrochi. Salbiy tomonlari: yig'loqi, o'z hissiyotlariga beriluvchan, izzattalab.

Namoyishkorona - bu toifa insonlar tez muloqotga kirishuvchan, etakchilikka intiluvchan, hokimiyatni egallash hissi ustuvor va maqtoovni yoqtiradi. Ular boshqalarga tez ko'nikadi. Bunday insonlar o'zlarining o'ziga ishonchliligi va yuqori, o'ziga tortuvchanliklari bilan atrofdagilarning g'ashiga tegadi, mojarolarni o'zlari keltirib chiqaradilar va faol tarzda o'zlarini himoya qiladilar. Ijobiy tomonlari: qanoatli, artistlik qila oladigan, boshqalarni o'ziga qarata oladigan. Salbiy tomoni: hudbin, shaxsiyatparast, maqtanchoq.

Ekzotik - bu toifadagilar o'ta kirishimli, so'zamol, bunday odamlar tez-tez bahslashadilar, lekin ish vaqtida mojarolarga etib bormaydi. Mojaroli holatlarda ular bir paytning o'zida ham faol, ham sustkash. Shu bilan birgalikda do'stlari va yaqinlariga bog'langan tarzda faoliyat olib boradi. Ijobiy tomoni o'ziga yaqin odamlarga g'amho'r va e'tiborli, salbiy tomoni boshqalarga e'tiborsiz.

Ekstrovet - ular o'ta kirishimli. Bunday odamlarda do'stlari va tanishlari juda ko'p. Har qanday ma'lumotni ulardan ochiqchasiga bilib olish mumkin. Do'stlar davrasida, ishda, oilada ko'pincha etakchilikni, bo'ysundirishni afzal ko'radi. Ijobiy xislatlari o'zgalarni diqqat bilan eshitishga tayyorligi, so'ralgan talabni tezda bajarishi. Salbiy tomonlari: ta'sirga beriluvchan, engil tabiat, ko'ngilhushlikni yoqtiradi.

Introvet - bu toifadagilarning boshqalardan farqli tomoni shundaki, ular o'ta ishonuvchan, o'z tuyg'ularini oshkor etishni qollamaslik, qat'iylikdan yiroqlashish faylasuflik qilishga intilishlari bilan xarakterlidir. Bunday odamlar yolg'izlikni yoqtiradilar. Ularning shaxsiy hayotlariga aralashgandagina atrofdagilar bilan ihtilofga borishadi. Ijobiy tomoni kelishmovchilikni sodir etmasligi, uyatchanlik, qat'iylik kabi ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda, qaysarlik, fikrlashning tormozlanishi kabi salbiy xususiyatlarga ega.

I.P. Pavlov tajribasining ko'rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta'sir hukm surganda, asab tizimi umumiy turining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirishi yoki aksincha, halaqit berishi mumkin. Shaxs xarakterining tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yahlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismida habardor bo'lish

notanishlarni tashhis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuxratparastligi va hudbinligi ma'lum bo'lsa, uning ichi qoraligini tahmin qilish mumkin yoki inson kamtar, mo'min, bo'lsa, albatta, uning ko'ngilchan ekanligini sezamiz. Xarakterning tuzilish xususiyatlari jumlasiga xarakter kuchi kiritiladi va shunga asosan insonlar kuchli hamda kuchsiz xarakter turlariga ajratiladi. Shuningdek, xarakter tuzilishining xususiyatlari tarkibiga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi ham kiritilgan. Xarakterning barqarorligi ham, o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Shaxsning xarakter xususiyatlari turlicha turmush sharoitlarida qarshilik qiluvchi vaziyatlarga duch kelsa-da, uning hatti-harakatlarini boshqaradi. Shu bois inson tashqi vaziyatga bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki tashqi vaziyatni shaxsan o'zi yaratadi, shuningdek, maqsadga muvofiqlashtiradi.

Xarakterning fiziologik asoslari

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi genotip. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma-xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali muqarrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi-fenotip xarakteridir. Dinamik stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I.P.Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi hulqini ham idora qiladi. Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi,

ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xarakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir. Xarakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritilishi tufayli, psixologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Xarakter xislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri – xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir. Ma'lumki, I.P.Pavlov ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotipni hosil qilish mumkin. Xarakter stereotiplar va so'lak ajralishidan iborat ijobiy va tormozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitda esa qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm **ko'chirish mexanizmi** deyiladi. Ko'chirish mexanizmining mohiyati shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy nerv sistemasida har xil funksional holat paydo bo'ladi, chunonchi, ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va bunda ovqatlanish bilan bog'liq dominanta tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alish tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Hayvonlardagi mazkur hodisalarning shaxs xarakteri xislatlari namoyon bo'lishi bilan o'xshashligi mavjud. Bular: 1) ular hayvonlar va odamlar uchun stereotip xususiyatga ega; 2) sharoitga bog'liq holda odamlarda va hayvonlarda bir qo'zg'ovchiga javoban xilma-xil stereotip xususiyatli reaksiyalar tizimi vujudga keladi; 3) funksional holatlar har ikkalasida ham barqaror va doimiy xususiyat kasb etadi. Funksional holatlar hosil bo'lishining tashqi omillariga asoslanib, xarakter xislatlari shakllanishining fiziologik sharoitlaridan biri-ko'chirish mexanizmi asosida dinamik stereotiplarning vujudga kelishidir.

Xarakter xislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq nerv tizimining shartli reflektor funksional holati shaxsning sharoitiga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. Masalan, tajribaga nisbatan

tekshiriluvchining munosabati o'zgartirilsa, unda nerv jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak nerv tizimining funksional holati o'zgaradi. Shunday qilib, xarakter xislatlarining asosi ko'chish mexanizmi insonlarda hayvonlamikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarakter xislatlarining namoyon bo'lishi bilan nerv tizimiga qiyoslansa, u holda birinchisining ruyobga chiqishi o'zgacha fiziologik sharoitga asoslanishi mumkin. Sobiq sovet psixologiyasida ta'kidlanishicha, nerv sistemasi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jihatdan zid harakat usullariga mos tushadi. B.M.Teplov, V.M.Merlin, E.A.Klimovlarning tadqiqotlarida o'qish, sport va mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakter xislatlari paydo bo'lishining o'zgacha fiziologik sharoiti nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, nerv tizimining umumiy tipi – bu temperamentning fiziologik asosi hamdir. Shuning uchun temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xislatlarining ruyobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlov tajribasining ko'rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta'sir hukm surganda nerv tizimi umumiy tipining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirish yoki, aksincha, halaqit berishi mumkin.

Xarakter tarkibi

Shaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. «Simptom» yunon symptoma belgi, mos tushish, «kompleks» lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish

o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoklik, o'zbilarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotlilik, dil-kashligi, haqqoniyliги bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

1. Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar).

2. Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar).

3. Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamadan munosabatda bo'lish kabilar).

4. Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir.

Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikligi ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridan, bu sifatler alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, qat'iyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, ma'suliyatni his qilish, o'z-o'zini tanqid qilish axloqiy xislatlardir.

Xarakter aksentuatsiyasi

Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) deb ataladi.

Xakterga ortiqcha urg'u berilishi ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo'lgani holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi o'ta noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs hulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptatsiyaga to'sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo'rindir.

Xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) turlarini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi va har xil nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi. (K.Leongard, A.Lichko). Lekin aksentuatsiyalashgan xususiyatlarning tavsifi ma'lum darajada bir xil

bo'lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvaffaqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya («shizofreniya xususiyatlari», «epilepsiya» xususiyatlari va hokazo) bilan to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik bo'lishidan qochgan holda ortiqcha urg'u beriladigan xususiyatlar ro'yxatini keltirish imkoniyatini beradi. Xarakterni ortiqcha urg'u berilgan holda baholash psixiatrning emas, balki pedagogning diqqatini jalb qilishini taqozo etadi, garchi aksentuatsiya muammosining o'rtacha qo'yilishi tarixi psixiatriya va psixonevrologiyaga borib taqalganda ham shunday hisoblanadi.

Nemis psixiatri K.Leongard fikricha, 20-50% kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aksentuatsiyasi – biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. O'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi.

K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi:

1) **Gipertim tip** – haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

2) **Distim tip** – kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

3) **Sikloid tip** – kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda – gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.

4) **Qo'zg'aluvchan tip** – muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.

5) **Kuchaytiruvchi tip** – kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil.

6) **Pedant tip** – ziddiyatlarga kam qo‘shiladi, ko‘pincha passiv holatda bo‘ladi, atrofdagilarga ko‘plab rasmiy talablar qo‘yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.

7) **Xavotirli tip** – kamgap, odamovi, o‘ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o‘zini olib qochadi, tinchliksevar, o‘z-o‘zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

8) **Emotiv tip** – tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo‘lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g‘amxo‘r, ma‘suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

9) **Namoyishkorona (demonstrativ) tip** – muloqotga tez kirishadi, etakchilikka intiladi, hokimiyat va maqtozni yoqtiradi, boshqalarni o‘ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq- atvorga ega.

10) **Ekzaltirlashgan tip**. O‘ta mulokotga kirishuvchan, ko‘p gapiradi, qiziquvchan, do‘stlari va yaqinlarga e‘tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

11) **Ekstrovertlashgan tip** – muloqotga kirishuvchan, do‘stlari ko‘p, ziddiyatlardan o‘zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

12) **Introvertlashgan tip** – muloqotga kirishishga qiynaladi, «ichimdagini top», falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat‘iyatli, e‘tiqodi mustahkam, qaysar, tafakkuri qotib zolgan.

To‘g‘ri tashkil etilgan ta‘lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Xarakter tipologiyasi

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko‘rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.Sheldon, E.Fromm, K.Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etilgan. Inson xarakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g‘oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan.

1. Inson xarakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo‘la boshlaydi va butun hayot davomida barqaror bo‘lib boradi.

2. Xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin.

E.Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ularning har biri shaxsni ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham, aslida hech qanday ilmiy asoslab bo'lmaydi.

- **Astenik tip** – Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishli, o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriq kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi nozik, elkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

- **Atletik tip** – skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtachadan yuqori, baland bo'yli, keng elkali, kuchli ko'krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

- **Piknik tip** – bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E.Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruhiy kasallik o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E.Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Xarakter borasidagi nazariyalar.

Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, Arastu va Aflotun kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Jumladan, Arastuning aytishi bo'yicha, buqaniki singari yo'g'on

burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlikni, arslonnikabi kabi burun mag'rurlikni, echkilar, qo'ylar, va quyonlarniki singari junining mayinligi qo'rzoqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi.

Xarakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimi aql-sadosini biz, masalan, o'rta asrlik Suriyalik yozuvchi Abul-Faraj Bar Ebreyda ko'ramiz. Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlashgandir: «Yo'g'on va kalta bo'yli kishi bo'yval singari qahr g'azabga kelishi moyilligiga ega». Uzun va ingichka bo'yli qo'rzoqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkadigan bo'ladi, «Qaysi birining bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi».

XVIII asrda Iogann Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi «Qalbini ko'rsatadigan oyna» bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyani, imo-ishorasini o'rganish kishi xarakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisobladi. Lafater taniqli odamlar shaxsi ustidan bir qator oqilona kuzatishlar qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz, lekin juda qiziqarli «Fiziognomika» kitobida yig'ilgandir. Lafaterning fikriga ko'ra, Gyotening geniyligi haqida eng ko'p darajada uning, «burni dalolat beradiki, u Gyote pozitsiyasining «mahsuldorligini, mazmuni va muhabbatini - qayd etadi».

Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xarakterologik ta'limot frenologiya degan nom oldi.

Frenologiya nemis vrachi Frans Gallning nomi bilan bog'langandir. Gall ta'limotining asosida xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlarga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallning maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning «Bo'rtik joylarini» ushlab ko'rish aftidan etarli bo'lsa kerak.

Bu ta'limotda umuman miya yarim sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan to'g'ri boshlang'ich fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ridir.

Charlz Darvin ham o'zining «Odamda va hayvonlarda his-tuyg'ularning ifodalanishi to'g'risida» degan kitobida yozgan ediki, fiziognomistik «har bir individning o'z shaxsiy qiziqishlariga erishib, faqat yuzlaridagi asosan ma'lum bir muskullarni qisqartirishi, bu muskullar kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkinligi va shuning uchun bu liniyalar va ularning odatdagi qisqarishidan paydo bo'ladigan yuz qisqarishi ancha chuqur va ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkinligini jiddiy ravishda bilishi kerak.

Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi. Ular o'zlarining fiziognomik ta'limotlarini yuz ifodasining tavsiflanishi va tushuntirilishi hamda uning yumshoq to'qimalari holati asosiga qurila boshladilar. Mimikani psixologik jihatdan tushuntirib beradigan o'ziga xos fiziognomik ma'lumotlar tuzildi.

Xarakterning shakllanishi

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi (egizaklar). Egizaklar temperament xususiyatlari jihatdan o'xshasalar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini

kuzatadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va ahloqiy sifatlarni tarbiyalab etkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlarga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta ma'suliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish, ijobiy tomonlarini tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamentini o'zi idora qilishiga o'rgatishi lozim. O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tarzda hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, ssexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib etishadi. Kishi jamoada bir-bir bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterni bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiyalash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo'lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir. O'z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmog'i lozim. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

Xarakter va insonning tashqi ko'rinishi. Psixologiya tarixida xarakterni inson bosh suyagining shakliga, yuz tuzilishiga, qaddi qomatiga (tana tuzilishiga va boshqalarga) bog'liq qilib qo'yadigan va shu yo'l bilan xarakter xususiyatlarining sirini ochish yo'lini aniqlash, ya'ni ayrim tashqi alomatlariga qarab inson xarakterini ochish nazariyalari ko'p bo'lgan. Masalan, tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xarakteri bilan aynan bir xil, deb qarash kerak, degan fikrlar ilgari surilgan edi. Masalan, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi va h.k.

Agar odamlarni shaxslarga ko'ra yoki toifalarga ajratib, ularni alohida xususiyatini ta'riflab berolmasak ularni qanday tasvirlashimiz mumkin bo'ladi?

Olma bilan olib boriladigan tajribani misol qiladigan bo'lsak, uni bir qancha o'xshash jihatlarini sanab o'tishimiz mumkin; katta yoki kichikligi, qizil yoki sariqligi, shirin yoki nordonligi bularga misol.

Bu narsani odamlar misolida oladigan bo'lsak bir vaqtning o'zida shaxslarning turli xislatlarini ko'rinishi natijasiga psixologlar inson xarakterining turli xilligini aks etishi deb qaraydilar.¹⁶

Xarakter va holat. Xarakter shaxsning atigi bir tomoni bo'lib ekstremal vaziyatda yoki shunchaki tanlash vaziyatida inson mavjud holatlardan ustun bo'lishga, shu jumladan, xususan o'z xarakteridan yuqori ko'tarilishga ham qodirdir. Psixologiya fanida xarakter va qobiliyatning shakllanib borishi bevosita shaxsning yosh davrlariga bog'liqdir. Ma'lumki, har bir yosh davri o'ziga xos belgiga ega bo'lib, uning o'rnini hech qanday yosh davri bosa olmaydi. Biroq turli shaxslarda yosh davrlari turlicha kechishi fan nuqtai nazaridan izohlangan.

Xarakter tuzilishining qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, muhim tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Xarakter xislatlarining ba'zi salbiy xususiyatlar (qo'pollik va yolg'onchilik)ni bartaraf qilish

¹⁶ Devid Mayers Psixologiya. Minsk. 2008. 582 bet

juda qiyin, sababi hayotiy vaziyatni chuqur anglab etmasdan turib, insonlarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirmasdan turib insondagi salbiy illatni ijobiy fazilatga o'zgartirish murakkab, vaziyatli holatdir. Shuning uchun har bir insonda o'z-o'ziga baho berish, albatta, o'z-o'zini nazorat qilish kabi mexanizmlar shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xarakter xususiyatlari milliy ruhiyatdan kelib chiqib ham shakllanadi. Masalan, o'zbek millatining vatanparvarligi, bag'rikengligi, milliy g'urning kuchliligi boshqa xalqarga nisbatan ajralib turuvchi xususiyatdir.

Shaxsning muhim individual sifati hisoblanuvchi qobiliyat shaxsning boshqa individual sifatlari bilan bog'liq holda xilma-xil bo'ladi. Psixolog nuqtai-nazarida qobiliyatlik sifat jihatidan malakalarda ajralib turadi. Qobiliyat orqali odamlar o'yinda, o'qishda, mehnatda ham bir-birlaridan keskin farq qiladilar.

Qobiliyat o'zi nima, u insonlarda qay tarzda namayon bo'ladi degan savolga, u insonlarning bosh miya faoliyatining ishlashi bilan bog'liq degan javobni olamiz. Masalan: ba'zi bir insonlarda miyaning chap qismi ko'proq rivojlangan, boshqalarda esa o'ng qismi rivojlangan degan g'oyasini keltirishdi.

Yuqorida yozganimizdek tajribalar ko'rsatadiki miyaning har bir qismi o'ziga hos funkciyani bajaradi. Miyaning chap qismi mantiqiy jihatdan narsalarga baho beradi. O'ng miya - hissiyot bilan intuiciya orqali bo'lib, narsalarni qabul qilishga yordam beradi.

“Dihotomiya” - o'ng va chap miya qismlari bu fikr sizni osonlik bilan fikrdan chalg'itishi mumkin deb ogohlantirgan edi Sperry (1982). Hatto biz hikoya o'qiyotganimizda miyaning ikkala qismi ishlaydi - chap qism so'zlar va uning ma'nosini topadi, o'ng qismi hazil hissiyot va tassavurni baholaydi (Hellige, 1993).

O'ylash qobiliyatini barqaror rivojlantirish, insonga ijtimoiy ongi va ma'naviyatiga yangi darajani beradi. Shuningdek, yigit va qizlar o'zlarining shaxsiy fikrlarini tahlil qilishni va boshqalarga nisbatan munosabatni va boshqalarning ularga nisbatan munasabatlarni o'zgartiradi.

Britaniyaning Kolumbiya universitetidagi psixolog Stenli Koren, “Chapaqay sindromi” asarida jurnalistika

qanday qilib ko'pincha ilm fanni soddalashtirishi va bezaklikni ko'rsatadi. U majlislarning birida psixolog Dorin Kimuraning nutqini eshitganini esladi, unda aytilishicha, chap quloq bilan musiqani eshitgan insonlar, o'ng quloq bilan musiqani eshitgan insonlardan ko'ra tezroq eslashdi.

O'quvchilarni ustidan tajriba o'tkazib shuni bildikki, chap quloq o'ng miyadagi hujayraga ko'proq ma'lumotlar o'tkazib beradi va o'ng hujayra tashqarisidagi musiqalarni yaxshiroq o'zlashtiradi. Bir necha kundan keyin, New York Times jurnali yozdiki, London psixologi (Ontario viloyati) Dorin Kumura shuni aniqladiki, musiqiy qobiliyatlar miyadagi o'ng hujayra bilan boshqariladi.

New York Times gazetasi ma'lumotlardan kelib chiqib maqoladagi fikrini davom ettirib yozdiki, Londonning psixologiya doktori Dorin Kimura hamma qo'shiqchilar ma'lumotlarni o'ng miya hujayrasi bilan yahshi o'zlashtirishini tasdiqladi. Keyingi maqolasida Angliyaning psixologi Dorin Kimuraning nima uchun mashhur qo'shiqchilar chapaqayligini tushuntirib berdi.¹⁷

Kishining qobiliyati hilma-hil bo'lib, qiziqishlar va o'z ustida ishlash natijasida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Faoliyatning mohiyatidan kelib chiqib, qobiliyat ham turlicha kasb egalarida turlicha namoyon bo'ladi, ayrim shaxslar bir necha sohalarga nisbatan ham qobiliyatli bo'ladilar.

Qobiliyatlar to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirish maqsadga muvofiq: qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlar ekanligi; mazkur xususiyatga bilim, ko'nikma, malaka orttirish bilan erishilishini bog'lash muhimdir.

Agar yoshlar o'z tengdoshlari qanchalik shaxsiy muammolari bilan bandligini bilganda edi boshqalarning ular to'g'risidagi fikrini bilishganda ular kamroq xavotirga tushgan bo'lar edi.

O'zgaruvchanlik asosida qobiliyatning rivojlanib borishi tayin, yoshlar komillikda jamiyat bilan ota-onasi hal qiluvchi rol o'ynashini va hattoki o'z intilishlari haqida o'ylashni boshlashadi.

Yoshlik davrida yoshlarning barcha uy fikrlari o'ziga qaratiladi.

Yosh avlod o'z tajribasini betakror deb o'ylaydi, ota-onalar va do'stlar uni tushuna olmasligini va hatto birinchi uchrashuv yoki

¹⁷ Devid Mayers Psixologiya. Minsk. 2008. 105-106 betlar

maktabni yomon ko'rishni tushunmasligini hayoliga keltiradi. Birinchi muhabbat paytida yoshlar hattoki, "Ona birinchi muhabbat nimaligini bilmaysiz deb aytishi mumkin. Pajening aytishicha, yoshlarning shunchalik intellektual darajaga etishi bu insoniy qonuniyatdir. Ularning tahmin qilish qobiliyati yahshi rivojlangan. Biz fikr yuritishning yangi darajasini insoniy tabiat, qat'iyatlik va adolat hamda yahshilik va yomonlik haqida fikr olib borgandagina ko'ramiz.

Agar bolalar Allohni ramziy timsolida, ya'ni bulutdagi sahiy bobo deb tasavvur qilishsa, yoshlar esa bu haqda chuqurroq tushunchalarga ega. Mantiqiy fikrlash odamlarning ikkilanishini payqash, ideal va aniq ishlar orasida farqni anglash imkonini beradi.

Ikkiyuzlamachilikni payqash ba'zida ota-onalar bilan achchiq bahsga olib keladi. Shuningdek yoshlarni o'zining idealiga quloq solishga majbur qiladi. Balki Paj (1972) ta'lim va madaniyatning ta'sirini etarlicha baholamagandir. Shuning uchun ham rasmiy qonunchilikka olib keladigan odamlar soni oshirib yuborilgan. Ba'zi bir yoshlar mantiq va matematika fanlaridan etarlicha bilimga esa bo'lmasdan turib, bu darajada tafakkur qilishga qodir emaslar.

Bunga yaqqol misol, Skribner (1977) va Kpele qishlog'idagi ma'lumotsiz fermer orasidagi bo'lgan suhbatdir.¹⁸ Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik huddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi Albert Enshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishida genial olim bo'lib voyaga etishish dalolatnomasi yo'q edi.

6.3. Qobiliyat

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat

¹⁸ Devid Mayers Psixologiya. Minsk. 2008. 171-172 betlar

darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.


Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, engil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar etishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik bu endi qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.



Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va etakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning etakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emotsionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

Qobiliyatlarning miqdor va sifat tavsifi

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o'rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, engil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, engil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi «o'zgaruvchan miqdor» to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'rni ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin. Pedagog va psixolog Skolovinskiy ko'r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyatini emas, balki adabiy qobiliyat bilan, boshqarish yordami bilan to'ldirish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) engillik bilan «o'zini topa oladi» va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o'lchash muammosi bilan ko'proq chet el psixologlari (Kettell, Termen, Spirmen) va boshqalar shug'ullanganlar. Ular kattalarda qobiliyatni o'lchash usuli sifatida

aqliy iste'dod testlaridan foydalanganlar. Bolaning aqliy iste'dod koeffitsenti

IQ aqliy yoshi

Bolaning haqiqiy yoshi

Bu usul odamning aqliy qobiliyatlar egasi ekanligini emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashtirib bo'lmaydigan biror bir xildagi ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar borligini namoyon qiladi.

L.S.Vigotskiy bu usulni tanqid qilib, o'zining kelajak taraqqiyot zonasini belgilash «metodi» deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar tasnifi

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi.

1. **Tabiiy qobiliyatlar** odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.


2. **Maxsus insoniy qobiliyatlar** ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3. **Umumiy qobiliyatlar** insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi

psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q.

Nihoyat, shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlarni tan oladilar. Umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spetsifik zehn nishonalariga mos tushishi mumkin.



Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uch turga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb klassifikatsiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi.

Ilmiy qobiliyat abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizik, matematik qobiliyat, ximiya, filosofiya, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar.

Badiiy qobiliyat sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'limini, o'tkir emotsional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

Amaliy qobiliyat praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va etuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar mavhum, mantiqiy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi.

O'quv qobiliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxs – shakllanishi, pedagogik ta'sirlar samaradorligini ortishida ijobiy rol o'ynaydi.

Ijodiy qobiliyatlar moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarini yaratish, yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar echishda namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar tarkibi

Odam egallaydigan faoliyat uning xususiyatlariga yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat taraqqiyotining juda yuksak darajasida bo'lsa ham qondira olmaydi. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyatlar tarkibi aniq faoliyat talabi bilan belgilanadi va har turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat, adabiy qobiliyat, pedagogik, musiqaviy, ixtirochilik va shifokorlik qobiliyatlari tuzilishi maxsus tarkibga ega. Aniq qobiliyatlar tarkibini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari orasida ayrimlari etakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini egallaydi. Masalan, pedagogik qobiliyatlar tarkibida etakchi sifat pedagogik takt, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, ularga nisbatan yuksak talabchanlik, bilimlarni berishga ehtiyoj, yordamchi tarzda tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi. Har turli qobiliyatlarda bir emas, balki bir necha turdagi faoliyat turlari talablariga javob beradigan birmuncha umumiy sifatlarni ajratishimiz mumkin, bundan tashqari, mazkur faoliyatni bir muncha torroq doirasi uchun javob beruvchi maxsus sifatlarni ajratishimiz mumkin. Bu narsa ularda har tomonlama qobiliyatlar borligi, har turli kasblar, mashg'ulotlarning keng sohalariga doir umumiy qobiliyatlar borligi haqida gapirish imkonini beradi. Bu ikkinchi signallar tizimi haqidagi ta'limot bilan bog'liqdir.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u hoh ta'lim, hoh mehnat, hoh o'yin, hoh sport bo'lishidan qat'i nazar uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensomotor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorligidagi sa'i-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat qanchalik ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlarni uddalay oladigan imkoniyat bilan babbaravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganlik tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi aynan haqiqatdir. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz.

1) **Matematik qobiliyat** matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish amallarini kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdagi engillik, unumlilik, masala echishda fikr yuritishni epchilligi kabilar.

2) **Adabiy qobiliyat** nafosat hislarining yuksak taraqqiyoti darajasi xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonligini, «til zehni», behisob xayolan ruhiyatga qiziquvchanlik, intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan manbalari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi I.P.Pavlov o'z ta'limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o'rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan

iboratligi to'g'risidagi ta'limotga asoslanadi. Birinchi signallar tizimi obrazlar, emotsiyalardan va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so'zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson «*badiiy*» tipga taaluqlidir;

2) mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo'lsa, bu shaxs «*fikrlovchi*» tipga mansubdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo'lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson «*aralash*» tipga mansub odamdir.

Tipologiyaning o'ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. «**Badiiy tip**» uchun bevosita u taassurotlar jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg'ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

2. «**Fikrlovchi tip**» uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqlning engilmasligini bildirmaydi, lekin bu o'rinda gap psixika obrazli jabhalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida beradi. Biroq shuni ta'kidlash joizki, shaxsning ikkinchi signallar tizimidan ustunlik qiladi va bu ustuvorlik mutloqlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkurning o'rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqning aks ettirish jarayoni so'zlar, fikrlov vositasida ro'yobga chiqariladi.

Qobiliyatlarning tabiiy asoslari

Odatda qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi.

Qobiliyatning tugʻmaligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tugʻma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bogʻliq boʻlgan differensial xususiyatlarning tugʻmaligini inkor qilmaydi. Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon boʻladigan miya tuzilishining sezgi aʼzolariga va funksional xususiyatlariga **layoqat** deb ataladi. Layoqat koʻp qirralidir. Shaxs tomonidan qoʻyilgan talablarning tabiatiga bogʻliq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari “aql” va “qobiliyat” sifatlari miya yarim sharlarida oʻzining maxsus qatʼiy markazlariga ega, yaʼni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqdir. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi doʻmboqchalarni shunchaki paypaslab koʻrish orqali goʻyo odamning qobiliyatlarini aniqlasa boʻladi. Layoqatning miya miqdori, massasi va ogʻirligiga bogʻliqligi haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining oʻrtacha ogʻirligi 1400 grammga yaqin boʻladi. U.S. Turgenev miyasining ogʻirligi 2001 gramm, D.G Bayronniki 1800 grammni, mashhur ximik Yu.Libixniki 1360 grammni, yozuvchi Afransniki 1017 grammni tashkil qilgan. Eng katta miya aqliy jihatdan nuqsoni bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan.

1675 yilda F.Galtonning “Talantning irsiyatga bogʻliqligi qonunlari va oqibatlarini” degan kitobi nashr etildi. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini oʻrganib, talant ota-onadan irsiyat yoʻli orqali oʻtadi degan xulosaga kelgan. Biroq Galtonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Baxlar oilasida musiqaga boʻlgan talant dastavval 1550 yilda maʼlum boʻlgan. Bu talant 1800 yillarda yashagan qandaydir Regina Susanadan soʻng tamom boʻlgan. Umuman Baxlar oilasida 57 dan koʻp musiqachi boʻlgan. Ularning 20 tasi mashhur boʻlgan.

Bend degan skripkachilar oilasida 9 ta mashhur musiqachi boʻlgan. Goydon oilasida 2 ta mashhur musiqachi boʻlgan. Koʻpchilik hollarda mashhur odamlarning nasl-nasablarini oʻrganish biologik irsiyatdan emas, balki hayot sharoitining nasdan naslga oʻtishidan, yaʼni qobiliyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi maʼlum boʻladi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi faraz mahsuldor bo'lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste'dodli nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risida faraz ham haqiqatga yaqindir.

Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv tizimining alohida sezgirligi ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqati nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining hususiyatlari tarkibida ekanligi haqidagi barcha morfologik va funkcionallik sifatlar singari umumgenetika qonunlariga bo'ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi. F.Galtonning irsiyat qonunlari to'g'risidagi g'oya qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi. Chunki unda dalilga muhtoj juda ko'p o'rinlar mavjuddir. Shuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyatdan emas, balki turmush muhitining nasldan naslga o'tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir, agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlarga bo'ysunishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, qobiliyat va layoqatlar tabiiy zaminga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta'lim tizimiga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish muhim ahamiyatga ega.

Talantning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Talantning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat

beradi. **Talant** yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat degan ma'noni anglatib, muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta'kidlab o'tiladi, chunonchi shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga **talant** deyiladi.

Talantning asosiy belgilari:

- a) muvaffaqiyatni ta'minlash;
- b) faoliyatni mustaqil bajarish;
- v) originallik unsurining mavjudligi qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;
- d) individual psixologik xislatliligi;
- e) ijtmoy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchilik imkoniyati kabilari;

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o'tish talant tuzilishini yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi.

1) talant – bu shaxs psixik xislatlarining shunday birikmasidirki, uni a) alohida yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; v) xatto noyob sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi.

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud ekanligi hamda yetarli darajada taraqqiy etganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rnini bosib yuborishi (konsensatsiya qilish) mumkin.

Moskvaning umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o'quvchilarning talanti, iste'dod tushunchasi o'rganilgan. Aniqlangan muhim qobiliyatlar yig'indisi aql iste'dod tuzilishini vujudga keltirilgan. Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagicha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

A) bunday shaxsning birinchi xususiyati ziyraklik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir.

B) shaxsning ikkinchi xususiyati uning mehnatga tayyorgarligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir.

V) insonning uchinchi xususiyati unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartibli, tahlil va umumlash-tirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldorligi. Ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatlardan tashqari aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi.

Talant o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant – katta ijodiy va zo'r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti va hayotiy tajriba zaruriy ko'nikma malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishdir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Agar jamiyat taraqqiyoti bunday kishilarga muhtoj bo'lsa bunday kishilarning paydo bo'lish imkoniyati tug'iladi. Iste'dod qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan yakka qobiliyatlar garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bu haqda g'oyat o'tkir fenomenal xotiraga ega bo'lgan kishilar haqida o'tkazilgan tadqiqotlar dalolat beradi.

Moskvalik psixologlar bir necha yillar davomida kuzatgan shaxslar o'zida xotiradan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirmadi va shuning uchun u o'zining ajoyib qobiliyatlarga mos keladigan ijobiy muvaffaqiyatga erisha olmadi.

Shunday qilib, iste'dod shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasidirki, u qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi muhim ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki etarli taraqqiy etmaganligi iste'dod sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'rni bosib boriladi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Qobiliyatlar ilk davrlardan oq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li, bilan uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlasin. To'rtinchidan, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan. Beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki? Bu alomatlar dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qat'iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potensial imkoniyatlari va qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan, maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Qobiliyat turli rivojlanish darajasiga ega bo'lishi mumkin. Ilmiy abstraksiyalash qobiliyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi; reproduktiv va ijodiy aks ettirish darajalari. O'z qobiliyatini rivojlantirishning birinchi darajasidagi kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi. Faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan kishi esa yangilik yaratishga qodirdir. Bu darajalarni tekshirishga metafizik munosabatda bo'lish yaramaydi albatta, birinchidan har qanday reproduktiv aks ettirish, faoliyat ijodiy faoliyat elementlarini ijodiy aks ettirish faoliyati esa reproduktiv faoliyat elementlarini, o'z ichiga qamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, yuqorida aytilgan darajalar ham qandaydir o'zgarmas va qotib qolgan narsalar emas. Kishi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma hosil qilish jarayonida faoliyat bir darajadan ikkinchi darajaga o'tib turadi.

Qobiliyatning tabiiy manbai ham mavjud bo'lib va u tabiiy zehn deb yuritiladi.

Qobiliyatlar borasidagi psixologik nazariyalar

G'arbiy Evropalik olimlar psixologiyadagi irsiyat nazariyasiga qarshi chiqadilar. Masalan, shveysariyalik psixolog V. Boven qalbaki doktrina deb tarbiyaviy tadbirlardan voz kechish jinoyat bo'lur edi, deb ta'kidlaydi.

Ingliz bioximigi S.Gouz kishi qobiliyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda ijtimoiy sharoitda ko'proqdir, deb uqtiradi.

Ingliz psixologi, D.Kidjin ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi deb uqtiradilar. Masalan, Gelvesiy o'z vaqtida tarbiya yordamida geniyni yaratsa bo'ladi, degan edi. Rus olimi A.N. Leontev ham o'zining funksional organlar nazariyasi bilan bu nazariyaga A.Uxtomskiy asos solgan bo'lib, shunga o'xshash konsepsiyani yoqlaydi.

Masalan, tabiiy qobiliyatni muhitga bog'liq deb hisoblaydi. Modomiki, ishchilarning bolalari ulg'ayadigan og'ir ijtimoiy muhitdagi kishilarning madaniy va intellektual rivojlanish darajasi past ekan. Mutlaqo tabiiyki, bu bolalar ham o'z ota-onalarining rivojlanishi darajasidan o'tib keta olmaydilar deydi u.

Ko'zga ko'ringan rus psixologi S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontevning konsepsiyasiga norozilik bildirdi. Uning fikricha tug'ma iste'dod nishonalari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.

Hayotiy kuzatishlar va maxsus tekshirishlar qobiliyatning tabiiy zaminini inkor qilib bo'lmasligini ko'rsatadi. Bir qator maxsus faoliyatlar borki, ular uchun tabiiy zamin xususan muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun zehn nishonalari bo'lgan kishi noqulay sharoitda ham zehn nishonalari bo'lmagan, lekin qulay hayotiy sharoitdagi kishiga nisbatan yuksak qobiliyat ko'rsata oladi. Va aksincha, masalan, bir oilada va bir maktabda rivojlanayotgan aka-ukalar yoki opa-singillar yaxshi yoki yomonligidan qat'iy nazar, bir xil ijtimoiy

sharoitda bo'lganlarida ularning qobiliyati va rivojlanishi paytida ba'zan keskin farqlar kuzatiladi.

Qobiliyatning uchinchi konsepsiyasining tarafdorlari ancha to'g'ri pozitsiyada turadilar. Ya'ni qobiliyat qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lganda faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu oxirgi konsepsiyada hayot o'zining butun xilma xilligi bilan aks ettiriladi va maxsus tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

Shubhasiz, qobiliyat miya tuzilishining qandaydir tug'ma anatomik xususiyatlari bilan, birinchi navbatda miya mikrostrukturasi xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlar in'ikos jarayonining xususiyatiga va shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi.

Bolada juda erta seziladigan psixologik xususiyatlar zehn yoki dastlabki tabiiy xususiyatlardir. Shuni aytib o'tish lozimki, B.M.Teplov haqli ravishda aytgandek, psixologik xususiyat har taraflama ahamiyatga ega bo'lib, ular xarakterning ham, qobiliyatning ham tabiiy asosini tashkil qiladi. Umumiy tipdagi xususiyatlar kuchda va tonusda ifodalanadigan faollik, vazminlik, in'ikos va harakat jarayonlarining sezgirlik darajasi, shubhasiz qobiliyatning tashkil topishiga ta'sir qiladi.

Badiiy tipning xarakterli belgisi shundaki, ular birinchidan, voqelikni yaxlit, to'la va jonli tarzda idrok etadilar, holbuki mutafakkirlar uni bo'lib-bo'lib qabul qiladilar va shuning bilan go'yo uni jonsizlantiradilar.

Ikkinchidan, badiiy tip vakillarida tasavvur abstrakt fikrlashdan ustun bo'ladi. Fantaziya – deydi I.P.Pavlov – bu badiiy qobiliyat bo'lib birinchi signal tizimiga tegishlidir. Fikrlovchi tipda esa aql nazariy bo'lib, u so'z bilan bog'liqdir.

Uchinchidan, badiiy tip yuksak emosionallik bilan ajralib turadi, chunki birinchi signal tizimi I.P.Pavlov tili bilan aytganda asosiy emosional fondni tashkil qiluvchi miya qobig'i bilan yaqin bog'liqdir. badiiy tip hayajonli, muqarrar, emosional tipdir degan edi I.P.Pavlov va aksincha, mutafakkir tipda emosional fon va birinchi signal tizimi zaif bo'lsada, lekin u sog'lom va soddadil odam bo'ladi.

Ko'pchilik olimlar vunderkindlar jismonan zaif deb biladilar. Lekin bu xulosa noto'g'ri. Vunderkindlarning hammasi aqlan va jismonan soppa sog'. Buni isbotlash uchun 20-yillarda amerikalik psixologlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotga A.Termen boshchilik qilgan. Ular tadqiqot uchun 15000 o'quvchilarni

o'g'il bola va qizlarni saralab oldilar. Ular umumiy aqlan rivojlangan, o'ziga xos xususiyatli 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar edi. Saralash jarayoni test natijalari va o'qituvchilarning tavsifnomasi asosida o'tkaziladi. So'ng bu o'quvchilar 10 yil mobaynida tadqiq etiladilar. Bu o'quvchilar boshqalarga nisbatan sog'liqlarining farqi yo'q, ular ham kasal bo'ladilar, asablari charchaydi. Lekin baribir ular boshqalarga nisbatan sog'lom, har tomonlama rivojlangan etti muchali sog' bolalardir.

Rus psixologi A.G.Kovalev o'z tadqiqotlarida qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan. Muallifning ta'riflashicha, qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zi emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish kerak. Uning ta'kidlashicha, qobiliyatning tuzilishida tayanch va etakchi xususiyatlarni va nihoyat, muayyan fonni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish kerak. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyati-kuzatuvchanlik ko'ra bilish ko'nikmasidir. Uning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. A.G.Kovalyov yordamchi xususiyatlar qatoriga xotirani kiritadi, u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos ko'nikishga ega, emotsional ya'ni his-tuyg'uga beriluvchanlik xususiyati shaxsning faolligini oshiradi.

Muallifning ta'kidlashicha, ilmiy mavhumlash qobiliyatning quyidagi darajasini farqlash imkonini beradi, reproduktiv aks ettirish darajasi va ijodiy aks ettirish. O'z qobiliyati rivojlanishining birinchi darajasida turgan shaxs bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi, faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan inson esa yangilik yaratishga qodir bo'ladi. Psixologiya fanida qobiliyat to'g'risida fikr ketganda uchta konsepsiya mavjudligi ta'kidlanadi. A.G.Kovalyov asarida bayon qilinishicha, ulardan biri, qobiliyat shaxsning biologik jihatdan determinlashgan, ya'ni biologik jihatdan bog'langan xususiyatlaridir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi esa tamomila irsiy fondga bog'liq deb tushuntiriladi. XIX asrda F.Galton XX asrda Kotslar talant irsiydir, faqat imtiyozli tabaqalarning vakillarigina boy irsiy merosga ega bo'ldilar, degan xulosaga keldilar.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi, deb uqtiradilar. Masalan,

Gelvetsiy o'z davrida tarbiya yordamida geniy yaratsa bo'ladi, degan edi. Amerikalik olim U.Eshbi insonning qobiliyati yashab turgan davrida stixiyali ravishda o'zidan o'zi va ongli tarzda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o'laroq masalalarni echish uchun tegishli dastlabki rejalar va dasturlar vujudga keladi. Fiziolog olimlar miyaning tuzilishida individual xususiyatlar bo'lsa, bu hol miyaning funksiyalarida o'z aksini topmasligi mumkin emas, deb qayd qiladilar.

A.G.Kovalyov ta'kidlashicha, qobiliyatning uchinchi konsepsiyasi tarafdorlari ancha noto'g'ri pozitsiyada turadilar. So'nggi nazariyada talqin qilinishicha, tabiiy kuchlar, zehn nishonalari va qobiliyatning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lishi kerak. Muallif **zehn nishonalari** deganda, anatomik-fiziologik xususiyatlardan ko'ra, ko'proq psixologik-fiziologik xislatlarni tushunish kerakligini uqtiradi. Zehn muayyan bir faoliyatga (maxsus qobiliyat) yoki hamma narsaga nisbatan ustuvor qiziquvchanlikda (umumiy qobiliyat), moyillikda va intilishda ko'rinadi.

A.G Kovalyov Edikson fikriga asoslanib («bunda faqat 1 foizgina geniy bo'lsa, 99 foiz ter to'kish bo'lgan»), hamma buyuk kishilar bag'oyat mehnatsevarlikka va katta ishchanlikka ega bo'lganlari holda hatto nerv tizimi tabiiy kuchsiz bo'lsa-da, sub'ektiv ravishda yutuqlarini qobiliyatdan emas, balki mehnatdan deb baholaganlar.

A.G.Kovalyovning ta'rificha, adabiy ijodga qobiliyat shaxs iste'dodining badiiy tipiga tegishli bo'lib, badiiy tipdagi qobiliyatning hamma ko'rinishlaridan uni ajratib turadigan o'ziga xos sifatlarga ham egadir. Uning ta'kidlashicha, umuman qobiliyat va xususan adabiy ijodga xos qobiliyat murakkab bo'lib, uning tuzilishida har xil xususiyatlar yoki tarkiblar mavjud. Bu jabhalarning biri etakchi, boshqalari tayanch xususiyatlar, uchinchilari esa sermahsul faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan bir fonni tashkil qiladi. Adabiy qobiliyatda uch tomonni mujassamlashtirish muhim ahamiyatga ega, ya'ni o'tkir kuzatuvchanlik, kuchli ijodiy tasavvur, til vositasida ko'rgan va ravshan tasavvur etgan narsalarni tasvirlay olish.

Muallif mulohazasiga ko'ra adabiy qobiliyatning tayanch xususiyati yumshoq ko'ngillilik va ta'sirchanlikdir. **Ta'sirchanlik** deganda idrokning jonliligi va o'tkirligini emotsional iltifotgo'ylikning naqadar kuchliligini tushunish kerak. Ijod uchun yolg'iz ko'ra bilish qobiliyatining o'zi kamlik qiladi, ko'rganlarni

qayta o'zgartira bilish, kuzatilayotgan narsani boshqa hayotiy taassurotlar bilan fikran bog'lay olish ham muhimdir. Kuzatilayotgan narsalar ayniqsa yaratilayotgan obrazlarni aniq va ravshan ko'z oldiga keltirish qobiliyatida namoyon bo'ladi hamda bu adabiyotda ko'pincha ichdan **ko'rish qobiliyati** deb ataladi.

Adabiy qobiliyatni tekshirish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning qobiliyatlari qobiliyatsizlaridan, V.P.Yagunkovaning ma'lumotlari bo'yicha idrok qilishning aniqligi va xotirasi bilan, yangi original obraz va syujetlar tuzishdagi tafakkur kuchi va tasavvur bilan, ijodiy vaziyatning engilgina yuzaga kelishi bilan, so'z boyligi va til sezgisi bilan farqlanadilar. Ba'zi birlarida voqelikka mulohazali, mantiqiy munosabatda bo'lish ustun tursa, boshqalarida obrazli emotsional munosabat ustundir, uchinchilarida esa bularning har ikkisi ham mujassamdir. V.P.Yagunkova sinaluvchilarning adabiy qobiliyatini tashxis qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni mezon tariqasida oladi, chunonchi a) idrok etish va xotiraning aniqligi; b) emotsional ta'sirchanlik; v) tasavvurning kuchi va jonli tilni his qilish kabilar.

S.P Kudryavseva tadqiqotida ilk o'spirinning adabiy qobiliyati ikki tipga ajratiladi, ya'ni adabiy-tanqidiy tip va badiiy-ijodiy. Birinchi tipda badiiy asarlarni tushunchalar asosida tahlil qilishning o'sganligiga e'tibor qilinadi. Ikkinchi tipda adabiy asarlarni o'qish vaqtida va adabiy mavzuga bayon yozishda hayajonlanish, ijodiy yondashishga ahamiyat qaratiladi.

V.A.Krutetskiy matematik qobiliyat tuzilishiga quyidagilarni kiritadi:

1) qobiliyatda bolalarning matematik materialni qabul qilish borasidagi qobiliyatiga matematik ob'ektlar, munosabat va amallarni shakl holiga keltirib idrok qilish matematik materialga o'ziga xos «yig'ma» analitik-sintetik ishlov berish qobiliyati qayd qilish lozim

2) qobiliyatli o'quvchilarning fikrlashi quyidagilar bilan: a)miqdoriy va fazoviy munosabatlar, sonlar va belgilar simvolikasi sohalarida mantiqiy fikrlash qobiliyati; b) matematik materialni tez va keng umumlashtira olish; v) matematik mulohazalar jarayonida qisqacha aqliy xulosalar yordamida fikrlashga moyillik; g) fikrlash jarayonlarining nihoyatda moslashuvchan va harakatchanligi; d) echishda ravshanlik, soddalik, ratsionallik va ixchamlikka intilish

3) matematik axborotni xotirada saqlash va hokazo.

Matematik qobiliyatning borligini taxmin qilishga asos bo'ladigan tashqi alomatlarini belgilash mumkin. Muallif taxminicha bular quyidagilardir:

1. o'quvchining matematikaga oid ochiq-oydin qiziqishini namoyish qilishi, hech kim majbur qilmasdan, o'zining bo'sh vaqtini sarflab, matematika bilan bajonidil shug'ullanishga moyillik;
2. muayyan matematik ko'nikma va malakalarni odatdagidan kichikroq yoshda o'zlashtirish qobiliyati;
3. matematikani o'zlashtirish sohasida tez siljib borish;
4. matematik taraqqiyot va yutuqlarning yuqori darajasi.

Mamlakatimiz psixologi M.G.Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan etakchi mutaxassis hisoblanadi. Muallif texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos birikmalarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullana olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatlarni ikkita o'sha nomdagi tipga ajratadi hamda etakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq, bunda etakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir. Uning talqinicha, texnikaviy iste'dodli shaxs bo'lish uchun unda a) amaliy jihatdan fahmli; b) texnik moslamalarni tahlil qila olish qobiliyati; v) narsalarni montaj qilib qismlardan butun hosil qila olish qobiliyati bo'lishi shart.

M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan. Texnikaviy qobiliyat darajasini tashxis qilish uchun tekshirishlarda ishlab chiqilgan eksperimental masalalarning to'qqizta seriyasidan foydalanadi.

Keyingi yillar ichida O'zbekiston psixologiyasida ham qobiliyat va iste'dod masalalari bo'yicha bir qancha psixologlar ish olib bormoqdalar. Bu sohada B.R.Qodirov, B.S.Sodiqov, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, Z.Nishonovalarning tadqiqot ishlari ma'lum bo'lib, qobiliyat, iste'dod tushunchalariga o'z ta'riflarini berganlar.

B.R.Qodirovning fikricha: "Ma'lum bir faoliyatga qiziqmay turib qobiliyat haqida gapirib bo'lmaydi. Va o'z navbatida har qanday qobiliyatli bola hali iste'dodli degani emas. Ko'p qirrali va rivojlangan

qobiliyatlar iste'dodli bola shaxsining moddiy asosini tashkil etadi, xolos. Aksincha, iste'dodli bola qobiliyatsiz bo'lishi mumkin emas. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, iste'dodli bola sof fikrli, har xil qobiliyatga va umuman aqliy rivojlanishga tayyor turgan hozirjavob, nodir shaxsiy xususiyatlarga to'la boladir.

Nazariy topshiriqlar

1. Shaxs, individ va individuallik tushunchalarini izohlang.
2. Endopsixika va ekzopsixika nima?
3. Bioginetik konsepsiya nima?
4. Sosiogenetik konsepsiya izohlang.
5. Psixoginetik konsepsiyani tushuntiring.
6. Shaxsning ontogenezdagi taraqqiyoti.
7. Temperament so'zini izohlang.
8. Temperamentning turlari.
9. Temperament xususiyatlari.
10. Temperamentning fiziologik asoslari (Gippokrat, I.P.Pavlov).
11. Temperament tiplarining psixologik tavsifnomasi.
12. Kasbiy faoliyatda temperamentning tutgan o'rni.
13. Qobiliyat nima?
14. Qobiliyatning sifat va miqdor o'zgarishlari.
15. Qobiliyat turlari.
16. Layoqat tushunchasini izohlang.
17. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
18. Talantning paydo bo'lishi va rivojlanishi
19. Xarakter nima ?
20. Xarakter xislatlari klassifikatsiyasi.
21. Xarakter aksentuatsiyasi.
22. Xarakterning fiziologik asoslari.
23. Xarakter tarkibi va xususiyatlari.
24. K.Leongard tomonidan keltirilgan xarakter aksentuatsiyasi tiplarini tasniflang.

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.

2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017 y.

3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.

4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.

6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent. 2008 y.

7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzyaeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.

8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.

9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.

10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y.

11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.

12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya", Darslik. Toshkent. 2008 y.

13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.

14. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.

15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.

16. Y.K.Narmetova. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2022 y.

17. Y.K.Narmetova. Psixologiyada shaxs muammosi. Shaxs faoliyati va uning individual-psixologik xususiyatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2022 y.

BESHINCHI BO'LIM

VII BOB. BILISH JARAYONLARI

7.1. Sezgi, uning turlari va psixologik tavsifi

Psixologlar fikricha, sezish jarayoniga kirish psixik faoliyatni tushunishdagi eng birinchi qadam hisoblanadi. Lekin, bizning miya faoliyatimiz ham sezgan narsamizni aniqlab beradi. Bizning sezish qobiliyatlarimiz turli chiziqlarni, burchaklarni va ranglarni anglashga yordam beradi.

Tabiat sezish qobiliyatini har narsaga in'om etadi. Sensor tizimi organizmga eng kerakli ma'lumotlarni topa olish imkoniyatini beradi. Qurbaka uchadigan hasharotlar bilan oziqlanadi. Bunga sabab, qurbaqaning ko'zida faqat mayda va harakatlanayotgan qora va oq ranglar signalini sezuvchi retseptor xujayralarining joylashganligidir. Agar, shunday bo'lmaganida, ko'plab hasharotlar orasida bo'lishiga qaramasdan, qurbaqa ochlikdan nobud bo'lishi mumkin edi, biroq, qurbaqaning "detektor" hujayralari qisqa lahzalarda harakatlanayotgan obektni payqaydi.

Atrof muhitda sodir bo'layotgan muhim voqea-hodisalarni biz sezgi organlarimiz orqali qabul qilamiz. Bizning quloqlarimiz eng sezgir organ bo'lib, atrofimizdagi olamdan biz uchun eng muhim tovushlarni qabul kilamiz. Tovush chastotalari orqali inson ovozini, chaqaloq yig'isidan farqlaymiz.

Insoniyat tajribasi natijasida hayvonlarda ham - sezgi qobiliyati aniqlangan. Ko'chib yuruvchi qushlar ichki sezgisi orqali qayer



qolish uchun munosib joy ekanligini biladi. Ko'rshapalak va delfinlar esa o'ljasini qaerdan osonroq tuta olishiga qarab joy tanlashadi. Bulutli kunlarda asalarilar o'zlari uchun ma'lum quyosh nurini hosil qila oladilar.

Sensor adaptatsiyaning vazifasi nima?

Siz qo'shni xonaga kirganingizda noxush hidni sezdingiz. Bu yerdagilar bu hidga kanday chidayotganliklariga hayron qoldingiz, biroz vaqt o'tgach, bu hidni payqamay qo'ydingiz. **Sensor**

adaptatsiya(moslashuv) -bu sizning oldingi holatingiz o'zgarmagan holda keyingi holatga kirishish jarayonidir. (Bu holat siz qo'l soatingizga qarab olgan vaqt davomida sodir bo'ladi-yu, siz buni bir necha soniyalargina his qilasiz. Holatga moslashganimizdan so'ng nerv hujayralarimizda o'sha holatga moslashish hissi uyg'onadi).

Nega biz har doim atrofimizdagi narsalarni diqqat bilan kuzatamiz. Chunki bizning ko'zlarimiz shunga moslashgan.

Marining ko'zi harakatlanishi bilan proektordagi rasm ham harakatlana boshlaydi. Mari qaerga qaramasin tasvir ham shu tomonga harakatlanadi. Agar biz bunday qurilmani yon tomondan yuz orqali joylashtirsak, Mari nimani ko'rar ekan? Birinchidan, u to'liq manzarani ko'radi. Lekin bir necha soniyadan so'ng uning ko'rish tizimida charchoq kuzatiladi va narsalar boshqacha ko'rina boshlaydi. Oz-ozdan tasvir yo'qola boshlaydi, birozdan so'ng tasvir to'liq yoki tanish bo'lak shaklida tiklanadi va keyin g'oyib bo'ladi.

Sezgi psixik jarayonlarning boshlang'ich darajasi hisoblanadi. Faqat sezgi jarayoni orqali ma'lumotlar bizning ongimizga kirib keladi. Sezgi faqat "signallar" tizimi deb e'tirof etilsa xato bo'ladi. Ular narsalarning subyektiv xususiyatlarini ham aks ettiradilar. Sezgi tufayli bizda obyektiv dunyoning subyektiv obrazi paydo bo'ladi. Bu obyektiv dunyoning subyektiv obrazi insonga tashqi muhitga moslashish imkoniyatini beradi.

Adaptatsiya xodisasi 3 turga bo'linadi:

1. Qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi, masalan, xid bilish sezgilari atrof-muxitga yoqimsiz xid yoyilgandan keyin ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi xam oddiy xodisadir. Agar tegishli modda og'izda bir oz vaqt saqlab turiladigan bo'lsa, ta'm bilish sezgisining jadalligi susayadi va sezgi umuman yo'qolib ketishi mumkin.
2. Adaptatsiya deb yuqorida bayon etilgan xodisalarga yaqin bo'lgan, kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadigan xodisaga xam aytiladi. Adaptatsiyaning bu ikki turi negativ adaptatsiya deyiladi, negaki, bunda analizatorning sezuvchanligi susayadi.
3. Kuchsiz qo'zg'atuvchining tasiri ostida sezgirlikning oshishi xam adaptatsiya deyiladi, bu pozitiv adaptatsiya deb xam ataladi. Masalan, qorong'ulik ko'p bo'lishi natijasida ko'z sezuvchanligi ortadi. (Graf Monte Kristo misolida tushuntirish mumkin).

Sezgining retseptor va reflektor nazariyasi

Ko'p yillar davomida bizning sezgilarimiz passiv jarayon hisoblangan. Organizmga qandaydir qo'zg'atuvchi yetib keladi, u periferik organlar orqali qabul qilinib sezuvchan nervga uzatiladi va po'stloq ostida to'xtaydi, bu bosh miya po'stlog'iga yetib keladi. Sezgi jarayoni shu konsepsiya nuqtai nazaridan passiv hisoblanadi, bu retseptor nazariyasi deb nomlanadi.

Biroq hozirgi kunga kelib bu nazariya yetarli emas, sezgi jarayoniga faol jarayon sifatida yondashish kerak. Inson psixikasida passiv jarayonlar bilan bir qatorda faol jarayonlar ham mavjud. Hamma psixik jarayonlar reflektor jihatdan qurilgan.

I.M.Sechenov teri tuyish jarayoni faol paypaslash jarayonida vujudga keladi degan fikrga kelgan. Xuddi shu holatni ko'rish sezgisida ham kuzatishimiz mumkin. Ko'rish sezgilari retseptor passiv jarayon hisoblanadi, nurlar ko'z pardasiga tushadi, to'r pardada qo'zg'alish paydo bo'ladi, shundan so'ng qo'zg'alish miya po'stlog'iga yuboriladi va passiv ravishda qabul qilinadi.

Kishidagi sezgilar haqida gapirganimizda adaptatsiya tushunchasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz. **Adaptatsiya**—moslashuv bo'lib, sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir.

Sezgi a'zolarining sezuvchanligini oshishiga olib boradigan ikki soha mavjuddir: 1) sensor nuqsonlar (ko'rlik, karlik)ning o'rmini to'ldirish zaruratidan kelib chiqadigan sezuvchanlikning ortishi va 2) subyekt faoliyati tufayli kasbga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizatsiya (sezuvchanlikning ortishi).

Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi, masalan, ko'ra olmay qolgan kishilar haykaltaroshlik bilan shug'ullanganlar, chunki ularda tuyish sezgisi yuksak rivojlangan bo'ladi. Ba'zi maxsus kasb bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullanish ham sezgi a'zolarining sezuvchanligi kuchayishiga olib kelganligini ko'rish mumkin, masalan, choy, pishloq, vino, tamaki sifatini aniqlovchilarda hid va ta'm bilish sezgilari yuksak darajada mukammallashgan bo'ladi. (Kinofilm—Narsiss misolida tushuntirish mumkin).

Mehnat faoliyati talablari ta'siri ostida sezgilar rivojlanishi misolini biz rassomlar, po'lat quyuvchilar, uchuvchilar, skripkachilar kabi kasb vakillarining bilish sezgilarida kuzatishimiz mumkin.

Sezgining psixofiziologik asoslari

Sezgi tirik organizmlarning biologik yashash shartlaridan sanalgan ichki mexanizmdir, ya'ni u tirik organizmda tashqi va ichki dunyo o'rtasida aloqa bog'lovchi psixologik-biologik asosdir. U orqali markaziy nerv sistemasi qo'zg'atuvchilarga javob beradi. (Sh.Shexter)

Sezgilar hosil bo'lishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak: Birinchidan, sezgi a'zolarimizdan birontasiga ta'sir etadigan narsa yoki hodisa bo'lishi kerak. Ikkinchidan, sezuvchi apparat soz bo'lishi kerak. Bu apparat quyidagi qismlardan iborat: 1. Sezuvchi organ (retseptor). 2. O'tkazuvchi yo'l (afferent nerv). 3. Bosh miya po'stlog'idagi markaz. 4. Miyadan javob impulslarini uzatuvchi yo'l (efferent nerv).

Bitta sezgi apparatini tashkil qiladigan qismlarni I. P. Pavlov umumlashtirgan nom ostida analizator deb atagan.

Sezgi mohiyatiga ko'ra obyektiv olamning subyektiv siymosidir. Lekin sezgilarning hosil bo'lishi uchun organizm moddiy qo'zg'atuvchining tegishli ta'sirga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning o'zi ham qandaydir ish bajarishi darkor. Sezgilar muayyan davr mobaynida retseptorga ta'sir o'tkazayotgan qo'zg'atuvchining o'ziga xos quvvatini nerv jarayonlari quvvatiga aylanishi natijasida hosil bo'ladi. Sezgilarning hosil bo'lishiga kuchli ta'sir qiladigan jarayonlarning ishtirokini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab va ko'pqirrali tadqiqotlar olib borilgan.

Sezgi a'zolari faqat moslashuvchanlik, ijro qilish funksiyalarini bajaribgina qolmasdan, balki axborot olish jarayonlariga bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan mustahkam bog'langandir.

Analizator uch qismdan tarkib topadi: 1) tashqi quvvatni nerv jarayoniga aylantiradigan maxsus transformator hisoblangan periferik bo'lim (retseptor). 2) analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarini ochadigan afferent nerv (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar. 3) Analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlar.

Analizator periferik bo'limlarining muayyan hujayralari miya qobig'idagi hujayralarning ayrim qismlariga mos bo'ladi. Jumladan, ko'z to'r pardasining turli nuqtalarida hosil bo'ladigan tasvir miya qobig'ida ham har xil nuqtalarda shuni aks ettiradi; eshitishda ham xuddi shu jarayonni kuzatishimiz mumkin: nog'ora parda va miyadagi aks sado.

Sezgining hosil bo'lishi uchun hamma analizatorlar yaxlit bir narsa sifatida ishlashi darkor. Qo'zg'atuvchining retseptorga ta'siri qo'zg'alishning yuz berishiga olib keladi.


Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbai va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan, ta'sirni miyaga olib boruvchi afferent nerv yo'llari va efferent nervlardan tarkib topgandir. Reflektor yo'li elementlarining o'zaro munosabati murakkab organizmning tevarak atrofdagi olamda to'g'ri mo'ljal olishining, organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzda faoliyatning negizini ta'minlaydi.

Sezgining klassifikatsiyasi.

Sezgilarni 3 ta katta sinfga ajratish mumkin. Bular *introtseptiv* (organizmdagi sezgilar), *propriotseptiv* sezgilar (harakatdagi organlar sezgisi), *eksterotseptiv* sezgilar (tashqi dunyodan kelayotgan sezgilar)dir.

Introtseptiv sezgilar

Hamma ichki organlarda tomir devorlari, oshqozon devorlarida sezuvchan to'qimalar joylashgan, ular har bir holatlarga javob beradilar, bu to'qimalardan biri esa bosimga javob beradi. Har qanday ichki organlarning holatlari boshqariladi bunda introtseptorlarning o'рни katta. Bu to'qimalarning qo'zg'alishi anglangan sezgilarni aniqligini ko'rsatmaydi. Sechenov ularni «qorong'u sezgilar» deb nomlab, tashqi dunyodan ajratuvchi deb atagan. Bu qorong'u sezgilar so'z orqali ifodalanmaydigan



Analizator- sezgi nerv sistemasining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari ostida xosil bo'ladi va xar qanday psixik xodisalar kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Qo'zg'atuvchining aynan o'ziga o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida xosil bo'ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi xisoblanadi

sezgilarni beradi. Ba'zi bir tadqiqotchilar komfort yoki diskomfort tushunchasini beradi deb e'tirof etishadi. Bu sezgilar emotsional xarakterga ega, bular organizmning holatlarini aks ettiradi.

Bu sezgilarning organizm uchun o'rni kattadir. Bu sezgilar mayl va ehtiyojlarni ham tug'diradi. Ochlik, chanqov, havo yetishmasligi va boshqalar, bu sezgilar biologik mayl va ehtiyojlarning asosi deb hisoblanadi. Bizning qonimiz ochsa, ovqatlanamiz, chanqasak, chanqovni qondiramiz. Bu sezgilarni murakkab reflektor jarayoni desak, mubolag'a bo'lmaydi, bularning natijasida esa ehtiyojlar qondiriladi.

Amerikalik fiziolog olim Kennon introretseptor funksiyalarni o'zlashtirish maqsadida gemostazis tushunchasini kiritgan, gemostazis organizmda qaytadigan muvozanat holatini bildiradi. Gemostazis introretseptor signallarining shakllanishi orqali vujudga keladi.

Introretseptorlarning ishi reflektor jarayonlarining ichki organizmlardagi asosiy jarayoni hisoblanadi, ular qat'iy muvozanat yoki gemostazisni saqlab turadi.

Proprioretseptiv sezgilar

Introretseptiv sezgilar bilan bir qatorda boshqa sezgi organlari ham mavjud. Bu proprioretseptorlar tizimidir, ular harakat, muskul to'qimalari signallarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Bizning muskul, bo'g'in to'qimalarimizda sezuvchan nerv to'qimalari mavjud, ular bizning muskullarimiz haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Ko'p vaqtlar davomida harakatni amalga oshirish uchun efferent harakat qo'zg'atuvchilarining o'zi kifoya qiladi, degan fikr mavjud edi. N.A.Bernshteyn umrining ko'p qismini harakatni o'rganishga bag'ishladi, uning tadqiqotlarida ko'rsatishicha harakat apparati murakkab tuzilgan, uni harakatga keltirish uchun efferent impulsning o'zi kifoya qilmaydi. Ixtiyoriy harakatni boshqarish uchun proprioretseptorlardan keluvchi afferent signallarni mustahkamlash kerak, bo'g'imlarning harakatlari esa bevosita shu retseptorlarga bog'liqdir.

Introretseptorlar ichki gemostazisning organi hisoblanadi, proprioretseptorlar tashqi gemostazisning organi hisoblanadi. Introretseptorlar organizmdagi moddalar almashinuvini nazorat

qiladi, proprioretseptorlar harakatlarni koordinatsiya qiladi va koordinatsiya apparatini nazorat qiladi.

Ekstereoretseptiv sezgilar

Sezgilarning uchinchi katta sinfi ko'p darajada tadqiq qilingandir, bular ekstereoretseptorlar hisoblanadi, ular tashqi dunyodagi signallari tizimidir.

Ekstereoretseptorlarning klassifikatsiyasida ikki xil tizim mavjud sistematik va genetik. Ekstereoretseptor sezgilarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Kontakt sezgilar bu sezgilar bevosita aloqaga kirishadigan sezgilardir bular ta'm bilish, teri tuyish, hid bilish sezgisi hisoblanadi, distant sezgilar: bular ko'rish va eshitish sezgisi hisoblanadi.

Qanday qilib sezgi biz kutgan narsamizga, emotsiyalarmizga ta'sir etadi?

Hamma ko'rgan narsasiga ishonadi. Bizda kam bo'lsa-da to'liq ma'lumot bo'lsa, biz unga ko'proq ishonamiz. Tajribamiz, kutgan narsamiz bizni sezishimizni ta'minlaydi, yoki aqliy qobiliyatimiz sezgi hissimizga katta ta'sir ko'rsatadi. Odamlar o'spirinlarning o'ziga o'xshagan juftiga ularning ota-ona yoki bolasi bo'lishsa ularga ishonishadi. (Bressan & Dai Martello, 2002). Va ular shunday hisoblashadi: Quyidagicha rasmdagi ayolmi yoki saksafon chalayotgan insonmi deb tasavvur qilishadi? Rasmdagi ketma-ket turgan ikkita rasimga qarasak, ularning har ikkovida ham yaqqol tasvirni ko'rishimiz mumkin.



Bir paytlar biz reallik haqida noto'g'ri xulosaga borgan edik va natijada haqiqatni ko'rish biz uchun biroz qiyin bo'lgan edi. Har kuni sezgiga oid bir qator misollarga duch kelamiz. 1972-yilda Britaniya gazetalarining birida Shotlandiyadagi Loch Ness ko'lidagi mahluq haqida ma'lumotlar bosib chiqarilgan edi. Undagi bir surat yoki tasvir


olingan rasmlar ichidagi eng hayratlilaridan bir bo'lgan edi. Agar bu ma'lumot sizda ham ishonch hissini uyg'otgan bo'lsa demak, siz ham xuddi ko'plab mushtariylar singari 1-rasmda bu mahluqning rasmini ko'rishga musharraf bo'lasiz. 2-rasm: Ishontirish. Do'stingizga ikkala rasmni ham ko'rsating. Rasm markazini ko'rsatib o'rtada nimani ko'rayotganini so'rang agar do'stingiz bir qarashda ikkala rasmda saksafonchi va ayolning rasmini payqay olsa, demak bunda u ishonchiga asoslangani aniq bo'ladi.

7.2. Idrok va diqqat haqida tushuncha

Idrok. *Idrok- Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi.* Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyliigi (konstantligi) va anglashilganligidir. Idrok psixologiya fanida "persepiya" (lotincha, qayd etish) ma'nosini bildirib, uning soddasi turi persepsiya, tajribaga o'tgan qismi, "appersepsiya" deyiladi.



Idrok tug'mami yoki o'zlashtirilganmi?" - degan savol ahamiyatlidir. Har ikkalasiga ham (tug'ma hamda o'zlashtirilgan) deb javob bera olamiz. Idrok - his tuyg'ular, ruhiy kechinmalar orqali boyitib boriladi. Shu sababli ham bizga turli darajadagi tahlil natijalari zarur bo'ladi. "Oddiy" tushunchalar bu inson miyasining yaratuvchilik mahsulidir.



Ushbu rasmda. Noaniq bo'lgan ot yoki tyulen shakli mavjud. Agar 10 ta odamdan ferma hayvonlari haqida o'ylashlari so'ralsa, ushbu 10 ta odamdan taxminan 7 tasida ot haqida, bordi-yu ulardan dengiz hayvonlarini o'ylashlari so'ralsa 10 ta odamdan 7 tasida tyulen haqida tushuncha hosil bo'ladi. Idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, hidini, mazasini, rangini

sezamiz, ya'ni alohida-alohida xossalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzda birlashuvi, degan fikrga mutloq qarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu obyektga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buni isboti uchun ko'pincha **Rubin figurasi** tavsiya etiladi. Yomon qayfiyat ko'proq qora, nursiz ranglarni idrok qilishga moyil bo'lsa, yaxshi, ko'tarinki qayfiyat, aksincha, hamma narsani eng yoqimli ranglarda «ko'radi». Bu yana bir bor idrokning oddiygina aks ettirish yoki bilish jarayoni emas, balki shaxsdagi faol ustanovkalarga bog'liq bo'lgan, mantiqan asoslangan ongli jarayon ekanligini isbotlaydi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatiga maqsad ko'zlagan holda rahbarlik qilish jarayonida o'quvchilarning idroki rivojlanadi. Shuning uchun darsda, ekskursiyada idrok va kuzatishning to'g'ri uyushtirilishi katta ahamiyatga ega.


Ta'lim jarayonida kuzatishlarni aktivlashtirish uchun o'quvchining kuzatilgan va idrok qilingan narsalarni keyin gapirib berishi lozimligi to'g'risida ogohlantirishning ahamiyati kattadir. Agar o'quvchi nimani kuzatganligi va idrok qilganligi haqida keyinchalik hisob berishi lozimligini oldindan bilsa, u kuzatish va idrok qilish jarayonida ancha faol bo'ladi.

Darsda o'quvchilar bilimlarini avvalo o'qituvchining og'zaki tushuntirishlarini idrok qilish orqali o'zlashtiradilar. So'zlar yordamida tushuntirilgan materialning idrok qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchi nutqining xususiyatlariga bog'liq.

Materialni muvaffaqiyatli idrok qilishning yana bir muhim sharti ko'rgazmali qurollardan foydalanishdir.

Idrokning xususiyatlari va shakllari

Idrokni klassifikatsiya qilinishida ham sezgilardagi kabi idrok etishda ishtirok etuvchi analizatorlardagi mavjud farqlarga asoslanadi. Idrok etishda qaysi analizator ustunroq kelishiga muvofiq ko'rish-eshitish, paypaslab ko'rish, kinestezik, hidlash va ta'm bilish yo'li bilan idrok qilinishi farqlanadi.



Idrok qilish jarayoni odatda o'zaro birgalikda bir qancha analizatorlar vositasida sodir bo'ladi. Harakat sezgilari u yoki bu darajada idrokning barcha turlarida ishtirok etadi.

Idrokning predmetliligi- obyektivlashtirish hodisasi ya'ni, tashqi olamdan olinadigan axborotlarning o'sha narsaga mansubligida ifoda qilinadi va hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Biz



narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq holda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab baholaymiz.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitliligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitliligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlaridir va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir.


Idrokning dojmiyligi, konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik, shaql, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi o'zgarishiga qaramay, biz qorni oq,

ko'mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. Qizil chiroq ostida kitob sahifasi qizil bo'lib ko'rinsa ham uni oq deb, samolyotdan qaraganda yerdagi odamlar va narsalar kichkina bo'lib ko'rinsa ham ularni odatdagiday kattalikda deb idrok qilaveramiz. Kitob qanday ko'rinsa ham uni to'rtburchak deb, stakandagi qoshiq siniq ko'rinsa ham uni butun deb idrok qilamiz. Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliligi tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo'lsa shundayligicha obyektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Idrok yaxlitliligi va konstantliligi kishining o'tmish tajribasiga bog'liq bo'lib, bu xususiyat appersepsiya deyiladi.

Shunday qilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi, uning bilimlari qanchalik boy bo'lsa, uning idroki shunchalik to'liq bo'ladi, buyumda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi.

Chuqurlikni idrok qilish Biz qanday qilib dunyoni 3 D o'lchovda ko'ra olamiz? Predmetni obrazini ko'z oldimizda ikkita o'lchovda keltirish bir oz qiyin, biroq 3 D o'lchovda ko'rish nisbatan oson bo'ladi. Chuqurlikni idrok qilish biron bir obyektning 3 D o'lchovda idrok qilish demakdir. Bu bizga baholash va hisoblash imkoniyatini, bizgacha bo'lgan masofani o'lchash imkoniyatini beradi. Demak **chuqurlikni idrok qilish bu** - biror bir ob'ektning 3 D o'lchovda ko'rish demakdir.



Ushbu rasmda go'dakning ehtiyotkorlik bilan emaklayotganini ko'ramiz. Shundan bilamizki, go'daklarning chuqurlikni idrok qilish qobiliyati kichik yoshdan rivojlanadi.

Ikkala ko'zni ochib oldingizga ikkita qalam yoki ruchkani qo'ying va ularni bir xil ushlang, endi bir ko'zni yoping. Bitta ko'z bilan bu mashqni bajarish sezilarli darajada qiyin bo'ladi. Bu bilan biz yonmayon turgan jismlar masofasini aniqlash haqida gap ketganda ikkita ko'zning muhimligini isbotlaymiz.

Ikki ko'rsatkich barmoqlaringizni ko'zlaringizdan chamasi besh duyum masafoda tuting va barmoqlaringiz orasi yarim duyum bo'lsin. Shu holatda barmoqlaringizga qarang va natijaga e'tibor bering. Endi barmoqlaringizni uzoqroqqa siljiting. Bizning ko'z qorachig'larimiz

biroz turlicha tasvirda ko'radilar. Miya bu ikki tasvirni solishtirsa, ularni orasidagi farq ularning tushunarsiz tengsizligini bildiradi. Misol uchun, barmog'ingiz bilan buruningizni ushlab barmog'ingizga qarasangiz, tushunarsiz tasvir paydo bo'ladi. **3 D** ijodkorlari bir necha duyum masofada turgan kameradan tengsiz tasvirlarni tasvirga olishdi. Tasvirni biz maxsus ko'zoynak orqali ko'rganimizda chap ko'zimiz chap kamerada olingan tasvirlarni ko'radi, o'ng ko'zimiz esa o'ng kamerada olingan tasvirlarni ko'radi. Tasvir ularni normal holatda ko'rsatadi. Yoki ikkala kamera bilan samolyotda yer xaritasini **3 D** orqali rasmga olganda u tasvir ham bir xil holatda bo'ladi.

Qanday qilib biz odamning 10 metr yoki 100 metr uzoqlikda turganligini aniqlay olamiz.

Kampusning zinalari qoraga bo'yalsa uzoqroq ko'rinadi, aksincha oq rang bilan bo'yalsa u ancha yaqinroq bo'lib ko'rinadi.

Tasvirni pastga teskariga o'zgartirsak qora ranglar yerga aylanadi.

Agar o'lchamni biz ikkita bir xil o'lchamdagi obyekt deb solishtirsak, ko'plab odamlar uzoqda turgan obyektни kichkinaroq deb idrok qilishadi. Tasvir boshqa obyektlar orasida bo'lsa ya'ni biz ko'rayotgan tasvir boshqa biron tasvir bilan to'sib (bloklab) qo'yilsa u bizga ancha yaqin ko'rinadi va biz uni shunday idrok qilamiz. Bu holat ushbu rasmdagi manzarani yaratadi.

Idrokning individual farqlari va rivojlanishi

Ingliz psixologi Jon Lokk (1632-1704) biz o'z tajribalarimiz orqali olamni turlicha idrok qilishni o'rganishimiz mumkinligi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Chindan ham, biz predmetlarni ularning masofasi va o'lchamlarini bir-biriga bog'lash orqali o'rganamiz. Xo'sh, bunday holatda tajriba qanday muhim ahamiyatga ega? Villiam Molineks kub va shar orasidagi farqni, ko'r bo'lib tug'ilib, hozirda ko'ra oladigan inson farqlay oladimi yoki ko'rish qobiliyatiga har doim ega bo'lgan inson farqlay oladimi degan savol bilan Jon Lokkga yuzlanganda Lokk bu savolga nisbatan yo'q inson farqlarni ko'rish orqali o'rganmaydi deb javob qaytaradi. Malineksning taxminiy fikrlari bir nechta butunlay ko'r bo'lib tug'ilgan o'spirinlarda tajriba o'tkazish orqali isbotlandi. Ularning ko'pchiligi katarakta bilan tug'ilgan bo'lib, bu katarakta linzalari ularga oddiy tipdagi rangni ko'rishga imkoniyat yaratgan. Katarakta operatsiyasidan so'ng, bemorlar turli xil figuralarni va ranglarni bir-

biridan farqlay oladilar, shuning uchun sezishning barcha ko‘rinishlari tug‘ma qobiliyat deb baholanadi. Lekin Jon Lokkning fikrlashicha, bunday odamlar tegish, ushlab ko‘rish orqali ularga ma‘lum, tanish bo‘lgan predmetlarni har doim ham ko‘rish orqali payqab olavermaydilar. Siz va men yakka holdagi yuzni bir butunlikda tasavvur qilishimiz va idrok qilishimiz mumkin. Bizga yuzning aynan bir xil qismi bilan juftlashgan ikkita har xil eng pastki yarim qismi aynan yuzning eng yuqori yarim qismidan farqlanadi. 43 yoshli erkakning 40 yillik ko‘rlikdan so‘ng ko‘rish qobiliyati tiklandi va u odamlarni o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ldi. Ammo u yuzlarni doimiy ravishda yodda saqlab qola olmasdi. Bundan tashqari, doimiy sezish qobiliyati ham etarli darajada bo‘lmasdi, masalan insonlar undan uzoqlashganda ularning hajmi kichiklashib borayotganday tuyulardi. Psixolog George Stratton o‘z tajribalari uchun 8 kun davomida kiyiladigan maxsus optik bosh kiyimini yaratdi. Bu optik bosh kiyimning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, u chapni o‘ngga, yuqorini pastga qilib ko‘rsatadi. Stratton bu moslamani kiyganda o‘zining harakatlarida adashganligini his qildi. U yurishni xohlaganda, o‘z oyog‘ini topolmay qoldi. Bu bosh kiyimni kiyganda ovqatlanish deyarli amrimahol edi. U bu jarayonda qattiq asabiylashgan holda bu vaziyatdan chiqish yo‘lini qidirdi 8 kundan so‘ng, deyarli hech narsaga urilmagan holatda to‘g‘ri yo‘nalishda shu bilan birga qulay holatda o‘zi istagan predmetlarga yetib bora oldi. U bosh kiyimini echganda, o‘zining asl holatiga yana qaytadan moslashdi.

Paranormal (G‘ayritabiiy) Idrok mavjudmi?

G‘ayritabiiy Idrok - bu ichki sezgilardan ajralgan holatda telepatiya (fikran so‘zlashish), Kleyarens (normal holatdagi sezgi organlari bilan sezib bo‘lmaydigan sezish qobiliyati) hamda kelajakni oldindan ko‘ra olishni idrok qila olish qobiliyatining bahsli tasdig‘i hisoblanadi.

Parapsixologiya - bu odatdagi voqea hodisalarni g‘ayritabiiy sezuvchi idrok hamda g‘ayritabiiy aqliy iste‘dodni o‘z ichiga qamrab olgan holatda izlanishlar olib boradi.

Harakat va vaqtning idrok etish

Odamning yoʻnalish harakati biz qilayotgan harakatga aloqador boʻladi. Biz harakat qilgan paytimiz harakatsiz boʻlgan obyektlar ham harakatlanayotgandek boʻladi. Masalan, avtobusda ketayotgan paytimiz uylar ham harakatlanayotganday boʻladi. Yoki biz old tarafga harakatlanayotgan boʻlsak oldimizdagi obyektlar bizdan uzoqlashib borayotgandey harakatlanadi.



Biz harakatni qanday idrok qilamiz?

Harakatni idrok qilinishi - obyektning fazoda egallagan holati oʻzgarishini aks ettirishdir. Harakatni idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga ega.

Faraz qiling siz dunyoning rangini, tuzilishi va chuqurligini idrok qilyapsizu ammo uning harakatini idrok qila olmayapsiz. Sizda nafaqat velosiped haydashda, mashina haydashda qolaversa, yozish va yurishda ham muammo boʻladi.

Siz muayyan obyektlarni katta va kichikligiga qarab hisob kitob qilasiz, ammo siz harakatlarni idrok qilishda muammolarga duch kelasiz. Katta obyektlar, misol uchun poyezd kichikroq obyektga nisbatan sekin harakat qiladi. Aksincha, mashinalar esa bir xil tezlikda harakatlanadi

(balki aeroportda siz tez uchar katta samolyotni kichikroq samolyotga nisbatan sekinroq qoʻnayotganini kuzatgandirsiz). Uchib kelayotgan yumshoq toʻpni ilib olish uchun kriket oʻyinchilari toʻp yoʻliga chiqib ilib olish harakatida boʻlishadi. Bu vazifani bajarish uchun ular kutilmagan qoidalarga ham boʻysunishadi. Bu jarayonni tushuntirish va izohlash biroz mushkul ammo bu jarayonni his qilish mumkin. Shuningdek miya davomli va harakatli tasavvurlarni ham idrok etadi.

Hayvonlar uchun harakat qiluvchi obyektlar xavf-xatar yoki oziqlanish imkoniyati paydo boʻlishi haqida signal vazifasini oʻtaydi va shunga javob berishga undaydi. (Masalan, baqa faqat harakatlanadigan hasharotlarnigina yeydi, baʼzi baliqlar maʼlum harakatlardan- toʻlqindan qochadi, hurkiydi va hokazo). Harakatni idrok etishda koʻrish va eshitish, kinestezik analizatorlar asosiy rol

o'ynaydi. Tezlik, tezlanish, harakat yo'nalishi harakatdagi obyektning peremetri hisoblanadi.

Harakatlanayotgan ob'ektning harakatsizligi, agar muayyan vaqt vaziyat birligini ko'z bilan idrok qilish mumkin bo'lmasa, harakatni o'tgan vaqt birligida idrok qilamiz lekin bu harakat natijasini idrok etish bo'ladi. (Soat millari siljishini bevosita kuzatib idrok qila olmasak ham bir necha vaqtdan keyin uning siljiganligini vaqt birligida idrok qilamiz)

Vaqtни idrok qilish. Vaqtни idrok qilinishi voqelik xodisalarning obyektiv ravishda doimiyligini, tezligi va izchilligini aks ettirish demakdir. Vaqtни idrok qilish kishiga muhitdan mo'ljal olish imkonini beradi.

Odamda vaqtни chamalash miya qobig'i bo'lmalarida ro'y beradi. Miya qobig'ining ma'lum bir joyida vaqtни chamalash ro'y beradi, vaqtни sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud degan taxmin asossizdir. Vaqtни idrok etilishi negizini qo'zg'alishi va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv sistemasida, bosh miya yarimsharlarida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarinig susayishining oqibati deb hisoblash mumkin.

Vaqtни idrok qilishda turli analizatorlar ayniqsa, eshitish va kinestezik sezgilar ishtirok etadi. Makon va vaqt oraliqlari vaqtни idrok etishda juda muhimdir. (Quyosh holati va vaqt, turli tovushlar: xo'rozning qichqirishi, azon tovushi, bir xil vaqtda chalinadigan gudok, ma'lum jadval bo'yicha qatnaydigan poyezdning o'tishi yoki kechqurun ayrim qushlarning to'planib o'tishi, sayrashi va boshqalar eshitish sezgilari ta'sir qiladigan qo'zg'atuvchining vaqtga oid xususiyatlarini: uning davomiyligini, ritmik xususiyatlarini va shu kabilarni aks ettiradi.)

Vaqt doimiyligini idrok etish ko'p jihatdan ichki kechinmalarga, hissiyotga ham bog'liq. Qiziqarli va chuqur asoslangan faoliyat bilan band bo'lishdagi vaqt juda qisqa, zerikarli va mazmunsiz faoliyatda vaqt o'tishi qiyin, uzoq deb idrok qilinishi mumkin.

Idrok buzilishlari

Idrok jarayonining navbatdagi yana bir o'ziga xos xususiyati idrok qilishda ba'zan yuz beradigan illyuziya hodisasidir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi:

- a) obyektiv illyuziya;
- b) subyektiv illyuziya.

Obyektiv illyuziya – hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Obyektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o'zaro bir-biriga ta'siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko'rinadi. Masalan,

uzunligi baravar bo'lgan ikkita gorizontaal to'g'ri chiziq chizilsa, bu chiziqlarning uchlariga tashqariga qaratilgan va ichkariga qaratilgan chiziq kattaroq bo'lib ko'rinadi. Idrok jarayonida yuz beradigan illyuziyaning bu turiga juda ko'plab misol keltirish mumkin. Masalan, baravar kattalikka ega bo'lgan uchta ketma-ket turgan to'g'ri burchakli ustunchalarni chizib, ularning atrofiga uzoqlashtiruvchi chiziqlarni chizsak, bu uchta ketma-ket turgan ustunchalar har xil kattalikda bo'lib ko'rinish boshlaydi. Bu yerda uzoqlashtiruvchi chiziqlarning ta'sirida illyuziya hosil bo'ladi.

Subyektiv illyuziyalar odamning ayni chog'dagi hissiy holati bilan bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, odamning hissiy holatida ro'y beradigan o'zgarishlar idrok jarayoniga ta'sir qiladi. Masalan, yuqorida aytib o'tilganidek, odam kechasi yolg'iz ko'chada qo'rqib ketayotgan bo'lsa, har bir sharpa uning qo'rqinch hissini kuchaytirib yuboradi. Natijada uning ro'parasidan chiqib qolgan butalgan daraxt qandaydir dahshatli mavjudotga o'xshab ko'rinadi.

Hayotda keng tarqalgan har xil ins-u jins, devlar, ajinalar va shu kabi nojins narsalar haqidagi ko'plab gaplar kuchli qo'rqinch hissi ta'sirida noto'g'ri idrok qilish, ya'ni sub'yektiv illyuziya tufayli vujudga kelgandir. Ba'zan odam qattiq qo'rqan paytida bosh miya katta yarim sharlarining po'stidagi muhim markazlardan birortasi uzoq muddatli tormozlanish holatiga tushib qolishi mumkin. Buni akademik I.I.Pavlov hayotni muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atagan edi. Ana shunday paytda tormozlanib qolgan markaz bilan




bog'liq bo'lgan organizmning biror qismida keskin o'zgarish paydo bo'ladi. Chunonchi odamning og'zi yoki ko'zi qiyshayib qolishi mumkin yoki qo'li, oyog'i falaj bo'lib qolishi mumkin.

Subyektiv illyuziya hodisasi, ya'ni qattiq qo'rqinch hissi ta'sirida noto'g'ri idrok qilish hodisasi bolalarda ham uchrashi mumkin. Shuning uchun ana shu yuqoridagi mulohazalarni, ya'ni yanglish idrok natijasida paydo bo'ladigan qo'rqinchli obrazlarni nazarda tutib, hech vaqt bolalarni qo'rqitish kerak emas.

Psixologiyada ko'rish illyuziyalarining o'rganilishi muayyan o'zining tadqiqot tarixiga ega. Masalan, agarda biz ko'rsatkich va o'rta barmoqlarimizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirgan holda ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, shuningdek ayni bir davrda aylantiraversak, bu holda barmoqlarimizning tagida bitta emas, balki ikkita no'xat bordek his qilamiz.


Ana shu holdagi bir narsaning ikkita bo'lib sezilishi Aristotel (Arastu) illyuziyasi deb ataladi.



Idrok qiluvchi shaxsning psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan yuzaga keladigan tasodifiy illyuziyalar ham mavjuddir. Sahroda chanqagan inson

uzoqda yarqirab turgan sho'rxok yerni ko'l deb idrok qilishi (lekin bu illyuziyani sahrodan farq qila olishi joiz) yoki o'rmondagi to'nka qo'rqoq insonning ko'ziga bironta yirtqich hayvonga o'xshab ko'rinishi xuddi shu illyuziyalar jumlasidandir.


O'q chiziqlari illyuziyasi uzunligi baravar bo'lgan ikki o'q chiziqning chetlariga ikki xil (kesishmaydigan va kesishadigan) chiziqlar chizilsa, illyuziya paydo bo'ladi. Ya'ni, kesishadigan chiziqlar o'q chiziqqa nisbatan kesishmaydigan chiziqlar chizilgan o'q chizig'idan uzunroq bo'lib ko'rinadi. Bu illyuziya kesishadigan va kesishmaydigan chiziqlar tamoyillariga asoslangan.



Parallel qilib chizilgan bir necha chiziqlar parallel emas, balki har xil tomonga kesilgan chiziqlardek tuyuladi.

“Temir yo'l” illyuziyasi kesishadigan to'g'ri chiziqlarning torroq joyiga

joylashgan chiziq uzunroq bo'lib ko'rinadi. Aslida esa har ikkala parallel chiziqning uzunligi tengdir.




Ikkita barovar doira shaklini chizib, ulardan birini o'sha doiradan kattaroq, ikkinchisini esa kichikroq doiralar ichiga olinsa, ikkinchi doira kattaroq ko'rinadigan bo'lib qoladi. Ya'ni kichik doiralar o'rtasida berilgani

katta doiralar orasida berilganiga qaraganda kattaroq bo'lib ko'rinadi.

Birinchi odamga qaraganda ikkinchisi uzunroq, uchinchi esa undan ham uzunroq bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ular balandligi jihatidan bir

– biriga teng. Tik chiziqlarni ortiqcha baholash illyuziyasilindrning balandligi, hoshiyasining kengligidan kattaroq bo'lib ko'rinadi. Aslida silindrning balandligi va hoshiyasining kengligiga bab-barovar. “Yelpig'ich” illyuziyasi-parallel chiziqlar orasidagi chiziqlarning ta'siri bilan ba'zida egilgandek, ba'zida esa burilib ketgandek bo'lib ko'rinadi.



Daryoda suzib ketayotgan katta va kichik ikki kema palubasi uzunligi jihatidan bir-biriga barovar to'g'ri chiziq kesmalari bilan tasvirlangan bo'lsa-da, katta kema palubasi uzunroq bo'lib ko'rinadi.

A.Eyms xonasi

1946 yilda Albert Eyms tomonidan o'ylab topilgan xona uch o'lchovli optik illyuziyaga namuna bo'laoladi. Xonada bir qarashda odatiy perpendikulyar devor va shiplari mavjuddek ko'rinadi. Aslida esa, xona shakli trapetsiya ko'rinishidadir.

Tartibsiz hodisalarda tartiblilikni idrok qilish

Illyuzor korrelyasiyalar bizning dunyoni tushunishga bo'lgan intilishimiz natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Hatto ixtiyoriy, tizimlashtirilmagan ma'lumotlar bilan ish ko'rganimizda ham, biz tartib va qandaydir namunalar tizimini izlaymiz. Va qoidaga ko'ra ularni topamiz ham, chunki ixtiyoriy ketma-ketliklar ko'pincha bunday bo'lib ko'rinmaydi. Agar tangani 6 marta otsak, u hech

bo'lmasa bir marta yuza tomoni(orel) yoki teskari tomoni(reshka) bilan ketma-ketlikda tushadimi:OOORRR yoki ORRORO yoki OOOOOO?

Daniel Kaneman va Amos Tverski (1972) ko'pchilik odamlar ORRORO ketma-ketligining ehtimoli yuqori deb hisoblashlarini aniqlashdi. Aslida esa barcha ketma-ketliklar bir xil darajada mumkin(yoki, aytish mumkinki,bir xil darajada mumkin emas). Bridj yoki pokerda qartalarni tuzdan keyin 10 tadan tarqatish, bunda ularning barchasini qora rangdaligini hisobga olsak, ilojsizdek ko'rinishi mumkin, ammo aslida har qanday spetsifik tarqatish singari buning ham iloji bor.

Psixologlar Tomas Xoltgreyvs va Djems Skil (1992) Indianadagi "Uchta raqamni tanla" lotereya o'yini paytida odamlar tomonidan tasodifning idrok qilinishini tadqiq qilishgan. Siz ham o'ynab ko'rishingiz mumkin: 0 dan 999 gacha bo'lgan istalgan uch xonali sonni tuzing. Sizning sonlaringizda raqamlar takrorlanganmi (masalan 525 sonidagi kabi)? Ehtimol yo'q. 1991 yilning iyulida tuzilgan 2,24 millionkombinatsiyalarning faqat 14% da raqamlar takrorlangan takroriy raqamlar mavjud bo'lgan sonlarning 28% da paydo bo'lsalar ham, bunday sonlar beixtiyor sonlarga o'xshab ko'rinadi(odamlar esa ixtiyoriydek ko'rinadigan sonlar ketma-ketligini tuzishni yoqtirishadi). Amalda ixtiyoriy ketma-ketliklar (takrorlanadigan raqamlar singari) odamlar o'ylaganidan ko'ra ko'proq paydo bo'ladi. Ixtiyoriy tuzilgan sonlarga ega bo'lgan holda, olim va psixologlar tez-tez qiziqarli kombinatsiyani "ko'rishlari" mumkin (). Bu hodisani o'zimga namoyish qilish uchun (siz ham buni qilishingiz mumkin), men tangani 51 marta tashladim va quyidagi natijalarni oldim:

1.O 2.R 3.R 4.R 5.O 6.O 7.O 8.R 9.R 10.R 11.R
12.O 13.O 14.R 15.R 16.O 17.R 18.R 19.O 20.O 21.R 22.R
23.O 24.R 25.R 26.R 27.O 28.R 29.O 30.R 31.R 32.R 33.R
34.R 35.R 36.O 37.R 38.R 39.O 40.R 41.O 42.O 43.O 44.O
45.R 46.O 47.O 48.R 49.R 50.R 51.R

Agar tashlashlarning ketma-ketligiga qarasaq, quyidagi kombinatsiyalar ko'zga tashlanadi:10 tashlashdan 22 tashlashgacha deyarli davriy navbati kuzatiladi: bir juft reshkadan so'ng bir juft orel tushadi. 30 tashlashdan 38 tashlashgacha 8 tashlashdan faqat bitta orel, 39 dan keyingi 9 tashlashda 7 ta orel kuzatiladi.

Bu kombinatsiyalarni qanday izohlash kerak? Balki men qandaydir notabiiy ravishda tangaga ta'sir ko'rsatgandirman? Balki shunchaki orelning navbati kelgandir? Hech qanday izohga hojat yo'q, chunki bu har qanday ixtiyoriy ma'lumotlarda topish mumkin bo'lgan odatdagi kombinatsiyalardir. Agar birin-ketin keladigan har ikki tashlashni taqqoslasak, 50 ta tashlashdan 24 tasida boshqa natija kuzatiladi - 50/50 atrofida, bu odatdagi tanga tashlashning natijasi. Tashlashlarning umumiy miqdorida o'xshash kombinatsiyalar kuzatilsa ham, har bir alohida tashlash o'zidan keyingi tashlashning natijasi haqida hech qanday ishora qilmaydi.

Tasodifiy hodisalarni tushunmaslik odamlarni odatdagi hodisalarga g'ayrioddiy izohlar izlashga undaydi. Shunday vaziyatni tasavvur qiling, kollejning 4000 nafar talabasi ajoyib bir bahor kunida tanga tashlash bo'yicha musobaqaga yig'ilishdi.

Ularning vazifasi: kim qancha ko'p orel olishi. Birinchi tashlashdan keyin 2000 talabalarda orel bo'lib, ular ikkinchi raundda qolishdi. Taxmin qilish mumkinki, ulardan 1000 tasi uchinchi raundga o'tadi, 500 tasi - to'rtinchi, 250 tasi - beshinchi, 125 tasi - oltinchi, 62 tasi - yettinchi, 31 tasi - sakkizinchi, 15 tasi - to'qqizinchi, va nihoyat sakkiz nafar baxtlisi, hayajonli bellashuvlarda 9 orel olib, 10- raundga qolishadi.

Endi mag'lublar olomoni nafasini ichiga yutib, tanga tashlash bo'yicha mutaxassislar o'z san'atlarini yana namoyish qilishga qanday tayyorgarlik ko'rayotganlarini kuzatadi. His-tuyg'ularga berilmaydigan hakamlardan iborat jyuriga o'z joylarini egallashlari uchun musobaqa jarayoni bir muddatga to'xtatib turiladi, keyin esa bu qobiliyatli shaxslarning ajoyib yutuqlari kuzatiladi va bayonnomaga kiritiladi. Ammo afsuslar bo'lsinki, keyingi tashlashlarda sakkiztadan yarmi reshka oladi va nihoyat qolganlar ham yutqizadi. Ammo ularning muxlislari: "Tanga tashlash - nozik ish. Ammo jyurining borligi va kuzatib turishidan o'yinchilar hayajonga tushishdi va o'z qobiliyatlarini to'lig'icha namoyish qila olishmadi",- deyishadi.

Ba'zi voqealar bizga g'ayrioddiy bo'lib tuyuladi, va biz darhol buni ularga aloqador bo'lgan qandaydir tasodif bilan izohlashga harakat qilamiz (bizning misolimizda -bu kutilayotgan natijalarni olishga xalaqit bergan jyuri). Evelina Mariya Adams ikki bor Nyu-Djersidagi lotereyada yutgach, gazetalarda bu har 17 trilliondan holatda bir marta yuz beradi, deb yozishdi. Qiziq? Aslida esa 17

trilliondan bittasi - bu ikkita lotereya uchun bitta chipta olgan odam uchun imkoniyat. Ammo statistlar Stefen Samuels va Djerdj Makkeyb (1989) yozishlaricha, agar millionlab odamlar AQSH davlat lotereya chiptalarini sotib olishlari haqidagi fakti hisobga olsak, kimdir qachondir ikki marta yutishi ehtimoli bor. Axir statistlar Persi Diakonis va Fredrik Msteller (1989) ta'kidlashlari bo'yicha "yetarlicha katta tanlamada ehtimoldan uzoq bo'lgan narsalar ham ro'y berishi mumkin".

Biologik: *Diqqat boshqa psixik jarayonlar singari inson va xayvonlarning doimiy tarzda o'zgarib turuvchi atrof muxit sharoitlariga individual tarzda moslashuvini ta'minlaydi.*

Sotsial: *Diqqatsiz inson mehnat faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi.*

Diqqat-chuqur bilim egallashning asosiy omili. Diqqatning ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishilishiga MNS(Markaziy nerv sistemasi) ning umumiy funksional xolati(charchash, o'ychunlik...)ta'sir qiladi.

Hammamizning hayotimizda ham vaqti-vaqti bilan hayratga soladigan voqealar bo'ladi. Bir safar mening qizim ikki juft tufli sotib oldi, va birmuncha vaqt o'tgach ikkalalasining ham fabrika markasida qizimning ismi va sharifini ko'rib hayratga tushdik. Kutubxonamiz materiallari fotonusxalarining hisoblagichini tekshirarkanman, o'zimning olti xonali sonimni berib, u yerda ishlaydigan ishchini qattiq dovdiratib qo'ydim, sababi bu son tasodifan millionta foydalanuvchidan eng oxirgisi hisoblagichda qoldirgan son bilan bir xil edi.

Ron Vaxon 1990 yilning sentyabrida Bostonda basketbol o'yinining minglab muxlislari orasida o'tirarkan, qattiq hayratga tushgan. Oklendlik hujumchi Rikki Xenderson to'g'ri unga tomon 2 ta taqiqlangan to'p yo'lladi. Vaxon o'zi bilan shunday voqea yuz berishini tasavvur ham qilmagan edi. Ammo bular bo'lishi mumkin. **Gallyusinatsiya** Gallyusinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati, ba'zan qo'rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig'idagi qo'zg'alish jarayonlarining nuqsonli sust (patologik) harakati natijasida goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyusinatsiya hodisasi bir necha xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, ularning eng asosiylari quyidagilardan iboratdir: a) yo'q

narsalarning ko'zga ko'rinishi; b) u yoki bu ovozlari, tovushlar eshinishi; v) yo'q sharpalar, hidlar sezilishi kabilardir. Odatda illyuziyani gallyusinatsiyadan farq qila olish lozim. Illyuziya shu lahzada shaxsning sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan biror narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish jarayoni bo'lsa, gallyusinatsiya yo'q mavjud bo'lmagan narsalarni tashqi tasurotsiz idrok qilishdir. Masalan, yo'q narsalarning ko'zga bordek ko'rinishi, yo'q ovozlarning quloqqa eshinishi, yo'q hidlarning dimoqqa urilishi kabilari gallyusinatsiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Gallyusinatsiya shaxsning biror narsa va holatni ko'rgandek, eshiltgandek, his qilgandek kabi tasavvurning aks etishidir xolos. Gallyusinatsiya hodisasi ko'pincha kasallikdan (isitma, alahsirashdan) darak beruvchi alomatdir, u nerv tizimini buzadigan kasalliklar oqibatida ro'y berishi mumkin.

Voqelikdagi narsa va xodisalarning tana a'zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning xayolan, fekran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruxiy xastalik) xodisasiga gallyusinatsiya deyiladi.

Diqqatning funksiyalari va turlari

Diqqat deb ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirilishiga aytiladi. Diqqat sezish jarayonida, idrok qilishda, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har doim ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonlarimizning doimiy yo'ldoshidir. Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat xissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi. Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir

obyektga aktiv (faol) qaratilishiga aytiladi (P.I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi.

Diqqatsizlik - diqqatni obyektga yo'naltira va to'play olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan diqqatsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat salbiy xarakter xislati. **Diqqatning o'zgarib turishi** - idrok, xotira, tasavvur yoki tafakkur jarayonida diqqatning ma'lum vaqt ichida dam kuchayib, dam susayib turishdan iborat qonuniyat; diqqat ba'zan daqiqaga 25-30 marta ham o'zgaradi. Diqqatning o'rtacha o'zgarish tebranish chastotasi 2-3 sekundga tengdir.

Ko'ruv diqqati - narsa va hodisalarni ko'ruv organi orqali idrok qilish, esga tushirish munosabati bilan namoyon bo'ladigan diqqat turi.

Ikkinchi tartibli ixtiyoriy diqqat - ongimizning muayyan obyektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilsa-da, uning ustiga ma'lum vakt barqaror holda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi; diqqat to'plangan obyektining mazmuniga qarab ixtiyorsiz diqqatning ixtiyoriy diqqatga aylanishi.

Ixtiyoriy diqqat- ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy faollik ko'rsatgan xolda muayyan obyektga yo'nalishi va unga to'planishdan iborat diqqat turi.

Ixtiyoriydan keying diqqat- diqqatning muayyan obyektga, avvalo, ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning axamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boradigan (avtomatlashgan) diqqat turi. Ushbu tushuncha psixologiya faniga N. F Dobrinin tomonida qaratilgan.

Diqqat chalg'ishi- ma'lum bir faoliyat jarayonida diqqatning bir obyektidan boshqa bir obyektga ixtiyorsiz ravishda o'tib turishidan iborat salbiy xususiyati.

Diqqatning xajmi- Diqqatning bir vaqtning o'zida qamrab olishi mumkin bo'lgan mustaqil obyektlar miqdori bilan belgilanadigan xususiyati. Diqqatning xajmi eksperimental sharoitda 2-6 mustaqil obyektga tengdir. Diqqatning obyektlari o'rtasida qanchalik yaqin bog'lanishlar mavjud bo'lsa, uning xajmi shunchalik keng bo'ladi va aksincha.

Diqqat obyekti- ongimiz atrofdagilardan ajratib olgan xolda yo'naltirilgan va faol to'plangan narsa yoki hodisa. Diqqat obyekti

faqat obyektiv narsalar emas, balki subyektiv hodisalar, o'z xis tuyg'ularimiz, fikrlarimiz, xayol yoki xotira tasavvurlarimiz va boshqa shu kabilar xam bo'lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqat- ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan obyektga yo'naltirilishi va unga to'planishidan iborat diqqat turi. Ixtiyorsiz diqqat obyektlari narsa va hodisalarning odatdan tashqari xolati, belgisi, sifati va boshqalardir.

Ichki diqqat - ongimizning o'z subyektiv taassurotlarimiz, his tuyg'ularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iborat diqqat turi.

Tashqi diqqat - ongimizning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlariga yo'naltirilish, ularda faol to'planadigan diqqat turi.

Bedor holat - bosh miya yarim sharlaridagi tegishli nerv markazlarining qo'zg'alishi bilan belgilanadigan uyqudan tashqaridagi holat, ongli holat. Shaxs bedor holatidagina ma'lum bir faoliyat turini amalga oshira oladi.

Qo'zg'alish markazi - markaziy asab tizimining qo'zg'alish jarayoni ro'y bergan uchastkasidir.

Diqqat depressiyasi (lot.deprezyu-pasayish) - turli tashqi va ichki omillarga ko'ra ob'ektda to'planish va mustahkamlanishning kuchsizlanishi va buzilishi. Paradoks fazasi-kuchli qo'zg'atuvchilarga qaraganda kuchsiz qo'zg'atuvchilarning kuchli reaksiyasining vujudga keltirishi (patologik holatlar nazarda tutiladi). Orientr refleksining elektrofiziologik simptomlarining barqarorlashuvi - ixtiyoriy diqqat buzilganda maqsadga muvofiq topshiriq berish va oqilona instruksiya yoki ustanovka berish hamda vaziyatga qarab uni o'zlashtirish orqali insonda orientirovka refleksini qaytadan tiklashdan iborat korreksion faoliyat.

Diqqat korreksiyasi (lot. tuzatish) - insonda diqqat patologik holatga (buzilishga) uchraganda maxsus usul va uslublardan foydalanib tuzatishdan iboratdir.

Diqqatning xususiyatlari

Odamning diqqati bir qancha xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan asosiylari-diqqatning bo'linuvchanligi va diqqatning ko'chuvchanligidan iboratdir. Diqqatning kuchi va barqarorligi deb odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning bo'linuvchanligi. Diqqatning

bo'linishi deganda, biz ayni bir vaqtda diqqatimizni ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Agar diqqatimiz faqat bitta narsaga qaratilgan bo'lsa, ya'ni diqqatimiz faqat bitta narsa ustida to'plangan bo'lsa buni konsentratsiyalashgan (to'plangan) diqqat deb yuritiladi. Buning aksicha, agar diqqatimiz ayni bir vaqtda bir necha narsaga qaratilgan bo'lsa, buni bo'lingan (taqsimlangan) diqqat deb yuritiladi.

Diqqatning bo'linishi. har kimda har xil bo'ladi. Buning sababi shundaki, diqqatning yengillik bilan bo'linishi diqqatimiz qaratilgan narsalarning ilgaridan bizga qanchalik tanishligi bilan bog'liqdir

Diqqatning ko'chuvchanligi. Odamning diqqati har doim bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyatidan boshqa bir faoliyatiga ko'chib turadi. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqatning ko'chuvchanligi deb yuritiladi. Diqqatning ana shu yuqorida ko'rib o'tgan asosiy xususiyatlari odamning (shu jumladan bolalarning ham) barcha turdagi faoliyatlari uchun juda kerakli xususiyatlardir. Diqqatning ana shu xususiyatlari tufayli odam atrofidagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari odamga tug'ma ravishda, ya'ni irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu xususiyatlar odamning yoshlik chog'idan boshlab turli faoliyatlar- o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida tarkib topib boradi.

Diqqatning ko'lami. Odamlar o'z diqqatlarining ko'lami jixatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ayrim odamlar diqqatining ko'lami keng bo'lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko'lami torroq bo'ladi. Diqqatning ko'lami ayni bir vaqtda odamning idrokiga sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig'dira olishimiz diqqatning ko'lamini tashkil etadi. Diqqatning ko'lami odatda taxistoskop degan maxsus asbob bilan belgilanadi. Diqqat ko'lamining keng bo'lishi odamning turmush tajribasi va mashq bilan bog'liqdir.



Diqqatning barqarorligi

Diqqatning barqarorligi bu - diqqatning muayyan maqsadga bo'ysindirilgan faoliyatda uzoq vaqt markazlashtirib turishidir. Diqqatning barqarorligi ishda umumiy maqsadga intiluvchanlik saqlangan holda obyektlar va faoliyat

xarakterining almashinib turishini talab qiladi. Diqqat barqarorligini yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha shartlariga rioya qilish o'quvchilarning o'quv ishlari jarayonida chalg'ishlarini bartaraf qilish uchun juda muhimdir. Chalg'ish – diqqatning barqarorligiga qarama-qarshi bo'lgan holatdir. Bu diqqatning zarur faoliyatdan ixtiyorsiz ravishda chetga og'ishi demakdir. Diqqatning barqarorligini uning ko'chuvchanligini va turlicha tebranishi bilan birgalikda o'rganish va tarbiyalash lozim. Diqqatning ko'chishi bu faoliyat maqsadining o'zgarishi bilan diqqatning bir obyektidan ikkinchisiga o'tishi demakdir. Masalan, dars davomida o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishini eshitib turib, asta-sekin diqqatlarini masalani yechishga qaratadilar bir o'quvchi masalasini yechib turib, boshqasiga ko'chiradilar va hokazo.

Diqqatning ko'chuvchanligi va chalg'ishini uning beqarorligi bilan chalkashtirish mumkin emas. Bir necha minut davomida diqqat bilan soatning chiqirlashini eshiting yoki tomir urishini sanab ko'ring bir oz vaqtdan keyin diqqatingiz bir necha chiqirlashni tushurib qoldiradi, ya'ni tebrana boshlaydi.

Diqqatning tebranishi bu diqqatning muayyan obyektga yana qaytishi yoki kuchayishiga bog'liq holda vaqt-vaqti bilan qisqa muddatli chalg'ishi yoki bo'shashidir.

Diqqatning jamlanganligi

Diqqatni jamlash - deb bu jadallik yoki konsentratsiya darajasidir, Boshqacha so'zlar bilan aytganda, uning intensivligi, asosiy ko'rsatkich, fokusi, ruhiy yoki ongli faoliyatini jamlaydi. A. A. Uxtomskiy - diqqat miya qobig'ida qo'zgalish va dominant markazidagi faoliyatning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Xususan, konsentratsiya bu bir vaqtning o'zida dominant bilan bog'liq qo'z-g'alish va miyaning qolgan hududlarda tormozlanish deb hisoblanadi.

Diqqatning taqsimlanishi - bir vaqtning o'zida turli obyektlar ma'lum bir qatorda diqqat ushlab turilib bir odamning qobiliyati bilan diqqat tajribasini tushuniydir.



Bu qobiliyat-diqqat sohasida ularni tutib, bir vaqtning o'zida bir necha harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Misol uchun, afsonaga ko'ra Yuliysezar, bir vaqtning o'zida yettita bog'liq bo'lmagan ishlarni qilish mumkin bo'lgan ajoyib qobiliyatli inson hisoblangan. Biroq, hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson bir vaqtning o'zida faqat bitta amaliyotni bajara olishi imkoniyatiga ega. Shuni, isbotlandiki bir kishi bir vaqtning o'zida beriladigan ikkita mashqlar haqida o'ylashi mumkin emas. Biroq, ba'zan inson bir vaqtning o'zida ikkita ishni amalga oshirishi mumkin agarda bunday hollarda, operatsiyalar turlaridan biri to'liq avtomatik amalga oshirilsa va diqqat talab qilmasa aks holda bunaqa operatsiyani bajara olmaslik mumkin.

Diqqat miqdori

Keyingi diqqat tarkibi - bu diqqat miqdori. Diqqatning miqdori-muhim savollardan biri. Ma'lumki shaxs bir paytning o'zida har xil narsalar haqida o'ylab va turli xil amallarni bajarishi mumkin emas. Bu cheklash tizimining ishlash qobiliyatini oshmaganligi uchun tashqaridan kelgan ma'lumotlarni bo'linishiga majbur etadi. Shu tarzda bir shaxs bir paytning o'zida bir necha o'zaro mustaqil ob'ektlar cheklangan holda seza olishi quvvatiga ega – bu esa diqqat miqdoridir. Diqqat miqdorining muhim va belgilovchi xususiyatlaridan biri uni mahsulot sifatida tartibga solish deyarli mumkin emas.



Diqqat hajmi

Diqqatingiz hajmini o'rganish, odatda, berilgan elementlarning sonini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi (raqamlar, harflar va. x.), bu esa subyektga ma'umotlarni aniq qabul qilish imkonini beradi. Buning uchun, subyekt ko'zini bir mavzudan ikkinchisiga o'zgartirgan rag'batlantirishlarning sonini juda tez aniqlab beradigan qurilmadan foydalanish kerak. Bu sizga bir vaqtning o'zida aniqlash mumkin bo'lgan ob'ektlar sonini o'lchash imkonini beradi.

Diqqatning o'zgaruvchanligi

Ko'pchilik mualliflar diqqat tarqalishi, aslida, uning teskari tomoni, deb hisoblaydilar, o'zgaruvchanlik yoki refokusning yashirin tarzda bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini nazarda tutadilar. Kommunikatsiya bir ob'ektning boshqasiga ongli va mazmunli harakatini bildiradi.

Umuman olganda diqqatning o'zgarishi murakkab vaziyatlarda bir obyektidan ikkinchisiga diqqat qilinishiga imkon beradi. Diqqatning o'zgaruvchanligi hammada har xil va u bir qancha talablarni o'z ichiga oladi (birinchi navbatda, avvalgi va keyingi subyektning faoliyati va ularning har biri bilan bog'liq o'rtasidagi munosabatlarni hisoblash) agarda holat qiziqarli bo'lsa, u oson kechadi va aksincha bo'lsa qiyin. Diqqat o'zgaruvchanligi uning yaxshi o'zlashtirilgan sifatiga bog'liq.

Shu bilan birga, ba'zi psixologlar o'zgaruvchan diqqat bir obyektidan boshqa obyektga o'tganida subyektida illyuziya hosil qilib bir vaqtning o'zida bir nechta obyektga diqqat qilish holatini yaratganda bu holatni rostan ham bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar: Rim hukmdori Yuliysezar bir vaqtning o'zida bir necha ishni qilish imkoniga ega bo'lgan: bular ko'rish, yozish, eshitish va buyruq berish. U shunchaki diqqatni o'zgartirish imkoniga ega bo'lgan. Lekin bu zamondoshlarida katta ta'surot qoldirgan.

Fiziologik nuqtai nazardan, diqqat-bosh miya nerv faoliyatining aniq vaqtdagi aniq optimal qo'zg'aluvchanligi xolatidagi qismi bo'lib qolgan qismlari esa past darajadagi qo'zg'aluvchanlikdir.

Diqqatning fiziologik asoslari.


Fiziologik diqqat ruhiy jaryonlar bilan birga nerv markazlari orqali ishlaydi. Vizual eshituv va boshqa his-tuyg'ular, idrok, shuningdek harakat kabilar orqali fiziologik diqqat. Miya yarim sharlari پوستlog'ida muayyan qismlarining faoliyati bilan bog'liq biroq uni amalga oshirish uchun hech qanday maxsus nerv markazi mavjud emas. Ruhiy holatlarning aniq markaziy qismi bo'lmasa-da ko'rish qobiliyati eshitish qobiliyatiga nisbatan bosh miyaning boshqa qismlari bilan bog'liq, huddi shu kabi oyoq va qo'l harakatlari ham gapirish qobiliyatiga nisbatan bosh miyaning boshqa burchagida joylashgan.

Oliy asab faoliyatini o'rganishda bosh miya po'stlog'ining turli sohalarda nerv markazlari hech qachon bir vaqtning o'zida bir xil qo'zg'algan yoki cheklangan holda bo'lmaydi. Agar biz u yoki boshqa faoliyat bilan bog'liq miya qobig'idagi fiziologik jarayonlarni nazorat qilishimiz mumkin bo'lganida, unda biz har vaqtda bosh miyaning u yoki bu qismidagi doimiy optimal bo'lgan va boshqa qismlari esa kuchsizlangan holatda bo'lgan jarayonni kuzatgan bo'lardik "Agar bosh suyagi qopqoq bilan miya yarim sharlarini ko'rish mumkin bo'lganda, insonni fikrlayotgan vaqtida uning miya yarim sharlaridagi doimiy shakli va nihoyatda tartibsizligi, hajmining o'zgaruvchanligi harakatlarini kuzatgan bo'lardik »(Pavlov).

Miyaning burchak qismlarda farqlashni hosil qiluvchi yangi reflektorlar osongina hosil bo'ladi, bu ruhiy holatdagi aniqlik va muvaffaqiyatlilikni anglatadi .

Maksimal qo'zgalishdagi miya yarimsharlarinig qismi ijodiy qism hisoblanadi. Ular doimo olingan holatlarga qarab miya bo'ylab harakat qilishadi shu sabab, ular doimo hajmi o'zgarishiga ko'ra asosan miyaning sust bo'lgan qismlarida harakat qiladi .

Diqqat fiziologik mexanizmlarni tushuntirishda ilgari surilgan tamoyil mashhur Uxtomskiyning dominant tamoyilidir.



Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga ko'ra miya va boshqa miya tuzilmalarida hayotni tiklash jarayonida diqqatning ahamiyati juda katta. Retikulyar shakllantirish miyani faollashtiradi u diqqat jarayonining muhim energiya tarkibiy qismi hisoblanadi.

Diqqatning tanlovchanligi

Ongimizda ayni bir vaqt mobaynida qancha axborot almashiladi? Diqqat bizning ongimizni yoritkich nurlariga o'xshab ketadi va ong atrofdagi ma'lum bir cheklangan jismlarga o'z diqqatini qaratadi. Inson jismlarni to'xtovsiz qabul qilish jarayonida, birinchi idrok qilingan holat boshqalarga almashib ketaveradi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, insonning beshta sezgisi sekundiga 11.000.000 bit axborotni ongli ravishda qabul qilar ekan va bu jarayon haqida Vilson 2002 yilda gapirib o'tgan. Ongning behush holatida 10.999.960 bit axborotdan foydalanar ekanmiz. Bunga misol, siz biror


bir gapni o'qib turib oyoqlaringizga poyafzalni kiya olmaysiz. Diqqatiningizni Neker kubga qarating va bu rasmni siz turlicha idrok qilolasiz. Misol qilib, doiralarni olsak, biz ularni turli xil holatda idrok qilishimiz mumkin. Ularning ichidan bir nechtasi bir xil bo'lishi mumkin, biroq bizning diqqatimiz ularga birin ketin qaratiladi.

Siz bu tekstni o'qishni boshlaganda, oyoq kiyimingizni siqayotganini yoki burningiz ko'rish chizig'ida turganini tushunmagansiz. Hozir esa e'tiboringizni qaratganingizda, oyoqlaringizni og'riyotganini va burningiz ko'z oldingizda turganini sezasiz. Tekstga e'tiboringizni jam qilib siz periferik ko'rinishdan kelayotgan ma'lumotni inkor etasiz. Ammo buni o'zgartirish mumkin. **X** ga diqqat bilan qarab e'tiboringizni kitob yonida nima turganiga qarating (kitob chetlari stol usti va boshqalar).

Diqqat tanlovchanligiga yana bir misol, ko'p tovushlar orasidan faqat bir ovozni eshita olish qobiliyati. Tasavvur qiling, siz naushnik orqali ham chap ham o'ng qulog'igingiz bilan bir vaqtning o'zida ikki xil odamning suhbatini eshitmoqdasiz. Sizdan chap qulog'ingiz orqali nimani eshitganingiz so'raldi.

Siz chap qulog'izdagi gaplarga e'tibor berganizda o'ng qulog'ingizda eshitilayotgan gaplarni idrok qilmaysiz. Biroz vaqtdan so'ng sizdan o'ng qulog'ingizda qaysi tilda gapirishganini so'ralsa bilolmay qolasiz (Lekin suhbatdoshingizning jinsi va ovoz balandligini eslab qolgan bo'lasiz). Agar biz ongli ravishda biron nimaga diqqatimizni qaratsak faqat aynan o'sha narsa bilan band bo'lar ekanmiz.

Bizni o'rab turgan ko'p sonli vizual qo'zg'atuvchilardan tahlil uchun biz faqatgina ayrim qo'zg'atuvchilarni tanlaymiz. Ultrik Neysser va Robert Beklen (Neisser and Beclen, 1979) hamda Deniel Chervone (Cervone 1983) buni o'z tadqiqotlarida ko'rsatib berishgan. Tadqiqot shundan iborat bo'lganki, unda sinaluvchilarga 1 daqiqali video ko'rsatilgan. Videoda 3 ta qora ko'ylakdagi basketbol o'yinchilari orqa qatorda esa 3 ta oq ko'ylakli o'yinchilar basketbol o'ynayotganlari tasvirlangan. Sinaluvchilarga berilgan topshiriqqa ko'ra qora ko'ylakli o'yinchilar koptokni bir-biriga uzatgan paytlarida sinaluvchilar tadqiqot tugmachasini bosishlari kerak edi. Shu bilan



Diqqatning tanlovchanligi – bu bizning ongimizda idrok qila oladigan cheklangan obyekt va

birga klip davomida basketbol o'yinchilari o'ynayotgan paytda orada o'yinchilar o'rtasidan soyabonli bir ayol o'tib ketadi. Sinaluvchilarning aksariyati berilgan topshiriqqa ko'ra qora ko'ylakli ishtirokchilarni shunchalik diqqat bilan kuzatishganki ayolni ko'rmay qolishgan. Video sinaluvchilarga qaytadan ko'rsatilib, soyabonli ayol o'yinchilar orasidan o'tganligi aytilganda sinaluvchilar o'zlari ayolni ko'rmay qolganliklaridan hayratda qolishgan. (Devid Mayers "Psixologiya" Minsk, 2008. 252- bet)

Diqqat tanlovchanligi va baxtsiz hodisalar. Mashina haydayotgan paytda telefonda gaplashsangiz e'tibor mashinadan telefonga ko'chadi. Bunday vaziyatda, tezlik o'zgartirish ayniqsa qiyin bo'ladi va halokatni yuzaga keltirishi mumkin. Mashina halokatlarining 80%i haydovchilarning chalg'ishida deb hisoblanadi. Utan universitetidagi haydash tajribalarida talabalarning telefonda gaplashishlari mobaynida yo'ldagi yo'l belgilari, reklamalar va boshqa mashinalarni payqashi sekin bo'lishlari aniqlangan.

Diqqat tanlovchanligi bo'lgani uchun biz qo'ng'iroqqa javob beraolamiz (GPS navigatsion Sistema yoki DVD magnitafon) boshqa narsalarga e'tibor berishga sabab bo'ladi. Suzanne Meevay va uning Sidney universitetidagi hamkasblari (2005, 2007) avtomobil halokati paytidan oldingi telefon qo'ng'iroqlari sabab hatto qo'llari bo'sh payt ham 4 marta ko'proq riskda bo'lishlarini aniqlashdi. Yo'lovchilarda bo'lsa xavf 1 dan 6 martaga oshadi.

Hatto telefonda gaplashayotganda qo'llar bo'sh bo'lsa-da yo'lovchi bilan suhbatlashganda ham mashina haydash yoki suhbatni to'xtatib pauza qilish talab qilinadi.

Ogaya Universiteti piyoda yuruvchilarni tabiiy ravishda kuzatishlariga binoan gapirgan holda yurish ham xavfni ko'paytirishi mumkin ekan. Yo'lni kesib o'tayotganda uyali aloqadan foydalana-yotgan yo'lovchilarning yarmi va chorak qismida parishonxotirliklik bilan mashina yaqinlashganda yo'lni kesib o'tish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Diqqat nazariyalari

Psixologiya diqqat jarayonini olti asosiy yondashuvlar bilan bayon qilishi mumkin. Ularning har biri inson aqliy faoliyatining bir tomonini murakkab asosi deb hisoblaydi. Lekin hech qaysi gipoteza aniq tan olinmagan.

Birinchi bo'lib diqqatni emotsional tushunish yondashuvni T.Ribo targ'ib etgan va diqqat bilan emotsiya bir- biridan kelib chiqadi deb hisoblagan. T. Ribo fikricha, ihtiyoriy diqqatning intensivligi va davomiyligi diqqat obyekti orqali vujudga keladigan emotsiyalar xarakteristikasi bilan shartlangan bo'ladi. Diqqatga bunday yondashuv to'g'rirok hisoblanadi, chunki emotsiya -bu organizm reaksiyasining dolzarb ehtiyojining qondirilish ehtimolligidir va organizmning diqqati birinchi navbatda shunday obyektlarga qaratilgan bo'ladi.

Diqqat haqidagi ikkinchi yondashuvni olim I.Gebert va U.Gamilton ilgari surgan. Ko'proq intensivlikka ega bo'lgan tasavvur kamroq intensivlikka ega bo'lgan tasavvurni ong ostiga surib yuboradi va tabiiyki, ongda qolgan tasavvurlargina diqqatimizni jalb qiladi.

Uchinchi yondashuvga ko'ra diqqat appersepsiya natijasidek ya'ni individning hayotiy tajribasidir. Bunda asab tizimiga qabul qilingan ma'lumotning insonni bilimga talabi tozalanish yuzasidan bo'lib o'tadi.

Diqqatning to'rtinchi yondashuvini gruzin olimi D.N. Uznadze rivojlantirgan, uning fikricha, ustanovka ichki tomondan diqqatni ifoda etadi. Ustanovka ta'sirida aniq bir obyektning atrof muhitdagi boshqa ko'p obyektlardan ajratib olish jarayonini Uznadze "obyektivlash" deb nomlagan.

Beshinchi yondashuv asosan diqqatning harakat aspektiga qaratilgan. Gap shundaki, ixtiyorsiz diqqat asosida orientir refleksi – organizmni yangi qo'zg'atuvchi manbaiga qaratilishi va analizatorlarning unga sozlanishini ko'rsatadi. Bu jarayonlar mushaklarning faol ishtirokida bo'lib o'tadi, shuning uchun diqqatni atrof-muhitga harakatli moslashishning tashkiliy usuli deb atash mumkin.

Oltinchi yondashuvda diqqat fiziologik tasavvurda vujudga keladi. Ya'ni miyaning qo'shni qismlari faoliyatini ta'sirini bosh miya po'stlog'ini, ham qo'zg'alishiga qaratib tashkil qilishdir. Ayni paytda, psixologlarning fikricha, bunday gipoteza diqqat jarayonini juda oddiy talqin etgan. Ya'ni, diqqatni jamlash jarayonida miya po'stlog'ining individual qismlarigina emas balki butun miya faoliyati olib boradi.

Diqqatning tabiati haqida sintetik tushunchalarni P.Ya.Galperin konsepsiyasi orqali talqin etish mumkin:

1. Diqqat-bu inson faoliyatining orientir tadqiqot lahzalaridan biridir.

2. Diqqatning asosiy vazifasi – faoliyatning tarkibi yoki psixik

obraz ustidan nazorat.

3. Diqqat hech qanday mustaqil natijaga ega emas balki jarayonga xizmat qiluvchi hisoblanadi. Diqqat mustaqil akt sifatida agar harakat aqliy va qisqargan holatga aylansa namoyon bo'ladi.

Diqqat aqliy kuch yoki resurslarning taqsimlanishi sifatida.

Diqqat- xuddi retseptorlar kuchi etarli bo'lmagandek bu psixik kuchlarni sarflashdir. Diqqatning vazifasi ham tashqi dunyoning ko'p obektlariga taqsimlanadi. Ruhiy kuch darajasi (aktivatsiya), vazifa obyektiv murakkabligi singari, juda ko'p emas. Diqqatingiz intensivligi sabab ham tana aktivlashtirish umumiy holatiga ta'sir qiladi. Ma'lum bir qiymatli vazifalar imkonsiz hisoblanadi.

Diqqatni tahlil qila turib, Lange quyidagi klassifikatsiyani taklif qildi "Ixtiyorsiz diqqat" va "Ixtiyoriy diqqat" Lange bu turni "Irodaviy diqqat" deb ham atagan. Lange uchun "Irodaviy diqqat" maqsadli diqqat bo'lgan. Shuning uchun, diqqat ta'limotida Lange tomonidan joriy etilgan eng muhim tushuncha, bu - maqsad tushunchasi edi.

Diqqatning rivojlanishi va buzilishi

Insonning barcha a'zo va sistemalari yuqori ish qobiliyatini ta'minlashida diqqatning kerakli saqlanish va rivojlanish shartlari:


- kun tartibini to'g'ri taqsimlash, to'liq ovqatlanish va dam olish;
- ichki a'zolarning kasallanishiga, ko'rish va eshitish qobiliyatini buzilishiga qarshi davolanish va ko'rikda bo'lish;
- kunlik ishlash qobiliyatining maromi;
- aqliy va jismoniy mashqlar almashinuvi
- qulay ish sharoitini yaratish

Tashqi kuchli ta'sir qiluvchi holatlarni mavjud qilmaslik-tinchlikni ta'minlovchi (diqqatni jam qilsa bo'ladigan holat);

- Gigiyenik talabga javob beradigan ishning ta'minlanishi;
- Maqbul jismoniy omil (e'tiborni tortmaydigan holat, ortiqcha harakatlar me'yori);
- Odat bo'lib qolgan ish shart-sharoiti
- Muvaffaqiyat sari aniq maqsadlarni aniqlash;

Diqqatning buzilishi natijasida maqsadga qaratilganlikning salbiy o'zgarishini tanlash va barqaror psixologik faoliyat normal miya faoliyatini buzilishi yoki charchash holatida ko'rinadi.

Diqqatning buzilishi bir necha ko'rinishlarga bo'linadi



Diqqatning buzilishini turli asab holatlarini aniqlash orqali bilish mumkin:

- Tanlash va faoliyatni yunalganlik xususiyatini me'yorda emasligi;

- Alohida ish- harakatlar moslashuvining buzilishi;

- Diqqatning jamlanishi va doimiyligining qisqarishi;

Diqqatning buzilishi turli darajalardagi uzviy mag'lubiyatlarda hosil bo'ladi. Asosiy yo'sinda miyaning peshona va boshqa qismlarida hamda oddiy charchash holatlarida **diqqatning buzilishi 3 turga bo'linadi:**

I Tur. Diqqatning tarqoqligi- boshqarib bo'lmaydigan o'zgaruvchan va kuchsiz diqqat-etibor bilan xarakterlanadi. Ushbu tip maktabgacha bo'lgan bolalarda hamda holsizlik va charchoqqa chalingan kattalarda ham uchraydi.

II Tur. E'tiborsizlik- boshqa fikrlarga diqqatning qaratilishi va intensivligi murakkablashgan o'zgaruvchan diqqat bilan xarakterlanadi. Ushbu tipga miyasiga bir fikr o'rnashib qolgan shaxslar mansub.

III Tur. Parishonxotirlik-Diqqatning jamlanganligi va qiyinchilik bilan almashishi sezilarli darajada murakkabligi bilan tavsiflanadi. Ushbu tipga nerv tizimi kuchsiz va e'tiborsizligi vaqti-vaqti bilan yoki doimiy namoyon bo'luvchilar kiradi. Bunday holat malum muddat holdan toygan va parishonxotir bo'lib qolgan sog'lom odamlarda ham to o'z holati tiklanguniga qadar sodir bo'lishi mumkin. Klinik ko'rinishi ko'pincha keksa yoshdagi miya ateroskleroziga uchragan shaxslarda miyada kislorodning kamayishi natijasida uchraydi. Diqqatsizlikning bunday turi «Keksalikka xos

bo'lgan diqqatsizlik » deb ham ataladi. Diqqatning buzilishi ham kasallik alomati deb atalishi mumkin. Kasallikka olib boruvchi turli psixik yoki somatik buzilishlar natijasida diqqatning buzilishini ham kasallikni alomati xisoblanadi.

7.3. Xotiraning psixik jarayon sifatida o'rganilishi

“Agar sen oldingi xotiralaringni eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi” James Mc.Gaugx.Psixolog sifatida shuni ta'kidlash lozimki, xotira bu – doimiy va o'zgaruvchan hamda saqlangan ma'lumotlarni o'rganishdir. Xotira ustidagi izlanishlar uning qanday ishlashini tushunishimizga yordam beradi. Masalan 92 yoshli qariya insult bilan kasallangandan so'ng u oldingidek harakatlana olardi. U oilaviy albomlarni ko'rganda qarindoshlarini eslay oladi, ammo, kundalik yangi suhbatlarni va hatto haftaning qaysi kuni ekanligini eslay olmaydi. U har safar yangiliklarni eshitganda ta'sirlanadi va pochchasining o'limini tez-tez eslaydi. Buning aksi o'laroq Xotira Olimpiadasida medallar sovrindori rus jurnalisti Shereshevskiy boshqa jurnalistlar intervyularni qayd qilsa, u shunchaki tinglardi. Balki biz 7 yoki 9 tagacha bo'lgan raqamlarni takrorlay olarmiz ammo Shereshevskiy 70 tagacha bo'lgan raqamlarni 3 soniya ichida takrorlay oladi. Bundan tashqari, u raqamlarni orqadan oldiniga ham osonlik bilan aytib bera oladi. Hatto u yuzlab ro'yxatlar orasidan 15 yil oldingi ro'yxatni ham aniq aytib bera olgan. U shunday boshlagan: “Biz stol atrofida o'tirgan edik, siz kursida kulrang kastyum kiygan holda o'tirgan edingiz va menga mana bunday holatda qarayotgan edingiz”.

Ajablanarli holat shunday emasmi? Siz ham imkoniyatlaringizni sinab ko'rishingiz mumkin. Atrofda turli tovushlar, qo'shiqlar, yuzlar, ko'rinishlar, turli joylar, turli ta'm va hidlar mavjud. Tasavvur qiling, siz 2500 ta yuzlar va joylarni har biriga 10 soniyadan vaqt ajratib ko'rdingiz. Keyinroq esa oldingisiga o'xshamagan boshqa 280 ta yuzlar va joylarga e'tibor bering. Ralf Xaberning axborotiga ko'ra siz 90% oldingilarini eslab qolasiz. Keyingi tajriba tasavvur qiling, siz oldin shakli aniq bo'lmagan, har tomonlarga chizilgan rasmni ko'rdingiz, so'ngra shakli aniq bo'lgan to'liq rasmni ko'rdingiz.

David Mitchellning tadqiqotlariga ko'ra to'liq obyektlarni ko'rish va eslab qolish noaniqlariga nisbatan oson va tez. Xotira

tadqiqotchilari 1 asrdan ko'proq vaqtdan buyon quyidagi savollarga javob izlamoqda: Qanday qilib biz xotira yutuqlariga erishishimiz mumkin? Nima uchun biz, hatto, bir daqiqa oldin uchrashgan insonimizning ismini unutib qo'yamiz? Xotiralar miyada qanday saqlanadi? Nima uchun ayrim narsalarni tez unutamiz ammo alamli, istalmagan hodisalarni unutishimiz qiyin? Qanday qilib bir hodisa ikki shaxsning xotirasida turlicha qoladi? Xotiramiz imkoniyatlarini qanday o'stirishimiz mumkin?

Insonlarni o'rganish va axborotni qabul qilish bo'yicha 3 turga ajratsak bo'ladi. Bular: eshitish, ko'rish va harakat xotiralar. Bular miyaga kirayotgan xabarning turiga bog'liq.

Ko'rish: bunda yaqqol tasavvurlar hosil qilinadi. Bunda so'z tasavvurdagi manzaralar timsolida xotiraga joylashadi. Doktor Medina fikricha: barcha sezgi organlari ichida eng muhimi aynan axborot qabul qilish bo'yicha mavjud sezgidir.

Vizual xotira cheksiz. Tadqiqotlardan birida ishtirokchilarga 10000 ta rasm berilgan va so'ng boshqa rasmlar bilan aralashtirilgan rasmlarni berib ularni ajratish topshirilgan. 99% aniqlikda rasmlar to'g'ri ajratilgan. Va hatto 3 oydan so'ng ham shu natija takrorlangan. 10% o'qiganda, 20% eshitganda, 30% o'qib eshitganda, 50% eshitib ko'rganlarda, 70% suhbatlashganda, 90% bajarayotganda eslab qolingan. Tevarakdagi ma'lumotlarni hissiyotlarimiz orqali qabul qilamiz. O'rganish va xotirada saqlashning turli usullari mavjud. Har bir odamda ma'lum usullarning majmui mujassam bo'lib turlicha usullarda turlicha o'rganish mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. «Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi *xotira* deb ataladi».

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa haqidagi

hodisalarni yomonlarini esda qoldiramiz. Bu xotiraning yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklari bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning har xilligi bilan tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yaqqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz kishilar har doim yuzaki yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur eslab qoladilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga, uning aqliy saviyasiga, bilimiga, uquviga fikrlash qobiliyatiga, ko'nikma va odatlariga ham bog'liqdir. Shunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Yaxshiyamki xotiramiz bor. Xotira tufayli bizda ajoyib imkoniyatlar borligini so'zsiz qabul qilamiz. Xotira hayotimizni belgilaydi. Xotira tufayli biz oilamizni taniymiz, o'z tilimizda gapira olamiz, uyimizga olib boradigan yo'lni yo'qotmaymiz hamda oziq ovqat va suv joyini aniqlaymiz. Xotira tufayli biz tajribalarimizdan bahramand bo'lamiz va uni qayta qo'llay olamiz. Ammo, ba'zida aynan xotira tufayli aybdorlarni va aybdorligimizni kechira olmaymiz. Biz nimani ko'proq eslasak, u xotiramizning katta qismini egallaydi. Agar xotiramiz bo'lmaganida, o'tgan qiyvonchli va alamli lahzalarimizni, aybdorlik hissini yoki g'azabni sezmagan bo'lardik. Uning o'miga biz hozirgi yangi lahzada yashagan bo'lardik. Bunday holatda har bir kishi begona va har bir til yangi hamda har

safarda kiyinish, ovqat pishirish va velosiped haydash muammosi kabi muammolar bo'lardi. Biz hatto o'zimizga ham begona bo'lardik. Uzoq o'tmishimiz va hozirgi lahzamiz o'rtasida hech qanday bog'liqlik bo'lmasdi. Xotira tadqiqotchisi Jamesning ta'kidlashicha: "Agar sen oldingi xotiralaringni eslash qobiliyatini yo'qotsang sen uchun hayot tugaydi".

Xotirani o'rganish. Axborot ishlash modellari.

Psixologlar inson xotirasi tizimini qanday tasvirlashadi? Xotiraning ishlash modeli bizga xotirani qanday tuzish va avvalgi holatiga qaytarish haqida o'ylashimizga yordam beradi. Odatda ko'p uchraydigan birinchi model: kompyuterda axborotni ishlash tizimining ba'zi jihatlari inson xotirasiga o'xshashligidadir. Biz har qanday hodisani eslashda: miyamizga ma'lumotlarni olamiz (**kodlash**), ma'lumotlarni mustahkamlaymiz (**saqlash**), keyinchalik u ma'lumotlardan foydalanamiz (**qayta ishlash**). Kompyuterda ham xuddi shunday ma'lumotlarni kodlash, saqlash va qayta ishlash mavjud. Kompyuterda ham ma'lumotlar kodlarda saqlanadi. Kompyuterga ma'lumotlar klaviaturada kiritilsa, miya ma'lumotlarni hissiy kodlashtiradi. Kompyuterda ma'lumotlarni saqlashda chegaralar bor. Ammo, kompyuter xotirasi biznikiga nisbatan aniq va mustahkam. Bundan tashqari kompyuter xotirasida ma'lumotlar jarayoni tez, ammo, inson miyasida bu jarayon sekin va bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishi mumkin. Psixologlar bir necha axborotni qayta ishlash modellarini taklif qilishmoqda. Birinchi zamonaviy model: **Muvofiqlik**— bir-biriga bog'liq xotiralarning nerv tarmoqlarida paydo bo'lishi. Muayyan xotiralar asosan shu operatorlar tarmog'ida faollashadi. Biroz eskiroq, ammo, oson bo'lgan ikkinchi model: Richard Atkinson va Richard Shiffrin xotirani 3 bosqichda tashkil etishni taklif etdi:

1. Vaqtinchalik hissiy xotira
2. Qisqa muddatli xotira
3. Uzoq muddatli xotira

Bu 3 bosqichli jarayon oddiy bo'lsa-da tarixiy ahamiyatga ega. Bu 3 bosqichli jarayon cheklangan va aniq. Bu yangilangan model 2 ta muhim yangi tushunchalarni keltiradi: birinchi ikki bosqichda ongli xabardorlik, **ishchi xotira** uzoq muddatli xotiraga to'g'ridan-to'g'ri va avtomatik ravishda axborot faol qayta ishlanadi. Biz

barcha axborotlarni shu zahoti sergaklikda o'ylay olmaymiz. Biz ko'pincha muayyan, yangi yoki muhim bo'lgan axborotlargagina e'tiborimizni qaratamiz. Masalan, biz xotiraning hajm quvvatini aniqlashimiz mumkin: tasavvur qiling, sizga alfavitdagi biron harf ko'rsatildi, so'ngra oddiy bir savol so'raldi, keyin navbatdagi harf va keyin yana boshqa oson savol so'raldi. Yaxshi natijaga erishganlar savollarga qaraganda harflarni eslab qolishdi. Ular kundalik hayotida asosiy e'tiborlarini vazifalarga qaratishadi.

Hissiy xotira – Xotira tizimida hissiy ma'lumotlarni zudlik bilan qisqa eslab qolish. Bir lahza yuzlaridagi ma'lumotlarni qayd etadi.

Qisqa muddatli xotira – faol xotirada bir necha belgilar aniq saqlanadi, masalan, 7 ta raqamgacha bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolamiz. Aynan shu faoliyatdagi yoki ishlovchi xotira bo'lishi mumkin. Fikrlashimiz asosida ishlovchi, vazifalarni bajaruvchi ijro etuvchi xotiralar yotadi. Qisqa muddatli xotirani biz bo'laklarga bo'lib uzaytirishimiz mumkin.

Uzoq muddatli xotira – xotira tizimidagi doimiy va chegarasiz bog'liqlik. U nisbatan samarali va mustahkam. Bilim, ko'nikma va tajribalarni o'z ichiga oladi. Unutilgan ma'lumotlarni gipnoz yoki elektrlash orqali qayta eslash va uzoq muddatli xotiraga o'tishini tezlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli xotira o'ziga xos tarzda ishlatilmagan xotiralarni bir chekkada saqlab qo'yadi. U cheksiz va tashqi ta'sirga moyil emas. Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira vaqti bo'yicha ham, ma'lumotlarni saqlab qo'yish bo'yicha ham farq qiladi.

Ishchi xotira - Faol ishlashga ajratilgan qisqa muddatli xotiradagi hamda, qayta ishlanadigan uzoq muddatli axborotlar.

Atkinson va Shifrinning klassik 3 bosqichli modeli xotira jarayonini tushunishda yordam beradi, ammo bugungi tadqiqotchilar uzoq muddatli xotiraning boshqa yo'llarini ham topishdi. Masalan ayrim axborotlar xotiraning ongli ishtiroki orqali "orqa eshik"dan uzoq muddatli xotiraga o'tadi. Ishchi xotirasida ko'p va faol ishlash qisqa muddatli xotira bosqichida uchraydi. Doktor Penfild faoliyati davomida epilepsiya kasaliga chalingan bemori miyasining qaysi qismi jarohatlanganini bilish uchun bemor miyasining qismlariga kichik elektr toklar jo'natadi. Bemor og'riq sezmaydi, chunki miyada og'riq sezuvchi nervlar yo'q. Shunda bemor yoshligidagi voqealarni eslayotganini aytdi. Bu doktorning hujayralarga birma bir tegib

chiqayotgani natijasi edi. Shundan keyin Penfild o'z taklifini bildirdi, biz deyarli barcha ma'lumotlarni xotiramizda saqlab qolamiz, gap ularni qayta eslash uchun turtki berishda.

Biz qanday qilib ma'lumotlarni kodlaymiz?

Ba'zi axborotlar masalan: yurish yo'nalishingiz, tanish voqealar xotira tizimida tanish bo'ladi. Ba'zida siz telefon raqamlarni yodlash uchun unga diqqatingizni jamlaysiz. Bir vaqtning o'zida shu faoliyat uchun miya salohiyatiga avtomatik ishlov berish tufayli vazifalarning katta miqdori sizning ongingizda davom etadi. Masalan, kosmos haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlashda ongli harakat yuzaga keladi. O'rganishda esa sahifadagi ma'lumot materialidan kodlar joylashadi. Keyinchalik bu ma'lumotni eslash uchun u joylashgan joy va vaqtni tasavvur qilishingiz mumkin.

Makon: O'rganayotganda sahifa joylashgan hudud, ma'lumotni olgan sahifangiz orqali eslab qolish mumkin. Hamda o'rganayotgan xona orqali eslash imkoniyati ham mavjud.

Vaqt: Siz o'rganayotganda kunlik voqealarning ketma-ketligini eslashingiz mumkin. Keyinchalik bu ketma-ketlikni qayta tiklashingiz mumkin.

Takrorlanish: biror voqeaning necha marta sodir bo'lganini eslashingiz mumkin. Keyinchalik tasavvur qilishingiz mumkin. Masalan "men uning uyiga 3-marta borishim" kabi.

Yaxshi o'zlashtirilgan ma'lumotlar: masalan siz ona tilingizdagi biror so'zni uchratdingiz, uni yoza olmasligingiz mumkin, lekin siz uning ma'nosini aniq tasavvur qilasiz chunki bu necha yillardan buyon foydalanadigan axborotingiz.

So'zni ma'nosini tushunish va uni kodlash har doim ham oson emas. Siz uni birinchi marta o'rganganingizda mayda qismlarga ajratib olasiz. Har bir sahifani asta-sekin kodlashingiz mumkin. Bu albatta dastlab o'qish, tajriba va harakat talab qiladi.

Avtomatik qayta ishlash – ma'lumotlarni makon, vaqt, chastota va yaxshi o'zlashtirishlar asosida kodlash.

Samarali ishlash jarayonida avtomatik ravishda katta miqdorda ma'lumotlarni saqlaymiz va kodlaymiz. Samarali ishlashda ko'pincha mustahkam va qulay xotiralar ishlab chiqiladi. Biz yangi ma'lumot o'rganayotganimizda, masalan ismlarni biz ongli takrorlaymiz. Og'zaki xotiraning ilk tadqiqotchisi, nemis filosofi German Ebbingauz

xotira haqida yangi falsafiy qarashlarni kiritdi. Og‘zaki materiallar orqali o‘z o‘rganish usulini yaratdi. U avval ma’nosiz ikki undosh va bir unidan tashkil topgan bo‘g‘inlar ro‘yxatini tuzdi. Bo‘g‘inlarning bir namunasini tanlab ularni ovoz chiqarib sakkiz martadan ortiq tez o‘qidi. So‘ngra ma’lumotlarni eslashga harakat qildi. Lekin ular butunlay unutilgan edi.

Avtomatik samarali qayta ishlash shunday ma’lumotlarki, masalan kecha kechki ovqatni qaerda eganingiz kabi sizda avtomatik tarzda qayta ishlanadi. Unda boshqa ma’lumotlar kabi kodlash va eslashga harakat qilishga hojat yo‘q. Keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tez o‘rgangan ma’lumotlar tezda esdan chiqadi. O‘tgan asrda o‘rganishda masofaning ta’siri bo‘yicha 300 dan ortiq izlanishlar olib borildi. Ko‘proq amaliyotda qo‘llash qisqa vaqtda o‘rganish hamda ishonch tuyg‘ularini olib kelishi mumkin. Bo‘laklarga ajratib o‘rganish natijasi ko‘proq samarali va uzoq muddatlidir. Etarli darajada o‘rgangach, yana uni qo‘shimcha o‘rganish samarasiz deydi Doug Roxrer. Eng yaxshisi qo‘shimcha takrorlash ya’ni vaqt oralig‘ida taqrorlashdir. Miyamizda ko‘p miqdorda neyronlar joylashgan o‘rtacha 100 mlrd dona. Har bir neyron miyaning eng kichik qismi hisoblanib, aynan ular orqali fikrlaryuzaga keldi. Miyadagi nervlar bir biri bilan sinapslar orqali elektr toki yordamida suhbatlashib ma’lumotlarni saqlab qoladi.

Insonlarni o‘rganish va axborotni qabul qilish bo‘yicha 3 turga ajratsak bo‘ladi. Bular: eshitish, ko‘rish va harakat xotiralar. Bular miyaga kirayotgan xabarning turiga bog‘liq. Ko‘rish: bunda yaqqol tasavvurlar hosil qilinadi. Bunda so‘z tasavvurdagi manzaralar timsolida xotiraga joylashadi. Doktor Medina fikricha: barcha sezgi organlari ichida eng muhimi aynan axborot qabul qilish bo‘yicha bo‘lgan sezgidir.

Vizual xotira cheksiz. Tadqiqotlardan birida ishtirokchilarga 10000 ta rasm berilgan va so‘ng boshqa rasmlar bilan aralashtirilgan rasmlarni berib ularni ajratish topshirilgan. 99% aniqlikda rasmlar to‘g‘ri ajratilgan. Va hatto 3 oydan so‘ng ham shu natija takrorlangan. 10% o‘qiganda, 20% eshitganda, 30% o‘qib eshitganda, 50% eshitib ko‘rganlarda, 70% suhbatlashganda, 90% bajarayotganda eslab qolingan. Tevarakdagi ma’lumotlarni hissiyotlarimiz orqali qabul qilamiz. O‘rganish va xotirada saqlashning turli usullari mavjud. Har

bir odamda ma'lum usullarning majmui mujassam bo'lib turlicha usullarda turlicha o'rganish mumkin.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

- 1) tez esda qoldirib, sekin unutish;
- 2) tez esda qoldirib, tez unutish;
- 3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;
- 4) sekin esda qoldirib, tez unutish.

Xotira tasavvurlarining paydo bo'lishida so'zning o'rni

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishidan iborat. *Masalan*, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, «ildiz», «o't» so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi.

Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turtki tasirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turtki

bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi.


7.4. Tafakkur va nutq

Bugungi kunda biz insonlar butun yer yuzidagi o'ta murakkab telefon tarmoqlariga qaraganda ancha murakkab tuzilishdan iborat bo'lgan atiga uch funtli inson miyasini tadqiq eta oldik: yangi tug'ilgan chaqaloqlarning qobiliyatlaridan taajjubga tushdik; inson ongining vizual obrazlarni bir vaqtning o'zida; parallel ishlov berish uchun guruhlab, keyin esa ulardan qayta yorqin rangli obrazlarni yaratuvchi millionlab nerv impulslariga taqsimlovchi sensor tizimini munosib baholay oldik; inson xotirasining umumiy ko'rinishi bilan hajmining cheksizligini va biz tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarga ongli hamda anglamagan holda osonlik va zudlik bilan ishlov berishimizga ishonch hosil qildik. Shuning uchun insoniyat vakillari orasida fotoapparat, avtomobil va kompyuterni ixtiro qilgan, atomni parchalagan va genetik kodni kashf etgan, kosmik fazoni zabt etgan va okean tubiga sho'ng'iy olgan daholarning mavjudligi ajablanarli hol emas.

Psixologiya fani paydo bo'lgandan buyon soha doirasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da tafakkur muammosi eng kam o'rganilgan kategoriya sanaladi. Mavzuni o'qib o'zlashtirish jarayonida bu muammoning mohiyatini tutunish juda ham murakkabligini tushunasiz. Biz tafakkurning ba'zi aspektlarini va qismlarini tadqiq qila olamiz va hamma savollarga javob bera olmasak ham ularni aniqlashtirishga harakat qilamiz.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, **tafakkur** deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

DUNYONI BILISH



Aynan tafakur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo‘lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bivosita tafakkur muhim rol o‘ynaydi.

Psixologiya fani nimadan bahs etadi, degan an’anaviy savol mavjuddir, biroq hozirgi davrda tafakkur psixologiyasi predmeti nima degan savol tug‘ilmoqda. Ma’lumki, psixologiya fani tafakkurni o‘rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini logika, filosiya, hatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Shuning uchun tafakkur psixologiyasi predmetini aniqlash juda muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda.

Tafakkur – bizning olamimizni tashkil etuvchi, ongimizni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, muammolarni hal qilish va samarali echim topishni ta’minlovchi deganidir. Biz muammoni echish jarayonida qanday tipik usul hamda strategiyadan foydalanamiz? Qanday noto‘g‘ri, yanglish tushunchalar bizning oldimizda xato qilish xavfi borligini keltirib chiqaradi? Muammolarni hal qilishda sun’iy aqldan insoniy aqlning afzalligi qanday?, kabi ko‘plab savollarni echishda inson tafakkuri ishga tushadi.

Tafakkur yoki bilim – bu ma’lumotlarga ishlov berish, qayta ishlash, ularni tushunish va uzatish bilan bog‘liq aqliy faoliyatdir. Tafakkur psixologiyasi sohasini o‘rganish bilan kognitiv psixologlar shug‘ullanadilar, obrazlar yaratish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va mulohazalarni shakllantirishning mantiqiy, ba’zida esa nomantiqiy yo‘llarini tadqiq etadilar.

Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma’lum ma’no va mohiyatga ega bo‘ladi. Aks holda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogik obyekt bilan to‘qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya’ni, biz ko‘rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi *ma’noli*, kerak bo‘lsa, *ma’nili* bo‘lishini xohlaymiz.

Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma’no har bir alohida shaxs tomonidan

turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosi bo'lsa, dexqon uchun er va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. hattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli xil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shug'ullanuvchi muhandis uchun - ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, o'quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir.

Har bir alohida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr-qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goh ijobiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamiz. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag'ishlangan ma'ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik tahlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida

narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izxor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada *tafakkur, fikrlash* deb ataladi.

Tafakkur - atrof- muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bivosita, umumlashagan holda aks ettirivchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Ta'rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari 3 funksiyasi sanab o'tilgan, ya'ni so'z (fikir) bilan, umumlashtirib, bivosita, ijtimoiy sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish. jarayon, faoliyat va boshqalar.

Tafakkurning nerv-fiziologik asosi

(Tafakkur jarayoni bosh miya yarim sharlarining qaysi qismida kechadi?)

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi

faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchastkalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi. I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida sodir bo'ladi, deb ta'kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy empirizmni va nihoyat odamning o'z tevaragidagi olamni va uning o'zini bilish uchun oliy qurol bo'lgan oliy tafakkur voqe bo'ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv-fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, "avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir".

G'arb psixologlari tomonidan yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarda miyaning hajmi odamning intellektlilik darajasiga bog'liqligi, ya'ni "ziyoli" yoki "intelegent" odamlarda bosh miya po'stidagi analizatorlarning uchlari juda ham zich joylashgan bo'lib, ularda o'tkazilgan tafakkur darajasini aniqlash kabi testlarda ma'lumotlarni tez anglab olish va uning mohiyatini tushunish boshqalarga nisbatan tezroq va samaraliroq bo'lishi aniqlangan.

Amerika psixologlari miya faoliyatining javobgarlik uyg'otishga va faraz qilingan onglilikka bog'liq bo'lgan turli darajalarini farqlashadi. Fikrlash faoliyati, aqliy harakatlarning buzilishi yoki yo'qolishi quyidagi holatlarda kuzatilishini bir qancha tajriba va kuzatishlar natijasida aniqlangan:

-tafakkurning yetishmasligi yoki umuman mavjud emasligi, masalan aqli zaif odamlarda va hayvonlarda uchraydi.

-aqliy o'lim yoki koma holatida inson dastlabki vaqtlarda tashqi stimullarga javob bermaydi, hattoki u og'riq stimullari bo'lsa ham, keyinchalik, bir necha haftadan so'ng, og'riqqa yurak urishining

tezlashishi bilan javob qaytara boshlaydi. Bundan tashqari yurak urishi uyqu va uygʻoq holatda oʻzgaradi. Lekin, hattoki, uygʻoq holatida ham miya faoliyati odatiy holatdan ancha sust ishlaydi.

- minimal ongsizlik holati – bunda odam maqsadli elementar harakatlarni amalga oshira oladi, gaplarni tushunadi. Bu holat oylab yoki yillab davom etishi mumkin.

Tafakkur operatsiyalari mavjudmi?

Tafakkur jarayoni insonning bilishga boʻlgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush toʻgʻrisidagi oʻz bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam oʻzi idrok qilayotgan narsalar toʻgʻrisida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi toʻgʻrisida fikr qiladi, yaʼni bular tafakkurning obʼekti boʻladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur boʻlishi mumkin emas.

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Analiz – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga boʻlgan munosabati aniqlaydi. Tahlil obʼektlari amalda ajratib boʻlmaydigan elementlarga yoki belgilarga boʻlishda ifodalanishi mumkin. Allomalarimizning taʼkidlashicha, maymunning yongʻoqni chaqishining oʻziyoq boshlangʻich, oddiy analizdir. Oʻquvchi va talaba yoshlar turmushda va dars jarayonida analiz yordami bilan koʻpgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar.

Yuqorida aytib, oʻtilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini tushunish uchun yolgʻiz analizning oʻzi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirgan holda bir-biriga taʼsir qilib turgan motor va mashina butunligicha olib tekshirgandagina uning motor yoki mashina ekanligini anglash mumkin.

Sintez – shunday bir tafakkur operasiasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo‘lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo‘laklarini bir butun qilib qo‘shishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta’rifdan ko‘rinib turibdi. Analiz aqliy bo‘lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, birinchi sinf bolasi o‘z harf xaltasidagi keltirilgan harflardan foydalanib, bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan qisqa axborot, undan esa hikoya tuzadi.

Analiz va sintez o‘zaro bevosita mustahkam bog‘langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo‘lsa, uni sintez qilib bo‘lmaydi, har qanday analiz predmetlarni narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash – shunday bir tafakkur operasiasidirki, bu operasiya vositasi bilan ob‘yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

XIX-XX asrlarda yashagan olim K.D.Ushinskiy taqqoslash jarayoni borasida quyidagilarni ta’kidlagan: “Agar siz tabiatni bir narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o‘ziga juda o‘xshash bo‘lgan narsalardan tafovutini toping va uning o‘zida juda uzoq bo‘lgan narsalar bilan o‘xshashligini topingiz. Ana shunda siz shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsani tushunib olasiz”.

Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqni, teng yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat bo‘lgan fikr yuritish operatsiyasi, bilishning dastlabki va zarur vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz taqqoslashning ta’limdagi roli to‘g‘risida shunday fikrlarni bildirgan edi. Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan bila olmasak, boshqa yo‘l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan biron bir narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa to‘g‘risida hech qanday fikr qila olmagan bo‘lar edik.

Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo'l bilan amalga oshishi mumkin: amaliy aniq narsalarni bevosita solishtirish va nazariy tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash. Agar odam ikki boylam yukni qo'l bilan ko'tarib, bir necha xil taom mazasini qiyoslasa yoki ikki paykal paxtazor hosildorligini taqqoslasa, bu amaliy taqqoslash bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar ikki qalam yoki ikki sterjenning uchini yog'ochga yoki qog'ozga solishtirsalar, u analogik holatga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, metr bilan masofani, tarozi bilan og'irlikni, termometr bilan haroratni, teleskop bilan osmon jismlarini o'lchash paytida ham taqqoslash jarayoni vujudga keladi.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo'l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu boisdan to'planadigan bilimlarning aksariyati qo'l bilan ushlab, ko'z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglaniladi. Ular o'rtasida o'xshash va farqli alomat hamda belgilar nazariy taqqoslash asosida ajratiladi. Demak, inson olayotgan keng ko'lamdagi axborotlar farqini fikran taqqoslash yordamida anglab etadi. Jumladan, o'quvchilar dilda o'ylayotgan narsalarni fikran solishtirib ko'radilar. Ba'zan turli yoshdagi kishilar o'z tengdoshlari xarakterida, qiziqishida, yurish turishida, muomalasida va boshqa xususiyatida o'xshashlik va tafovut borligini topadilar.

Abstraksiya – shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

Masalan, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya'ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to'g'risida emas, balki devorning oqligi to'g'risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yulduz, elektr, olov ba'zi planetalar, ayrim tosh va hokazolarning ko'z o'ngilarida yoritishni kuzata turib ularning bitta umumiy belgisini, ya'ni yoritishni fikran ajratib olib, umuman yoritish to'g'risida mulohaza yuritadi. Buyumlarni narsa va hodisalarni jism va predmetlarni bir-biri bilan taqqoslash paytida ham abstraksiyalash jarayoni yuzaga keladi. Bunda narsa va hodisalarning mavjud belgilariga, masalan tusiga, shakliga, tezligiga, og'irligiga, qiymatiga va shu kabi o'xshash

sifatlarga qarab taqqoslanadi. Abstraksiya operatsiyasi bilan insonni qurollantirish intellektual jihatdan intensiv rivojlanishiga olib keladi, shuningdek, mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi¹⁹.

Umumlashtirish – tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o‘xshash muhim belgilarning shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir.

Odam o‘zi idrok qilayotgan narsalar to‘g‘risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to‘g‘risida o‘ylaydi, ya‘ni bular tafakkurning ob‘ekti bo‘ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo‘lishi mumkin emas²⁰.

Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo‘yicha yagona yo‘nalishdagi nazariya mavjud emas. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo‘lib o‘rganadilar. Shuningdek, maktab ta‘limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to‘g‘risida olimlar turlicha nuqtai nazardan yondashadilar. S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidovlar ta‘limda nazariy jihatdan umumlashtirish usulini yoqlab chiqsalar, N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiylar ham nazariy, ham amaliy usulni qo‘llashni tavsiya etmoqdalar. Ammo o‘quv faoliyatining turli-tumanligi dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqozo qiladi.

Psixologiyada umumlashtirishning keng qo‘llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va hissiy-konkret umumlashtirish yuzasidan ko‘proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar ob‘ektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy-konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi. Psixologlar noto‘g‘ri umumlashtirishning hissiy-konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta‘kidlab kelmoqdalar. O‘quvchi va talabalar ba‘zan predmetlarni muhim bo‘lmagan belgisiga asoslanib noto‘g‘ri umumlashtiradilar, vaholanki, topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo‘yilmaydi. Lekin bu nazariyaning himoyachilari noto‘g‘ri

¹⁹ James W.Kalat. Introduction to Psychology.10 edition. 2013. 324-327 betlar

umumlashtirishni alohida tur deb hisoblaydilar.

Umumlashtirish, abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo'lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Agar abstraksiyalash faoliyatida narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilari tasodif belgilardan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda esa ajratib olingan o'xshash, umumiy va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

Umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi.

Akademik I.P.Pavlov fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi tamoyili abstraksiyalash va shu bilan birga oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar yana analiz va sintez qilinaveradi. Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi har xil asoslarga ko'ra turlarga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtirishni mazmuniga ko'ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko'rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan. Tushunchali umumlashtirish orqali obyektiv qonuniyatlarni muhim belgilari bo'yicha birlashtirish amalga oshiriladi. Bunda muhim belgilar umumlashtirilib, obyektiv qonuniyatlarni ochish mumkin bo'ladi. Yaqqol-ko'rgazmali umumlashtirishda narsa va hodisalar tashqi hamda yaqqol belgilar bo'yicha umumlashtiriladi.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg'iz ob'ektlarga tatbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab etadi. Insonlar dastavval tevarak atrofni aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib hisoblanadi.

Konkretlashtirish – hodisalarning ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'i nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir

Klassifikatsiyalash – bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga

turkumlarga ajratish tizimidir.

Psixologlar tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda konkretlashtirish odamda ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka ob'ektga tatbiq etilishi amalga oshiriladi. Masalan, biz "oq" deganimizda ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo'ri, uzumni mevalar qatoriga stol-stul, divan va shu kabilarni mebellar qatoriga qo'shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog'ida odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o'zidir.

D.I.Mendeleyevning "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik narsalarni hodisalarni guruhlarga bo'lish klassifikatsiyalash yoki turkumlarga bo'lish deb ataladi. Masalan, kutubxonada kitoblar muqovasiga, farmoyishning mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlarga bo'lish mumkin. O'quvchilarni odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo'yicha va shu kabilarga qarab turkumlarga bo'ladilar.

Sistemashtirish – tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o'rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi.

Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtiga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa

doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasidir.

Maktab ta'limida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bilimlar dastlab predmetlarning boblari, qismlari bo'yicha, so'ng yaxlit holda o'quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning ikkinchi bosqichida bir-biriga o'xshash predmetlarga oid bilimlar fikran tartibga solinadi. Uchinchi bosqichda bir necha predmetlar yuzasidan to'plangan bilimlar ma'lum tartibga tushadi, ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishning to'rtinchi bosqichida darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda egallangan bilimlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi.

Demak, insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

Insonlar dastavval tevarak atrofni aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu bois to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib hisoblanadi²¹.

Tafakkurning mantiqiy shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi.

Hukmlar

Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr **hukm** deb ataladi.

Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi.

Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar, alomatlar hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratib ko'rsatilsa bu chin hukm deb ataladi.

²¹ James W.Kalat. Introduction to Psychology. 10 edition. 2013. 333 bet.

Masalan, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir; metallar qizdirilganda kengayadi, degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o'tkazish, qizdirilganda kengayish metallarga xos xususiyatdir.

Moddiy olamda haqiqatan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm xato hukm deb ataladi.

Masalan, hozir tashqarida yomg'ir yog'yapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi.

Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'lishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq. Masalan, ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin. Paxta rejasi to'lib golsa kerak.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin: hukmlar sifatiga ko'ra: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm; hukmlarning miqdoriga qarab: yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga; hukmlarning munosabatiga ko'ra: shartli, ayruvchi, va qat'iy hukmlarga; hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa bilan belgining aloqasi bog'liqligi borligi aks ettirilgan hukm **tasdiqlovchi hukm** deb ataladi.

Masalan, O'zbekistonda pilla etishtirilmaydi. Toshkentda oliy maktablar qurilmagan. Voqelikda ajratilgan narsa inkor qiluvchi hukmda fikran ajratilishi mumkin. Yakka, yolg'iz narsa va hodisa to'g'risidagi hukm **yakka hukm** deb ataladi. Masalan, Toshkent – O'zbekiston Respublikasi poytaxtidir; Amudaryo sersuv daryolardan biridir.

Belgining biror turkumigagina taalluqliligini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm **juz'iy hukm** deb ataladi. Masalan, ba'zi metallar elektr tokini o'tkazmaydilar. Qarzdor talabalar sessiyaga qo'yilmaydi. Jamoaning ayrim brigadalari majburiyatga yarasha mehnat qilmaydilar. Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to'g'risida tasdiqlab, yoki inkor qilib aytilgan hukm **umumiy hukm** deb ataladi. Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm **shartli hukm** deb ataladi. Masalan, agar talaba sessiyalarga qunt bilan puxta

tayyorlansa, u yaxshi va a'lo baholar oladi. Agar o'quvchi darsga diqqat qilmasa, yangi materialni o'zlashtira olmaydi. Hukmda narsalar va hodisalar bir necha belgiga nisbatan berilib, shu belgilardan farqi bitta unga tegishli bo'lsa, bunday hukmi **ayruvchi hukm** deb ataladi. Masalan, jismlar yo qattiq, yoki suyuq, yoki gazsimon holda bo'ladi.

Narsa bilan belgi o'rtasidagi aloqaning bor yoki yo'qligi qat'iy shaklda aks ettirilsa qat'iy hukm deb ataladi. Masalan, bahorda barcha joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Yonish kimyoviy jarayondir.

Narsa va hodisalar bilan ularning xususiyatlari o'rtasida aloqa bo'lishi ehtimoli faqat faraz qilinsa, u holda inson o'z fikrlarini quyidagi shaklda ifoda qilishi mumkin. Ehtimol, Marsda organik hayot bordir. XXI asrning oxirlarida fan-texnika yanada rivojlanib, taraqqiy etishi mumkin va boshqalar. Bunday hukmlar **ehtimollik hukmlari** deb ataladi. Narsalar bilan xususiyatlar o'rtasidagi aloqani taxminan emas, balki haqiqatdan aniq bilganimizda biz o'z fikrimizni mana bunday shaklda izhor qilamiz. Fakultet kutubxonasida ko'p yangi kitoblar mavjud. Maktabimizdagi kimyo xonasi juda yaxshi uskunalar bilan jihozlangan. Bunday hukmlar **voqelik (assertorlik) hukmlari** deb ataladi.

Hukmning shunday yuqori shakli borki, unda faqat haqiqatda bo'lgan voqea qayd qilinmasdan, balki narsa bilan xususiyatning aloqasi qonuniy ekanligi aniqlab beriladi. Masalan, butun dunyoda tinchlik g'alaba qozonishi muqarrar, sezgilarning intensivligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Bunday hukmlar **zaruriy (apodiktik) hukmlar** deb ataladi. Bunday hukmlarda inson narsa, voqelik, hodisa bilan uning xususiyati o'rtasida mustahkam bog'lanish borligini va bu bog'lanishga zid keladigan boshqa bir holning bo'lishi aslo mumkin emasligini aks ettiradi. Psixologiyada hukmlar ikkita asosiy yo'l bilan hosil qilinishi ta'kidlab o'tiladi. Birinchi yo'l bilan hukm hosil qilinganda idrok qilish zarur bo'lgan narsalarning bevosita o'zi ifodalanadi. Ikkinchi yo'l bilan esa bevosita mulohaza yuritish yordami bilan hukm amalga oshiriladi. Masalan, bu avtomobilning yangi modeli. Mazkur misolda hukm chiqarishning birlamchi yo'li aks ettirilgan. Dastavval olimlar kashfiyot yoki ijodiy jarayonda nazariy jihatdan mulohaza yuritish yordamida hukm chiqaradilar. Ular chiqaradigan hukmning to'g'riligi amaliyotda keyinchalik tasdiqlanadi. Bu ikkinchi yo'l bilan hukm chiqarishga

misoldir.

Xulosa chiqarish

Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz.

Masalan, har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakat shaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan, demak issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm yakka hukm bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham xulosa chiqarish ham voqelikni bevosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan oldingi ikki hukmga asoslanib, uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shu sababdan xulosa chiqarishda fikr o'rtasidagi shunday bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiq hukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi.

Induktiv xulosa chiqarish – bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi, yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratiladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'linadi: induktiv, deduktiv va analogiya.

Masalan, temir elektr tokini o'tkazadi, po'lat elektr tokini o'tkazadi, mis elektr tokini o'tkazadi, ruh elektr tokini o'tkazadi. Demak, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, degan umumiy xulosa chiqaramiz.

Misol uchun barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Temir metaldir. Demak, temir ham elektr tokini o'tkazadi.

Analogik usulda chiqarilgan xulosa chin, taxminiy hamda yolg'on bo'lishi mumkin. Fikr yuritishning bunday shakli ko'pincha yosh bolalarga xos xususiyatdir. Demak, juz'iy ikki yakka hukmlarga asoslanib, juz'iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz. Masalan, bog'cha yoshidagi bola mana bunday mulohaza yuritadi; dadamlar

darvozadan ismimni aytib chaqirib keldilar. Ular sovg'a olib kelgan bo'lsalar kerak. Bu bolaning mulohazasini tahlil qilib ko'rsak, uning fikr yuritishi mana bunday tarzda taraqqiy etganligining shoxidi bo'lamiz. O'tgan galda dadam ismimni aytib chaqirib kelgan edilar, yana chaqirayotirlar. Albatta, dadam menga sovg'a olib kelganlar, deb xulosa chiqaradi.

Analogiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz ikki predmetning ba'zi bir belgilari o'xshashligiga qarab, bu predmetlarning boshqa belgilarini o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqaramiz. Analogiya deb narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan ba'zi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytiladi.

Shunday qilib, analogik yo'l bilan xulosa chiqarganda murakkab qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilmasa-da, lekin turmushning turli jabhalarida undan foydalanib turiladi.

Amerika psixologlarining ta'kidlashlaricha, odamlarning ongli ravishda xulosa chiqaradigan vaqtida xulosa miyaning harakatlanish uchun tayyorgarlik ko'rish vaqtidan keyinroq sodir bo'ladi, ya'ni miya xulosa chiqarish vaqtidan oldin unga tayyorlanar ekan. Ba'zi tadqiqotchilar odamning xulosa chiqarish jarayonining spektitsizmga (har narsaga shubha bilan qarashga) yoyishadi. Ko'pincha qaror qabul qilish bosqichma-bosqich amalga oshadi, degan fikr ilgari suriladi. Xulosa chiqarishning yana bir faraz funksiyasi ongning keyin sodir bo'ladigan ish –harakatga ayni bir vaziyat paydo bo'lganda ishga tushishi haqida fikrlar berilgan²².

Tushunchalar

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi.

Ko'p sonli odamlar, hodisalar va obyektlarni tasavvur qilish uchun biz ularni konsept (tushuncha) larga – o'xshash ob'ektlar, hodisalar va odamlar guruhiga bo'lgan soddalashtiramiz. "Stul" tushunchasi o'zida ko'plab aniq predmetlarni umumlashtiradi – bola uchun stul, tirsak qo'ygichli stul, tushlik qiladigan stol atrofidagi stullar, tish shifokorining kreslosi²³. Hayotni tushunchalarsiz tasavvur qilib

²² James W. Kalat. *Introduction to Psychology*. 10 edition. 2013. 324-326 bet

ko'ring. Bizga har bir obyekt va g'oya uchun alohida nom kerak bo'lardi. Biz boladan "koptokni ot" deb iltimos qila olmasdik, chunki "koptok" tushunchasining o'zi yo'q bo'lardi. "Ularning jahllari chiqdi" deyish o'rniga bizga yuz ifodasi, ovozdagi keskinlik, imo-ishoralar va so'zlarni ifodalab berishimizga to'g'ri kelardi. "Koptok" va "jahldor" kabi tushunchalar eng kam darajadagi bilimlar mavjud bo'lganida bizga ko'p ma'lumot beradi.

Tushuncha deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishni tushunamiz.

Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Shu sababli tushunchaning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yuritishga to'g'ri keladi. Masalan, odam ongli mavjudotdir degan tushunchani oladigan bo'lsak, bu erda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekani qayd qilinyapti.

Tushunchalar odamning turmush tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topa boradi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o'qish jarayonida bolada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalarni tarkib toptirishdan iboratdir. Demak, katta odamlarga nisbatan bolalarda hali tushunchalar juda oz bo'ladi.

Odatda, tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga ajratiladi.

Alohida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masalan, stol, divan, qayrag'och, traktor va hokazo. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat, sifat, holatlarga, shuningdek, narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan, oqlik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug'lik, qiymati haqidagi tushunchalar va hokazo.

Tushunchalar ko'lami jihatidan 3 turga: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to'planma tushunchalarga bo'linadi.

Yakka tushunchalar yakka narsa va hodisalar haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sirdaryo tushunchalarini misol qilib keltirsa bo'ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo'ladi. Umumiy tushunchalarda bir jinsga mansub

bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan, kitob, maktab, yulduz, talaba va boshqalar.

To'planma tushunchalar bir jinsga mansub bo'lgan narsa va hodisalar to'plami haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan, paxtazor, kutubxona, yig'ilish va hokazolar. To'planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiy to'planma tushunchalar bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Muzeyi tushunchasi, yakka to'planma tushunchaga oiddir. Guruh, jamoa, xalq, millat va boshqalar, umumiy to'planma tushunchasiga misol bo'la oladi. Etti og'ayni yulduzlar to'plami, Hamza teatri jamoasi, Paxtakor futbol jamoasi kabilar yakka to'planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so'z o'zaro bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan so'z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan so'z tushunchaning moddiy asosi va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, xalq degan tushuncha bir so'zdan, o'zbek xalqi ikki so'zdan qahramon o'zbek xalqi uch so'zdan, ozodlik uchun kurashayotgan xalqlar, degan tushuncha to'rt so'zdan tashkil topgan.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya'ni klassifikatsiyalash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So'zlar, belgilar, simvollar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi. I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda, so'z ikkinchi signal tizimining, barcha signallarning signallaridir, binobarin shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumlashtiradi.

Shunday qilib, tushunchalar mohiyati hukmlarda yoritiladi, mavjud hukmlar asosida xulosa chiqariladi. Yangi hukm hosil qilinadi, topilgan yangi belgilar, alomatlar tushunchalarni yanada boyitadi. Tafakkur yordamida inson yaratish, kashf etish, ixtiro qilishda davom etishi mumkin. Demak, yangi tushunchalar, atamalar yuzaga kelaveradi, iste'moldagilari esa yangi mazmun kasb etadi. Determinizm tamoyiliga binoan so'zlar yangi tushunchalar yaratilishiga vosita bo'lib xizmat qilaveradi, shuning bilan birga tushunchalar zamirida yangi so'zlar va iboralar vujudga keladi, yoinki yangicha talqin qilish kuchayadi. So'z bilan tushunchalarning chambarchas bog'lanishi va munosabati filogenezda ham ontogenezda

ham operatsional va funksional xususiyatlarni yo'qotmaydi.

Tafakkur turlari

Tadqiqotchi Kanazova tafakkurni ilmiy, kasbiy va kundalik hayotda duch keladigan muammolar bilan bog'laydi. Lekin umumiy tafakkur qilish qobiliyati shaxsiy hayot bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga olmasligini ta'kidlaydi. Masalan, oila qurish, ota –ona bo'lish, yaqin do'stlar orttirish, ijtimoiy muloqotga kirishish va boshqalar. Kundalik hayotda oddiy muammolardan tortib murakkab aqliy topqirlik talab qiladigan masalalarda ham tafakkur, fikrlash faoliyatining o'rnini muhim hisoblanadi. Masalan, qanday qilib do'stlashish, notanish kishining yuz ifodasidan fikrini uqish, mo'ljallangan manzilga qayta yo'l topish, muammoning mohiyatini ochish, masala yechish insondan turli xil tafakkurni talab qiladi²⁴.

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari xatti-harakat motivlari narsalarga qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli tumandir. Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

Satoshi Kanazovaning fikricha odamda favqulodda, birdan yuzaga kelgan yangi muammolarga, masalan, olov chiqqanda uni qanday o'chirish, qurg'oqchilikda qanday ovqat topish, suv toshqinida daryoni qanday to'sish kabi vaziyatlarda muammoning xal qilish jarayonida ixtiyorsiz tafakkur yuzaga keladi²⁵.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan echganlar, keyinchalik unda nazariy faoliyat ajralib chiqqan. amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bilan bog'langandir.

Sof psixologik faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga

²⁴ David G. Meyers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 406 bet

²⁵ David G. Meyers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 407 bet

nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir.

Agarda insoniyatning tarixiy taraqqiyoti muammosidan chetlanib, ushbu masalani olib qarajak, u holda amaliy faoliyat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Buning uchun insonning ontogenetik taraqqiyotini dastlabki fazasiga murojaat qilamiz. Bola tug'ilishdan tortib, to uning bog'cha yoshigacha davrini amaliy faoliyatda ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sishining asosiy pallasi deb atash mumkin. Mazkur yoshdagi inson zoti ana shu amaliy faoliyat negizida aqliy harakatlarni amalga oshiradi, amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, natijada ko'rgazmali-harakat tafakkuri o'sa boradi. Ushbu yoshdagi kichkintoylar o'zlari o'ynayotgan o'yinchoqlarni qo'llari bilan bevosita ushlab ko'rish orqali ular bilan tanishadilar, shuning bilan birga ularni idrok qilishga intiladilar. Idrok qilingan predmetlar va o'yinchoqlarni o'zaro solishtiradilar, qismlarga ajratadilar, analiz va sintez qiladilar, bo'laklarga ajratilganlarni yaxlit holga keltirib birlashtiradilar. Kattalar tushuntirishiga ishonch hosil qilmasdan, ayni chog'da ularni o'ybektni sindirib yoki buzib bo'lsa ham, ularning ichki tuzilishi bilan tanishish ishtiyoqi, mayli kuchli bo'ladi. Shu boisdan amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilishda ko'pincha buzib, tuzatish yo'li bilan harakat qiladilar. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri bog'cha yoshiga etgandan so'ng bolalarda o'z qiymatini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'at"da ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E.G'oziyev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyati umumlashtirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi,

lekin u o'zining etakchi rolini yo'qota boshlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya'ni 4-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi. 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil, hajmi jihatidan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to'la bo'ysunadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali-obrazli shaklda o'tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi xamir ko'proq degan xulosaga olib keladi.

Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e'tibor qiladilar. Lekin ularning ichki bog'lanishlari o'zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Ob'ektlarni fazoda joylashgan o'rni tashqi, nomuhim belgisi ularning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlar bo'yining baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsiya deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni echish jarayoni. Bundan tashqari, ixtiyoriy tafakkurga mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri ham kiradi. Moddiy borliqni adekvat aks ettirish, fikr yuritish, tanqidiy va sinchkov bo'lishni taqozo etadi. Binobarin, narsa va hodisalarni atroflicha bilish uchun ob'ektiv baho berish zarurati tug'iladi, bu esa o'z navbatida fikr yuritish ko'lami keng, analitik-sintetik faoliyat doirasi mustahkam

bo'lishini talab qiladi. Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shirin histuyg'ularni boshdan kechirayotganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir matn yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tarixidan shu narsalar ma'lumki, yirik ilmiy kashfiyotlar ko'pincha xuddi shunday beixtiyor fikr qilib turgan mahalda to'satdan ochilgan. Jumladan, yunon olimi Arximed solishtirma og'irlik qonunini zo'r berib, aqliy mehnat qilish paytida emas, balki, hech kutilmagan jarayonda, vannada cho'milib turgan paytida kashf etgan. Ulug' rus olimi D.I. Mendeleevning hikoya qilishicha, u elementlar davriy tizimi jadvalini tuzish vaqtida uch kecha-yu, uch kunduz betinim mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga etkaza olmagan. Undan so'ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va tushida bu elementlar tartibli joylashtirilgan jadvalni ko'rgan. Shunda D.I. Mendeleev uyqudan, uyg'onib, bir parcha qog'ozga tushida ayon bo'lgan jadvalni ko'chirib qo'ygan. Ko'pincha psixolog va fiziologlarning ta'kidlashlaricha, muammoning bunday oson ravishda echimini hech kutilmaganda yuqoridagi kabi beixtiyor hal qilinishi shu kashfiyotlar olam yuzini ko'rganicha bo'lgan davr ichida oylab, yillab qilingan mehnatning yakuni, ya'ni tugallanmay qolgan tafakkur jarayonlarining nihoyasiga etishidir deb baholamoqda. Yirik fiziolog hamda psixolog V.M. Bexterevning izohlashicha, bunday kutilmagan jarayonlarning ro'y berishiga asosiy sabab bu o'rganilayotgan masala to'g'risida uxlashdan oldin zo'r berib bosh qotirish, o'ylash (fikr yuritish) va butun zehni shuning bilan birga diqqat-e'tiborining tortilishi, kashf qilinishi zarur masalaga to'la-to'kis yo'nalishidan iborat maqsadga muvofiqlashtirilgan murakkab barqaror psixik holatining hukm surishidir. Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur **konkret tafakkur** deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va

yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur **yaqqol-predmetli tafakkur** deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur **yaqqol-obrazli tafakkur** deb ataladi.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, abstrakt tafakkur yordamida mulohaza borliq to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur **nazariy tafakkur** deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko'rsatiladi. Bundan tashqari muayyan ob'ektlarning mohiyati, mazmuni mavjud bo'lishlik sabablari, kelib chiqishi, taraqqiyoti, o'zgarishi, shuningdek ularning ahamiyati va funksiyasi hamda vazifalari izohlab beriladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb nomlash an'ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiy hukmlarda ifodalanishidir. Masalan, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Abstrakt tafakkur muammosi qator sobiq sovet psixologlari tomonidan izchillik bilan tadqiq etilgan. Sobiq sovet psixologiyasining dastlabki rivojlanishi pallasida ushbu masala bilan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiylar, keyinchalik S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananyev, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, P.YA.Galperin, R.G.Natadze,

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oliy matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos

D.B.El'konin, V.V.Davidov, A.M.Matyushkin va boshqalar shug'ullanganlar.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab olamiz. Shuning uchun Quyosh va oy tutilishini, yulduzlar tizimining harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadiganlarni **umumlashgan tafakkur** deb ataydilar.

Shunday qilib, abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog'lanishlari aks ettiriladi.

Voqelikni o'zlashtirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratilishiga yo'naltirilgan fikr yuritiladi. U qo'yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar hosil qilish, muayyan yangi narsalar yaratish bilan bog'liq murakkab tafakkur jarayonidir. Amaliy tafakkur jarayonining davomi ish-harakatlarini, aqliy harakatlarni tasavvur qilishda, fikrlashda namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar faoliyatidagi konspekt yozish, referat tayyorlash, kurs va diplom ishi ustida ishlash kabilar amaliy tafakkurga yaqqol misoldir.

Muayyan fikrni chin yoki yolg'onligini ob'yektiv dalillar bilan isbotlash o'rniga, inson shaxsining ijobiy yoki salbiy sifatari bilan qat'iy cheklanib qolishdan iborat tafakkur turi avtoritar tafakkur turi deb ataladi.

U ko'pincha odamlarning muayyan soha bo'yicha bilim saviyasining, darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikr yuritish qobiliyatining etarli darajada o'smaganligidan dalolat beradi.

Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni

topishga gumon va hayajon, shubha hislaridan xalos etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani echishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar.

Muammolarni hal qilishda biz qanchalik uddaburon va topqir bo'lmaylik, bu jarayonga ikkita kognitiv effekt – oldindan paydo bo'lgan fikr va fiksatsiyalar (regidlik) aralashadi. Muammoni hal qilishdagi asosiy to'siq bizning g'oyalarimiz – oldindan paydo bo'lgan fikr sifatida ma'lum bo'lgan ko'rinishni tasdiqlaydigan ma'lumotni topishga intilish hisoblanadi. Rigidlik - muammoni yangi aspektda ko'rishga loyoqatsizlik, masalani echish yo'lidagi to'siqlar namoyon etadi²⁶.

Vazifani hal qilishdagi asosiy to'siq rigidlik – muammoni yangi burchakdan ko'ra olishga layoqatsizlik hisoblanadi. Biz muammoni o'zimiz noto'g'ri tasavvur qilishimiz sababli bu tasavvurni o'zgartirish va muammoga yangicha yondoshishimiz qiyin bo'ladi. Biz muayyan yechimlarga sababsiz diqqatni jamlamaymiz: o'tgan safar ish bergan echim ko'pincha yangi vazifani hal qilishda ham qo'l keladi. Masalan, quyidagi topshiriqni ko'rib chiqing:

B-I-U-T-?-?-? oxirgi uchta harf qanday?

Ko'pchilik odamlar oxirgi uchta harf B(esh), O(lti) va E(tti) ekanini fahmlashga qiynaladilar. Biroq bu topshiriq keyingilarini echishni osonlashtiradi:

YA-F-M-A-?-?-? ushbu ketma-ketlikda oxirgi uchta harf qanday? (Agar bu topshiriq sizga murakkab tuyulsa, o'zingizdan hozir qaysi oyligini so'rang).

Garchi avvalgi muvaffaqiyat bizga keyingi topshiriqni bajarishga yordam bersa-da, biroq ba'zida yangi echimni topishda xalaqit qilishi ham mumkin. O'tgan gal ish bergan echimni takrorlash – bu aqliy shablon deb nomlanuvchi rigidlilik turidir. Mental shablon, idrok etish jarayonidan ko'ra topshiriqni yechish jarayoniga daxl qilishini istisno qilganda, idrok etish stereotipini eslatadi²⁷.

²⁶ Дэвид Майерс “Психология” Минск, 2008..417 бет

²⁷ Дэвид Майерс “Психология” Минск, 2008. 418 бет

Ijodiy fikrlashni ta'minlovchi omillar:

Fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo'lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak.

Muammo yoki masalani hal qilish zarur bo'lgan barcha bilimlarni tatbiq qilish uchun intilish.

Masalaga, muammoga taalluqli gipoteza olg'a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to'g'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar haqidagi mulohaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtirib, eng samarali alomatlar ajratiladi va hokazo

Muammo oldiga qo'yilgan farazni tekshirish zarurati tug'iladi.

Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar taxmin qilinadi yoki o'ylab topiladi.

Bizning oqilligimiz, uddaburonligimizning ijobiy tomonlaridan biri bu tushunchalarni shakllantirish va ulardan kerakli vaziyatlarda foydalana olish qobiliyatimizdir. Boshqa biri esa, notanish vaziyatlarga tushganda, muammolar bilan to'qnash kelganda ularni hal qila olish malakamizdir. Ba'zan muammolarni sinash va yangilash usullari bilan hal qilamiz. Tomas Edison lampochkani qizdirish uchun ishlaydiganini topguniga qadar minglab iplarni sinab ko'rgan va o'z oldiga qo'ygan muammoni echimini topa bilgan. Ba'zi muammolarni echish uchun esa, algoritm, ya'ni kafolatlangan echim beradigan qadamba-qadam jarayonlarga amal qilamiz. Agar bizga SPLOYOCHYG to'plamidagi barcha harflardan foydalanib (ingliz tilida) so'z tuzishni taklif qilishsa, biz har bir so'zni mumkin bo'lgan barcha joylarga, pozitsiyalarga qo'yib ko'ramiz, biroq 907 208 kombinatsiyadan muvofiq so'z tuzish va tekshirish juda ko'p vaqtimizni oladi. Madomiki, qadam-baqadam jarayon juda ko'p vaqt talab qiladigan hamda sermashaqqat jarayon bo'lganligi uchun biz ko'pincha muammolarni soddaroq usulda birmuncha yaqin, evristika deb nomlanuvchi usul, yo'l yordamida eychamiz. Shunday qilib, SPLOYOCHYG to'plamidagi barcha harflarni qayta qo'yib chiqish jarayonida ikkita Y harfini yonma-yon joylashgan harflar birikmasiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilamiz. Dastlab taxminiy evristika

usulidan foydalanib, keyin esa sinash va yanglishish usullarini qo'llab biz javob topishimiz, topshiriqni bajarishimiz mumkin²⁸.

Muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarning to'g'riligiga qanoat hosil qilish uchun yechuvchi, uni tekshirish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi. Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quyidagicha aks ettiriladi: qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ularni tatbiq qilish va boshqalar²⁹.

Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqish jarayoni bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi³⁰.

Psixologiya fanida tafakkur realistik va autistik turlarga ajratiladi.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri Z.I.Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi.

Qisqa vaqt birligi ichida yangi original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deb ataladi. Reprodktiv tafakkur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor holda" undan foydalanishga qaratilgan insonning bilish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atoqli rus psixologi B.G.Ananev va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda bu muammo yuzasidan taniqli psixolog I.S.Yakimanskaya tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

²⁸ Дэвид Майерс "Психология" Минск, 2008. .415-416 бетлар

²⁹ James W.Kalat. Introduction to Psychology.10 edition. 2013.

³⁰ James W.Kalat. Introduction to Psychology.10 edition. 2013. 324-326 бетлар

Ba'zida biz ma'lum bir vazifani hal qilish uchun muayyan, aniq bir strategiyadan foydalanayotganimizni anglamaymiz. Javob bizga o'z-o'zidan xayolimizga keladi. Har bir ko'plab qismdan iborat mozaikaga o'xshash vazifalarni echimi ustida qanchalik uzoq vaqt o'ylanganini keyinchalik eslashimiz mumkin. Keyin to'satdan barcha qismlar birikib, echim yarq etib xayolimizga kelib qoladi. Bunday tasodifiy portlash qobiliyatini psixologlar insayt deb ataydilar. O'n yoshli Djonni Epplton quruvchilarni bir metr chuqurlikdagissementli devor blokiga tushib ketgan chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qushni qanday ozod qilish muammosining yechimida o'z zakovatini namoyon etgani hayratga soldi. Djonni muammoni quyidagicha yechdi: chuqurga sekin-asta qum sepish kerak, bunda qushning doimiy ravishda ko'tarilib borayotgan qum uyumining ustiga chiqib olishi uchun vaqt berish kerak (Ruchlis, 1990)³¹.

Bizning hayotimizda insayt oydinlashuv holatining namoyon bo'lishi ko'pincha qoniqish tuyg'usini uyg'otadi. Murakkab vazifani hal qilib yoki nizoni qanday bartaraf etishni tushunib biz o'zimizni baxtiyor sezamiz. Hazilning mohiyati analogik tarzda bizning insayt – kutilmagan yakun yoki ikkilamchi mazmunni nogahoniy tushunishga bo'lgan qobiliyatimizdan iborat bo'lishi mumkin. Biz professor Smitning hamkasblari bilan talabalarning uning ma'ruzasini bo'lishlari haqidagi suhbatidagi hikoyada: “Men endigina nimadir demoqchi bo'lsam, qaysidir talaba gapirishni boshlaydi”, ikkilangan mazmunni topamiz³².

Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar talqini

Tafakkur muammosi xorij psixologiyasida keng doirada tadqiq qilinib, atroflicha bilimlar va ma'lumotlar zahirasi to'plangan. Aynan keltirilgan ma'lumotlarda tafakkur tushunchasi turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi.

Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889-1978) tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsak biz fikrlashga o'rganamiz-deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab etish, inson fikrlash

³¹ Дэвид Майерс “Психология” Минск, 2008. 416 бет

³² Дэвид Майерс. “Психология” Минск, 2008.414 бет

jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta‘limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta‘limotni logika, mantiq deb ataydi.

K.R.Megrelidzening ta‘kidlashicha, insondagi biror ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to‘g‘ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko‘rinishlarisiz o‘rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o‘ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo‘llaydigan ijtimoiy sharoitda aks etadi.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo‘ladi. Bu haqda K.R.Megrelidze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo‘yicha emas, balki ijtimoiy – tarixiy qonuniyatlar yo‘lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo‘lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo‘lishi mumkin emas.

*Birinchi*dan, ongning subyektiv holatinigina ifodalamasdan, balki ob‘ektga ham tegishli bo‘ladi va narsalar munosabatini ifodalaydi.

*Ikkinchi*dan, yangi fikrning vujudga kelishi bilan bilish jarayoni tugallanmaydi, balki faqatgina boshlanadi. Bu bilishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, g‘oyaning sub‘ektiv holatidir, endi fikrni amalga oshirish bosqichi boshlanadi.

*Uchinchi*dan, alohida individning fikri ijtimoiy etilgan fikrlarning xususiy ko‘rinishidir.

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K.R.Megrelidze inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta‘kidlaydi. Fikrlar va g‘oyalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o‘zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning echimini mantiqiy izlanishlardan an’anaviy

psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda etilgan ijtimoiy g'oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo'lib qoladi.

Akademik A.I.Berg shunday deb yozadi "inson faqat tashqi dunyo bilan to'xtovsiz muloqot qilishi sharoitidagina uzoq vaqt fikrlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq informatsion ajralish bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informatsion ta'sir etuvchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek, issiqlikdek zarur". Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o'rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyursburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo'nalishga ega bo'lgan psixologik oqim paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishning yirik vakillari sifatida O.Kyulpe (1862-1915), K. Byuller (1879-1922), A.Messer (1837-1937), Ax Narsis (1871-1946) va boshqalarni sanab o'tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining echimi rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shgan oldi. Vyursburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o'rganishda ratsional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo'l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o'zlarining ustilarida o'tkazib, natijalarni obyektiv bo'lishiga kamroq e'tibor berganlar.

Vyursburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkur bu ichki harakat aktidir deb qaray boshlaydilar. O'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatliki, shunga qaramay ko'pchilik shunchaki hukm chiqarishni ma'qul ko'radilar. Shuningdek, ular oldida munosabatlarni o'rnatish qism, yaxlit, tur, jins ob'ektning nisbati va o'zaro munosabatlarini ushbu munosabatlarning aniq a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. Shuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari obyektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi. Jumladan, N.Ax tomonidan sun'iy tushun-chalarning shakllanishi bo'yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog'lab, tafakkurni munosabatlarning birlamchi qarab chiqish, yoinki birlamchi ma'lumot berish manbai sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini

ko'tarib chiqib, o'sishni fikrlarni faollashtirishning amaliy faoliyatidan tafakkurni mutlaqo ajratib qo'ydilar. Ular tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi – bu o'z-o'zini kuzatish ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammoga gnoseologik nuqtai-nazardan olib qaralganda ushbu pozitsiya idealizm izmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyursburg maktabi namoyondalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyati sifatida aniq ko'rsata bildi. Biroq tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat'iy ajratib tashladilar.

Vyursburg psixologiya maktabi namoyondalaridan biri O.Zels tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o'z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki bu jihatlari qay yo'sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko'rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko'rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo'ydi. O.Zels masala echish jarayonini o'rganishda umumiylikka ega bo'lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e'tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko'rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo'ladi. Kompleks o'z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan: a) ma'lumning tavsifnomasini bo'laklarga ajratish; b) noma'lum qidiriluvchining o'rnini aniqlash; v) noma'lum qidiriluvchi bilan ma'lum qidiriluvchi o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish.

Shunday qilib, Vyursburg psixologiya maktabining namoyondasi O.Zels psixologiya tarixida birinchi bo'lib tafakkurni jarayon sifatida ekspremental metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta'riflab bergan, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o'rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir. Germaniyada psixologiyaning geshtaltpsixologiya yo'nalishi vujudga keldi. Uning, ko'zga ko'ringan namoyondalari qatoriga X.Erenfels (1859-1932), V.Keler (1887-1967), K.Kofka (1886-1941) va boshqalar kiradi. Geshtaltchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishda ko'lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtaltchilarning aksiomatik xarakterga ega bo'lgan ushbu tezislari mazkur ta'limot g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig'indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera

olmaydi, aksincha yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari va xossalarini belgilab berishi mumkin.

Geshtalt psixologiyasining fikricha markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elementlari bilan emas, balki konfiguratsiya shakl yoki geshtaltchilarning yaxlit yaratilishidan iborat.

Geshtalt psixologiyasida tafakkur muammosi tadqiqotini keng qamrovli tarzda olib borilgan. Jumladan, V.Kelyor antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rganish jarayonida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

V.Kelyorning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtalt ichiga kirib, geshtaltda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlarida namoyon bo'luvchi geshtaltchilar muammosi organizmda ba'zi bir zo'riqishlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni echish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtaltda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtalt sifatida maydonga chiqadi.

Geshtaltchilarning ayrimlari "yo'nalish" atamasini qo'llab, uni o'tmish tajribasi bilan bog'lashga intiladilar. Shuningdek, ular "tafakkurning evrestik metodlari" to'g'risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, ziddiyatli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtaltchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqdilar, chunonchi ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga echish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rganishda funksional rivojlanish g'oyasini amaliyotga tatbiq qilish ham ma'lum darajada geshtalt psixologiyasi namoyondalarining xizmati hisoblanadi.

Shunga qaramasdan V.Kyoler M.Vertgaymer, K.Dunkerlarning eksperimental tadqiqotlari tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan predmetlarni yangi aloqalar va munosabatlarga fikriy munosabatini ochishini aniqladilar. Ammo ular ham mazkur

muammoli vaziyatda individning amaliy va nazariy aqliy faoliyati rolining muhimligini tan oladilar.

Amerika psixologiyasida vujudga kelgan bixeviorizm yoki hulq psixologiyasi oqimi o'tgan asrning oxirlaridan boshlab hukm surib kelmoqda. Bixeviorizm oqimining asoschilari amerikalik psixologlar Dj.Uotson (1878-1958) va E.Torndayk. (1871-1949) lardir. Keyinchalik bular qatoriga K.Levin (1890-1957) A.Vays (1974-1931) va boshqalar kelib qo'shildilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynadi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha mustaqil psixologik maktablarga ajralib ketgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm qarashlari saqlanib qolgan. Hammasi uchun umumiy formula S-R, ya'ni stimul-reaksiya xizmat qilib kelmoqda.

Dj.Uotson tafakkurning ichki nutq va noverbal tovushsiz imo-ishora, mimika, yelka qisishi, qosh suzish, kommunikatsiya, muloqotni birga qo'shib, keng ma'noda tushuntiradi va uni uchta shaklga ajratib o'rganadi. Nutq shakllaridan biri nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi. Bu she'rni yokissitatani aniq esga tushirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurning ikkinchi shakli subyekt uchun yangi bo'lmagan topshiriqni so'z yordami bilan echish, yarim-yortisi unutilgan she'rni eslashga harakat qilish va nihoyat, yangi topshiriqni yaqqol ifodali harakat va so'z yordami bilan yechish Dj. Uotson uchun malaka bu individual egallangan va o'rganilgan xatti-harakatdir. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qarasaq, tafakkur malakaga yaqinlashtirilib qo'yiladi, chunki she'rni esga tushirish ham tafakkurning birinchi qo'rinishi deb talqin qilinadi.

Dj. Uotson tilni o'zlashtirishning ijtimoiy jihatlarini umuman hisobga olmagan, nutqning tuzilishi va rivojlanishiga sira e'tibor qilmagan. Nutq bilan tafakkur birligi to'g'risidagi tamoyilni anglab yetmagan, tafakkur va ongni xulq ko'rinishi sifatida olib qaragan.

Til – bizning so'zimiz va fikrimiz ma'munini yetkazish uchun ularni qay tarzda uyg'unlashtirishimizning hosilasi bo'lib, bizning fikrlarimizni, qarashlarimizni ifodalashga ko'maklashadi. Til fonema deb nomlanuvchi asosiy nutqiy tovushlar; qiymatning

Tilning tuzilishi

Tilning rivojlanishi. Tabiat mo'jizalaridan biri – bola tomonidan tilni o'zlashtirish qobiliyatidir. Bolalarning oddiy guv-

guvlash jarayonidan bir soʻzli bosqichga va telegrafik ikki soʻzli bosqichga engil oʻtishlari olimlar oʻrtasida koʻplab bahsmunozaralarga sabab boʻlib kelgan. Bixevioristik oqim namoyondalaridan Skinner biz tilni imitatsiya yaʼni taqlid qilish va uni mustahkamlashning maʼlum tamoyillari vositasida oʻrganamiz, deb tushuntirgan. Lingvist Noam Xomski Skinner fikrlariga eʼtiroz bildirib, bolalar biologik va fiziologik jihatdan soʻzlarni oʻrganish va grammatikadan foydalanishga tayyor boʻladilar, deydi. Biroq grammatikani oʻzlashtirish inson hayotining dastlabki bir necha yilini egallashini inobatga olganda uning fikrlari oʻta bahsli va tanqidiydir.

Hayvonlarda til paydo boʻlishi mumkinmi? Yana bir hayotiy masala – til yagona insoniy fenomen hisoblanadimi? Shubhasiz, hayvonlar muloqot qiladilar. Masalan, asalarilar ozuqa bor joyni raqsga oid harakatlarning jimjimador uygʻunlashuvi va tovushli signal vositasida etkazadilar. Psixologlarning bir necha guruhi esa odamsimon maymunlar, shu jumladan, shimpanzening bir necha turlarini odamlar bilan belgilar yordamida yoki kompyuterga birlashtirilgan knopkalamni bosish vositasida muloqot qilishga oʻrgatdilar. Maymunlar ahamiyatli darajada lugʻat boyligini egalladilar. Ular mazmunni etkazish, iltimosni ifodalash va mantiqan tugallash uchun soʻzlar tuzdilar. Skeptik (har narsaga shubha bilan qarovchi)lar inson va odamsimon maymunlarning tilga qobiliyatlari, ayniqsa, sintaksisdan foydalanib soʻzlarni bir biriga bogʻlash qobiliyati oʻrtasidagi muhim tafovut va farqlar borligini taʼkidladilar. SHunga qaramay, ushbu tadqiqotlar odamsimon maymunlarning deyarli bilishga oid qobiliyatlari borligidan guvohlik beradi³³.

Tilsiz tevarak olamning mohiyati tushunarsiz va biz til orqali ifodalaydigan olam madaniylashmagan boʻlar edi. Til bizning nimalar haqida xayol qilishimiz, idrok etishimiz va eslab qolishimizga taʼsir koʻrsatadi. Shubhasiz, taʼlim bizning soʻzlash va fikrlash kuchimizni, qobiliyatimizni oshirish imkoniyatiga ega. Biroq fikrlash jarayoni aksariyat holda soʻzsiz olib boriladi.

Tafakkur va til oʻzaro oʻta jumboqli tarzda chatishib, qoʻshilib, birikib ketgan jarayondir. Psixologlar oldida turgan “birinchi boʻlib nima paydo boʻlgan tafakkurmi yoki til?” – degan savol goʻyoki “tovuq oldin paydo boʻlganmi yoki tuxum?” tarzidagi savollar turidan

³³ Дэвид Майерс “Психология” Минск, 2008. 414 бет

biri bo'lib, muhim masala hisoblanadi. Balki g'oyalarimiz avval paydo bo'lib, keyin ularni so'zda ifodalashimizni kutar? Yoki bizning fikrlarimiz so'zga kiydirilgan va ularsiz mazmunga ega emasdir?³⁴

Til tafakkurga ta'sir ko'rsatadi

Lingvist Benjamin Li Uorf (Benjamin Lee Whorf)ning ta'kidlashicha, til fikrlash usulini belgilaydi. Uorfning lingvistik relyativlik faraziga muvofiq turli tillar haqiqatni turlicha idrok etadi: "Tilning o'zi insonning asosiy g'oyalarini shakllantiradi". Uorfning relyativlik farazi, ehtimol, faqat bitta tilda gaplashadigan va bu tilda fikrini bayon etuvchi odamlarning xayoliga kelmagan bo'lardi. Ikkita bir biriga o'xshamagan, masalan, ingliz va yapon tilida so'zlashuvchilar esa, bir tilda so'zlashuvchilardan farqlanadi. Shubhasiz, inson turli tilda turlicha o'ylaydi (Brown, 1986). Darg'azablik, jahl kabi ichki kechinmalarni ifodalashda boy lug'at zahirasiga ega bo'lgan ingliz tilidan farqli ravishda yapon tilida bir necha so'zni ishlatadilar, shaxslararo kechinmalar, masalan, simpatiyani ifodalash uchun ham yapon tilida bir necha so'zlardan foydalanadilar (Markus & Kitayama, 1991). Ikki tilda gaplashuvchilar ko'pincha qaysi tildan foydalarishlariga qarab o'zlarini turlicha his qilishlarini ta'kidlaydilar (Matsumoto, 1994). Osiyodan Shimoliy Amerikaga ko'chib o'tgan ikki tilda muloqot qiluvchi shaxsda ikki tildagi bir xil testning natijalari turlicha chiqishi mumkin (Dinges & Hull, 1992). Til o'rganing va siz dunyo xalqlari madaniyati haqida ko'p narsalarni bilib olasiz. Qachonki til, so'zlash yo'qolsa – dunyoning 5000 tilidan barchasining taqdiri yo'qoladi – olam bu tilga taalluqli madaniyat va tafakkurni ham yo'qotadi. "Barcha so'zlar – bu g'oyalar ilinadigan ilgakdir" Henry Wurd Beecher "Plimut kafedrasidan matallar" (1887) asaridan.

Tilning fikrlash usulini belgilash haqidagi masala munozarali muammolardan biridir. Ammo bizning fikr ifoda etishda ishlatadigan so'zlarimiz nima haqida o'ylashimizga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun biz ularni yaxshilab tanlashga, tushunarli va ta'sirchanlaridan foydalanishga intilamiz. Qachonki ayollar haqida qizlar kabi so'zlanganida, masalan, "qizlar ofisda" ifodasida bu ayollar lavozimi

³⁴ Дэвид Майерс "Психология" Минск, 2008. 444 бет

jihatdan quyi maqomga ega (masalan kotiba qizlar), degan taassurot uyg'onadi, shunday emasmi? Yoki u olmoshini jinsga oid foydalanishni olib ko'ramiz. Agar men "Bola tilni uning tarbiyachisi bilan o'zaro hamkorlikda o'rganadi" yoki "Bolalar tilni ularning tarbiyachilari bilan o'zaro hamkorlikda o'rganadilar", deb yozsam farqi bormi? Kimdir hech qanday farqi yo'q, deb aytishi mumkin. Ammo bu erda olmoshning birlik va ko'plikda turlanishini aytib o'tish joiz. Yoki "bola" so'zi ishlatilganda ko'pincha tinglovchida gender jihatdan o'g'il bola haqida gap ketayotgani tushuniladi³⁵.

Har qanday tilni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat tafakkurga ta'sir ko'rsatadi va lug'at zahirasi bo'yishini ta'limning tayanch qismi qilib qo'yadi. Tilning kengayishi, boyishi fikrlash qobiliyatining kengayishi demakdir. Bolalikda fikrlash qobiliyati til bilan birga rivojlanadi. (Gopnik & Meltzoff, 1986). Shuning uchun ko'plab darsliklar, qo'llanmalarda yangi g'oya, fikrlashning yangi usullarini namoyish etish maqsadida yangi so'zlardan foydalaniladi. Kanada, Shveysariya, Isroil, Janubiy Afrika va Singapurda ikki tilni o'zlashtirgan bolalar zehni o'tkirligini tekshirish uchun o'tkazilgan testlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning zehni o'tkirligi bir tilni biladigan bolalar zehnidan ustunlikni namoyon etgan. Shuni anglab etgan Lambert ingliz tilida so'zlashuvchi bolalarni fransuz tilini o'rganishga jalb etish imkonini beradigan kanada dasturini ishlab chiqdi. (1981 yildan 1991 yilgacha bo'lgan muddat ichida fransuz tili bilan shug'ullanuvchi Kvebekdan bo'lmagan kanadalik bolalar soni to'rt barobarga – 65 000 250 000 ga ortdi, Columbo, 1994.) Tahsilning dastlabki uch yilida ingliz tilida so'zlashuvchi bolalarga fransuz tili o'qituvchisi dars beradi. Beshinchi va oltinchi sinfda darslarning faqat yarmi ingliz tilida o'tiladi. Bolalarning fransuz tilini til o'rganishning boshqa usullari bilan taqqoslab bo'lmaydigan ravishda tez va ravon o'zlashtirishlari hayratlanarli edi. Bundan tashqari, ularda shunday qobiliyatli bir tilli tengdoshlaridan o'zlashtirishda deyarli farqlar sezilmagan. Ularda o'zlashtirish o'ta yuqori, matematika va fransuz-kanada tillariga hurmat balandligi aniqlangan. (Devid Mayers "Psixologiya" Minsk, 2008. st.446)

³⁵ Дэвид Майерс "Психология" Минск, 2008. 446 бет

Shunday qilib, ingliz tilida soʻzlashuvchi kanadaliklarga keyinchalik ikki tilda soʻzlashish imkonini beradigan muhitga kirib borish, albatta, foyda berdi. Son jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi baʼzi bir millat sohiblariga ikki tillilik qanchalik foydali? “Faqat ingliz tili” tarafdorlari bu masalaga oʻz fikrlarini bildirganlar. Ular ikki tilli dasturlar qimmat, samarasiz va boshqa tilli bolalarning ingliz madaniyatiga singib ketishlari murakkab ekanligini taʼkidlaganlar. Biroq tadqiqotlar bunday bolalarning ikki tilli tahsildan foyda koʻrishlarini, ayniqsa, bu “ikki tomonlama” maktablarda, yaʼni ingliz tilida soʻzlashuvchi tengdoshlari bilan birgalikda darslarning yarmi ingliz tilida, qolgan yarmi ularning ona tilida oʻtadigan maktablarda oʻta samara berishini koʻrsatadi. Toʻliq ingliz tilida dars beriladigan maktablarga tushgan ingliz tilida soʻzlashmaydigan bolalar bilan solishtirganda fransuz-ingliz maktablarining bolalari oʻz qadr-qimmatlari tuygʻusini namoyish etishga koʻproq moyilliklarini qoʻrsatishgan. Ular dasturdan ortda qolib ketmaydilar. Natijada ingliz tilini oʻzlashtirishda ham mahoratning yuqori darajasiga erishadilar (Hamers & Blanc, 1989; Padilla & Benavides, 1992; Thomas & Collier, 1997)³⁶. Til belgilari vositasida lugʻat boyligini kengaytirish minglab yillar davomida mulkka merosxoʻrlik qilish, tahsil olish, oila qurish yoki murakkab ishlar uchun yaroqsiz deb hisoblangan eshitishida muammosi boʻlgan (kar) bolalarga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi (Sacks, 1990). Belgili til keng tadbiq etilgandan soʻng bunday toifadagi maktabgacha yoshdagi bolalar belgili til muhitiga tushdilar, keyin esa shu tilda taʼlim olib, ular toʻliq savodli boʻlganlarini isbotladilar. Belgilar tilini biladigan eshitishida muammosi boʻlgan ota-onalarning shu nuqsondagi bolalari boshqa eshitishida muammosi boʻlgan bolalardan aql-idrok va oʻzlashtirishda ustunlik qiladilar (Isham & Kamin, 1993). Til eshitishida muammosi boʻlgan bolalar va sogʻlom bolalar uchun tajriba manbasidir. Til bizni oʻtmish va kelajak bilan bogʻlaydi. Til bizni bir birimiz bilan bogʻlaydi.

³⁶ Дэвид Майерс “Психология” Минск, 2008. 447 бет

Tilsiz tafakkur

Siz yolg'iz qolganingizda o'zingiz bilan o'zingiz gaplashasizmi? Ehtimol, tafakkur – bu shunchaki o'zi bilan o'zi suhbatlashishdir? Shubhasiz, so'z g'oyalarni etkazib beradi. Biroq g'oyalar so'zdan oldin paydo bo'lmasmikin: Vannada sovuq suvni yoqish uchun kran tutqichini qaysi yo'nalishda aylantirasiz?

Bu savolga javob qaytarish uchun siz, ehtimol, so'z bilan emas, balki xayoliy surat bilan fikrladingiz. Haqiqatan, biz ko'pincha obrazlar bilan fikrlaymiz. Rassomlar obrazlardan foydalanadilar. Bu kompozitorlar, shoirlar, matematiklar, atletlar va olimlarga ham xos xislat. Albert Eynshteyn o'zining eng buyuk kashfiyotlari vizual obrazlar natijasi ekanini, keyinchalik ularni so'z bilan ifodalaganini tan olgan.

1958 yil Chaykovskiy nomidagi fortepiano musiqachilari musobaqasida ikkinchi o'rinni egallagan Lyu Chi Kung bir yildan so'ng Xitoydagi madaniy inqilob vaqtida qamoqxonaga tushib qoladi. Tez orada u yerdan chiqqach, etti yil davomida pianinoga qo'lini tegizmaydi, musobaqaga yo'l oladi va muvaffaqiyatli ishtirok etadi. Tanqidchilar uning musiqiy qobiliyatiga har qachongidan ko'ra yuqori baho beradilar. Amaliyotsiz u buni qanday uddaladi? U shunday javob beradi: “Men har kuni mashq qildim, – deydi Lyu. Men qachonlardir ijro etgan har bir asarimni notama-nota miyamda chalardim” (Garfield, 1986).

“Olimpiya atletlari uchun psixologik mashq qilish tayyorgarlikning odatiy qismiga aylandi”, – deydi Richard Suin (pressada). Golfning buyuk o'yinchisi Djek Niklaus har bir zarbadan oldin, odatda, miyasida “kino ko'rishi”ni aytgan. Djordjiya Nigro (Georgia Nigro, 1984) laboratoriya testida bunday mashq qilishning foydasini namoyish qildi. U test qilinayotganlardan drotik (irg'itiladigan o'q) ni nishonga 24 marta otishlarini iltimos qildi, keyin testdan o'tuvchilarning yarmi xayolan bu mashqni bajardi va nihoyat barcha sinaluvchilar drotikni yana 24 martadan otdilar. Yaxshilanish faqat vaziyatni psixologik jihatdan modellashtirishni amalga oshira olgan odamlardagina kuzatildi. Milliy tadqiqotchilik kengashining Psixologlar qo'mitasi amerika armiyasida sportga oid malakalarni yaxshilash haqidagi da'voni o'rganib chiqdi va ko'plab mashqlar (jumladan, ESP) mazmunsiz ekan, degan xulosaga keldi (Druckman & Swets, 1988). Nigroniki kabi eksperimentlarga asoslanib ular motorli

malakani aqliy ishlab chiqish foydali, degan xulosaga keldilar³⁷. Biz til va tafakkurni bir bobda ko'rib chiqamiz, chunki ularni ajratish juda murakkab.

Til fikrlashga ta'sir qiladi.

So'zlar g'oyalarni uzatadi, tillar esa g'oyani o'zida mujassam etadi. Garchi lingvistik relyativlik farazi til fikrni belgilashini taxmin qilsa-da, til fikrga ta'sir ko'rsatadi, deyish to'g'ri bo'lardi. Shaxs olmoshining ta'siri va tafakkurni yaxshilash uchun lug'at zahirasini boyitish qobiliyati so'zning ta'siridan dalolat beradi.

Tilsiz tafakkur. Ba'zi g'oyalar, masalan idrok etish va eslab qolish qobiliyati tilga bog'liq emas. Biz ba'zida so'zlardan ko'ra obrazlar bilan o'ylaymiz va yangi g'oyalarni ifodalash uchun yangi so'zlarni o'ylab topamiz. Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, borliq avval tilimizga, keyin bizning fikrlarimizga ta'sir ko'rsatadi³⁸.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin: imo-ishora, exologak, ya'ni aks sado, mimika, signifikasiya, pantomimika, daktilogik (barmaq nutqi).

Nutq turlarining psixologik tavsifi

Psixologiya fanida nutqqa va nutq faoliyatiga bag'ishlangan bir talay ilmiy tadqiqot natijalari mavjud bo'lsa-da, lekin bu borada umumiylik, ta'riflar birligi, uning evolyusion va ijtimoiy-tarixiy tarakqiyotiga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl jihatdan o'xshashlik yo'q. Nutqning neyropsixologik asoslari, mexanizmlari, artikulyasion va fonetik apparatlari, psixolingvistik tuzilishi (fonema, fleksiya) to'g'risida ilmiy-amaliy xususiyatli umumlashmalar hamda umumlashmalar umumlashmasi ishlab chiqilmagan. Xuddi shu boisdan nutqning genezisi, uning filogenetik va ontogenetik xususiyatlari, paydo bo'lishi, o'sishi, o'ziga xos tavsiflanishi, bosqichlari, fazalari, patologiyasi bo'yicha xilma-xil yondashuvlar mavjuddir.

³⁸ Дэвид Майерс "Психология" Минск, 2008.448 бет

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, soʻzsiz nutq turlari paydo boʻlgan boʻlib, u oʻz ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgan. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyasion apparati paydo boʻlgunga qadar, imo-ishoralardan foydalanib nutq soʻzlagan. Maʼlumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan boʻlsa, oʻsha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, maʼlumotlar koʻlami tor boʻlganishi tufayli insonlar noverbal nutqdan koʻp davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi, maʼlumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon boʻlgan, tobora takomillashib borgan.

Insoniyat yer yuzida hayot va faoliyat koʻrsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, maʼlum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin maʼnoli, mazmunli harakat turi imo-ishorali nutqi deyiladi. Masalan, oʻzbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu maʼnoni bulgʻorlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi. Aksariyat hollarda imo-ishora his-tuygʻusiz namoyon boʻladi va shaxslararo munosabatning tub maʼnodagi ham quroli, ham vositasi funksiyasini bajarib kelgan. Lekin uni his-tuygʻusiz deb nomlash ham ilmiy-amaliy qiymatining pasayishiga olib keladi, bu holat uning ijtimoiy funksiyasini oʻzida aks ettiradi. Bir paytlar shaxslararo munosabat magʻzini tashkil etib kelgan imo-ishoralar nutqidan hozirgi zamonda ham keng koʻlamda foydalaniladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, oʻzgarlar fikriga javob qaytarish, tana aʼzolari rangining oʻzgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon boʻluvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyigʻida kulish, lab qisish va choʻchaytirish, til chiqazish, qosh uchirish va suzish, xullas turli psixologik xolatlarni, ayniqsa xissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv

xususiyatli nutq turi mimika bo'lib hisoblanadi. Mimika yordami bilan haqgo'ylik, quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikkiyuzlamachilik, hasad: quvonch, qayg'u, baxtiyorlik, singari yuksak tuyg'ular namoyish etiladi. Xush yoki noxush kechinmalar aks etilayotganligidan kelib chiqqan holda muomala jarayoni qisqa muddatli, yoki uzoq muddatli vaqt mezonini namoyon qiladi, qayg'u, baxt hislarini ifodalab keladi. U mono vaziyatni, diada, triada, poliada ko'rinishidagi shaxslararo munosabat shakllarini yaqqol aks ettiradi, fikrni uzatish, qabul qilish, ta'sirlanish, ruhlanish kabi funksiyani bajaradi. Hayotiy tajribaning ko'payishi bilan ichki kechinmalarni (interiorizatsiyalash) tashqi voqea hodisalarga almashtirish (eksteriorizatsiyalash) bilan yakunlanadi, ko'pincha individual va ijtimoiy tarbiya vazifasini bajaradi.

Yuz harakatlari, tana a'zolari, qaddi-komat yordami bilan fikrlarni uzatish, syujetli qoidali, ma'noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. O'z mohiyati ko'lamini bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo'lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalar yuzasidan o'zgalarga ma'lumot uzatish tarzida hukm suradi. Insonda turmush tajribasi ortib borishi, kasbiy faoliyat mazmunini rollarga va syujetga asoslangan holda ssenariysini yaratish, vaziyatga qarab qisqa va uzoq muddatli informativ funksiya bajaradi. Pantomimika yumor hissini, qo'rqinch tuyg'usini, zaxmat obrazini, daxshat kechinmasini o'zida aks ettirib, ko'pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi, hissiy aloqa o'rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta'minlanadi.

Tashqi ta'sirlanish va uning teskari aloqasi kulgida, ko'z yoshlarida (xoh quvonchli, xoh qayg'uli bo'lishidan qat'i nazar) ifodalanib, assotsiatsiyalarni jonlantiradi va ko'lamini kengaytiradi. Pantomimika sahna harakatiga nisbatan qobil, iste'dodli, iqtidorli salohiyat namunasini namoyish etib, maxsus qobiliyatli shaxslar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda ijro qilinadi, lekin istisno tariqasida o'qituvchilik faoliyatida ham unumli foydalaniladi. Yaqqol ruxiy hodisalar, holatlar, xususiyatlar, shaxsning fazilatlari pantomimika ijrosi davomida faoliyat subyekti tomonidan bajariladi.

Ayrim his-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to'siqlarga urilib qaytuvchi aloqa vositasiga ekologik yoki sado nutqi deyiladi. Ekologik yoki aks sado nutq turi bir tomonlama aloqa (tog'-inson,

inson-jism) negizida vujudga keladi, ko'pincha individual tovush harakati javob, masofa funksiyasini ijro etadi. Lekin ekologik nutq, aks-sado orqali tog'larda, qalin o'rmonlarda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida aloqa quroli sifatida muayyan ahamiyat qozonadi. Fazoviy tasavvur qonuniyati asosida shaxslararo munosabat o'rnatiladi, ma'lum shartli belgilari o'zaro bilvosita muloqot vositasi rolini ijro qiladi. Ekstremal favquloddagi hodisalar yuz berishi jarayonida shartli tovushlardan tuzilgan aloqa usulidan foydalaniladi. Tovushlarning qaytishi fazoviy chamalash, muayyan mo'ljal olish uchun xizmat qiladi, qo'rqinch, hayajon; umid, ishonch tuyg'ularining aloqaga kirituvchi shaxslar ruhiy dunyosida mujassamlashini ta'minlaydi.

Noverbal turkumga kiruvchi signifikatsiya boshqalardan o'z tuzilishi, mazmuni, shakli bilan keskin ajralib turadi. Aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o'zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turi signifikatsiya deyiladi. U shartli belgilar, signallar, modellar shaklida ifodalanishi mumkin. Uzoq masofalarga xabar yoki ma'lumot uzatish va qabul qilish vositasi sifatida Morze alifbosi va shunga o'xshash «sun'iy til» nomi bilan mashhur kommunikativ manbalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir «signal» o'z ko'lami, takrorlanish sur'ati, temбри, chastotasi bilan muayyan ma'lumot uzatish yoki qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, shartli alomatlar negizida mazmun yoki mohiyat yotadi («doza», «porsiya» deb nomlanadi). Morze alifbosi va shunga o'xshash signifikatsiya hozirgi zamon aloqa qurilmalari va qo'l yordami bilan (asbobni bosish orqali) xabar uzatishga yoki qabul qilishga mo'ljallangan. Hozirgi zamon ratsiyalari ham xuddi shunga o'xshash kommunikatsiya quroli vazifasini bajaradi.

Noverbal nutqning yana bir turi daktiologik (barmoq) nutq deb ataladi. Inson tana azolari, imo-ishoralar, mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o'rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktiologik nutq deyiladi. So'z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma'noli ko'l, yuz harakatlariga, ayrim hayajonli sadoga, qahr-g'azab, ilk tabassum, qahqahaga ko'chiriladi. Harakatning takrorlanishi axborot mazmunini boyitadi, kuchaytiradi, ma'lumotlar uzlyksizligini ta'minlab turadi. Umumbashariy xususiyatli nutq vositasi daktiologiya fani nomi bilan yuritiladi va maxsus o'qitish, o'rgatish orqali undan foydalanish kunikmasi hamda malakasi soqov yoki kar-soqov

odamlarda shakllantiriladi. Hatto ularda savol chiqarish ham xuddi shu tamoyil negizida quriladi. Tabiat va jamiyatga nisbatan munosabat, shaxslararo muomala, ma'lumot almashish shu nutq yordami bilan ifodalanadi.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika. v) pantomimika, g) daktiologik; 2) tovushli: a) ekologik (aks sado), b) signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar).

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) og'zaki, 2) yozma, 3) monologik, 5) poliologik, 6) tashqi, 7) ichki, 8) ekspressiv, 9) impressiv, 10) lakonik (katra, yig'ik), 11) epik (yoyiq), 12) affektiv (jaxl holatidagi).

Insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchilar qatorida og'zaki nutqni keltirish joiz. Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri xisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, poliologik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jaxl).

Pauza, mantiqiy urg'u, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi.

Noverbal nutq o'zining asosiy funksiyasini bajarib bo'lganidan so'ng (uning ma'lum tarkiblari faoliyat ko'rsatib davom etib kelmoqda) axborot uzatish, tajribalarni egallash, insonni kamol toptirish va shunga o'xshash vazifalar tabiiy ravishda og'zaki nutq zimmasiga yuklangan. Jarangli, jarangsiz faol, sust, his-hayajonli, monoton, yuksak sur'atli, shivirlash ko'rinishidagi og'zaki nutq turlari va qonuniyatlarini o'zida mukammallashtirgan holda aloqa quroli, vositasi tariqasida muomala tarkiblarini aks ettiradi. Kommunikativ xususiyatli axborotlar oddiy xabar, so'roq, undov ma'nosini anglatuvchi ma'lumotlar og'zaki nutqning murakkab hamda rang-barang tuzilishiga ega ekanligidan dalolat beradi. Og'zaki nutq shaxslararo munosabatning puxta negizini tashkil etib, maqsadga yo'naltirilgan yoki tasodifiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida o'z ustuvorligini saqlab kelayotgan hodisadir. Tilning takomillashuvi bevosita og'zaki (jonli

tilda) nutqda namoyon bo'ladi, iste'molda eskirgan so'zlar eski (arxe) tushunchalar, atamalarga aylanib boradi. Xuddi shu bois millatga xoslik mavjud bo'lsa-da, lekin shaxslarni o'zaro katta tarixiy davr ajratib tursa, u holda bir-birlarini to'la tushunish qiyinlashadi. Huddi shunday holatni geografik muhit, xududiy farq, lahzalarga oidlik, shevalar, etnik alohidalik kabilarda ham kuzatish mumkin, ammo axborotlarni idrok qilish va tushunishdagi bunday qiyinchiliklarni adabiy til birligi bartaraf qiladi (Xorazm. Namangan shevasi va hokazo).

Og'zaki nutq o'zining jarangdorligi, ta'sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi.

Og'zaki nutqning dastlabki turidan biri-bu monologik nutqdir. Yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning o'ziga qaratilgan (egotsentrik), ta'sirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga mo'ljallangan nutq turi monologik nutq deb ataladi. Unda shaxsiy his-tuyg'ularining ichki va tashqi shakllari uyg'unlashadi, shuningdek, o'zgalar fikrini ifodali o'qishda ham o'z aksini topadi. Odatda monologik nutqda fikrlar qisqartirilmaydi, mabodo bu qoida buzilsa, axborot ma'nosini tushunish qiyinlashadi. His-hayajonni tashqi va ichki kechinmalar hamda ularning mexanizmlari aniq, ravon, izchil aks ettiradi.

Diada shakldagi munosabatlar negizida quriluvchi, ikki shaxs o'rtasida namoyon bo'luvchi, axborot uzatishga va qabul qilishga mo'ljallangan nutq turi dialogik nutq deb ataladi. Uning monologik turidan farqli tomoni fikr mohiyati nutq faoliyati qatnashchilarida anglangandan keyin u yoki bu shaklda qisqartirish imkoniyatiga ega. Uning interaktiv tomoni ko'pincha ustuvorlik qiladi, axborotlar qabul qilish va uzatish o'zaro tushuncha asosiga quriladi, aks holda muomala maromi buziladi, o'zaro fikr almashuv muddatdan oldin yakunlanadi.

Bir nechta kishilar bilan amalga oshirishga mo'ljallangan, triada va poliada negiziga quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo'naltirilgan, bahs tarkiblari ishtirok etuvchi og'zaki nutq turiga polilogik nutq deyiladi. Muomalada muammo mohiyati har qaysi qatnashchi tomonidan anglashilgandan so'ng uning tarkiblari qisqarishi mumkin, bu esa o'zaro tushunishni osonlashtiradi. Mazkur nutq turida ham dialogik nutqqa xos bo'lgan mexanizmlar, ta'sir

o'tkazuvchi vositalar ishtirok etib, uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shaxslararo munosabat ko'lamini kengaytiradi.

Artikulyasion apparat orqali vujudga keluvchi, verbal holatlarda aks etuvchi, o'zgalarga yo'naltirilgan, har xil xususiyatli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi nutq turiga tashqi nutq deb ataladi. Tilning barcha qoidalari va qonuniyatlari unda mujassamlashgan bo'lib, uzatish va qabul qilish, idrok etish va tushunishdan iborat muomala quroli, vositasi vazifasini bajaradi. Nutq, tempi, tembri, ritmikasi va chastotasi mavjudligi uchun axborotlarni tinglash va idrok qilish engilroq kechadi.

Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g'oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo'ljallangan, lekin latent davridagi ma'lumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi. Ichki nutqning muhim xususiyatlaridan biri bu ko'lam jixatdan tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Ikkinchi bir xususiyati esa tafakkurning mexanizmi funksiyasini bajarishidir.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajon tarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatni yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi, ovozli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq deyiladi. O'zining tezkorligi va vaziyatbopligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashishi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi, holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Mulohazalar mohiyati shaxs kechinmalari bilan munosabatga kirishishi natijasida o'ziga xos voqelikni namoyish qiladi.

Millat va elatlarning til boyligi aforizmlar, maqollar, donishmandliklar, matallar sifatida shakllangan, yuksak mantiqiy yuklamaga ega bo'lgan yig'iq nutq turi lakonik, ya'ni yig'iq, qatra nutq deyiladi. Etti o'lchab bir kes, sabrning tagi-oltin kabi maqollarda, ibratli so'zlarda ifodalangani kabi. Hazrat Mir Alisher Navoiy ijodi maxsullaridagi fikrlar shular jumlasiga kiradi:

Xo'tik birla kuchukka har qancha qilma tarbiya,

It bo'lur, eshak bo'lur, aslo bo'lmas odami.

Qatra nutq ba'zi o'rinlarda juda katta ma'no anglatadi, xulq, faoliyat va muomala uchun manba rolini bajaradi: Salyut!, Marsh! va boshqalar.

Turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jaxlning mahsuli hisoblanmish, qisqa muddatli nutq turiga affektiv nutq deyiladi. Birdaniga suhbatdosh, raqib tomonga uzatiluvchi, o'ta ta'sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajaruvchi qisqa muddatli nutq affektiv deb nomlanib, zarbasi jixatidan alternativi yo'qligi bilan boshqa nutq turlaridan keskin ajralib turadi. Jaxl, qasos, alam, tajovuz kechinmalarini o'zida aks ettirib, o'ta tanglik, zo'riqish (stress) mahsuli bo'lib hisoblanadi (jahll kelganda-aql ketadi: hissiyot bilan emas, balki aql bilan ish tutib oralar shu kabi holatlarda ishlatiladi).

Insoniyat tarixining sivilizatsiyaviy bosqichiga o'tib borishi davrida yozma nutq paydo bo'la boshlagan va hozirgacha u o'z rivojlanishida davom etmoqda. Tilning barcha qoidalariga (orfografik, morfologik, sintaktik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonematik, flektiv, va hokazo), qonuniyatlariga, mexanizmlariga (jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilishi, ma'no, mazmun va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi.

Har bir tilning to'la mohiyati yozma nutq orqali ifodalanadi, uzoq va yaqin masofalar uchun axborot (kommunikatsiya) vositasi (quroli) vazifasini bajaradi. Millat madaniyati, ma'naviyati, fan va texnikasi, san'ati va adabiyoti yozma nutq orqali uzatilib, millatlararo aloqa funksiyasini ado etadi.

Yozma nutq o'z navbatida quyidagi tarkiblardan tashkil topadi: a) monologik (drama), b) dialogik (badiiy asar janrlarida), v) ichki, g) lakonik (yig'iq, qatra), d) epik (yoyiq, yirik roman, qissa va boshqalar).

Yozma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, og'zaki nutqdagidan farqli o'laroq til boyliklariga bevosita asoslanadi. Yangiliklar yaratish, ijod qilish so'zlar orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shaklda tartibga keltiriladi. Lakonik (yig'ik, qatra) nutq ham og'zaki nutq kabi ma'no kasb etadi. Epik (yoyiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini to'laqonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi. Til mexanizmlaridan tashqari badiiy vositalar orqali ham inson ruhiyati tavsiflanadi.

Bizningcha, his-xayajonlar orqali ifodalanuvchi, muayyan axborot-larni o'zida mujassamlashtiruvchi nutq turlarini quyidagi

tiplarga shartli ravishda ajratish mumkin: a) ekspressiv, b) impressiv, v) affektiv, g) daktiologik va boshqalar.

Ularning psixologik mazmuni, mohiyati, xususiyatlari to'g'risida yuqorida fikr-mulohazalar bildirilganligi uchun qaytadan tahlil qilish, tavsiflashga hech qanday hojat yo'qdir. Lekin mazkur nutq turlari boshqa turkumlardai ham joy olishi mumkin. Biroq ilmiy jihatdan hech qanday qarama-qarshiliklar vujudga kelmaydi, aksincha, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi, xolos.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilgari surilgan ayrim g'oyalar mutlaqlikka da'vo emas, albatta. Chunki ularning ko'pgina jihatlari, qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari chuqurroq izlanishni talab kiladi, ayrim o'rinlarda ularning har birini eksperimental tadqiq etishni taqozo qiladi, yangi metodikalar, testlar, treninglar ishlab chiqishni izlanish predmetiga olib kiradi, amaliy va nazariy muammolar yechimini tezroq hal qilishga safarbar etadi. Nutqning muomala jarayonidan kelib chiqib yondashish evaziga qimmatli materiallar to'plash mumkin hamda uning negizida har qaysi psixolog mutaxassisni notiqlik san'atiga o'rgatish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

7.5. Xayol psixik jarayon sifatida

Xayol jarayonlari xotira jarayonlari singari, erkinlik darajasi yoki maqsadga muvofiq farqlanishi mumkin. Kutilmagan va ajoyib tarzda unda maqsadsiz usullar paydo bo'ladi. Tasavvurning faoliyati yarim uxlaganda, alahsirayotgan holatda yuzaga qelishi mumkin, masalan, uxlayotganda nomustaqil hisoblanadi.

Hayolning alohida bir shakli orzu bo'ladi. Ushbu shaklining asl ma'nosi shundaki mustaqil ravishda xayolan yangi qiyofa yaratishdir.

Ixtiyoriy tasavvur inson uchun katta ahamiyatga ega. Tasavvurning bu turi, inson oldida birov tomondan keltirilgan, yoki insonning o'zi belgilagan aniq obraz yaratish vazifasi turganida paydo bo'ladi. Bunday holatlarda, tasavvur jarayoni insonning o'zi tomonidan nazorat qilinib yaratiladi. Ixtiyoriy tasavvurning turlari va formalari ichida yaratuvchi tasavvuri, ishlab chiqaruvchi (ijodiy) tasavvur va orzuni ajratish lozim. Yaratuvchi tasavvur, inson, ob'ektni iloji boricha uning tasavvuriga mos qilib yaratishga harakat qilganday

bo'ladi. Bu tasavvur turiga inson, geografik joylar, tarixiy hodisalar va adabiy qahramonlar haqida o'qiganda duch kelinadi. SHuni aytib o'tish lozimki, yaratuvchi tasavvur nafaqat ko'rish tasavvurini shakllantiradi, balki sezish va eshitish hamda boshqa tasavvurlarini ham oshiradi. A.S. Pushkinning "Poltava Jangi" ni o'qiganimizda urush qurollarining otilishi, askarlarning qichqirishi, miltiq o'qining hidi, barabanlar jarangini aniq tasavvur qila olamiz. Ko'p holatlarda yaratuvchi tasavvur bilan, so'zlar orqali tasvirlanganda, tasavvurni yaratish uchun to'qnash kelamiz. Biroq, shunday holatlar borki, inson, so'zsiz biror predmetni tasavvurida obraz yaratishning muvaffaqiyati, insonning fazoviy tasavvuri qobiliyatlarida aniqlanadi. Ya'ni, insonning obrazli tasvirli hajmini joyda yarata oladi. Yaratuvchi tasavvurning jarayoni insonning fikrlash va xotirasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ixtiyoriy tasavvurning keyingi turi - ishlab chiqaruvchi ijodiy tasavvurdir. Uning ta'rifi shundaki, inson tasavvurni o'zgartiradi va yangisini paydo qiladi. Berilgan namuna bo'yicha emas, balki mustaqil ravishda, yaratilayotgan obrazning chizmalarini hamda kerakli materiallarni tanlagan holatda paydo qiladi. Ishlab chiqaruvchi tasavvur, yaratuvchi tasavvur kabi xotira bilan chambarchas bog'liq, chunki uni paydo qilishda inson o'zining tajribasini ishlatadi. Tasavvurni bu ikki turlari o'rtasida aniq chegaralar yuk. Yaratiluvchi tasavvurda, tomoshabin, kitobxon yoki eshituvchi o'zining ijodiy tasavvurini ishlatgan holda obrazini to'ldirishga harakat qiladi.

Lekin orzu ijodiy tasavvurdan bir necha farqlar bilan ajratiladi. Birinchidan, orzuda odam doimo o'zi istagan qiyofani yarata oladi, ijodda esa ilg'or g'oyalarni gavdalantirib ko'rsatish doimo yaratuvchining xohishiga bo'ysunmaydi. Orzuda odam o'zining xoxishini va intilayotgan narsalarini joylashtirishga ega bo'ladi. Ikkinchidan, orzu ijodiy faoliyatni o'z ichiga olmagan jarayon bo'ladi, ya'ni darrov va bevosita ob'ektiv mahsulotning ijodiy asaridir.

Orzuning asosiy fazilati shuki, u faqat kelajakka yo'nalgan bo'ladi, ya'ni orzu - bu, kelajakda istagan narsamizga yo'naltirilgan tasavvur. Buning bir necha turlarini farklash lozim. Ko'plab odam o'z rejalarini kelajakka munosabati va orzularini ruyobga chiqarish yo'llari orqali aniqlaydi. Bu holatda orzu aktiv, ixtiyoriy va ongli jarayon deb ataladi.

Ammo shunday odamlar borki, ular uchun orzu faqat harakatning o'rin bosaridir. Bularda orzu shunchaki orzuligicha qoladi. Buning sabablaridan biri shundaki, ular doimo muvaffaqiyatsizlikka uchrashi. Oqibatda bir necha omadsizlikdan keyin odam o'z rejalarini



amaliyotda bajarishdan bosh tortadi va orzularga berilib ketadi.

Agar ixtiyoriy yoki aktiv, tasavvur oldindan belgilangan bo'lsa, ya'ni odamning irodali taraflari bilan bog'liq bo'lsa, u xolda tasavurning passiv tomoni oldindan belginangan va belgilanmagan bo'lishi mumkin. Oldindan belgilangan

passiv tasavvur o'z xohishi bilan bog'lanmagan obrazlar yaratadi. Bu obrazlar orzu nomini olgan. Bunda odamning tasavvur va ehtiyojlari orasida yorqin aloqa paydo bo'ladi. Ushbu holatda odamning u uchun muhim paytda nima orzu qilayotganini payqab olishi judayam oson. Odamlar uchun yoqimli va jalb etadigan narsalar haqida o'ylashdir. Lekin orzu harakatning o'rnini bosishni boshlasa, bu psixologik buzilish hisoblanadi. Odamning psixologik jarayonida orzuning ustunligi uning xaqiqatdan uzoqlashishiga olib keladi, va o'zi o'ylab chiqqan dunyoga olib ketadi, bu holatlar esa odamning psixologik va sotsial rivojlanishlarga to'sik bo'ladi.

Beg'araz qilingan passiv tasavvur ongning zaiflashgan faoliyatida kuzatiladi, uning buzilishi, uyqusiragan va tush kurayotgan paytlarida. Passiv tasavurning eng katta ko'rsatkichi bu-gallyusinatsiya holatidir, bunda odam yo'q narsalarni ko'radi, eshitadi va sezadi. Gallyusinatsiya psixologik tarafdin zaiflashgan odamlarda kuzatiladi.

Tasavurning kayta ishlab chikish mexanizmlari

Tasavurning jarayonida paydo bo'layotgan obrazlar, yo'q joydan paydo bo'la olmaydi. Ular ortirilgan tajribadan, narsa va ob'ektiv xayot haqidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Inson tomondan paydo qilinadigan, taassurotlar va haqiqiy xayol haqidagi tasavvurlar har xil shaklda bo'lishi mumkin. Obraz paydo qiluvchi tasavvur ikki xil darajada o'tadi, birinchi bosqichda taassurotlar ya tasavvurni asosiy qismlarga bo'lish kiradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda birinchi bosqichda inson xayoldan olgan taassurotlarini shakllantirib tahlil qiladi. Bu tahlil davomida ob'ektni abstraktlash, ya'ni u boshqa

ob'ektlardan uzoqlashib va uning qismlari ham abstraktlashadi. Bu obrazlar bilan keyinchalik boshqa ikkita tur paydo qilinadi. Birinchidan, bu obrazlar yangi aloqa va birlashuvlarga o'rnatiladi. Ikkinchidan bu obrazlarga yangi ma'no berilishi mumkin. Har qanday holatda xam abstraktlangan ob'ektlar ustida operatsiya o'tkaziladi, ularga "sintez" deb ta'rif beriladi. Bu operatsiyalar obrazni shakllantiruvchi daraja bo'lib tasavvur faoliyatini sintezlovchi ma'noni tashkil qiladi. SHuningdek, tasavvur faoliyatini sintezlash juda ko'p qirralikdir. Tasavvur jarayonidagi sintezlashni eng oddiy shakli bu agglyutinatsiya, ya'ni bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga uning xususiyatlari va qismlarini tasavvur orqali qo'shib yangi obraz paydo qilishdir. Agglyutinatsiya ning misollariga shularni qo'shishimiz mumkin: kentavrlar shimoliy amerikaning hindularining chizmalaridagi qanotli odamlar. Kadimgi Egipt xudolar obrazi (Dumli odam hayvonlar va x.o.) Agglyutinatsiya asosida yotgan turli xil jarayon. Odatda, ularni ikta asosiy guruhga bo'lish mumkin: qabul qilayotganda tanqid va tahlilning etishmasligi va ixtiyoriy jarayon, ya'ni ong tomonidan nazorat qilinadigan fikrlashning umumlashuvi bilan bog'liqdir. Kentavr obrazi, chavandoz otini katta tezlikda choptirib ketayotgan vaqtida ko'zga ushbu shaklning aniq ravishda ko'rinmaganligi sababli, noaniq mavjudot ko'rinishida qabul qilinadi deb taxmin qilinsa, qanotli odam obrazini yasashga inson aqlining idrokan tushunib, uni havoda oson va tez harakatlanishiniga ahamiyat bergan va tasavvur qilgan.

Obrazni qayta tashkil qilishni keng tarqalgan uslubi, bu ob'ektni va uning qismlarini kattalashtirish yoki kichraytirish xisoblanadi. Ushbu yo'l bilan turli ertak qaxramonlari yaratiladi.

Agglyutinatsiyani yaratilish, yangi kontekstga aniq bo'lgan obrazni kiritish uslubi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda, tasavvurlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi va aloqa yordamida obrazning barcha yaratilgan qismlari yangi mohiyatga ega bo'ladi. Odatda, tasavvurda yangi kontekst yaratilishida biror fikr yoki maqsad turtki bo'ladi. Ushbu jarayon har tomonlama nazorat qilinadi, albatta agar u tush bo'lmasa, uyqu vaqtida insonning idroki nazoratga bo'ysunmaydi. Aniq obrazni yangi kontekstga kiritayotganda, inson ikkita, tasavvurlar va kontekst o'rtasidagi munosiblikka erishadi. Shu sababdan, butun jarayon boshidanoq aniq tushunilgan aloqaga bo'ysunadi.

Tasavvurni qayta ishlab obraz yaratish va ularning jiddiy alomatlarini umumlashtirish bu sxematizatsiyadir.

Sxematizatsiya turli sharoitda joy egallashi mumkin. Bu holatda, tasavvur tasodifan sxematizatsiyalanishi mumkin, va unda ikkinchi darajali qismlar ajratiladi, ular tasodifan predmetni qabul qilayotganda paydo bo'ladi. Natijada qabul qilishda xatolik ro'y beradi, bu xatolik real xayoldagi obrazni ongga noto'g'ri aks ettiradi. Bunday hodisalar ko'p holatlarda bolalarda uchraydi.

Ikkinchidan, ob'ektni etarli to'liq qabul qilish vaqtida ro'y beradigan sxematizatsiyaga, uning ikkinchi darajali bo'lak va qismlarini yoddan chiqarish sabab bo'ladi. Bunday vaqtlarda, tasavvur uchun asosiy bo'lak va qismlar birinchi o'ringa o'tadi. Shu sababli tasavvur o'ziga xosligini yo'qotib, umumlashib boradi.

Va, nihoyat, uchinchidan, sxematizatsiyaning sababi, ob'ektning ikkinchi darajali qism va bo'laklardan idrokan alahsib ketish bo'ladi. Inson bila turib o'z e'tiborini uning fikri bo'yicha ob'ektning asosiy hisoblovchi qismlarga qaratadi va natijada tasavvurni aniq bir sxemaga olib keladi.

Urg'u berish, ob'ektni kerakli, asosiy va aniq ishoralarini ko'rsatib o'tishni o'zidan tashkil etadi. Ko'p holatlarda bu usul badiiy obrazlarni yaratishda qo'llaniladi. Ushbu qabul qilish obrazini tasavvur obraziga qayta ishlashning asosiy xususiyati undagi real hayotni aks ettirib, uni tiplarga bo'lib, keng umumlashtirib beradi va ushbu umumlashuv doim aniq bir obrazda aks etadi. Shu bilan bir qatorda tasavvurlarni qayta tahlil qilish, tipik obrazni yaratishda mexanik yo'nalish yoki hisob kitobi bilan barpo qilinmaydi. Ushbu obrazni yaratish jarayonida o'zidan murakab ijodiy jarayonni yuzaga keltiradi va insonning o'ziga xos obraz yaratuvchi aniq fazilatlarini aks etadi.

Tasavvurning individual xususiyatlari va uning rivojlanishi.

Tasavvur turlari:

Tushlar - passiv tasavvur, ularning roli (ahamiyati) hali belgilanmagan, biroq, bu erda ko'p hayotiy ehtiyojlar, biror sabablarga ko'ra real hayotda amalga oshmagan, ifoda va qondirish topadi.

Xayol surish - bu oddiy ruhiy holat, fantastik shaklda bo'lib, ko'pincha ideal kelajak bilan bogliq bo'ladi.

Orzu - hammasidan ham realistik va voqelik bilan bog'liq bo'ladi (asosan amalga oshadi)

Tassavurning voqelikligi shaxsning umumiy yo'nalishi bilan bog'liq bo'ladi.

Tassavurning turlari:

Aktiv tasavvur - bundan foydalanib inson o'z irodasini yanada mustahkamlaydi va o'z istagi bilan xohishidagi obrazlarni chaqira oladi.

Passiv tasavvur - obrazlar o'z-o'zidan paydo bo'ladi, insonning xohishi bilan bog'liq bo'lmaydi.

Produktiv (unumdor) tasavvur - voqelik mexanik nusxalashtirilmaydi, balki voqelik inson ongi bilan ko'riladi.

Reproduktiv tasavvur - real holatni yuzaga keltirish masalasi qo'yiladi. Bu tasavvurda fantastik elementlari bo'lgani bilan, bu holat ko'proq idroq va xotiraga tegishli.

Tasavvur funksiyalari:

- voqelikni ijodiy tassavur qilish
- hissiy holatlarni tartibga solish
- bilim jarayonlarini tartibga solish
- ichki harakatlar rejasini shakllantirish

Tasavvur obrazini yaratish yo'llari

Agglyutinatsiya – obrazlarni qismlari, sifatlarini va xususiyatlarini birlashtirish.

Urg'u berish – biror butunlikni qismlariga alohida urg'u berish.

Tiplash – bu murakkablashgan uslubdir. Rassom aniq epizodni yaratadi, shu bilan birga uni o'ziga singdiradi va uning voqeligiga aylanadi. Adabiy obraz ham shunday yaraladi, u obrazlarda har hil epoxalarning turli tabaqalari va ularning tabiatlariga ahamiyat beriladi. Eng chambarchas bog'liqlik tasavvur va fikrlash orasida bo'ladi:

To'xtovsiz qabul qilish chegaralaridan ortiqcha fikrlarni ajratadi;

Kelajak haqida hayratlanishni uyg'otadi;

Avval bo'lib o'tgan narsalarni jonlantiradi.

So'z idrokning vaqtinchalik, yangi aloqalarida asosiy joy egallaydi. Tasavvur sezilarlicha tushunish jarayonini chukurlashtiradi va kengaytiradi. U dunyoni yaxshilashda katta ahamiyat egallaydi.

Tasavvur bu ijodiy jarayonning asosiy qismi hisoblanadi

Ko'p odamlar tasavvur yorqinligi darajasi bilan farq qiladilar. Agar biz bunga tegishli shkala bor deb faraz qilsak, bir qutbda tasavvur yorqinligi juda yuqori bo'lgan odamlar bo'ladi va boshqa qutbda - tasavvur yorqinligi juda xira odamlar. Odatda, tasavvur rivojlanishining yuqori darajasi ijodiy mehnat qiladigan odamlarda kuzatiladi - yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar va olimlar.



Odamlar o'rtasidagi muhim farqlar xayol dominant turi tabiati bilan bog'liq bo'ladi. Eshitish, ko'rish motorika tasvirlashtirish tasavvuri kuchli bo'lgan insonlarda ko'p uchraydi. Biroq, tasavurning barcha turlari rivojlangan odamlar ham bor. Bu odamlar aralash tur deb atalmish turiga bog'liq bo'lishi mumkin. Tasavvur bir turiga mansub juda ko'p insonning individual psixologik xususiyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, odamlar eshituv yoki motorika turidan bo'lsa, ular vaziyatni juda chuqurlashtirishadi, yoki raqibni tasavvur qilishadi. Ta'kidlash lozimki, inson rivojlangan tasavvur bilan dunyoga kelmaydi. Inson tasavvuri ontogenez davomida rivojlanadi va birinchi o'rinda avval yig'ilgan tasavvurlarning zahirasini talab qiladi va keyinchalik ular obrazlar yaratish uchun ashyo bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, inson rivojlangan tasavvur bilan tug'ilmaydi. Tasavurning rivojlanishi birinchi navbatda inson ontogenezi jarayoni yordamida amalga oshiriladi va o'y xayol namoyishi yig'indisi talab etiladi va shu bilan birga tasavvur obrazlarini yaratish uchun muhim omil hisoblanadi. Tasavvur kishining har tomonlama rivojlanishi bilan zich bog'liq bo'lib, u o'quv va tarbiya jarayonida, tasavvur, xotira, iroda va hissiyot bilan rivojlanadi.

Tasavvur rivojlanish dinamikasini ifodalovchi, aniq bir yosh chegarasini aniqlash juda qiyindir. Tasavurning o'ta erta rivojlanishiga misollar mavjud. Masalan Motsart musiqa to'qishni to'rt yoshida boshlagan. Repin va Serov olti yoshidanoq yaxshi chizar edilar. Shu bilan birga kech tasavvur rivojlanishi, kelajakdagi rivojlanishning past darajada bo'lishiga ta'sir etmaydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak,

buyuk insonlar, masalan Enshteyn, tasavvur rivojlanishi bilan ajralmagan, va aksincha ularni geniy deb ataganlar.

Inson tasavvurning rivojlanish etapini aniqlash juda qiyin bo'lsa ham, uning shakllanishining muayyan qonuniyatlari mavjud. Shunday qilib, tasavvurning birinchi belgilari idrok jarayoniga bog'liqdir. Misol uchun, bir yarim yoshda bolalar eng oddiy hikoya yoki ertakni ham eshita olishmaydi, ular boshqa biror narsaga chalg'ishadi yoki uxlab qolishadi, biroq o'z boshidan kechirgan hikoyalarni rohat bilan tinglashadi. Bu hodisa aniq tasavvur va idrok bir biri bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi

Bola o'z boshidan kechirgan voqealar haqida diqqat bilan eshitadi, chunki uning tushunchasida bu voqealar mavjud. Idrok va tasavvur o'rtasidagi bog'liqlik keyingi qadamda ham saqlanib qoladi. Bola o'ynayotgan vaqtida avval olingan taassurotlarni boshqatdan ishlab chiqaradi, ko'rinishini o'zgartiradi. Oddiy stul samolyot bortiga aylanadi, korobka - avtomashinaga. Aytib o'tish kerakki, bolaning tasavvuri ilk obrazlari uning xatti-harakatiga bog'liq bo'ladi. Bola orzu qilmaydi, o'sha faoliyat - o'yinligiga qaramay u obrazni boshqatdan ishlab chiqaradi va o'z faoliyatida o'sha obrazni mujassam etadi, .

Bola tasavvuri rivojlanishining asosiy bosqichi bolaning nutqi rivojlanish davri bilan bog'liq. Nutq bolaga nafaqat muayyan obrazlar balki, yanada xayoliy narsalarni va tushunchalarni tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, nutq bolaga oddiy tasavvuriy faoliyatdan nutqiy faoliyatga o'tish imkonini beradi.

O'z navbatida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda bolaning amaliy tajribasi va e'tibori o'sib boradi. Buning natijasida bola endilikda predmet qismlarini alohida predmet sifatida qabul qiladi va eslab qoladi. Biroq, sintez real hayotdagi noaniqliklar bilan sodir bo'ladi. Etarlicha hayotiy tajribaga va tanqidiy qarashga ega emasligi natijasida, bola obrazlarni real hayotdagiday tasavvur qila olmaydi. Bu bosqichning e'tiborga moyillik jihati shundaki, bu paytda bolaning tasavvurida o'zi bilmagan holda hayoliy obrazlarning paydo bo'lishidir. Ko'p hollarda bu obrazlar vaziyatga bog'liq ravishda yaratiladi.

Tasavvurning keyingi rivojlanish bosqichi uning aktiv ko'rinishlari bilan bog'liq. Bu bosqichda tasavvur jarayoni ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Tasavvurning aktiv ko'rinishlari paydo

bo'lishi katta yoshlilarning tashabbusi bilan yuzaga keladi. Masalan, katta odam boladan biror ish qilishni so'raganda (daraxt chizishni, kubikchalardan uycha yasashni va x.k.), u tasavvur jarayonini aktivlashtiradi. Katta odamning iltimosini bajarish uchun bola avval tasavvurida ma'lum bir obraz yaratishi kerak bo'ladi. Bunda tasavvur jarayoni ixtiyoriy hisoblanadi chunki, bola bu jarayonni boshqarishga urinadi.

Keyinchalik bola ixtiyoriy tasavvurni kattalarning ishtirokisiz amalga oshira boshlaydi. Tasavvurning rivojlanishi bolaning o'yinlarida aks eta boshlaydi. Ular ma'lum bir maqsad va ma'noga ega bo'ladi. Endilikda atrofdagi predmetlar nafaqat shunchaki predmet balki bolaning tasavvurlarini amalga oshirish uchun ob'ektga aylanadi. Bola 4-5yoshdan boshlab o'z fikriga ko'ra chizish, qurish va narsalarni joyini o'zgartirish amallarini bajaradi.

Tasavvurning rivojidadagi boshqa bir muhim bosqich maktab yoshida sodir bo'ladi. Maktab darsliklarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bolaning tasavvur jarayonini aktivlashtirishini shart qilib qo'yadi. Maktabdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun bola o'zining tasavvurini maksimal darajada ishga soladi bu esa unda tasavvuriy obrazlarning qayta ishlash jarayonining o'sishiga olib keladi.

Maktab yillaridagi tasavvurlarni tez avj bilan rivojlanishining yana boshqa bir sababi, o'qish davomida bola jadallik bilan yangi, turli xil obyektlar haqida va haqiqiy olamdagi hodisalar haqida tushunchalar xosil qila boshlaydi. Bu tushunchalar tasavvur uchun zarurdir va maktab o'quvchisini ijodiy g'ayrat bilan rag'batlantirib turadi.

Nazariy topshiriqlar

1. Sezgi, uning tiplari, turlari, o'ziga xos xususiyatlari.
2. Idrok va uning turlari haqida javob bering
3. Diqqat va uning turlari haqida javob bering
4. Idrok va uning turlari haqida javob bering
5. Xotira va uning turlari haqida javob bering
6. Xotiraning qonuniyatlari haqida javob bering
7. Tafakkur nima?
8. Tafakkur operasiyalari.
9. Tafakkur turlari.
10. Tafakkurning mantiqiy shakllari.
11. Nutq va uning turlari.

12. Xayol va uning turlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro'ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2017 y.
3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent.2008 y.
7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.
9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.
10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y.
11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya", Darslik.Toshkent. 2008 y.
13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.
14. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.

OLTINCHI BO'LIM

VIII BOB. MULOQOT VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

8.1 Muloqot psixologik kategoriya sifatida

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'mi, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: “Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: “Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi”- deb

to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan hadeb muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, o'zgalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichi va ko'rinishidir.

A.N.Leontev o'zining “Psixika taraqqiyotidan ocherklar” kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: “Agar barcha katta avlod o'lib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi”. Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqat jihatlari va ta'sir vositalari.

Odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok qilishlari ularning perseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita taalluqli bo'lib, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya – birovlarining his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, “ko'pni ko'rgan” shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Aniq va to'g'ri tushunishga taalluqli qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Boshqa odam haqidagi ma'lumotning miqdoriy tomoni.

Birinchi bor to'qnashgan odamlarda bir-birlari haqida faqat birlamchi tasavvurgina hosil bo'lishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar talabalarga boshqa talabalarga baho berish topshirig'ini berishgan. Baholar birinchi to'qnashuv natijasiga ko'ra, bir haftadan keyingi qayta to'qnashuv natijasida va ikki haftadan keyin tekshirilgan.

Ma'lum bo'lishicha, eng aniq tasavvur ikki haftalik tanishuvdan keyingina paydo bo'lar ekan.

2. **Ma'lumotlarni olish tartibi.** Boshqa odam haqida berilgan ma'lumotga asosan unda o'sha odam haqida muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni qayta qurish, o'zgartirish ancha mushkul.

3. **Normal intellektning bo'lishi.** Intellekt juda yuqori bo'lganda ham, juda past bo'lganda ham boshqa odamni to'g'ri tushunish qiyin.

4. **Maxsus tayyorgarlikning bo'lishi.** Mutaxassislar 5 kursda o'qiyotgan psixolog talabalar bilan portret chizadigan rassomlarning boshqalarga bergan baholarini solishtirishlari natijasida rassomlarning baholari ancha aniqroq bo'lib chiqqanining guvohi bo'lishgan.

5. **Hissiy holatning ta'siri.** Nurrey degan olimning tadqiqotlarida turli emotsional holatni boshidan kechirayotgan shaxslarga boshqa odamni baholash topshirig'i berilgan. Bir seriyada tekshiriluvchilarga elektr toki bilan ta'sir etib turib, boshqa odamning rasmini baholashni tavsiya etishganda, baholanayotgan shaxsda johillikka yaqin sifatlar ham borligi aytilgan. Yaxshi emotsional holat boshdan kechirilayotgan seriyada esa o'sha odamda asosan yaxshi sifatlar qayd etilgan.

6. **Shaxsning ochiqligi.** Kundalik muloqotda ochiq, samimiy odam bilan tund, pisman odam baholari o'rtasida sifat farqlari aniqlangan. Bundan tashqari, odamning muloqot tajribasining boyligi ham uning boshqalar haqidagi tasavvurlarining aniq bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi barcha qonuniyatlarni hisobga olgan holda, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga psixologik tayyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, ayniqsa, bo'lg'usi psixologlar uchun muhimki, ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o'tkir didlilik, odob va kishilar psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, bu muloqotdagi bilimdonlikdir. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada noyob usuli bor, u ham bo'lsa, ijtimoiy psixologik treningdir.

Trening usulining ijtimoiy-psixologik mohiyati shuki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir. To'g'ri, odam kishilar

jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqot jarayonida turli muloqot shakllariga o'rganib, o'zida ma'lum muloqot malakalarini shakllantirib boradi. Lekin insonda bunday malakalar stixiyali tarzda yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumkin. Oxirgi holat hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishiga yordam beradi. Bu narsa insonda, Yu.N.Emelyanov ta'biri bilan aytganda, ijtimoiy aql-zakovatning shakllanishiga olib keladi. Ijtimoiy aql-zakovatga ega bo'lgan shaxs o'zini ham, o'zgalarni ham, ularning o'zaro munosabatlarini ham to'g'ri anglaydi hamda turli muloqot shakllarini bashorat qila oladi. Ana shunday aqlning bo'lishi uchun psixologlar maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni allaqachon taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda G'arbda mashhur bo'lgan T-guruhlar tashkil etilib, unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shaxslar taklif etiladi. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlariga guruhviy munozaralar, rolli o'yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. T-guruh a'zolari odatda 7 kishidan 15 kishigacha bo'lib, mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi. T-guruhning ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, odamlar o'rtasida iliq o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo'lida o'z qarashlarini ham qayta analiz qilish ehtiyojini paydo qiladi. Ikkinchidan, T-guruh a'zolari o'rtasida shunday umumiy "psixologik til" paydo bo'ladiki, ular tez orada o'zgalarni va o'z his-kechinmalarini anglabgina qolmay, balki bir-birlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularda muloqot mobaynida o'zini "o'zgalar" o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushunish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi. Uchinchidan, T-guruhdagi mashg'ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralaridan tashqari, uning mazmuniy tomonlari bo'yicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muomaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma'nosini tushunishga erishadilar. Masalan, "xayr, yaxshi qoling" iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytilishiga qarab, suhbatdoshning "yashirin" niyatlarini o'qib olish va shunga ko'ra harakat qilishga o'rgatadi.

8.2. Muloqat turlari, psixologik tomonlari va usullari

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi tuzilishini taklif etadi:

1. **Muloqotning kommunikativ tomoni** (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni).

2. **Muloqotning interaktiv tomoni** (ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarining ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish jarayoni).

3. **Muloqotning perseptiv tomoni** (ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Bu tizimning har bir tomonini keyingi bo'limlarda batafsil tahlil etiladi.

Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari-funksiyalarini ajratadilar. Masalan, taniqli rus olimi B.F.Lomov uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- a) ma'lumotlar almashinuvi funksiyasi;
- b) xulq-atvorni boshqarish funksiyasi;
- v) hissiyotlar almashinuvi.

Bu funksiyalar aslida G.M.Andreyeva ajratgan muloqot jabhalari-qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot **yo rasmiy yoki norasmiy** tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti, o'qituvchining o'quvchisi bilan muomalasi va hokazo, norasmiy muloqat – bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional

munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatlari, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari norasmiy muomala ko'rinishlaridir. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo ularning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni, uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilliligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot mavzui va yo'nalishiga ko'ra:

a) **ijtimoiy yo'naltirilgan** (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot, masalan, teleboshlovchining tomoshabishlarga murojaati);

b) **guruhdagi faoliyatning predmetiga yo'naltirilgan** (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot – mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);

v) **shaxsiy muloqot** (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);

g) **pedagogik muloqot** (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlar, jamoat ishlarini boshqaruvchilarning burchidir.

Muloqat jarayonining murakkab psixologik tabiatini bilish, turli sharoitlarda samarali munosabatlar o'rnatish malakasini oshirish uchun uning tarkibiga kiruvchi har bir element yoki bo'laklar bilan alohida tanishib chiqamiz.

Muloqotning kommunikativ tomoni

Muloqotning *kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi.* Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib *til* xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari, axborotlar, g'oyalar va hokazolarni bir-birlariga etkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan ikki turi farqlanadi: *yozma nutq hamda og'zaki nutq.*

Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi.

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rmini bosadi.

Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M.Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarining 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam

beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda hududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z hiskechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarning turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa-chi, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi, "yo'q" deyish yoki norozilikni bildirish uchun bosh sarak-sarak qilinadi.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-кетин o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tqazib davra qilib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqini o'stirish choralarini ko'rish kerak. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin. Buyuk pedagoglarimizdan V.A.Suxomlinskiy ham o'qituvchining madaniyati to'g'risida gapirib, bu madaniyatning tarkibiy va asosiy qismi nutq madaniyati ekanligini bejiz ta'kidlamagan.

Muloqot – interaktiv hamkorlik sifatida

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir

etishlarini ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorini, ularning ustanovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalaridir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Otaning gapini bola tomonidan bo'linmasligi, kattalar so'zlari va pand-nasihatlariga e'tiborli bo'lish ham bizning xalqimiz uchun norma hisoblanadi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, yoki otaga gap qaytra olsa, jamoatchilik, oilaning boshqa a'xolari o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi.

Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin ba'zan shunday bo'lishi ham mumkinki, rollarning ko'pligi rollararo ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, maktab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari ijtimoiy kutuvlar (ekspektatsiya) tizimi orqali boshqariladi. Masalan,

xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli, normal harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib etmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinhona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida endi barcha o'yinchoqqa tegish mumkinu, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yilgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Shaxslararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy va emotsional ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal yoki hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi – shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' – ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq

va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir-birlarini to'g'ri tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A.Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarini kuzatgan. Bunday mexanizmlarga *identifikatsiya, refleksiya va stereotipizatsiyalar* kiradi. **Identifikatsiya** shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib qo'yishga harakat qiladilar. Ya'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikatsiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib, o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'mashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotiplar – har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. A.A.Bodalev va uning shogirdlari bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar **kauzal atributsiya** (lotinchasiga “*kauza*”- sabab, “*attribution*”- bermoq, qo'shib, bo'rttirib bermoq ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o'qituvchi bilan hamsuhbat bo'lib qolgan odamda suhbat boshidayoq “hozir odob-axloqdan dars berishni boshlamasmikan” degan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko'rgan odam to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'rtasida bog'liqliklar o'rnatishga harakat qilarkan. Shunday bog'liqliklarni aniqlash maqsadida A.A.Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini,

17tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattiq odamlarning qaysarroq, qat'iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo'yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o'ta o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutloq to'g'ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, o'sha Bodalev talabalarining ikki guruhiga bir xil portret ko'rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu – davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so'ragan. Ko'rsatmalar har xil bo'lganligi sababli berilgan ta'riflar ham har xil bo'lgan. Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g'amxo'r, aqlli bo'lsa kerak, deyishgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar uni – beshafqat, makkor, agressiv, qat'iyatli deb ta'riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretidagi ko'zlarni dono, muloyim deyishgan bo'lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok qilish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham obyekt, ham subyekt bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning obyekt sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi" ning barcha sifatleri va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan ob'ektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

8.3. Muloqat pozitsiyalari va manipulyasiya

Ijtimoiy-psixologik treningning metodik talablariga quyidagilar kiradi:

1. O'quv jarayonida guruhda tashkil etilgan muloqot orqali guruhij jarayon yoki holatlardan individual holatlarga, ya'ni har bir ishtirokchining o'z shaxsiy "Meni" ni tushunishga olib kelish lozim. Chunki munozara yoki o'yinlar jarayonida ishtirokchilar vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, har bir holatdan o'zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur, yoki bo'lmasa, interpsixik jarayondan intrapsixikka aylanishi kerak.

2. T-guruhlarda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, uning nutqsiz-noverbal shakllari ham keng qo'llanilishi, ya'ni har bir o'rganuvchi o'z xulq-atvorini verbal nazorat qilishdan tashqari, o'z tanasi, har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushungan holda uni hayotda, amalda ishlatishiga erishish zarur.

3. T-guruhning har bir ishtirokchisi albatta o'z-o'zini kuzatish kundaligini yuritmog'i, unga har galgi mashg'ulotdan so'ng o'z his-kechinmalari, muammolarni echishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlari va boshqalarni odilona yozib borishi ham muhimdir.

4. T-guruhga a'zo bo'lish ixtiyoriy bo'lganligi uchun ham uning har bir a'zosi mashg'ulotlarni sira ham qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu narsa o'quv guruhining muhitiga, a'zolarning o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi.

5. Mashg'ulotlar maxsus xonalarda, shovqin-surondan xoli yerda tashkil etilishi, u yer did bilan bezalgan, shinam bo'lmog'i lozim.

6. T-guruh a'zolari mashg'ulotlarga o'zlari uchun qulay kiyimlarda kelishlari lozimki, bu narsa boshqalarda ham, o'zida ham ortiqcha hissiyotlarni tug'dirmasligi kerak.

7. Instruktor yoki shu mashg'ulotlarni o'tkazuvchi trenerga alohida e'tibor berish zarur. U o'zi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, xushmuomala, did bilan kiyingan, har bir mashg'ulotga ataylab tayyorgarlik ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. U o'z kayfiyati, munozara yoki o'yinga shaxsiy munosabati bilan mashg'ulotning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo'lishi zarur

Mashg'ulotlarni tashkil etish shakliga kelsak, u maqsad va mazmunga mos holda "yumaloq stol" atrofida, to'rtburchak stol atrofida, gilam ustida, ba'zan tik holda amalga oshirilishi mumkin.

Afsuski, T-guruhlar ayrim hollarda yirik shaharlardagi yirik sanoat korxonalari rahbarlarini muloqotga tayyorlash, mas'ul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagina o'tkazilmoqda. Vaholanki, muloqotdagi bilimdonlikka erishish, "ijtimoiy aql" ga ega bo'lish barcha mutaxassislariga zarur. Amaliy psixolog xoh maktabda bo'lsin, xoh sanoat korxonasi yoki boshqa idora va o'quv yurtida bo'lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o'rgangan holda, u erda rahbariyat bilan kelishilgan holda T-guruhlari tashkil etmog'i va shu yo'sinda ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog'i zarur.

8.4. Nizolar psixologiyasi va uning kelib chiqishi

Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklarni bo'lib turishi muqarrar. Shuning uchun ba'zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq e'tirof etadilar. Masalan, G. Andreyeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, shunady harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi. Bunday nizolar oqibatida ko'ra **konstruktiv** deb ataladi. **Destrktiv** nizoning oqibati esa ko'pincha salbiy bo'lib, u shaxslararo antogonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o'rtasida, yohud qaynona va kelin o'rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo'lishi va bir butun oila buzilib ketishi mumkin.

Ho'sh, ijtimoiy psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga qanday ta'rif berish mumkin?

Konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi

fikr, qarash va pozitsiyalarning to‘qnashuvi oqibati paydo bo‘lgan salbiy hissiyotlarga to‘la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisadir.

Konfliktni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar nihoyatda ko‘p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. **Informatsion-axborot omillari**: muloqot jarayonida sheriklarga noto‘g‘ri tarzda etib keladigan noto‘liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; shubhalar, to‘la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda etkazilayotgan ma‘lumotlar; axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo‘qligi; ayrim xodisa, voqealarga aloqador bo‘lgan tortishuv va klishmoqchiliklarga sabab bo‘lgan qoidalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boshqalar ham shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo‘lishi mumkin.

2. **Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar**: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, xokimiyat yo‘nalishidagi amal va xisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, an‘analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag‘batlantirish va jazolash, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar;

3. **Qadriyatlarga aloqador omillar** (o‘zimiz e‘tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, gruppaviy yoki shaxsiy e‘tiqod, ishonmagan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo‘lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar;

4. **Munosabatlar omili**: bunday omillar bevosita o‘zaro aloqalar va muloqotdan insonning qoniqishi yoki noma‘qul, deb e‘tirof etishidan kelib chiqadi. Shaxslararo o‘zaro munosabatlarda ko‘proq bir shaxsning kutishlariga boshqa bir insonning yoki odamlarning muomalasi mos kelmasligi xolatlarida shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo‘lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho‘zilib ketganda, battar “gazzak” otishi, qisqa fursatda xal etilsa, muammo xal bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy muloqotdagi nizolar shaxsning hayotiy tajribasi, ma‘lumotlilik darajasi, professional mahoratiga bog‘liq ravishda turli ko‘rinishlarda o‘z echimini topishi mumkin;

5. **Xulq-atvor bilan bog‘liq omillar**: Manfaatlar, qiziqishlar, o‘ziga bo‘lgan bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug‘diruvchi

vaziyat paydo bo'lishi bilan go'yoki, himoya vositasi sifatida paydo bo'luvchi omillar turkumi bo'lib, bu ikkinchi tomonning xudbinligi, adolatsizligi, mas'uliyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. Nizokashlar bunday sharoitda o'zlariga nisbatan bo'layotgan salbiy munosabatni xatti-harkatda ko'rib, sezib turganlari bois xaqagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi.

Konflikt yoki nizolar o'zaro munosabatlardagi odamlarning subyektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkinki, shu nuqtai nazardan ham konfliktlarning turlari farqlanadi:

Shaxsning o'ziga aloqador bo'lgan ichki nizolar – odatda bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o'rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiy, pedagogik hamda patopsixologiyaning predmeti bo'lib, u asosan bir inson qalbidagi turli his-kechinmalar, istak-hoxishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo'lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo shaxsgagina ma'lum bo'ldai, ba'zan esa odam qilib qo'ygan ishining aynan o'zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda unga pisxoanalitik yoki patopsixolg yordamga keladi.

Shaxs va guruh o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar odatda bir shaxs qarashlari, hatti-harakatining u mansub bo'lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh normalaridan og'ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro'y bersa, bu guruh a'zolarining malakasizligi yoki rahbarning odamlarni boshqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Demak, bunday jamoada psixologik, ma'naviy muhit nosog'lom bo'ldaiki, shaxs bilan boshqa shaxslar o'rtasida kelishmovchilikka olib keladi.

Guruhlararo ziddiyat yoki nizo - ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ruy beradi va bunda ularning o'z maqsadlari erishishlariga bir-birlarining halaqit berishlari asosiy omillardan hiosblanadi. Ko'pincha muayyan formal, rasmiy guruh a'zolari guruhbozlikka berilib, har bir kichik guruh manfaatlari bir-biriga mos kelmay qolganda ham nizo kelib chiqadi. "Guruhbozlik" deb atalmish bunday xolat ham ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan zarali bo'lib, bu yaxlit jamoadagi ma'naviy muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir jamoa rahbariyati va rasmiy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o'rtasida ham nizo kelib chiqadi. Lekin bu haolatlarni sog'lom

raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, masalan, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatdan farqlash lozim.

Shaxslararo nizo – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarfalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvoriga ham, konkeret vazyaitlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq xolda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolar biri – bu er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiati ham, davom etish muddati ham, xal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.

Shaxslararo nizolarning kelib chiqishi quyidagi xolatlarga bog'liq bo'ladi:

- mehnat jarayonlari va ishlab chiqarish vaziyatlariga;
- jamoa a'zolarining shaxsiy xususiyatlariga;
- turli vaziyatlarga shaxsning sub'ektiv munosabatiga;
- shaxslararo munosabatlarning turli vaziyatlardagi turlicha namoyon bo'lishiga.

Shaxslararo nizo ochiq yoki yashirish tarzda namoyon bo'lishi mumkin.

Ochiqdan ochiq yuz beradigan nizolar odatda tortishib qolgan shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita xatti-harakatlari tarzida namoyon bo'ladi. Bunday nizoni kuzatish, qayd etish va unga keark bo'lsa, aralashish ham mumkin bo'ladi. Yashirin nizo esa ochiq namoyon bo'lmaydi, balki u turli xufyona usullar bilan amalga oshiriladi. Tashqaridan qaragan odam bunday nizing mavjudligini sezmaydi.

Ba'zan nizolar obyektiv sabablar, shart-sharoitlar bois vujudga keladi. Masalan, agar bu ishlab chiqarishda bo'lsa – ish sharoitlarining yomonligi, xizmat vazifalarining noo'rin taqsimlanganligi, kadrlar salohiyatiga bee'tiborlilik, mehnatni rag'batlantirishdagi adolatsizlik kabilar odamlar o'rtasida muayyan tangliklarni keltirib chiqaradiki, bu shaxslararo o'zaro munosabatlarda o'z aksini topib, ularning o'zaro va xodimlarning rahbarlar bilan urushib qolishiga, yashirin yoki ochiq

konfrontatsiyaga olib keladi. Bu kabi nizolarni bartaraf etish uchun uni keltirib chiqqan obyektiv shart-sharoitlarni o'zgartirish yoki kamchiliklarni yo'qotish orqaligina amalga oshiriladi. Chunki jamoadagi bunday nizolar o'ziga xos signal funksiyasini bajaradiki, u orqali rahbarlar mehnat jamoasida noma'qul psixologik muhit paydo bo'layotganligidan xabardor bo'ladilar.

Subyektiv sabablar yoki omillar tufayli kelib chiqadigan nizolarga aksariyat xolatlarda odamlarning o'zlari, ularning shaxsiy xususiyatlari, ulardagi ehtiyoj, istak va maslaklarning nomutanosibligi asos bo'ladi. Bunda qaror qabul qiluvchining qarori boshqalarga noma'qul bo'lishi, ular mehnati adolatsiz bo'olanishi, ayrim shaxslarning esa ochiq tabiatan janjalkash ekanligi sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, nizolar quyidagicha toifalanadi:

- **gorizontal** – bir-biriga bo'ysunmaydigan, tobe bo'lmagan oddiy xodimlar o'rtasida;

- **vertikal** – o'zaro bir-biridan amal pog'onasi bo'yicha farq qiluvchilar, masalan, rahbar bilan xodim o'rtasida;

- **aralash** - shaxslararo munosabatlarda u va bu xolat uyg'un kelganda. Odatda ishlab chiqarish faoliyatida eng ko'p tarqalgan nizo turi vertikal va aralash bo'lib, ular jami nizolarning 70-80 foizini tashkil etadi.

Nizolarni bartaraf etish usullari

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo'lgan bo'lsa, bartaraf etish uchun uning kelib chiqish sababini, asosiy aybdorlarni yoki ob'ektiv sabablarni aniqlash lozim. Mutaxassislar nizolarni bartaraf etishning ko'plab usullari va yo'llari borasida tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Masalan, X. Kornelius va Sh. Feyerlar uni xal qilish uchun **nizo xaritasini** tuzishni taklif etadi. Unga ko'ra, nizoli vaziyatni aniqlash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1) nizoni keltirib chiqqan muammoning umumiy qirralarini ochish, masalan, agar ishlab chiqarishdagi nizo ish xajmining to'la bajarilmaganligi sababli kelib chiqqan bo'lsa, avvalo ish taqsimoti diagrammasini tuzish kerak;

2) nizoning asl sababini aniqlash, zero, aynan shu ish odatda eng mushkul ish hisoblanadi;

3) nizoning haqiqiy ishtirokchilarini aniqlash – alohida shaxsmi, guruhmi yoki uyushmami;

4) nizoga sabab bo'lgan shaxsiy xohish, istaklar, nizokashlarning aynan nimani istayotganligini aniqlash;

5) nizoga qadar nizokashlarning o'zaro munosabatlari qanday bo'lganligini bilish;

6) bevosita nizoda ishtirok etmagan, lekin uning ijobiy xal etilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslarning nizoga munosabati.

Bu kabi strategiya avvalo nizoning chuqurlashib ketmasligi, unga yana ko'plab shaxslarning aralashib ketmasligini ta'minlaydi.

Tabiiy, mutaxassislar va olimlarni shaxslararo munosabatlar jarayonida turli vaziyatlarda paydo bo'ladigan nizolarni baratarf etish masalasi qiziqtiradi. Rus olim G.N Smirnov turli nizolarni bartaraf etishga imkon beruvchi ikki guruh usullarni taklif etadi – tizimiy hamda shaxslararo.

Nizolarni xal qilishga bog'liq bo'lgan tizimiy usullarga u quyidagilarni kiritadi:

1) *ishga nisbatan qo'llaniladigan talablarni tushuntirish*, masalan, ishchi yoki xodim o'z xizmat vazifasini to'laqonli ado etolmaganligi sababli u bilan rahbar o'rtasida nizo kelib chiqqan bo'lsa, nizoni barataraf etishga axd qilgan ikmsa shu xizmat lavozimiga qo'yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan qatorda uning burch va mas'uliyatini ham yana bir marotaba uqtirib qo'yadi;

2) *muvofiglashtiruvchi va birlashtirish usullari*. Odatda bir xodimning ish samarasi boshqa bir xodimga yoki xodimlarga, qolaversa, boshqa tuzilmalarning aniq va yaxshi ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo'lishiga boshqa bir tuzilma ishidagi nomuvofiqliklar sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda rahbar nizoni barataraf etish uchun o'sha boshqa aybdor tuzilmaning faoliyatini aniq yo'lga qo'yishi, yoki xodimlar o'rtasida murosa bo'lishi uchun boshqa bir qo'shimcha muvofiglashtiruvchi bir bo'g'inni ishlab chiqarishda joriy etishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish nizosining sababi – xom ashyoning vaqtida etkazib berilmayotganligi bo'lsa, rahbar ta'minotchilar ishini muvofiglashtiradi, ular faoliyati bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida birlik va hamjihatlik bo'lishiga erishish yo'lida aniq yo'nalishlarni belgilaydi;

3) *barcha ishlab chiqarish sub'ektlari faolyaitini yagona maqsad atrofida birlashtirish* ham ishlab chiqarish jarayonlarida nizolarning

sodir etilmasligini kafolatlaydi. Bunday sharoitda rahbarlar va guruh liderlarining roli katta bo'ladi;

4) *rag'batlantirish tizimini joriy etish* samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bunday sharoitda odamlarning xulq-atvoriga ta'sir etish, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarga barham berish yoki sodir bo'lgan bo'lsa, uni baratarf etish uchun tashakkur bildirish, mukofotlash, xizmat lavozimni ko'tarish kabilarni qo'llash ijobiy samara berishi mumkin.

Nizolarni bartaraf etishning **shaxslaro munosabatlarga aloqador usullariga** quyidagilar kiradi:

1) *bosh tortish* – nizoga nisbatan shunday reaksiyaki, bunda nizoga guvoh bo'lganlar aslida uning mavjudligini tan olmaydilar, unga aralashishdan bosh tortadilar. Odatda bunday sharoitda rahbar yo ayni paytda vaqti yo'qligini, imkoniyat yo'qligini, nizoning sababi arzimas xolat ekanligini vaj qilib, uni xal qilishga aralashishdan bosh tortadi. Yoki u vaziyat taqozosi bilan paydo bo'lgan nizo vaqt o'tishi bilan o'z o'zidan echimini topadi, odamlar insofga kelib qoishiga umid qiladi;

2) *tekislash* – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud xolatga “ko'ndirish”, moslashtirish va shu yo'l bilan o'zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilishdir. “Mayli men yutqazsam ham, sening ishing bitib keta qolsin” degan naqlda nizoga aralashgan shaxs vaziyatni yumshatishga erishadi, go'yoki “o'zni qurbon qilib” bo'lsa ham tomonlarning yarashib ketishi uchun barcha imkoniyatni yaratadi;

3) *kompromiss* – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq-atvori va fikrlarini muhokama qilish yo'li bilan ikkala tomon uchun ham ma'qul bo'lgan echimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan shaxs ikkala tomonning ham aybini, ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ochiq, xolis o'rtaga tashlaydi va eng ma'quli – o'ar bir shaxs o'z burch va mas'uliyatlarini taroziga solib olishlari ekanligini uqtiradi. Natijada ikkala tomonda xosil bo'lgan tanglik ma'lum ma'noda yumshaydi va oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyati tug'iladi. Nizokashlar janjal bo'lgandan ko'ra yomon bo'lsa ham bir qarorga kelinganligidan xursand bo'lib, o'z fikrlaridan ma'lum ma'noda qaytadilar, vaqt o'tgach esa vaziyat umuman yumshab, tomonlar yarashib ketishi mumkin. Odatda oilaviy nizolarda kompromiss yo'lini tutgan oilaning

katta a'zosi yoki erkak kishi nizoning oldini olishga erishadi, bunda biror tomonning "bir gapdan qolishi" katta rol o'ynaydi;

4) **raqobat** – odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamomo engilishini nazarda tutadi. Ya'ni, bunda "Men yutishim uchun sen mutloq engilishing shart" degan tamoyil ustivor bo'ladi. Bunday usul albatta, psixologik nuqtai nazardan samarasiz va noto'g'ri bo'lsa ham, ayrim xolatlarda masalaning aynan shu tarzda echilishi boshqalarning iqtidori yoki irodasining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Masadan, oilaviy majoroda kelin agar nohaq bo'lib, yoshligi tufayli arazlab, barchaning dilini xira qilishi va ushbu vaziyatda baribir qaynonaning sabr bilan ustun kelishi, baribir aytganini qildirishi yosh kelinchakning kelgusini shu kabi xatti-harakatni boshqa qaytarmasligi uchun saboq bo'lishi mumkin;

5) **hamkorlik** – bu nizoni xal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqaran muammodan ustun qo'yiladi. Bunday xolatlarda nizokashlar bir tomon manfaatining inobatga olinmasligi, ikkinchi tomonning boshqa manqaatini erga urishini tushungani uchun ham murosa yo'li to'g'ri ekanligi, yaxshisi mavjud muammmoni yechishga teng kirishish lozimligi fikriga kelib to'xtaydilar.

Shunday qilib, real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va echimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko'ra, ushbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan sub'ektiv munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli xolatlarda unga aloqador bo'lib qolgan insonlar quyidagi qoidalarni yodda tutishlari lozim:

1. Nizoli vaziyatda aql emas, balki hissiyotlar ustun bo'lishini unutmang, hissiyotlar esa odamning jahli chiqib, aqli ketib qolishiga turtki bo'ladi va u o'z xatti-harakatlari va gapirayotgan so'zlarini nazorat qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan shu qilgan ishingiz uchun o'zingiz qattiq aziyat chekib, xijolat bo'lib qolishingiz mumkin. Shu bois ham ishdami, oiladami yoki jamoatchilik joylaridami odamlar bilan muloqot qilganda, ularning insoniy nafsoniyatiga tegadigan, sha'ni va oriyatiga tegib ketadigan mulohazalardan o'zingizni saqlang, o'zingizni o'zgalardan ustun qo'yishdan ehtiyot bo'ling, kamtarlik shioringiz bo'lsin.

2. O'zgalar bilan muomalada ularning hurmatini joyiga qo'yib, so'zlashishning yumshoq maromini tanlang. Masalan, "Kechirasiz..", "Sizdan minnatdor bo'lardim, agar...", "Sizga malol kelmaydimi?" kabi iboralarni ishlatish odatga Sizga nima sababdandir yomon munosabatda bo'layotgan insonni ham yumshatadi, undagi salbiy hislarning junbushga kelishiga yo'l qo'ymaydi.

3. Ish faoliyat bilan bog'liq munozaralarda agar suhbat taranglashib borayotgan bo'lsa, ikkala tomonning manfaati to'g'risida emas, asl masalaning, muammoning mohiyati xususida kechishiga e'tibor berib, xolis faktlarga ko'proq urg'u bering. Imkon boricha suhbatdoshni tinglashga intiling, zero, tinglash olish mahorati sizning yaxshi suhbatdosh ekanligingizning muhim ko'rsatgichidir. Bu o'rinda Deyl Karegi kabi muloqot ustalarining tajribasini eslang.

4. Har qanday masala xususida uning echimi yagona bo'lmasligini unutmang, chunki barcha xolatlarda qiyin vaziyatdan chiqishning bir qator usullari, yo'llaribo'lishi tabiiy. Shuning uchun sizning fikringizga zidroq kelayotgan fikrni suhbatdoshdan eshitganingizda, "Balki men xato qilayotgandirman" deb uning fikrlash tarzidagi to'g'ri mulohazalarni tahlil qiling, uning fikridagi ijobiy va salbiy jihatlarni ajrating, ularning real oqibatlariga baho berib ko'ring. Bunday xolatlarda hech bo'lmaganda "Men Sizning fikringizga to'liq qo'shilmasamda, bergan taklifingizni albatta o'ylab ko'raman, menga biroz imkon bering" desangiz olam guliston!

5. Nizoli vaziyatning xal bo'lishining o'zingiz uchun manfaatli tomonlarini anglang va o'zingizga shunday savol bering: "Agar echim topilmasa, nima bo'ladi?". Bunday munosabat nizoni shaxslararo munosabatlardan muammoning echimiga ko'chirilishiga turtki bo'ladi.

6. Agar suhbatdosh ikkalangiz ham achchiqlanib turgan bo'lsangiz va ish urushib qolishgacha borib etayotganligini anglasangiz, o'zingizdagi ichki tanglikni, "zarda"ni chiqarib yuborishga harakat qiling. Chunki agar achchig'ingizni tashqariga chiqarsangiz, bu u tomonning ham qaynab ketishiga sabab bo'lib, vaziyatni nazorat qilib bo'lmay qoladi. Eng yaxshisi, o'zingizni tiyib, gapirishdan to'xtang, mayli suhbatdoshingiz ichidagi to'kib solaversin, undagi jaxl va salbiy hissiyotlarni betiga aytishdan o'zingizni tiying, kelgusida uning shunday vajlhatga tushishi mumkinligini unutmang.

7. Siz bilan urushib qolgan odamning ham qandaydir fazilatlari, yaxshi sifatlari borligini unutmang va diqqatingizni ana shu jihatlarga qarating. Masalan, er va xotin urushib qolgan paytda ayol qanchalik baland ovozda o'z dardini to'kib solayotganligiga qaramay, uning farzandlarning onasi, mehribon ekanligini, ularga shunady qiliqlar qilmasligini er yoddan chiqarmasa bas.

8. Suhbatdoshingizga sizning o'rningizga turib, masalani xal qilish yo'lini o'ylashga chorlang, masalan, unga taxminan shunday murojaat qiling: "Meni o'rnimda bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?" Bunday murojaat suhbatdoshni hissiyotlardan real vaziyatni xolis baholash maqomiga o'tishiga asos bo'ladi va unda tanqidiy ruhni biroz bo'lsa-da, yumshatadi.

9. Suhbatdosh oldidagi afzalliklaringiz, xizmatlarinigizni minnat qilib, xaspo'shlang. Sodir bo'lgan nizoli vaziyat va voqeaning sababchisi faqat suhbatdoshingiz ekanligi fikridan qayting.

10. Paydo bo'lgan ziddiyat qanday xal bo'lishidan qat'iy nazar, shu inson bilan batamom munosabatlarni uzil-kesil uzib tashlamang. Masalan, agar bu er va xotin o'rtasidagi ixtilof bo'lib, u ajrim bilan tugagan taqdirda ham o'rtada farzand borligini, baribir hayot so'qmoqlarida bir kun bo'lmasa bir kun uchrashib, qandaydir yangi bir muammoni birgalikda xal qilishga to'g'ri kelishini sira unutmang.

Shu kabi vaziyatlar turli faoliyat jabhalarida uchrashi mumkin, yuqoridagi qoidalarni unutmaslik insonning o'ziga, salomatligiga, odamlar orasidagi obro'siga bevosita aloqador ekanligini, yashash ba'zan ziddiyat va nizolar bilan yanada yaxshi bo'lishini hech kim unutmasligi kerak.

IX BOB. GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

9.1. Jamoa va guruhlar psixologiyasi. Katta va kichik guruhlar klassifikatsiyasi

Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q, inson jamiyatda yashar ekan, u doimo turli o'ziga o'hshash shaxslar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro'y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarining shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Psixologik ma'noda *guruh* – *bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir*. Demak, odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p: o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin yoshlar), ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo. Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor – bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlargi boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarining turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreyevaning "Ijtimoiy psixologiya" darsligidagi klassifikatsiya guruhlarining asosiy turlarini o'z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo *shartli va real guruhlar*ga bo'ladi. Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarida to'plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlariga bo'linadi. Konkret faoliyat va odamlarning ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarining o'zi kishilarning soniga qarab *katta, kichik*

guruhlarga bo'linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o'z navbvtida endi shakllanayotgan – diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniqsa muhim hisoblangan turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan holda, bevosita katta guruhlarning ijtimoiy psixologik qonuniyatlarini o'rganishga o'tamiz.

Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq qilish prinsiplari. Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarining o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek, ko'pchilikni qamrab olishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasining kamligidir, ya'ni, katta guruhlarning psixologiyasini o'rganishga mo'ljallangan maxsus metodikalar kam ishlab chiqilgan. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni qo'yadi. Shuning uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy, yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi.

Ijtimoiy psixologik ma'noda, *hayot tarzini o'rganish* deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliigi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi. Masalan, 90-yillar yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarqalgan urf-odatlar, moda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar, qiziqishlar va hokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini to'liq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va boshqa individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarning qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur. Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga aloqador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millat, elat sinfga mansubligiga aloqador psixologik xususiyatlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kerak.

Kichik guruhlar psixologiyasi

Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'ektlardandir. Bu an'ana Amerikada asrimiz boshida o'tkazilgan ko'plab eksperimental tadqiqotlardan boshlangan bo'lib, ularda olimlar oldiga qo'yilgan asosiy muammo shu ediki, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi kabi savollarga aniq ilmiy asoslangan javob topish zaruratidir. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda indvidlarning o'zaro hamkorligi (*interaksiya*) emas, balki ularning bir vaqtda bir erda birga bo'lganligi faktining (*koaksiya*) ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi, lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N.Triplett, nemis olimi A.Mayyor, rus olimi V.M.Bexterev, yana bir nemis olimi V.Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy

psixologiyada *ijtimoiy fatsilitatsiya* nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa indvidlarning bevosita ta'siri bo'lib, bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatildi, ya'ni, boshqalar ta'sirida individ reaksiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari kuzatildi. Bu xodisa fanda *ingibitsiya* nomini oldi. Lekin olingan faktlarning qandayligidan qat'i nazar, olimlar uchun kichik guruhlar asosiy tadqiqot mavzuiga aylanib qoldi va ular natijasida qator qonuniyatlar ochildi.

Birinchiidan, kichik guruhlarining *hajmi*, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh "diada" ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila – yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda "plyus-munis 7 – 2" kishi nazarda tutiladi. Bunday guruh turli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchiidan, guruhning *o'lchami* qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni, shaxsning ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilligi ortib boradi.

Uchinchiidan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo *o'zaro munosabatlar taranglashib* boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

To'rtinchiidan, agar guruh a'zolarining soni *toq* bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror lavozimlarga saylashda, saylov kompaniyalarida nomzodlarni elektoratga taqdim etishda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

Beshinchiidan, shaxsning *guruh tazyiqiga* berilishi va bo'ysuniishi ham guruh a'zolarining soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, ko'chada sodir bo'lgan baxtsiz

hodisaniing guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, mas'uliyat hissi pasayib boradi.

Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarni boshqarish ishini ancha engillashtiradi. Bu qonuniyatlarni ayniqsa, maktab pedagoglari va murabbiylar uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ular aslida ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan kichik guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalaydilar, buning uchun esa ular mansub bo'lgan guruh faoliyatini boshqarish, guruh orqali ayrim-alohida shaxsni tarbiyalashni zimmalariga oladilar.

Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi

Tarixan kichik guruhlarni *rasmiy va norasmiy* turlarga bo'lish qabul qilingan. Bunday bo'linishni amerikalik olim E.Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, *rasmiy guruh* har bir a'zolarning rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o'rnining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlar asosan "vertikal" tarzda ro'y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida "hokimiyat" bo'lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni – ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o'quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.

Rasmiy guruhlardan farqli o'laroq *norasmiy guruhlar* ham mavjud bo'ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarning aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo'lmaydi. Ko'pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo'lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatleri tufayli ajralib chiqqan a'zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy psixologiyada *referent guruh* tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G.Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi. U o'z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo'lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo'lar ekanki, u o'z xatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida o'sha guruh a'zolariga ergashish, ularni tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo'lar ekan. Shunday shaxslar

guruhi referent guruh nomini oldi. O'quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o'qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do'sti yoki qarindoshlaridan kimdir o'ynashi mumkin. Shunisi xarakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo'lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruhi) tarkibida yoki unga qarshi bo'lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo'lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, uning xulq-atvori uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so'ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o'ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulq-atvorini bashorat qilish mumkin.

Guruhda o'zaro moslik va psixologik muhit

Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning *dinamik jarayonlari* deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta'siri kabilar tushuniladi.

Guruhning shakllanishi, uning paydo bo'lishi haqida gapiriladigan bo'lsa, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo'ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning tug'ilishi, rivojlanishi va ularning maktablarda ta'lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o'xshash oliy ma'lumotli shaxslar kerak bo'lganligi uchun paydo bo'ladi va hakoza. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni. Uni sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo'linishi taqozo qiladi. Lekin guruhga a'zo bo'lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhij jarayonlarning guvohi bo'ladi.

9.2. Guruhda boshqaruv muammosi. Konformizm va uning oqibatlari

Birinchi, guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda *psixologik ta'sir* ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada *konformizm* deb ataladi (o'zbek tilida "moslanish" ma'nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, hulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish, uning ta'siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday hatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: *tashqi konformlilik* - individ guruh fikriga nomigagina qo'shiladi, aslida ruhan u guruhda qarshi turadi: *ichki konformlilik* - individ guruh fikriga to'lig'icha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa "*negativizm*" tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi.

Guruhlardagi yana bir jarayon - bu guruhning *uyushqoqligi* muammosidir. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashliri, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi asosiy omil - bu o'sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiy uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi.

Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi, lekin bu masalalarni boshqarish psixologiyasi masalalari doirasida keyingi bhlimlarda o'rganamiz.

Etnik guruhlar psixologiyasi

Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlar ichida etnik guruhlar psixologiyasi, ya'ni etnopsixologiya bo'yicha ko'proq tadqiqotlar

o'tkazildi. Ayniqsa, hozirgi davrda har bir respublikalar alohida, mustaqil davlat mavqeini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruhlar ichida milliy guruhlariga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik, bunday e'tiborning yana bir boisi – O'zbekistonda bu sohada nisbatan tadqiqotlarning ko'proq o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidandir.

Milliy psixologiya nima va uni qanday qilib o'rganish mumkin? Bu hozirda, ya'ni mustaqil O'zbekiston sharoitida, ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan masaladir. Chunki davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma'lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo'lgan hozirgi va o'tmishdagi holatni emas, balki millatning ertangi kunini, uning ongi qaysi tomonga o'zgarishini, millatlararo sodir bo'ladigan jarayonlarni bashorat qilmog'i lozim. Buning uchun esa unga kuchli etnopsixologik nazariya va ishonchli metodlar kerak. O'zbekiston olimlari oxirgi paytlarda masalaning xuddi ana shu tomoniga katta e'tibor bermoqdalar. Chunki sobiq Ittifoq sharoitining o'zi ana shunday kuchli nazariyaning bo'lishi uchun anchagina to'g'anoq bo'lgan, empirik tadqiqotlar esa, avval ta'kidlaganidek, tor guruhlar doirasidan, avvalo, oilalar doirasidan chiqmagan edi.

Etnopsixologiya – bu psixologiyaning shunday tarmog'iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlarini ham o'rganadi. Ma'lumki, bu boradagi birinchi ilmiy tadqiqotlarni V.Vundt boshlab bergan edi. Uning tadqiqotlaridagi "xalq" tushunchasi aslida etnik uyushma ma'nosida tushuntirilgan edi. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o'rganish uchun ularning tilini, odatlarini va ana shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar va boshqa ong tizimlarini o'rganish kerak. Shunisi diqqatga sazovorki, Vundtdan keyingi davrda o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri bizning o'lkamizda o'tkazilgan bo'lib, uni psixolog A.R.Luriya amalga oshirgan edi. Bu eksperimental tadqiqot bo'lib, uni o'tkazishdan asosiy maqsad L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuv g'oyasini tekshirish edi. Luriya boshchiligidagi olimlar guruhi revolyusiya bo'lib o'tgan

O'zbekiston sharoitida turmush tarzining o'zgarishi bilan o'zbek xalqi psixologiyasining ham o'zgarganligini isbot qilmoqchi bo'lganlar. Asosiy maqsad bilish jarayonlarining o'zgarganligini isbot qilish bo'lsa ham tadqiqotchilar o'z-o'zini anglash va o'z xulq-atvorini analiz qilish borasida ham uyda o'tiradigan ayollar, endigina savod olish maqsadida savodxonlik kurslarida o'qiyotgan xotin-qizlar hamda pedagogika bilim yurtlarida ta'lim olayotgan qizlar o'rtasida farq bor-yo'qligini tekshirishdi. Tadqiqot asosan o'z-o'zini analiz qilish metodi yordamida o'tkazilgan bo'lib, tadqiqot mobaynida ayollarga turli savollar orqali o'z shaxsiga xos xususiyatlarni, o'zidagi etakchi sifatlarni aniqlash va ba'zi psixologik holatlarga baho berish topshirig'i berildi. Lekin javoblarning sifati, to'liqligi ayollarning bilim saviyasiga va ijtimoiy aloqalar tizimida tutgan o'rniga bog'liq bo'lib chiqdi. Uyda o'tirgan ayollar ko'p hollarda qo'yilgan savolni ham anglamasliklari ma'lum bo'ldi. Luriya shu narsaga iqror bo'ldiki, o'zbeklardagi ong asosan boshqa odamlar fikriga bog'liq ekanligi, tobelik psixologiyasi kuchliligini aniqladi. Masalan, ayollarga o'zidagi yomon sifatlarni aytish topshirig'i berilganda, ular yomon qo'shnilarni ko'rsatishar va umuman o'z-o'zini baholashdan ko'ra boshqalarni baholash, ularga sifat xarakteristikalarini berish ancha yengil tuyulardi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, A.R.Luriyaning asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o'rganishda tarixiy tamoyiliga tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda kishilar munosabatlari tizimida tutgan o'rniga bevosita bog'liqligini isbot qilish edi. Lekin tadqiqotning ahamiyati shunda ediki, unda birinchi marta milliy psixologiyani o'rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik tamoyillar sinab ko'rildi. To'g'ri, bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar va ilmiy xulosalar bilan bugungi kunda kelishib bo'lmaydi, qolaversa, bu konsepsiyaning o'zi necha bor qayta ishlovni talab qildi, lekin milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilgan kross-tadqiqot sifatida uning ahamiyati kattadir. Qo'llangan piktogramma – “so'z portretlari”ni, o'z-o'zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham faqat yangicha metodologik prinsiplarda qo'llash mumkin.

Oxirgi yillarda chet el va sobiq Ittifoq olimlarining tadqiqotlarini umumlashtirib, etnopsixologik ishlarga yagona ilmiy yondashuvni topish harakatlari sezilmoqda. Bu sohada mashhur rus etnografi va psixologi Yu.Bromley olib borgan ishlar, uning laboratoriyasida

to'plangan ma'lumotlar misol bo'lishi mumkin. Yu.V.Bromley etnik guruhlar psixologiyasida ikki tomonni farq qiladi:

1) **psixik asos** – etnik xarakter, temperament, milliy an'analar va odatlardan iborat barqaror qism;

2) **hissiyot sohasi** etnik yoki milliy his-kechinmalarini o'z ichiga olgan dinamik qism. Lekin tadqiqotchilar nima uchundir, milliy psixologiya masalalari bilan shug'ullanishganda, milliy qirralar yoki sifatlarni aniqlash bilan shug'ullanadilar-da, u yoki bu millatlargagina xos bo'lgan qirralarni topishga urinadilar, lekin fan-texnika rivojlangan, millatlar uyg'unligi, millatlarning doimiy o'zaro hamkorligi va muloqoti sharoitida, aralash nikohlar keng tarqalgan sharoitda faqat u yoki bu millatga xos bo'lgan qirralar haqida gapirish juda qiyin. Masalan, o'zbekistonliklar o'rtasida o'tkazilgan kichik tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, mehmonnavozlik, kamtarlik, samimiylik kabi ijobiy sifatlar o'zbek xalqigagina xos emish. To'g'ri, bu sifatlar albatta o'zbeklarda bor. Lekin, aynan shu sifatlar boshqa millatlar vakillarida yo'q deyishga xaqqimiz yo'q. Xuddi har bir shaxs ongida turlicha stereotiplar, ya'ni, o'rnatilgan qolgan obrazlar bo'lganidek, har bir oila, yaqin oshna-og'aynilar va o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqot jarayonida u yoki bu millat vakilida ham o'z millatiga xos bo'lgan sifatlar haqida stereotiplar paydo bo'lib, ular ongida o'rnatilgan boradi. Bunday stereotiplar o'z millatiga va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lib, boshqalar haqidagi tasavvurlar ancha sodda, yuzaki, mazmunan tor bo'ladi. Shunday tasavvurlar asosida boshqa millatlarga nisbatan yoqtirish (simpatiya) yoki yoqtirmaslik (antipatiya) va befarqlik munosabatlari shakllanadi.

O'z millati haqidagi tasavvur va stereotiplar esa milliy "etnosentrizm" hissini shakllantiradiki, shu his tufayli shu milliy guruh vakillarida boshqa millatlarga nisbatan irratsional munosabatlar paydo bo'lishi, bu esa milliy antogonizm va milliy adovatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Millatlararo adovat va milliy etnosentrizmning o'ziga xos tusi borasida davlatimiz rahbari Islom Karimova o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli tarixiy asarlari juda teran fikrlarni bayon etganlar. Asarda ta'kidlanganidek, "O'zbekiston aholisining ko'p millatliliigi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq xolda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r

kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda”. Lekin ta’kidlash joizki, musatqillikning dastlabki yillarida yurtimizda ko‘p yillar mobaynida sobiq ittifoq sharoitida aholini bir xil “baynalmilallashtirish”, yagona “sovet xalqi” g‘oyasini singdirish mafkurasi ta’sirida bo‘lgan xalqlar va millatlarning milliy o‘zligini anglashi, shu bilan birgalikda millatlararo va diniy bag‘rikenglik siyosatini olib borish unchalik oson kechmadi. Prezidentimizning jamiki yurtimizda istiqomat qilayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning manfaatlarini bir xil himoya qilish, ular o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan dono siyosati tufayli, buguni kunda barcha o‘zbekistonliklar shu yurt, shu Vatan ravnaqi yo‘lida bir xil kurashish bilan birgalikda o‘z milliy qadriyatlari, madaniyati, san’ati, yashash tarzini hurmat qilishga, uning eng jozibali va tarbiyaviy nuqtai nazardan noyob an’analarini davom ettirish, namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, “Har qanday millat, u naqadar kichik bo‘lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi Er yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo‘lmog‘i kerak.” Demak, mustaqil yurtimizda millatlararo va elatlar ichidagi o‘zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatli bo‘lib, bu o‘z navbatida olimlar, xususan, etnopsixologlar oldiga millatlar do‘stlikni va bahamjihatlikni takomillashtirishga yo‘naltirilgan fundamental va tadbqiqiy ishlarni amalga oshirish, natijalari bilan yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo‘shish vazifasini qo‘yadi.

Bu borada, ijtimoiy psixologlar va mafkurachilar oldida turgan muammolardan biri millat vakillarida *milliy g‘ururni* sof ijtimoiy psixologik fenomen sifatida o‘rganish, uning yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishidagi roliga aloqador psixologik mexanizmlarni tadqiq etishni ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Chunki ko‘pincha milliy g‘urur tufayli ayrim shaxslarda boshqa millatlarni mensimaslik, ulardagi g‘urur yoki milliy hisslarni tan olmaslik hollari kuzatilishi mumkin. Umuman, bizning fikrimizcha, milliy adovatlar asosida yotgan etnotsentrizm va milliy g‘urning salbiy ko‘rinishlari boshqa millatlarning tarixini, ularning an’analarini, tili va hokazolarini

bilmaslikdan kelib chiqadi. Milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning maqsadlaridan biri ham boshqa millatlar psixologiyasini bilib, uni boshqa millatlarga yetkazish tufayli, har bir millat vakiliga hurmat - izzat hissini kuchaytirishdir. Chunki o'zini hurmat qilmagan odam boshqani hurmat qilmaydi, buning uchun esa o'z psixologiyasini ham, o'zgalar psixologiyasini ham bilishi kerak. Shundagina shaxslararo ziddiyatlarga barham berilishi mumkin. Bu narsa millatlar psixologiyasiga ham xosdir. Ya'ni, fan jamiyatga shunday etnografik va etnopsixologik ma'lumotlar majmuini yaratib berishi lozimki, undagi ma'lumotlar asosida katta guruh hisoblangan millatlar psixologiyasini ham boshqarish mumkin bo'lsin.

9.3. Liderlik va superliderlik

Umuman olganda adabiyotda «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, «yetakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir.

Lekin liderga xos 37 bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir.

Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora – «peshqadam» va «yetakchi» so'zlari majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin. Nazarimizda, «Yetakchi» so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra

o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu xolat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur.

Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, «lider» so'zini faqat «yetakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo'yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda qo'llanmamiz matnida «lider» so'zidan foydalanishni ma'qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so'zidagi izohiy ma'noni anglab olish o'zbek kitobxonlari uchun tanish holdir.

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o'zining mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog'onasidagi o'rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o'z hamkasabalari bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko'rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o'zining ma'lum xislatlari bilan jamoaning ko'pchilik a'zolarida simpatiya uyg'ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar.

Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq bo'lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborlilikini anglatadi. Lider - guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs.

Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan 38 vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir. Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o'zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid

chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin. Korxonada manfaatdan kelib chiqsak, jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy tizimda shakllanuvchi lider bir shaxs orqali ifodalanishi eng maqbul holdir.

Zamonaviy psixologiya fani, o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiati va unga erishish yo'l-yo'riqlari haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin: 1) jamoa manfaatlariga yo'nalganlik; 2) kasbiy mohirlik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishni oxirigacha hal etishda tashabbuskor bo'lish; 3) emotsional, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantiqiga ega. Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odatda lider shaxsda juda yorqin ko'zga tashlanishi shart emas ekan. Shaxsda bu ko'rsatkichning o'rta me'yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun yetarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko'rsatkichi pastligi ish yuzasidan o'tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Rahbarning muloqot sirlarini yaxshi bilishi orqali atrofdagilarda o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi ushbu ko'rsatkichni oshirishdagi asosiy vositadir. Rahbarlik tayinlanuvchi lavozimdir, liderlik esa hamfikrlar tomonidan ko'tarilgan shaxs mavqeidir. Agar rahbar va lider o'rtasidagi farqqa e'tibor beradigan bo'lsak, ko'pgina jihatlarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, rahbar xodimlarga ega bo'lsa, liderning hamfikir tarafdoshlari mavjud, rahbar tayinlansa, lider jamoa a'zolari orasidan ajralib chiqadi, rahbar o'z hokimiyatiga asoslansa, lider esa obro'siga tayanadi. Rahbar o'z majburiyati bo'yicha tashkilot manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi va shu xususiyat unga rasmiy tus berib, jamoa oldida liderga nisbatan uni bir muncha «zaif» holatga qo'yadi. Hayotda ko'pgina jamoalar uchraydiki, ularda rasmiy rahbar va lider alohida shaxslardan iboratdir. Bunday jamoa hayotidagi ko'p vaziyatlarda guruh a'zolari rahbardan ko'ra norasmiy lider tomonida bo'lishlari ehtimoli kuzatiladi. Jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy liderning o'zaro munosabati doimo qiyin masalalar doirasiga kiradi.

Bunday vaziyatda odatda ko'pchilik rahbarlar liderni siqib chiqarishga, undan qutulishga intilishlari kuzatilsa, boshqa bir rahbar bu liderdan foydalanishga, uni guruh maqsadiga tezroq erishish

yo'liga safarbar etishi 39 mumkin. Rahbarning lider bilan o'zaro til topishi, hamfikir bo'la olishi albatta bo'lajak muvaffaqiyatlar garovidir. Buning uchun rahbardan ham topqirlik, sabr-toqat va o'z shaxsiy manfaatidan ustun tura olish qobiliyati kutiladi. Rasmiy rahbar va guruh lideri turli shaxslardan iborat bo'lsa, ular o'rtasidagi kelishmovchilik ko'pgina xodimlar tomonidan ijtimoiy adolatning buzilishi sifatida idrok etiladi. Lider bilan munosabatni rivojlantirish esa aksincha, guruhdagi kuchlarni tan olish, oqillik yo'lini tanlash deb baholanadi. Rahbar sezgir shaxs sifatida nafaqat liderga, balki bunday xislatga ega bo'lgan har bir guruh a'zosiga alohida diqqat ajrata olishi lozim. Alohida olingan lider bilan mavjud munosabatni rivojlantirish orqali guruhning boshqa a'zolari bilan o'zaro ijobiy hislarni shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Shu ma'noda tahlil etilganda, guruhda norasmiy liderning mavjudligi rasmiy rahbar uchun guruh a'zolari bilan iliq munosabatni qurishdagi qo'shimcha ko'prikdir. Lekin hayotda hamma narsa ham o'ylanganday silliq ketavermaydi va rasmiy rahbar bilan norasmiy lider manfaatining zidligi, rahbarning iltifotli qadamiga qaramay norasmiy liderning qaysarligi to'qnash kelishi mumkin. Bu esa jamoadagi nizo bilan ifodalanadi va bunday hollarni hal etish yo'l-yo'riqlari haqida jamoadagi nizolar mavzusida batafsil gapirib o'tiladi. Liderga xos bo'lgan fazilatlarni shakllantirish bo'yicha psixologiya fanida qator amaliy tadbirlar mavjud bo'lib, bu xil dasturlar interfaol ta'lim uslubiga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topadi.

Shaxsning liderlik jihatlarini rivojlantiruvchi psixologik tadbirlarning metodologik asoslari bir muncha bahsli bo'lib, bu mavzuning puxta ishlab chiqilishi ushbu mashg'ulotlardan olinajak natija samarasini belgilaydi. Yaqin paytgacha psixologiya fanida shaxsning liderlik xislatlarini shakllantirish bo'yicha «Xislatlar nazariyasi» degan ta'limot yetakchi bo'lib kelgan. Bu ta'limotga binoan liderlikni ifodalovchi bir necha xislatlar mavjud va ushbu xislatlar majmuasi shaxsning o'zgalarga ta'sir etish qobiliyatini belgilaydi. Ammo, aniqlanishicha, xislatlarning shunchaki majmuasi shaxsni lider darajasiga ko'tara olmaydi va bu xislatlar soni bir necha o'ntalikdan iborat bo'lishi mumkin. Bu xislatlarni shakllantirish, ularni shaxs tuzilmasidagi boshqa tarkibiy jihatlar bilan muvofiqlashtirish va insonning ichki mazmun-mohiyatiga aylantirish o'ta murakkab masaladir. Ko'p yillik psixologik tadbirlar bunday

yo'lning kammahsul ekanligini ko'rsatdi. Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondoshuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi.⁹ Bu nazariyaga binoan guruh doimo bir necha liderga ega bo'lishi mumkin va kezi kelganda har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Fikrimizcha, samarali foliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini his qila olsin. Buning uchun jamoa, har qanday vaziyatni hal etishda chuqur mas'uliyat his etuvchi va o'z ishining ustalari bo'lgan professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday xodimlar topiladiki, ular paydo bo'luvchi ko'pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, liderlik ko'p jihatdan shaxs tug'ma qobiliyalarining yetarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, liderlikniing asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida g'amxo'rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta'rifidagi asosiy ma'no kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin. Shaxsning liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir. Turli mehnat jamoalari o'z mas'uliyat darajasidan kelib chiqqan holda turlicha istaklarni namoyon etadi va hatto, ba'zida jamiyat manfaatiga to'la mos kelmaslik hollari ham kuzatiladi. Bunday jamoalarda esa, tabiiyki destruktiv, ya'ni buzg'unchi xulqqa mos keluvchi liderlar ajralib chiqadi va ular guruhning yashirin motivlarini namoyon etuvchi o'ziga xos kuchga aylanadi. Misol tariqasida, o'smirlik davrida namoyon bo'luvchi va xulq og'ishi bilan xarakterlanuvchi guruhlar va ularning liderini, yoki ba'zi bir mehnat jamoasida tashkilotni qoloqlikka tortuvchi asotsial xulq egalaridan iborat guruhlarni eslash mumkin. Lider va rasmiy rahbarning turli shaxslardan iboratligi va

ular o'rtasidagi ziddiyat haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Shunday holat ham yuz beradiki, tashkilot manfaatiga zid yo'l tutgan lider atrofida o'zi kabi hamtovoqlarni to'plashi va o'zining og'uvchi xulqi bilan nafaqat tashkilot maqsadi, balki rahbarning obro'siga ham putur yetkazadi. Bunday liderni darhol ishdan bo'shatish lozim, degan an'anaviy fikr bir qaraganda to'g'ri bo'lsa-da, lekin ushbu vaziyatdan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish rahbarning mohir tashkilotchiligidan dalolat beradi.

Rahbar o'z tashkilotidagi mavjud imkoniyatlarni qo'llagan holda norasmiy liderni nafaqat guruhdan ajratishi, balki unga ma'qul keluvchi va uning qobiliyatlariga mos keluvchi vazifalarni ham topib berishi mumkin. Umuman olganda, rahbar uning manfaatlariga zid bo'lgan har qanday kuchni o'z tomoniga og'dira olishi uning obro'siga obro' qo'shuvchi va jamoa oldida uning nufuzini yanada oshiruvchi eng samarali imkoniyatdir. O'ylashimizcha, bunday imkoniyat paydo bo'lganidan afsuslanish emas, balki tashakkur aytish o'rinli bo'lsa kerak. Albatta, jamoa rahbari va lider bir shaxsda ifodalanishi ayni muddao hisoblanadi hamda rasmiy rahbar iloji boricha tashkilot maqsadlarini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirgan holda boshqaruv jarayonini tashkil etishi lozim. Aynan shu omil, ayniqsa, kasb sohasidagi yuqori malaka rahbarni liderlik darajasiga ko'tarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A

m

e

r

i

Rahbar yoki liderning superliderga aylanishini bosqichlari

k 1. **Bosqich.** Bu bosqichda lider-raxbar o'zi uchun lider bo'lishi, ga'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi tag'batlantirish, hayoliy mashqlar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglashi va kamchiliklarni bartaraf etishga qodir bo'la boradi

a 2. **Bosqich.** Leder yuqorida qayd etilgan o'zidagi fazilatlarining afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, aynan shunday sifatlar sohibi bo'lishning kuchli tomonlariga xodimlarni, birinchi navbatda norasmiy liderlarni ishontiradi.

q

o

t

c

b

3. **Bosqich.** Xodimlariga o‘zlarida tashabbus va o‘ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratadi, tashabbuslar ko‘rsatilishini tinimsiz rag‘batlantiradi. Norasmiy liderlar bilan sog‘lom raqobat muhitida konkret amaliy ishlar qilinadi.

4. **Bosqich.** Mustaqil qobiliyat egasi bo‘lgan xodimlarni rag‘batlantirish, kerak bo‘lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish yo‘liga o‘tib oladi. Norasmiy liderlarga mustaqil faoliyat uchun imkoniyatlar eshigini kattaroq ochadi

5. **Bosqich.** O‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga hadeb aralashaverishdan o‘zini tiyish yo‘lining afzalliklariga o‘zini ishontiradi. Norasmiy liderlar orqali ularga ihlos qilgan har bir jamoadoshlarni o‘zlari uchun liderga aylantirishning turfa xil yo‘llarini qidiradi, topadi va xodimlarni shu sifatlari uchun ma’naviy, moddiy jihatdan rag‘batlantiradi. Jamoada sog‘lom ijtimoiy psixologik muhit yaratilishiga erishiladi.

Nazorat savollari

1. Muloqot nima?
2. Muloqotning turlari.
3. Muloqotning kommunikativ tomonlari.
4. Muloqotning interaktiv tomonlari.
5. Muloqotning perseptiv tomonlari.
6. “Kauzal atribusiya” tushunchasini izohlang.
7. Guruh tushunchasini ta’riflang.
8. Kichik guruhlar va ularning klassifikasiyasi.
9. Katta guruhlar va ularning klassifikasiyasi.
10. Konformizm nima ?
11. Referent guruh tashunchasini izohlang.
12. Liderlik va superliderlik fenomenlarini izohlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2017 y.
3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i

pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent. 2008 y.
7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.
9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.
10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018 y.
11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya", Darslik. Toshkent. 2008 y.
13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.
14. R.N.Melibayeva. "Bilish jarayonlari" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.
15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o'rganish va rivojlantirish usullari, O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2020 y.

GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Psixologiya	Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muamala, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlarning miyada aks etishi, psixik qonuniyatlar va mexanizmlarni o'rganadi. yunoncha psyuxe – jon, ruh, logos – fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi	science that studies the laws of the origin, development and functioning of the mind and mental activity of the person and groups of people. It combines humanitarian and natural science approaches.
Psixika	bu tafakkur, sezgilar, hissiyotlar va kommunikativ jarayonlarni o'ziga jamlashtirgan yaxlit tizimdir. Hozirgi davrda "jon" tushunchasi o'rniga "psixika" so'zi qo'llanilmoqda.	Mentality - a complex concept in philosophy, psychology and medicine. "The form of the active display subject of an objective reality that occurs in the interaction of highly sentient beings with the outside world and engaged in their behavior (activity) regulatory function."
Abstraksiya	Narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi. lot. Abstractio mavhumlashtirish	Abstraction - a distraction in the learning process of the non-essential sides, properties, object relationships (object or phenomenon) in order to highlight their essential, of regular features; abstraction - theoretical generalization as a result of this diversion.
Agglyutinatsiya	- mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir - biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv	It consists of a well-known characters. The current image of the thoughts and slapped kdrug other in connection with this way of thinking to the

	parisi obrazi. lot. Agglutinate – yopishtirmoq elimlamoq	creation of new images. For example: the image of a mermaid.
Appersepsiya	shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, xavaslariga bog'liqligi. lot. qarashli, perceptio - idrok	- It is the process by which elements of consciousness are clear and distinct. One of the fundamental properties of the human psyche, reflected in the conditionality of the perception of objects and phenomena of the external world and the awareness of the general perception of the features of the contents of mental life as a whole stock of knowledge and the specific condition of the individual.
Assotsiasiya	psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik A, xronologik o'xshashlik A, qarama – qarshilik A va b.) lot. associatio - birlashtirmok	Between related mental events, consists of specific laws such as the study of the cosmos, the chronological coincidence of contradictions.
Biografik metod	odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli. yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko'rsataman	This method studies a person through his data and biography.
Bixeviorizm	XX asr boshlarida AKSHda maydonga kelgan yo'nalish bo'lib, bunda psixologiyani o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq - atvori olingan. Bu yo'nalish faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan hatti - harakatlari bilan hulq - atvorini o'rganish mumkin, deb hisoblaydi.	In the early twentieth century, it was sent to study only human behavior. This direction is considered to be the ability to influence the world around them, and on the behavior of humanity at this stop. As this happened they deny consideration. The founders of this direction of

	Bunda ong ahamiyati inkor qilinadi. Bu yo'nalishning asoschilari D.Uotson, E.Torndayklar. ing. behaviour-hulq	John Watson, E.Torndiyklar.
Verbal	Verbal nutq – og'zaki ifodalanadigan nutq. lot, verbalis – og'zaki	Verbal language is formed by oral speeches
Vegetativ nerv tizimi	Nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi, v.n,t, markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bosh miya qobig'i tomonidan boshqariladi. V.n.t. simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi	The autonomic nervous system is governed by internal systems and organs of the impact of metabolism, v.n.s connected with the central nervous system, this right brain membranes. Leading researcher divided into two parts: the sympathetic and parasimpatik.
Dominanta	markaziy nerv tizimining vaqtinc ha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.	Government central nervous system temporarily stops and the remaining active parts.
Dualizm	borliq ham moddiy, ham ruhiy bo'lgan ikki asosdan tashki l topgan deb hisoblovchi falsafiy ta'limot bo'lib,psi xofizik parallelizm konsepsiyasi ning asosidir. lot, duafis - ikki yoqqlama	It is a philosophical study which considers the reality of this material, spiritual and psycho-physical parallel concept.
Interiorizatsiya	tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.	This cycle of rotation of the external effects on the internal.
Motiv	ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. lot. movere - harakatga keltirmoq	The reason of satisfy some necessity.

Mielin	nerv tolalarining yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi. yunon. myelos – iliq	The oily elementar mixture which entrant to the nervous fibers soft shell.
Orientatsiya refleksii	shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi. lot. oriens – sharq reflexus – aks etish	One type of natural reflex, it exchangely responsible for every new starting influence.
Operativ xotira	xotira turlaridan biri. By ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, yzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi lot. oeratio - harakat	The type of memory. It expresses in the process of one action, used from far memory temporary.
Ontogenez	organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui yunon. on, ontos - asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish	Processing the organism indurdually. The living natures alternation collection from appearing till to the end.
Xarakter	- kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning indivndual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z -o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. X. muayyan sharoit hatti - harakatlarni belgilab beradigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisidir. yunon. karakter - xususiyat, belgi	The unity of persons stable psychological peculiarities. It is expressed in the attitude of persons to the labour, to the environment and events, and attitude to himself. It is the unity of certain character and behaviours.
Paralogizm	to'g'ri fikrlash qoidalarini buzish mantiqiy xatoga yo'l qo'yish natijasida noto'g'ri xulosa	In the result of uncorrect thoughts to do mistake and come to the uncorrect

	chiqarish. yunon. paralogismos	conclusion.
Paramneziya	- sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi. yunon. rara – oldida, yonida mnosis - eslash	It is illness of memory about transferred events that have been before its existence.
Parapsixologiya	Psixologik tadqiqot sohalaridan biri, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish shakllarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchisiz ta'sir etish turlarini o'rganadi. P. muammosi bahcga molik sohadir. YUnon. para - oldida, yonida, psyche – pyh, lodos – ta'limot	The type of psychological research, and research about without senses learns types of perceive, and learns living natures effect without muscules power.
Patogen	kelib chiqish, kasallik keltirib chiqaruvchi. yunon, pathos - azoblanish, genes -	To become, bring illness
Proektiv metod	shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas., tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi. lot. Prjektus - oldinga tashlangan, yunon. methodos – tadqiqot	The types of method, about researching person. In this method perceived images in experimental conditions and its definition.
Ekstraver-siya	SHaxsning tevarak - atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi. E. qiziqishlarning kishidan tashqaridagi narsa va hodisalarga ko'chishi demakdir nor. emavere – uyg'otish, to'liqlantirish lot. Extra - haddan tashqari, verso - o'zgarish	The directon of persons to the environment and outer events. Here persons interests migrated to the outside events and things
Emotsiya	odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.	The response reaction of humans or animals to the inner or outer startings
Empatiya	boshqa odamlarning psixik	The realiseanother persons

	holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati. yunon. empatheia - birgalikda dardlashmoq	psychological conditions and to fell himself
Egoizm	xudbinlik bo'lib, shaxsning o'z qiziqishlari va ehtiyojlarini boshqa shaxslar va ijtimoiy guruh qiziqishlari bilan qiziqmay, ulardan yuqori ko'rishi. E, ning rivojlanishi va shaxs yo'nalishida ustivor bo'lishi tarbiyadagi jiddiy xatoliklar natijasidir. lot. ego - men	It is selfishness. He puts his own interests rather than anothers. It is the result of uncorrect behavior
Eydetik - Eydetizm	ba'zi individlarning (eydetiklar) avval idrok qilingan narsa va hodisalarni barcha tomonlari bilan esda qoldirish qobiliyati yunon. eidos - obraz	Some individs ability of memory that remember perceived events in every sides
Eyforiya	Kayfiyatning ko'tarinkiligi, rohatlanishi, xuzurlanishi. E. Ob'ektiv sharoitlarga mos bo'lmagan holda mavjud bo'lgan ko'tarinki kayfiyat, beg'amlik va qoniqish holati yunon.(Masalan; giyohvand moddani qabul kilish natijasida yuzaga keluvchi holat.) eu - yaxshi, phero - boshdan kechirmoq	Raise of mood, relaxing enjoying. It is not equal to the occurance carelessness and condition of satisfying
Xolerik	temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi. yunon. chole - safro, sarik o't	Type of temperament. In this temperament person is changeable in a boiling sense, suddenly changes the mood, looses the balance of feelings and generally active in character
Nutq	odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli	The historical composed type of connection with the means of tongue
Nutq madaniyati	muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish	During the encounter conform to the certain language rules.
Ambivalent-	bir vaqtda qarama – qarshi	At the same time appearance

lik	hissiyotlarning namoyon bo'lishi (mas., kulgu va qayg'u, xursandlik va kulfat) yunon. Ambi – tevarak, ikki tomondan, lot. valentia – kuch	of opposite sense or feelings. For ex: laughing and sadness
Apatiya	kishining tevarak – atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarq holati yunon. Apatheia – hissiyotsizlik	The persons apathetic condition to the surround without any interests.
Astenik	shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar yunon, astheneia – kuchsizlik, holsizlik	Persons slowing down senses to activness.
Asteniya	kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish yunon. Astheneia – kuchsizlik, holsizlik	Strong tireness and weakness described in a nervous feeble.
Affekt	kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat	the psychological condition which happens with strong, boiling and continuously emotional experiences in short-term.
Kayfiyat	birorta emotsiyaning barqaror kechishi	the stable occuring of some sort of emotions.
Senzitiv Lik	turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi	starting senses up fast and strongly according to various effects.
Stenik hislar	shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va x.k.)	emotions that rises person's activities up. (e.g. happiness)
Stress	kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat	the spiritual state which is appeared by strong arisers.
Emotsiya	odam yoki hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi	expressed by people's or animals' subjective response to the internal or the external arisers reactions
Hissiyot	odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan	man's ability wether it satisfies or does not satisfiaies the high needs of him and creates a mental conscious of its relation around the world for applying the process.

	munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon	
Abuliya	eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik	the weak willness that becomes visible when its time to have even simple problems.
Iroda erkinligi	falsafiy – ahloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o'z - o'zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog'liq	the concept that expresses philosophical and ethical category. It depends on man's agreement when it's time to define himself.
Lokus nazorat	odamning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko'rish (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki o'zining qobiliyatlarini intilishlardan ko'rish xislati (internal, ichki lokus nazorati)	person's own responsibility for the result of the activities of the external power or its striving for quality
Motiv	– ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab	the reason that appeals to satisfy with the certain need.
Motivatsiya	odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui	the collection of reasons that motivate a person to be active in activities.
Motivlar kurashi	qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi	the levels of will activities which are connected with making decision.
Labillik	nerv hujayralarining tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish xususiyati	the nerv cells' condition that transfer fast from braking into arousing or from arousing into braking.
Rigidlik	sub'ektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar	required construction activities that is programmed by subjective happens as a result of difficulties.
Frenologiya	odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik	the growth of some types of people's skills on the theory that it is possible to determine the structure of the skill. This theory proposed by the

	vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan	Austrian doctor F.Gall.
Temperament	shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va hulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi	collections of individual psychological properties of the person . The man's activity and behavior is charactirisez by a dynamic and emotinal aspects.
Flegmatik	temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi	the kind of temperamen. This can appear when the movements are slow, stable and not strong emotions in external.
Sangvinik	temperament turlaridan. Bu tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish hislatlari bilan tavsiflanadi	the sort of temperament. That sort of skill is nimble, mobile and fast changing of imaginations.
Xolerik	temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi	the type of temperament that has full feelings, quick changable mood when the emotions expressed by the general unbalanced and mobility.
Introversiya	shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi	leaning on person's ideas, sensitiveness and excitements by himself
Milliy xarakter	biror bir millatga xos xususiyatlar	the traits of a nation.
Xiromantiya	odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish	telling fortunes or judging of a person's character by the lines in the palm of the hand
Xarakter	kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z -o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi	one's stable, mental features of the individual unit. It expressed by person's labor, surrounding events, other people or self-expressed in the relationship.

Xarakter aksentuatsiyasi	xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi)	expressing the person's character's peculiarities unlimitedly (apparently near the psychopathy)
Ekstraver-siya	shaxsning tevarak – atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo‘nalishi	the person's direction to his surrounding people and to the external events
Aqliy rivojlanish mezoni	ong JQ – aqliy yosh (AYO) va xronologik yosh (XYO) orasidagi munosabatni bildiruvchi mezon. Intellektning biror bir yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali rivojlanishini aniqlash mumkin	indicative criteria of the relationship among consciousness (C), mental age (MA) and chronological age (ChA).
Zehn, layoqat	nerv tizimining ba’zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo‘lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug‘ma tabiiy zaminidir ang.Perception	Some genetic theories of anatomic-psychological features of the nervous system. It is a primary individual innate foundation of developing and being formed of ability in person
Iste’dod	shaxsning ma’lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi	The highest degree of ability that is expressed in certain activity of person.
Geniallik	shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o‘zini namoyon qilish hodisasi lot. Genius – aql zakovat, buyuk iste’dod	The occurrence of person that demonstrates him with the highest degree of creation
Kommunikatsion qobiliyatlar	kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyat	The ability that improves person’s communication with other people and provides with psychological unity in activity that done jointly.
Mayl	shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo‘lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi	Person’s interests and thoughts that attracted to do certain activity. It appears as intense desire and when this desire will be done, it gives person satisfaction.

Musiqiy qobiliyat	shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari	The psychological feature of the person, that determines musical aptitude
Umumiy iste'dod	kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining o'ziga xosligi darajasini belgilab beradi	The unity of person's overall abilities. It determines the sphere of intellectual possibility and the peculiar degree of person.
Kompetensiya	Lotinchada "competo" erishyapman, munosibman, loyiqman- u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribaga degan ma'nolarni anglatadi.	In Latin, I'm gaining a "competo", meaning worthy, worthy, or knowledgeable, or experience.
Boshqaruv	Bu qadimgi san'at va eng yangi fandır	It is the oldest art and the latest fanatic
Ko'pqirrali qobiliyatlari	Soddaroq qilib tuShuntiradigan bo'lsak ko'pqirrali qobiliyatlari deganda turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganilishi tuShuniladi. Xou ta'kidlashicha hech qachon ikki o'rganuvchi bir xil bo'lmaydi: har bir shaxs o'ziga xos qobiliyatlari egasidir	To illustrate, it is understood that multidimensional abilities can mean that different people learn differently or in different ways. As Hoe argues, the two learners will never be the same: each person has his own abilities
Avtoritar rahbar-	Barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga etkazadi	It sends all instructions to its employees in a business sense, clear, clear, sharp tone
Liberal (loqayd)	Uslubda ishlaydigan rahbar - kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta'qiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga, ko'pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos.	It is difficult to know how the manager working in style - mood, work attitude, satisfaction, or dissatisfaction with the job. It does not intimidate, and it is often limited to getting acquainted with the final outcome of the case.
Demokratik rahbar -	Aksincha, o'z qo'l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning qobiliyatini hisobga oladi, shaxsiy moyilliklarni ham hisobga oladi.	On the contrary, he is a supporter of freedom and self-determination. She takes into account the capabilities of the worker when she gives her assignments, and takes into account individual trends.

TEST

1. Psixologiya soʻzi qanday maʼnoni bildiradi?

- A) «Psixologiya» soʻzi ikkita grek soʻzlaridan – «psyche» – jon, ruh va «logos» – taʼlimot, degan maʼnoni bildiradi
- B) «Psixologiya» soʻzi qadimgi yunon maʼbudasi ismidan olingan
- C) «Psixologiya» soʻzi ikkita grek «psyche» va «logos» soʻzlaridan olingan boʻlib, shaxs degan maʼnoni anglatadi
- D) toʻgʻri javob yoʻq

2. Psixologiyaning predmeti nima?

- A) konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari, amallari va faoliyatlarining oʻziga xos tarzda ongi tomonidan aks ettirilishidir
- B) psixika
- C) Individ
- D) a va b javoblar toʻgʻri

3. Psixikaning namoyon boʻlish shakllari qanday?

- A) bilish jarayonlari
- B) psixik jarayonlar, psixik holatlar
- C) psixik jarayonlar, psixik holatlar, shaxs xususiyatlari
- D) psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar

4. Bilish jarayonlariga nimalar kiradi?

- A) apatiya, qiziquvchanlik, hayratlanish, sezgi, idrok, xotira, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish
- B) sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat
- C) sezgi, tafakkur, temperament, xarakter, qobiliyatlar, iqtidor, intellekt
- D) emotsiya, idrok, xayol, nutq, diqqat, xarakter, intellekt, xulq-atvor, ish uslubi

5. Qaysi javobda psixik holatlar toʻgʻri berilgan?

- A) emotsiya, eʼtiqod, bardamlik, tetiklik, apatiya, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish
- B) apatiya, qiziquvchanlik, hayratlanish, sezgi, idrok, xotira, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish

C) yoʻnalishlar, temperament, xarakter, qobiliyatlar, iqtidor, intellekt, xulq-atvor, ish uslubi

D) emotsiya, idrok, xayol, nutq, diqqat, xarakter, intellekt, xulq-atvor, ish uslubi

6. Qaysi javobda shaxs xususiyatlari ketma-ketligi toʻgʻri berilgan?

A) emotsiya, idrok, xayol, nutq, diqqat, xarakter, intellekt, xulq-atvor, ish uslubi

B) sezgi, tafakkur, temperament, xarakter, qobiliyatlar, iqtidor, intellekt

C) yoʻnalishlar, temperament, xarakter, qobiliyatlar, iqtidor, intellekt, xulq-atvor, ish uslubi, masʼuliyat

D) sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat

7. Psixologiyaning fanlari aloqasini necha blokka boʻlish mumkin?

A) 2 ta: ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiyot

B) 3 ta; ijtimoiy-gumanitar; tabiiy, aniq va texnika; iqtisodiyot

C) 5 ta; ijtimoiy-gumanitar; tabiiy; aniq; texnika; iqtisodiyot

D) 4 ta; ijtimoiy-gumanitar; tabiiy; aniq va texnika; iqtisodiyot

8. Umumiy psixologiya psixologiyaning qanday sohasini oʻrganadi?

A) psixologiyaning barcha masalalarining oʻziga xos jihatlari oʻrganadigan maxsus sohasi

B) turli yoshdagi odamlarning tugʻilgandan toʻ umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va oʻzaro munosabatlari qonuniyatlarini oʻrganadi

C) avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika oʻrtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini oʻrganadi

D) jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat koʻrsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini koʻradi

9. Psixologiyaning qanday sohasini iqtisodiy psixologiya o'rganadi?

A) jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi

B) turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishish orqali xo'jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar, yaxlit guruh, jamoalarning iqtisodiy tafakkuri hamda iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo'jalik subekti ongida aks etishini o'rganadi

C) kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi

D) odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi

10. Mehnat psixologiyasi psixologiyaning qanday sohasini o'rganadi?

A) kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi

B) kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi

C) odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi

D) kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi

11. Shaxs individual xususiyatlari tashkil etuvchilariga nimalar kiradi?

A) yo'nalishlar, temperament, qobiliyat, motivlar, mas'uliyat;

B) yo'nalishlar, temperament, xarakter, qobiliyat, motiylar, mas'uliyat, ish uslubi, iqtidor, aqliy salohiyat;

C) yo'nalishlar, temperament, qobiliyat, motivlar, mas'uliyat; ish uslubi, iqtidor, aqliy salohiyat;

D)yoʻnalishlar, temperament, xarakter, motivlar, masʼuliyat; ish uslubi, iqtidor, aqliy salohiyat.

12. Shaxs bilan jamiyat munosabatlarini ifodalovchi yoʻnalishlar:

- A) nativizm, empirizm;
- B) negativizm, empirizm;
- C) empirizm, konformizm;
- D) negativizm, konformizm.

13. Shaxs bilan jamiyat munosabatlarining ifodalanmasligi:

- A) nativizm, empirizm;
- B) negativizm, empirizm;
- C) empirizm, konformizm;
- D) negativizm, konformizm.

14. Jamiyat oʻz aʼzolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan xarakterlar talablari nimadir?

- A) ijtimoiy sanksiya;
- B) ijtimoiy rol;
- C) ijtimoiy norma;
- D) ijtimoiy ustanovka.

15. Jamiyat oʻz aʼzolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan xarakterlarini nazorat qiluvchi jazo va ragʻbatlantirish tizimi nimadir?

- A) ijtimoiy sanksiya;
- B) ijtimoiy rol;
- C) ijtimoiy norma;
- D) ijtimoiy ustanovka.

16. Shaxsning konkret xayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakterlar majmui:

- A) ijtimoiy sanksiya;
- B) ijtimoiy rol;
- C) ijtimoiy norma;
- D) ijtimoiy ustanovka.

17. Shaxsning aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish nimadir:

- A) refleksiya;
- B) persepsiya;
- C) apatiya;
- D) emotsiya.

18. Shaxsning o'zi, xulq-atvori xususiyatlari va jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obrazi:

- A) refleksiya;
- B) persepsiya;
- C) apatiya;
- D) "Men" obrazi.

19. "Men" obrazi orqali shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholash tizimi necha xil bo'lishi mumkin?

- A) 2 xil;
- B) 3 xil;
- C) 4 xil;
- D) yagona.

20. Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari:

- A) o'z-o'zi bilan muloqot;
- B) o'z-o'zini ishontirish;
- C) o'z-o'ziga ta'sir;
- D) barchasi to'g'ri.

21. Shaxs tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot-faoliyat jarayonida uni o'zlashtirish jarayoni:

- A) refleksiya; B) sotsializatsiya;
- C) apatiya;
- D) emotsiya.

22. Shaxs ijtimoiylashuvi institutlari:

- A) oila, bog'cha, maktab, tashkilotlar, maxalla;
- B) oila, bog'cha, maktab, mehnat jamoalari, maxalla;
- C) oila, bog'cha, maktab, nodavlat tashkilotlar, maxalla;
- D) oliygox, bog'cha, maktab, maxalla.

23. Temperament tushunchasining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) lotincha «aralashma»
- B) yunoncha «qorishma»
- C) yunoncha «aralashma»
- D) lotincha «nisbatlar aralashmasi»

24. Hippokrat fikricha inson organizmdagi suyuqliklar nechta guruhga ajratiladi?

- A) 3 ta
- B) 5 ta
- C) 6 ta
- D) 4 ta

25. O'tning xususiyati quruqlikdir uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik
- B) sangivinik
- C) flegmatik
- D) melanxolik

26. Qonning xususiyati issiqlikdir uning vazifasi tanani isitib turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik
- B) sangivinik
- C) flegmatik
- D) melanxolik

27. Qora o'tning xususiyati namlikdir uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik
- B) sangivinik
- C) flegmatik
- D) melanxolik

28. Balg'amning xususiyati badanni sovutib turishdan iboratdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik
- B) sangivinik
- C) flegmatik
- D) melanxolik

29. Temperamentning fiziologik asoslari qaysi olim tomonidan keng doirada tadqiq kilgan?

- A) I.M. Sechenov
- B) I.P. Pavlov
- C) I. Kant
- D) Lestgaft

30. Qaysi qatorda temperament tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi
- B) shaxsda his-tuyg'ularning paydo bo'lishi tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlarning majmuasidir
- C) barcha javob to'g'ri
- D) to'g'ri javoblar berilmagan

31. Temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) temperamentning ayni bir xil xususiyatlari xuddi bir odamning o'zida faoliyatning har xil turlarida va har turli maqsadlarda namoyon bo'ladi.

B) temperamentning xususiyatlari odam hayotining butun davomida va ma'lum bir qismida barqaror va o'zgarmasdir.

C) mazkur odamlarda temperamentning turli xususiyatlari bir-biri bilan tasodifan birlashmay balki bir-biri bilan qonuniy bog'langan bo'lib bu xususiyatlar temperament tipini aniqlovchi muhim tuzilmani hosil qiladi.

D) barcha javoblar to'g'ri

32.Qaysi qatorda temperament xususiyatlariga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) bir inson psixik faoliyati tezligini ifodalovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlari

B) odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan individual xususiyatlar

C) shaxs faoliyati xulq-atvorining tezligi va hissiy tomonini ifodalovchi shaxsning barqaror xususiyatlari yig'indisi

D) hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

33.Qaysi qatorda I.P.Pavlov tomonidan klassifikatsiya qilingan temperament tiplari ko'rsatilgan?

A) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonining kuchi

B) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi

C) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinishning tezligi yoki nerv jarayonining harakatchanligi

D) barcha javoblar to'g'ri

34.I.P.Pavlov tomonidan ajratib ko'rsatilgan asab tizimining tipi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) kuchli muvozanatsiz epchil

B) kuchli muvozanatli epchil

C) kuchli muvozanatli sust

D) barcha javoblar to'g'ri

35.Temperamentga bog'liq bo'lgan asab tizimining ochilgan tiplari inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lib, ular.....tiplar deb ataladi?

A) aralash

B) umumiy

C) qorishma

D) yakkahol

36. Xarakter tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang?

A) tag'ma, qiyofa, xislat

B) tamg'a, xususiyat, qiyofa

- V) xususiyat, qiyofa, aralashma
- G) aralashma, tamg'a, urug'
- D) qiyofa, urug', xislat

37. Qaysi qatorda xarakter tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan tipik sharoitlarda ko'rinadigan va bu sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisi

B) shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig'indisi

V) shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida tevarak-atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat

- G) to'g'ri javob berilmagan
- D) barcha javoblar to'g'ri

38. Xarakterning fiziologik asosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) asab tizimining tipi

B) individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlari

V) dinamik sterotip

G) barcha javoblar to'g'ri

D) to'g'ri javob berilmagan

39. Xarakterning fiziologik asosini tushunishda qaysi olimning nazariyasi muhim ahamiyatga ega?

A) I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati borasidagi nazariyasi

B) I.M.Sechenovning shartli reflekslar borasidagi nazariyasi

V) I.P.Pavlovning ikkinchi signallar sistemasi haqidagi nazariyasi

G) B.Teplovning oliy nerv faoliyati funksiyalari borasidagi nazariyasi

D) L.S.Vygotskiyning tarixiy madaniy konsepsiyasi

40. Xarakter tipologiyasi birinchi marta qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?

- A) E.Krechmer
- B) E.Fromm
- V) K.Leongard
- G) U.SHeldon
- D) A.Lichko

41. Inson xarakterining barcha tipologiyalari qanday g'oyalarga asoslanadi?

A) inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo'la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo'lib boradi

B) xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat

- V) ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlariga birlashtirish mumkin
- G) to'g'ri javob berilmagan
- D) barcha javoblar to'g'ri

42.E.Krechmer inson tana tuzilishiga ko'ra qanday tiplarga ajratadi?

- A) gipertim, distim,ssikloid
- B) astenik, atletik, qo'zg'aluvchan
- V) xavotirli,emotiv, piknik
- G) astenik,atletik,piknik
- D)ssikloid, emotiv, pedant tip

43. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq astenik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriq kishilardir

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng elkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh ko'krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir.

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

44. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq atletik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriq kishilardir

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng elkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh ko'krak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir.

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

45. E.Krechmer tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyaga muvofiq piknik tipdagi insonlar qanday xususiyatlarga ega?

A) uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli oriq kishilardir

B) skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan o'rtadan yuqori baland bo'yli keng elkali kuchli ko'krak qafasli boshini tik tutib yuradigan kishilardir

V) bosh kukrak qafasi yaxshi rivojlangan semirishga moyil tayanch-harakat a'zolari yaxshi rivojlangan kishilardir.

G) kamgap muloqotga kirishishga qiynaladigan pessimist ziddiyatlardan o'zini olib qochadigan uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

D) kayfiyati tez o'zgarishga moyil kayfiyati yaxshi paytida gipertim yomon paytida distim tipga o'xshab qoladi.

46. I.P.Pavlov insonlarni qanday tiplarga ajratadi?

A) badiiy fikrlovchi o'rta

B) mavhum mantiqiy

V) jonli tasavvur yorqin idrokli

G) badiiy fikrlovchi aralash

D) fikrlovchi o'рта etakchi

47. I.Pavlov insonlarni tiplarga ajratishda nimalarni asos qilib oladi?

A) shartli reflekslar

B) shartsiz reflekslar

V) oliy nerv faoliyati tiplari

G) birinchi va ikkinchi signallar tizimi

D) nerv jarayonlarining qonuniyatlari

48. I.P.Pavlov ikkinchi signallar' sistemasini qanday nom bilan ataydi?

A) signallarning signali

B) birinchi signallar tizimi

V) ikkinchi signallar tizimi

G) fikrlovchi signallar tizimi

D) badiiy signallar tizimi

49. Shaxsning psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi ustunlik qilsa bu inson qanday tipga taalluqli bo'ladi?

A) badiiy tipga

B) fikrlovchi tipga

V) o'рта tipga

G) obrazli

D) mulohazali

50. Agarda ikkinchi signallar tizimi ustunlik qilsa bu inson qanday tipga taalluqli bo'ladi deb o'ylaysiz.

A) badiiy tipga

B) fikrlovchi tipga

V) o'рта tipga

G) obrazli

D) mulohazali

51. Agarda har ikkala signallar tizimi aralashib kegan bo'lsa, bu inson qanday tipga taalluqli.

A) badiiy tipga

B) fikrlovchi tipga

V) o'рта tipga

- G) obrazli
- D) mulohazali

52. Bu tip uchun taassurotlar jonli tasavvur yorqin idrok his-tuyg'ular emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

- A) badiiy tipga
- B) fikrlovchi tipga
- V) o'rta tipga
- G) obrazli
- D) mulohazali

53. Bu tip uchun mavhumlarning mantiqiy tizimlarning nazariy mulohazalarining metodologik muammolarning ustunligi xosdir.

- A) badiiy tipga
- B) fikrlovchi tipga
- V) o'rta tipga
- G) obrazli
- D) mulohazali

54. Qaysi qatorda qobiliyat tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat
- B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi
- V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati
- G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil orginal tarzda bajarish imkoniyati
- D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik-fiziologik xususiyati

55. Qaysi qatorda layoqat tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat
- B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi
- V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati

G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil original tarzda bajarish imkoniyati

D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik- fiziologik xususiyati

56. Qaysi qatorda talant tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) shaxsning aqliy imkoniyatlari qo'llanilishini ifodalovchi layoqat

B) shaxs ijodiy faolligining eng yuqori darajasi

V) faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati

G) shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil original tarzda bajarish imkoniyati

D) qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan irsiy jihatdan asoslangan asab tizimining analitik- fiziologik xususiyati

57. Faoliyatni egallash va amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xususiyati nima deb ataladi?

A) talant

B) qobiliyat

V) doholik

G) layoqat

D) iqtidor

58. Xissiyot deb nimaga aytiladi?

A Tashki olamdagi narsa va xodisalarga nisbatan bulgan munosabatlarining va undan xosil bulgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga

B Odamning extiyojlari, kizikishlari va intilishlari bilan boglik bulgan jarayonga.

C) Axlokiy, intellektual va estetik xislar.

D Xissiyot – bu psixik jarayon.

59. Jahlning eng yuqori nuqtasi, qanday holat hisoblanadi?

A) Affekt

B Stress

C Dipressiya

D Antipatik holat

60. Lotinchada har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir ob'ektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatidir.

- A Emotsional kechinmalar.
- B Ambivalentlik
- C Dinamik stereotip
- D Affektlar. }

61. Boshkalarining xis-kechinmalarini tushunishga moyillik va tayyorlik xolati:

- A) egoizm;
- B) altruizm;
- C) empatiya;
- D) simpatiya. }

62. Hissiy ton nima?

- A) yunoncha tonos zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi,
- B) latincha emovere qo'zg'atish, hayajonlanish demakdir,
- C) lotincha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi
- D) lotincha tonos zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi, }

63 Emotsiya so'zining lug'aviy ma'nosi?

- A) yunoncha emovere qo'zg'atish, hayajonlanish demakdir,
- B) lotincha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi
- C) lotincha tonos zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi,
- D) latincha emovere qo'zg'atish, hayajonlanish demakdir }

64 Affekt so'zining lug'aviy ma'nosi?

- A) lotincha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi
- B) ingliz affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi
- C) yunoncha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi

D) grekcha affectus ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi }

65 Stress so'zining lug'aviy ma'nosi?

- A) inglizcha stress zo'riqish deganidir
- B) lotincha stress zo'riqish deganidir
- C) yunoncha stress zo'riqish deganidir
- D) ispancha stress zo'riqish deganidir }

66 Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim?

- A) G. Lebon
- B) J. Moreno
- C) G. Tard
- D) G. Sele }

67 Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat.....debatladi.

- A) Kayfiyat
- B) Stress
- C) Affekt
- D) Xissiyot }

68 Emotsional xolatlarga nimalar kiradi?

- A) Gumanizm, qiziquvchanlik, ranjish, uyalish
- B) hissiy ton, kayfiyat, ehtiros, affekt, stress
- C) Xayron kolish, shubxalanish, ishonch, taajjublanish
- D) Xamkorlik, do'stlik, urtoqlik, sevgi }

69 Xotira turlari necha xil?

- A) 2 xil
- B) 3 xil
- C) 4 xil
- D) xotira turlarga bo'ligmaydi }

70 Tafakkurning bo'linishi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Shakliga ko'ra – 3 xil, xarakteriga ko'ra – 2 xil, ijodiyligiga ko'ra – 2 xil

B)Shakliga ko'ra – 3 xil, xarakteriga ko'ra – 2 xil, ijodiylikiga ko'ra – 4 xil, yangilikiga ko'ra – 2 xil

C)Shakliga ko'ra – 3 xil, xarakteriga ko'ra – 4 xil, ijodiylikiga ko'ra – 2 xil, yangilikiga ko'ra – 3 xil

D)Shakliga ko'ra – 3 xil, xarakteriga ko'ra – 2 xil, ijodiylikiga ko'ra – 2 xil, yangilikiga ko'ra – 4 xil}

71 Insonni figura va fonda idrok qilishini qaysi kartinadan foydalaniladi?

A) Siyohi dog'lari

B)Rubin figurasidan Rubin figurasidan

C)Mona Liza portretidan

D)a va b javoblar to'g'ri}

72 Diqqatni jalb etishning universal qoidalari nechta va ular qaysilar?

A)3 ta; kontrast qonuni, qaytaruv qonuni, yangilik qonuni

B)3 ta; qaytaruv qonuni, yangilik qonuni, ommaviy ta'sirlanish qonuni

C)4 ta; kontrast qonuni, qaytaruv qonuni, yangilik qonuni, ommaviy ta'sirlanish qonuni

D)3 ta; kontrast qonuni, yangilik qonuni, ommaviy ta'sirlanish qonuni}

73 Diqqatning asosan necha xil turi farqlanadi?

A)2 xil; ixtiyoriy va beixtiyor

B)2 xil; vositali va maqsadli

C)2 xil; terminal va instrumental

D)2 xil; jozibali va jozibasiz}

74 Xotiraning samaradorligi nimalarga bog'liq?

A) esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan

B) xotiraning sakkiz qonuni bilan

C)eslab qolishning ko'lami va tezligi bilan

D)eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan}

75 Ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladiganlarning xotirasi qanday?

- A) emotsional
- B) ko'rgazmali~harakatli
- C) ko'rgazmali~obrazli
- D) fenomenal}

76 O'ziga xos jihatlariga ko'ra odamlar qanday xotira sohiblariga ajratiladi?

- A) ko'rgazmali~obrazli, fenomenal, emotsional
- B) ko'rgazmali~harakatli, ko'rgazmali~obrazli, fenomenal, emotsional
- C) so'z~ mantiqiy, fenomenal, emotsional
- D) ko'rgazmali~obrazli, so'z~mantiqiy, fenomenal, emotsional}

77 Generatsiya deb nimaga aytiladi?

- A) shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlarining esga tushirish hodisasi
- B) kutilmaganda paydo bo'lgan yangi va yaxshi ma'lumotning esga tushirish hodisasi
- C) shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasi
- D) o'zlashtirilish lozim bo'lgan ma'lumotning xotirada saqlanish bosqichi}

78 Sezgi – bu:

- A) Narsalarning muxim belgi va xususiyatlarini yaxlit aks ettirish
- B) Narsa va xodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini, ichki a'zolarida ro'y beradigan ayrim o'zgarishlarini aks ettirish
- C) Dunyoni umumlashtirib aks ettirish
- D) Sezish jarayonida tug'iladigan xush va noxush tuyg'ularni aks etgirish

79 Sezgi qanday jarayon: -

- A) Murakkab
- B) Konkret (yaqqol)
- C) Abstrakt
- D) Sodda

80 Sezgilarning asosiy xususiyatlari - bu:

- A) Sifati, tezligi, davomiyligi, joylashgan o'ri
- B) Sezgirlik, adaptatsiya, sensibilizatsiya
- C) Fazo, vaqt va harakat
- D) Ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning bosh miya po'stida aks etishi

81 Adaptatsiya - bu:

- A) Qo'zg'ovchi ta'siri ostida sezgilarning o'zgarishi
- B) A'zolarining muhitga moslanishi
- C) Kuchli qo'zg'ovchilar ta'siri ostida sezgilarning zaiflashishi
- D) Sezgi a'zolarining qo'zg'ovchilar ta'siriga moslashishi

82 Idrokning murakkab turlariga nimalar kiradi?

- A) Vaqt, fazo va xarakatni idrok qilish
- B) Ko'rish, eshitish, hid bilish idroki
- C) Og'riqni, muvozanat o'zgarishini sezish
- D) Teri-harakatni idrok qilish

83 Illyuziya bu: -

- A) Quzgovchilar ta'siriga moslashish
- B) O'ziga ta'sir etib turgan olamni noto'g'ri idrok qilish
- C) Narsalar obrazining nisbatan turg'unligi
- D) Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish

84 Insonning barcha sezgilari qaysi sifatlarga qarab klassifikatsiya qilinadi?

- A) ekstrotseptiv, perseptiv
- B) interaktiv, kommunikativ
- C) ekstrotseptiv, introtseptiv, propriotseptiv
- D) interotseptiv, perseptiv

85 Sezgilar xususiyati qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) adaptatsiya, sensibilizatsiya, senesteziya
- B) strukturaviyligi
- C) predmetliligi
- D) konstantliligi

86 Sezgi organlari va ularga ta'sir etuvchi stimullarga moslashish bu...

- A) sensibilizatsiya
- B) senesteziya
- C) adaptatsiya
- D) interotseptiv

87 Illyuziya qaysi psixik jarayonda uchraydi.

- A) Sezgi
- B) Idrok
- C) Diqqat
- D) Tafakkur

88 Sezgilargilarning paydo bo'lish mexanizmi qaysi tushunchalar bilan izohlanadi?

- A) retseptorlar, appersepsiya, fikr yuritish.
- B) Retseptorlar, registrlar, emotsiyalar.
- C) Ijobiy emotsional holatlar.
- D) Retseptorlar, qo'zg'atuvchilar, afferent va efferent yo'llar.

89 Tuyish sezgilar fiziologik asosi bosh miyaning qaysi qismida joylashgan.

- A) Chap po'stloq qismida.
- B) Bosh miya katta yarim sharlarida.
- C) Ong ostida.
- D) Bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida.

90 Idrok tushunchasi ta'riflangan javobni aniqlang?

- A) Voqe'likni, narsa va hodisalarni yaxlitligicha aks ettirish
- B) Atrof muhitni hissiy bilish
- C) Tajribada o'tgan narsalarni esga tushirish
- D) Ongni bir nuqtaga to'plash.

91 Diqqatga xos bo'lmagan xususiyat berilgan javobni aniqlang.

- A) Jadalligi
- B) Ko'chish
- C) Xajmi (ko'lami)
- D) Analiz

92 Sezgi jarayonini faol (aktiv) ligini tan oluvchi nazariya qanday nom bilan ataladi.

- A)Sub'ektiv nazariya.
- B)Reflektor nazariya.
- C)Evolyusion nazariya.
- D)Getroziya nazariya.

93 Diqqatning ko'lami bu :

- A)Bir yoki bir necha turdagi faolliyatni bir vaqtda muvaffaqiyatli bajara olish.
- B)Kishining biror narsaga uzoq vaqt moboynda o'z diqqatini jamlay olishi.
- C)Bir vaqtning o'zida aniq idrok etiladigan ob'etlari soni
- D)Diqqatning ixtiyorsiz ravishda bir ob'ektdan boshqasiga o'tishi

94 Tafakkurning shunday shakli, unda narsa va xodisalarga xos eng umumiy va xarakterli xususiyatlar aks etadi:

- A) xukm;
- B)tushuncha;
- C)fikr;
- D)xulosa.

95 Narsa va xodisalar urtasidagi boglikni aks ettiradigan tafakkur shakli:

- A) xukm;
- B)tushuncha;
- C)fikr;
- D)xulosa.

96 Fikr, xukm, tushunchalar urtasidagi boglanish asosida yangi bir fikrni keltirib chikarish:

- A) xukm;
- B)tushuncha;
- C)fikr;
- D)xulosa.

97 Tafakkur operatsiyalarini keltiring:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) barchasi to'g'ri;
- D) mavhumlashtirish. }

98 Tafakkur operatsiyasining shunday turiki, bunda fikran narsa va xodisalarga xos bo'lgan sifat va xususiyatlarni tahlil qilish amalga oshadi:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) taqqoslash;
- D) mavhumlashtirish. }

99 Tafakkur operatsiyasining shunday turiki, bunda analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish amalga oshadi:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) taqqoslash;
- D) mavhumlashtirish. }

100 Tafakkur operatsiyasining shunday turiki, bunda alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg'itish amalga oshadi:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) taqqoslash;
- D) mavhumlashtirish. }

101 Tafakkur operatsiyasining shunday turiki, bunda predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir-biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish amalga oshadi:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) taqqoslash;
- D) mavhumlashtirish. }

102 Tafakkur operatsiyasining shunday turiki, bunda umumiy va muhim sifatlarga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish amalga oshadi:

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) umumlashtirish;
- D) mavhumlashtirish.

103 Xayol-bu:

- A) Ob'ektiv dunyodagi voqelikning ongimizda umumlashgan holda aks etishi
- B) Sezgan, idrok qilgan obrazlar xususiyatini aks ettirish
- C) Tajribamizda uchramagan narsa va hodisalar obrazini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratish jarayoni
- D) Inson ijodiy faoliyatining zaruriy sharti, borlikni aks ettirish jarayoni

104 Ijodiy xayol usullari:

- A) Orzu-fantaziya, ideal
- B) Oldindan muayyan maqsadga qaratilgan va yangilik yaratadigan xayol
- C) Agglyutinasiya, ta'kidlash, kattalashtirish, kichiklashtirish
- D) Turkumlashtirish

105 Xayolning nerv-fiziologik mexanizmlarini ko'rsating

- A) Yarim sharlar po'stida muvaqqat bog'lanishlarning tiklanishi va ko'shilishi
- B) Muvaqqat bog'lanishlarning hosil bo'lishi
- C) Kuchli qo'zg'alish o'chog'ining vujudga kelishi
- D) Dinamik stereotip

106 Shaxs individual xususiyatlari tashkil etuvchilariga nimalar kiradi?

- A) yo'nalishlar, temperament, ?obiliyat, motivlar, mas'uliyat;
- B) yo'nalishlar, temperament, xarakter, ?obiliyat, motivlar, mas'uliyat, ish uslubi, i?tidor, a?liy salo?iyat;
- C) yo'nalishlar, temperament, ?obiliyat, motivlar, mas'uliyat; ish uslubi, i?tidor, a?liy salo?iyat;

D)yo'nalishlar, temperament, xarakter, motivlar, mas'uliyat; ish uslubi, iqtidor, aqliy salohiyat.}

107 Shaxs bilan jamiyat munosabatlarini ifodalovchi yo'nalishlar:

- A) nativizm, empirizm;
- B) negativizm, empirizm;
- C) empirizm, konformizm;
- D) negativizm, konformizm.}

108 Shaxs bilan jamiyat munosabatlarining ifodalanmasligi:

- A) nativizm, empirizm;
- B) negativizm, empirizm;
- C) empirizm, konformizm;
- D) negativizm, konformizm.}

109 Jamiyat o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakterlar talablari nimadir?

- A) ijtimoiy sanksiya;
- B) ijtimoiy rol;
- C) ijtimoiy norma;
- D) ijtimoiy ustanovka.}

110 Shaxsning konkret xayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakterlar majmui:

- A) ijtimoiy sanksiya;
- B) ijtimoiy rol;
- C) ijtimoiy norma;
- D) ijtimoiy ustanovka.}

111 Shaxsning aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish nimadir:

- A) refleksiya;
- B) persepsiya;
- C) apatiya;
- D) emotsiya.}

112 Shaxsning o‘zi, xul‘atvori xususiyatlari va jamiyatdagi mav‘eini tasavvur qilishidan fasil bo‘lgan obrazi:

- A) refleksiya;
- B)persepsiya;
- C)apatiya;
- D) “Men” obrazi.}

113 “Men” obrazi orqali shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baqolash tizimi necha xil bo‘lishi mumkin?

- A) 2 xil;
- B)3 xil;
- C)4 xil;
- D)yagona.}

114 Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari:

- A) o‘z-o‘zi bilan muloqot;
- B)o‘z-o‘zini ishontirish;
- C)o‘z-o‘ziga ta’sir;
- D)barchasi to‘g‘ri.

115 Shaxs tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot-faoliyat jarayonida uni o‘zlashtirish jarayoni:

- A) refleksiya;
- B)sotsializatsiya;
- C)apatiya;
- D)emotsiya.

116 Shaxs ijtimoiylashuvi institutlari:

- A) oila, bog‘cha, maktab, tashkilotlar, maxalla;
- B)oila, bog‘cha, maktab, mexnat jamoalari, maxalla;
- C)oila, bog‘cha, maktab, nodavlat tashkilotlar, maxalla;
- D)oliygox, bog‘cha, maktab, maxalla.

140. Individ so‘zining lo‘g‘aviy ma’nosi.....

A)Individ (lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi)

B)Individ (arabcha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «katta», «baland», «yuqori» ma’nolarini anglatadi)

C) Individ (franso'zcha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «go'zal», «chiroyli», «aqilli» ma'nolarini anglatadi)

D) Individ (ingilizcha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «kichkina», «yosh», «rivojlanmagan» ma'nolarini anglatadi) }

141. Individga berilgan tavsif.

A) Xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

B) Xatti-harakatlarini mediatexnologiya yordamidagina tashkil eta oluvchi ijtimoiy jarayondir.

C) Xatti-harakatlarini shartsiz refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi ijtimoiy mavjudotdir.

D) Xatti-harakatlarini tibbiy-psixologik yordamidagina tashkil eta oluvchi fiziologik jarayondir. }

146. Individuallikka xos tavsif.

A) Individuallik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda shaxsni puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

B) Individuallik shaxsning o'ziga xos tipologik xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. ~Shaxsni o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etayotgan psixologik jarayon.

C) Individuallik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda shaxsni puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. }

147. Rivojlanishning o'ziga xos xususiyati...

A) Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab pedagogik-psixologik jarayondir.

B) Rivojlanish shaxsning falsafiy va axloqiy o'sishida namoyon bo'ladigan o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab ta'limiy jarayondir.

C) Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishi

D) Miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab pedagogik-psixologik jarayondir. }

148. Shaxs rivojlanishida tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarga berilgan to'g'ri tavsif.

A) Biologik omil (Irsiyat, gendagi xususiyatlar) Ijtimoiy omil. (Muhit ta'siri. Hindistonlik doctor Senger tajribasi Kamola va Amola) Maqsadli tarbiya omil. (Oilada ota ona tarbiyasi)

B) Biologik omil (Irsiyat, gendagi xususiyatlar)

C) Ijtimoiy omil. (Muhit ta'siri. Hindistonlik doctor Senger tajribasi Kamola va Amola)

D) Maqsadli tarbiya omil. (Oilada ota ona tarbiyasi)}

149. Tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'ygan, ularni tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rmini belgilab bergan, deydigan olimlar...

A) Aristotel, Platonlar

B) Suqrot, Demosfen

C) Aristotel, Suqrot

D) Aristotel, Demosfen}

150. Faoliyatning turlari to'g'ri tartibda berilgan javoblar qatori...

A) o'yin, o'qish, mehnat faoliyati

B) mehnat, o'qish, o'yin.

C) O'qish, o'yin, mehnat

D) Faoliyat hech qanday turlarga bo'linmaydi}

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogika.Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi, O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2017 y.
3. Ostrenkova M. E. Psixologiya, Moskva. GEOTAR-Media. 2015 g.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika, Uchebnik. Piter. 2010 g.

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
6. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, Darslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent.2008 y.
7. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
8. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter. 2016 g.
9. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik, Toshkent. 2011 y.
10. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya, O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2018 y.
11. Iskandarova Sh.T., Shoyimova Sh.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya, Darslik. Toshkent. 2010 y.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. “Umumiy psixologiya”, Darslik.Toshkent. 2008 y.
13. Umarov B.M. Psixologiya, Nopedagogik oliy ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent. 2011 y.
14. R.N.Melibayeva. “Bilish jarayonlari” modulini o‘qitishda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish, O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2020 y.
15. R.N.Melibayeva. Talabalar tafakkurini amaliy o‘rganish va rivojlantirish usullari, O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2020 y.
16. Sh.Shodmonova.,M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika

17. nazariyasi va amaliyoti. T: Fan va texnologiyalar, 2019 yil
18. Pedagogika (A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida). – Toshkent, 1996.
19. O‘qituvchi, 1996.
20. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. –T.: O‘qituvchi, 1997.
21. G‘oziev E. Psixologiya (Yo‘lsh davrlari psixologiyasi). _T.: O‘qituvchi, 1994.

Internet saytlari

1. www.edu.uz – OO‘MTV rasmiy sayti
2. www.ziyonet.uz – ta’limiy portal
3. www.pedagog.uz – TDPU rasmiy sayti
4. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
5. www.istedod.uz – O‘zR Prezidenti huzuridagi “Iste’dod” jamg‘armasi portali.
6. www.thelearningweb.net – ta’lim tarmog‘i.
7. www.inetlibrary.com. – Internet kutubxona
8. www.glef.org. - Djordj Lukasning Ta’limning fondi.
9. www.newhorizontsofedu.org. - Ta’limning yangi ufqlari.

MUNDARIJA

MUQADDIMA.....	3
----------------	---

BIRINCHI BO'LIM

PSIXOLOGIYAGA KIRISH

I BOB. PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH. TIBBIYOTDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNINI VA AHAMIYATI.....	7
---	----------

1.1. Psixologiya fanining tibbiyotda tutgan o'rnini.....	8
--	---

1.2. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	9
--	---

1.3. Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari.....	13
---	----

1.4. Psixologiya fanining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari.....	15
--	----

1.5. Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari.....	20
---	----

1.6. Psixologiya fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	30
--	----

II BOB. ONG VA PSIXIKANING RIVOJLANISHI.....	37
---	-----------

2.1. Dunyo olimlari psixika va ong haqida.....	37
--	----

2.2. Psixika va ong paydo bo'lishining nerv- fiziologik asoslari.....	42
---	----

2.3. Psixika va ongni psixologik tavsifi.....	47
---	----

2.4. Psixika va ongni taraqqiyoti.....	52
--	----

2.5. Psixikaning ontogenezda va filogenezda rivojlanishi.....	57
---	----

III BOB. FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TALQINI.....	64
--	-----------

3.1. Faoliyat, uning tarkibiy qismlari va turlari.....	67
--	----

3.2. Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari.....	78
---	----

3.3. Shaxsni faoliyatda tadqiq qilish va o'rganish borasidagi tajribalar.....	83
---	----

IKKINCHI BO'LIM

IV BOB. PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI.

SHAXSNING ICHKI REGULYATSIYASI.....	87
--	-----------

4.1. Psixologiyada shaxs muammosi.....	87
--	----

4.2. "Endopsixika" va "ekzopsixika" haqida tushuncha.....	89
---	----

4.3. Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.....	92
--	----

4.4. Shaxs borasidagi psixologik konsepsiyalar.....	95
---	----

4.5. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rifi.....	99
---	----

4.6. Ijtimoiy normalar va shaxs.....	101
--------------------------------------	-----

4.7. Men obrazi va o'z-o'ziga baho.....	102
---	-----

UCHINCHI BO‘LIM

V BOB. SHAXSNING EMOTSIONAL-IRODAVIY

HOLATLARI	107
5.1. His-tuyg‘ular, ularning ifodalanishi va faoliyatga ta’siri.....	107
5.2. His-tuyg‘ularning asosiy sifatlari. Emotsional holatlar	112
5.3. Yuksak hislar. His-tuyg‘ular va inson salomatligi.....	122
5.4. Iroda haqida tushuncha. Shaxsning irodaviy sifatlari	126
5.5. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarida irodaviy sifatlarni tarbiyalash zarurati	146

TO‘RTINCHI BO‘LIM

VI BOB. SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK

XUSUSIYATLARI	149
6.1. Temperament	149
6.2. Xarakter	158
6.3. Qobiliyat	176

BESHINCHI BO‘LIM

VII BOB. BILISH JARAYONLARI

198	
7.1. Sezgi, uning turlari va psixologik tavsifi	198
7.2. Idrok va diqqat haqida tushuncha.....	205
7.3. Xotiraning psixik jarayon sifatida o‘rganilishi	232
7.4. Tafakkur va nutq.....	240
7.5. Xayol psixik jarayon sifatida.....	285

OLTINCHI BO‘LIM

VIII BOB. MULOQOT VA SHAXSLARARO

MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

295	
8.1. Muloqot psixologik kategoriya sifatida.....	295
8.2. Muloqat turlari, psixologik tomonlari va usullari	299
8.3. Muloqat pozitsiyalari va manipulyasiya	307
8.4. Nizolar psixologiyasi va uning kelib chiqishi	308

IX BOB. GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

318	
9.1. Jamoa va guruhlar psixologiyasi. Katta va kichik guruhlar klassifikatsiyasi.....	318
9.2. Guruhda boshqaruv muammosi. Konformizm va uning oqibatlari	324

9.3. Liderlik va superliderlik	329
GLOSSARIY	337
TEST	348
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	375

**R.N.MELIBAEVA, U.A.TASHKENBAEVA,
Y.K.NARMETOVA, E.SH.SUYUNOVA**

UMUMIY PSIXOLOGIYA

**Nopedagogik tibbiy oliy ta'lim muassasalarini bitirgan
mutaxassislar uchun**

Bosh muharrir O. Kozlova
Badiiy muharrir J. Xamdamov
Kompyuterda sahifalovchi S. Sultanova


NASH.lits. AA № 8798
«TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MChJ
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifokorlar, 21



TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI

Shartli bosma tabog'i – 28,1. Adadi – 20.
Qog'oz bichimi 60x84. 1/16. Buyurtma № 2097-2023.
«TIBBIYOTNASHRIYOTIMATBAAUYI» MChJ da chop etildi
100109. Shifokorlar ko'ch. 21, tel: (998 71)214-90-64,
e-mail: rio-tma@mail.ru № GUVOHNOMA: 7716

ISBN 978-9943-9085-5-0



9 789943 908550 >